

ISSN : 3030-3974

MAKON VA ZAMON

Пространство и время
Space and time

1

2026

MAKON VA ZAMON

ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy,
siyosiy-sotsiologik, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 01-08/3646-son qaroriga muvofiq siyosiy, tarix, falsafa, pedagogika va sotsiologiya fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Makon va zamon” jurnali, 2026-yil 1-son // “Yangi O'zbekiston islohotlari va tarix falsafasining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: “TIQXMMI” MTU, 2026. – 176 bet.

M u a s s i l a r: “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti
va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati

Tahririyat: *t.f.d., professor, akademik O.Salimov, f.f.d., professor*
M.Abdullayeva, s.f.d., professor A.Muminov, f.f.d., professor O'.Abilov, p.f.d., professor
R.Choriyev, p.f.d., professor Z.Ismoilova, f.f.d., professor J.Ramatov,
i.f.d., dotsent X.Pirmatov, f.f.d., dotsent G.Urazalieva, s.f.d., dotsent – A.Ravshanov

ISSN 3030-3974

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:
Qiyom Nazarov – *f.f.d., professor*

Nashrga tayyorlovchilar:
M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili: Qori Niyoziy ko'chasi, 39,
Toshkent shahri, 100000,
Bichimi 60x84 Ofset qog'oz. “Times” garnituras.
Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog'i 30 b.t. Adadi 100 nusxa

MUNDARIJA:

Бош муҳаррир минбари	Ўзбек фалсафасини ривожлантириш омиллари ва имкониятлари.....	5
Г. Шоумаров	Ўзбекистон таълим тизимида гендер тенгликнинг ижтимоий-психологик ҳолати.....	9
Б.Ҳасанов	Тарих фалсафаси нуқтаи назаридан Янги Ўзбекистон ислохотларининг долзарб масалалари.....	14
М.Бекмуродов	Ёшлар тарбияси шукроналик ва ишончдан куч олади.....	19
А.Мўминов	Ўзбекистон Президенти – глобал тараққиётнинг янги моделини яратётган бош меъмор.....	25
М.Қуроноф	Президент Мурожати – проактив маънавият методологияси.....	30
Б.Якубов	Технологик ва инновацион тараққиёт моделига ўтиш – жамиятни ривожлантириш омили.....	34
З.Исмаилова Р.Чорийев	Талабалар мафкуравий иммунитетини ривожлантиришда кадрятлар уйғунлигини таъминлаш технологиялари.....	38
Б.Тураев	Имкониятдаги дунёлар фалсафаси.....	42
А.Равшанов	Янги Ўзбекистон ислохотлари шароитида тарихий онг ва ахлоқий тарбия масалалари	46
Н.Сидиқов	Пахта тўқимачилик кластерларининг ривож - кафолатланган валюта тушумининг гарови.....	50
А.Abdullayeva	Falsafa va tarixni uyg'unlashtirish orqali milliy ongning shakllantirish.....	53
М.Boysariyev	Yangi O'zbekiston islohotlari va tarix falsafasining dolzarb masalalari: tashqi siyosat misolida.....	56
Г.Нишонбоева	Янгиланаётган Ўзбекистон маданий тараққиёт тизимининг тарбиявий самарадорлиги.....	60
М.Abdusodiqov	Yangi O'zbekistonda sanoat sohalarining rivojlanish tendensiyalari....	63
Ҳ.Собиров	Барқарор ривожланишда таълим тизимининг ролини кучайтириш: Ўзбекистон тажрибаси.....	66
Д.Ахмедова	Реформы в сфере образования в новом Узбекистане.....	69
В.Rahmonov	Yangi O'zbekiston islohotlari sharoitida yosh avlod huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda konstitutsiyaning ahamiyati.....	72
Н.Алимухамедова	Глобал чақириқлар даврида миллий маънавий ривожланишнинг ўзига хос хусусиятлари.....	76
U.Davitov	Jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligini ta'minlashda milliy o'zlikning integrativ funksiyasi.....	79
Sh.Uljaeva A.Safarov	Temuriylar davridagi ilmiy uyg'unlash jarayonida Ali Qushchiyning o'rni: Mirzo Ulug'bek akademiyasi faoliyati misolida.....	82

J.Axmedov	Nomoddiy madaniy meros an'analari.....	86
B.Mamadaminova	Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni	89
R.Umarova	Beruniyning naturfalsafasini zamonaviy metodologiya asosida o'rganishning ilmiy asoslanishi.....	91
Х.Ботирова	Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалигидаги ислохотларнинг ҳуқуқий асослари.....	95
O'.Akilova	Shaxs ma'naviy kamolotining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	98
Q.Kdirbayev	Global o'zgarishlar sharoitida aksiosfera transformatsiyasi.....	100
A.Xabibullayev	Rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'limni amalga oshirishdagi universitetlararo hamkorlik tajribasi.....	103
A.Абдуғаниев	Туроннинг тош чоғи босқичларида чорвачилик хўжалиги.....	106
D.Ro'zmetova	Talaba-yoshlarning fuqarolik mas'uliyati: an'ana, raqamli muhit va ma'naviy subyektlik uyg'unligi.....	109
Sh.Yakubova	Grafikli organayzerlardan foydalanishning afzalliklari (Tarix fanlari misolida).....	112
Z.Botirov	Raqamli kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlarning o'zgarishi.....	115
G.Ravshanova	Fuqarolik tarbiyasining fuqarolik jamiyati taraqqiyotida tutgan o'rni.....	118
Sh.Davlatova	"Qobusnoma" – davlat boshqaruvi to'g'risidagi manba.....	120
G.Niyetova	Jadid ta'lim falsafasi – oila institutini mustahkamlash mexanizmi.....	124
J.Norboyev	Sharq va G'arb metafizikasida ilohiy birlik modeli: Ibn al-Arabi va Kuzanskiy panteistik qarashlarining qiyosiy tahlili.....	127
N.Raxmanberdiyeva	Yangi O'zbekistonda tarix fanini o'qitishdagi muammolar.....	130
M.Mamasaidova	Boshlang'ich ta'limda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	132
M.Xakimova	Tabiiy energiya manbalariga munosabatning falsafiy yondashuvi.....	136
B.Qurbonov	O'zbekistonda masjidlarining diniy-ma'rifiy institutsional tizim sifatida shakllanishi	139
G.Sodiqova	Ish beruvchilarni kasbiy ta'lim tizimiga jalb qilishning samarali usullari	141
D.Abdulfaizova	Iqtisodiy zo'ravonlikning shaxs va oila farovonligiga ko'rsatgan ta'siri: tizimli tahliliy yondashuv.....	145

M.Rahmatullayev	Kiber makonda ijtimoiy nazorat va shaxs erkinligi o'rtasidagi muvozanat: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....	148
M.Yuldasheva	Pedagogik amaliyotda korreksion texnologiyalarni qo'llash metodikasi: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	151
Т.Иванов	Роль еврейского купечества в экономике туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX вв.....	154
Sh.Nabiyev	Raqamli ijtimoiylashuv jarayonida yoshlar o'rtasidagi agressiv kommunikatsiya.....	157
D.Abduvaxobova	Zamonaviy O'zbekiston tarixshunosligida tarixiy merosning qayta baholanishi (Boburiylar sivilizatsiyaviy merosi misolida).....	161
Sh.Sayfuddinova	Jamiyat xotirasida Chernobil fojeasi: tarixiy adolat va e'tirof masalalari.....	164
Б.Давронова	Захириддин Мухаммад Бобур — буюк давлат арбоби, қўмондон ва мутафаккир	167
O'.Ahmedova	Yangi O'zbekiston islohotlari va tarix falsafasining dolzarb masalalari: millatlararo munosabatlar misolida.....	170
N.Qahhorova	O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy ongni rivojlantirishga doir institutsional islohotlar dialektikasi	173

Бош муҳаррир минбари

ЎЗБЕК ФАЛСАФАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ВА ИМКОНияТЛАРИ

«Ўзбек фалсафаси» тушунчаси халқимизнинг фалсафий тафаккури, онги ва дунёқарашининг ривожланиш босқичлари, тушунча ва категориялари, маънавий тамойиллари ва ўзига хос хусусиятларини ифодалайди, қадимги замонлардан шаклланиб, бугунги кунгача етиб келган илмий-фалсафий мерос, у билан боғлиқ жараёнлар, шу соҳадаги ғоялар, назария ва таълимотлар мажмуини англатади. Бундан ташқари, у мустақилликка эришган халқимизнинг бугунги тараққиёт йўли ва ривожланиш тамойиллари, демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнининг фалсафий, маънавий омиллари, амалга оширилаётган бунёдкорлик ишлари таъсирида аҳолининг онги ва тафаккурида рўй бераётган ўзгаришларни ҳам ўзида акс эттиради.

Мазкур тушунчада халқимизнинг маънавий қиёфаси, тафаккури ва турмуш тарзи, менталитети, урф-одатлари, анъаналари, бағрикенглик тамойиллари, барқарорлик ва бунёдкорликка интилиш каби хусусиятларининг фалсафий моҳияти ва қадр-қиммати ҳам яққол намоён бўлади. Уларнинг моҳияти ва аҳамиятини англаш ҳар бир юртдошимиз қалби ва онгида миллий қадриятларни асраб-авайлаш туйғусини мустаҳкамлайди, аجدодлардан мерос қолган эзгу ғояларга муносиб бўлишга ундайди.

Бу жараёнда икки хил ҳолат кузатилади. Бир томондан, ўзбек фалсафасининг тушунча ва тамойиллари халқимиз томонидан онгли тарзда шакллантирилади, яъни одамлар ўзларида мавжуд бўлган маънавий меъёрлар ва мезонлар ҳақидаги тушунчалар асосида уларга мос келадиган фалсафий ғоя ва идеалларни яратади. Бундай саъй-ҳаракатлар жамият аъзоларининг ижтимоий ва маънавий фаоллигини оширади, излаш, изланиш ва яратувчанликка чорлайди. Иккинчи томондан эса, одамлар томонидан ўзлаштирилган билим, турли бунёдкорлик фаолияти, анъаналар, урф-одатлар ёки бошқа маданий-маърифий тадбирлар жараёнида олган кўникма ва таассуротлар ҳам фалсафий билимларнинг такомиллашувига хизмат қилади.

Жаҳон фалсафасининг ҳар қандай минтақавий ёки миллий шакли каби, ўзбек фалсафасининг амалиёти ва тақомили билан узвий боғлиқ бу тадрижий жараён жамиятимиз ҳаёти ва ижтимоий онг шаклларида мувофиқ турли хусусиятлар касб этади. Ҳар бир инсоннинг ақли, камолоти, умр мазмуни, дунёни англашдан мақсади, билимларининг ҳақиқатга мос келиш даражасини аниқлаш мезони ёки бирор идеал тарзида намоён бўлади.

Ҳозирги даврда ўзбек фалсафасини янги босқичга кўтариш, миллий фалсафани ривожлантиришга ёрдам берадиган омилларни аниқлаш ва уларга боғлиқ имкониятларни излаб топиш масаласини бир неча асосий йўналишларда намоён бўладиган тизимли мавзу сифатида тушуниш лозим. Бунда аввало, масалага комплекс ёндашув зарур. Чунки фалсафа фақат назарий билим соҳаси эмас, балки жамиятнинг маънавий-маърифий, сиёсий-ҳуқуқий, илмий-инновацион тараққиётида муҳим ўринни эгаллайди.

Бугунги ўзбек жамиятида фалсафа фани ўзининг тарихий илдизлари, бой илмий анъаналари ва маънавий меросидан келиб чиқиб, ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан муайян имкониятларга эга. Бироқ глобаллашув, рақамли цивилизация ва бозор иқтисодиёти шароитида фалсафанинг жамиятдаги мавқеини мустаҳкамлаш учун аниқ ва тизимли чоралар талаб этилади.

Айни пайтда, **Ўзбек фалсафасини ривожлантиришнинг глобал омиллари** ҳам бугунги амалиёт учун ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга. Дунёнинг шиддат билан глобаллашиб бораётгани, рақамлаштириш ва сунъий интеллектни жорий этиш жараёнлари ниҳоятда тифизлашгани миллий фалсафамизда акс этиши зарурлиги шубҳасиз. Айни пайтда мамлакатимизда глобал миқёсда фикрлайдиган, Шарқ ва Ғарб фалсафасини яхши биладиган, уларнинг тажрибасидан унумли фойдалана оладиган ва амалиётда буни самарали қўлайдиган файласуфлар авлодининг шаклланиши масаласи ҳам ўз долзарблигини сақлаб қолмоқда.

Бу жиҳатдан алоҳида таъкидлаш жоизки, балки бизда бугунги кунда халқи мустақилликка эришганида ўз фалсафасини миллат мафқурасига айлантира олган Конфуций ва Лао Цзи, Беруний ва Ибн Сино, Улуғбек ва Навоий, Кант ва Ҳегел, Махатма Ганди ва Саййид Аҳмадхон каби улкан тизим яратган мутафаккирлар даражасидаги шахслар ҳозирча пайдо бўлмаган бўлиши мумкин. Лекин бу “ўзбек фалсафаси йўқ” дегани эмас. Ўзбек фалсафаси эндигина алоҳида “мактаб”

шаклида ва миллий ижтимоий тафаккур, маънавият, маданий анъаналар ва модерн фанлараро тадқиқотларда ўз ифодасини топомқда.

Бу жараёнда қуйидагиларни реал илмий ҳисса сифатида тилга олиш мумкин:

Кам миқёсда бўлсада, “Ўзбек фалсафаси” фани махсус ўқув фани сифатида айрим олий таълим муассасаларида ўқитила бошланди. “Ўзбек фалсафаси” мавзусида монография ва қўлланмалар яратила бошлагани, оз миқдорда бўлса ҳам диссертацияларнинг ҳимоя қилинаётгани бунинг яққол мисолидир.

Ўзбек фалсафаси жаҳон фалсафаси ва хориж фалсафий мероси билан қай тарзда мулоқот қилиши ва ўзаро алоқасига доир тадқиқотлар олиб борилмоқда. Хориж фалсафаси ва файласуфлари ижодига доир илмий ишлар амалга оширилмоқда, китоблар ва мақолалар чоп этилмоқда.

Глобаллашув шароитида миллий маънавий қадриятлар қайта талқин қилинмоқда, ахборот асрида инсоннинг маънавий-ахлоқий қиёфаси шаклланиши ва ижтимоий адолат, маърифат ва тараққиёт ғояларининг замонавий назарий асослари тадқиқ этилмоқда ва муайян натижаларга эришилмоқда.

Минтақа ва Ватанимиз фалсафаси тарихи чуқур ўрганилмоқда, Юртимиз фалсафасининг исломгача даври, Биринчи ва Иккинчи Ренессанс замонларидан, ундан кейинги хонлик ва амирлик давлари, Чор истилоси ва совет замони фалсафий тафаккурига доир мавзулар ҳам тадқиқотчилар назаридан четда қолаётгани йўқ. “Авесто” ва зардуштийлик фалсафаси, ислом фалсафаси ва диний тафаккур алломалари меросининг қайта очилиши ва унинг замонавий ўзбек фалсафасида тутган ўрни, жадид боболаримизнинг таълим, маърифат ва миллий тафаккурни ислоҳ қилишга доир ғоялари чуқур ўрганилмоқда.

Мустақилликдан кейинги даврда миллий давлатчилик, маънавият, демократик қадриятлар ва глобал цивилизацион жараёнлар ҳақида ҳам кенг қамровли фалсафий изланишлар амалга оширилмоқда. Бугунги кунда муайян натижалар бераётган “рақамли цивилизация”, “ахборот хавфсизлиги”, “ижтимоий оптимизм”, “фалсафий антропология” каби йўналишларда ўтказилаётган тадқиқотлар ҳам бор.

Ўзбек фалсафасининг миллий омиллари ҳам унинг ривожига катта аҳамиятга эга. Бу нуқтаи назардан, Фалсафа фанини ривожлантиришнинг ҳар қандай давлат учун стратегик аҳамиятга эгаллиги алоҳида эътиборни талаб қиладиган масалалардан биридир. Дунёнинг узокдаги мамлакатлари эмас, балки ёнимиздаги давлатларда ҳам Фалсафа институтларининг макжудлиги заруратнинг англаб олинганидан далолат беради. Бу борадаги ижтимоий-тарихий зарурат шундан иборатки, давлат ва унинг ташкилотлари, ҳудудлари ва фуқаролари доимий фалсафий-маънавий ихоталаниши лозимлиги асрлар давомида исботланган ҳақиқатлардан биридир. Ушбу соҳадаги ниҳоятда муҳим ва серқирра фаолиятни талаб қиладиган тизимли ишлар фақатгина давлат томонидан ташкил қилинадиган ва унинг талаблари асосида ишлайдиган институционал тузилма томонидан самарали амалга оширилиши мумкин.

Айни шундай тузилмаларгина шахсий интилишлар ёки гуруҳий майллар эмас, балки давлат ва халқ талаблари, миллий манфаатларга мос иш олиб бориши мумкин. Акс ҳолда тадқиқотлар соҳаси ҳаддан ортиқ индивидуаллашади ва шахсийлашади, маҳдудлик ва тарафкашликлар кўпаяди, умумий манфаатлар эмас, балки кимларгадир хизмат қиладиган ишланмаларга рўжۇ кўйиш ҳоллари кучайиб боради.

Маълумки, Фалсафа фани жамият тафаккурини шакллантирувчи ва уни концептуал даражада йўналтирувчи куч сифатида қадимдан давлат ва цивилизация тараққиётида муҳим ўрин эгаллаган. Шу маънода, Янги Ўзбекистонда фалсафа фанини ривожлантириш ва уни давлат томонидан рағбатлантирилиш бир неча йўналишда ижобий натижалар бериши мумкин:

Биринчидан, фалсафа давлат сиёсатини назарий асослаш ва уни концептуал даражада мустаҳкамлашга хизмат қилади. Мамлакат тараққиётининг стратегик ҳужжатлари – “Янги Ўзбекистон” тараққиёт стратегияси, “Ўзбекистон–2030” концепсияси ва бошқа давлат дастурларининг мафкуравий ҳамда методологик пойдевори фалсафий тафаккурга таяниши зарур. Фалсафа сиёсий қарорларнинг тарихийлик, ижтимоий адолат ва маънавийлик мезонларига мос келишини таъминлайди, қисқа муддатли прагматик манфаатлардан ташқарига чиқиб, узок муддатли тараққиёт истиқболларини кўрсатади.

Иккинчидан, фалсафа миллий ғоя ва мафкурани шакллантиришнинг асосий манбаларидан бири ҳисобланади. Ўзбек халқининг тарихий тажрибаси, исломий маънавий мероси ва дунёвий қадриятлари фалсафий таҳлил орқали замонавий глобал жараёнларга уйғунлаштирилади. Бу

жараён натижасида миллий ўзликни англаш, ёшларнинг мафкуравий иммунитет ва жамиятнинг идеологик барқарорлиги таъминланади.

Учинчидан, фалсафа фан-техника тараққиёти ва рақамли жамият қурилишида ахлоқий ва ижтимоий мезонларни ишлаб чиқади. Сунъий интеллект, биотехнология ва бошқа илг'ор ютуқларнинг инсон ҳаётига таъсирини баҳолашда фалсафанинг эпистемологик ва аксиологик ёндашувлари давлат сиёсати учун зарур бўлган назарий асосни яратади. Шу орқали инновацион ривожланиш фақат технологик эмас, балки маънавий жиҳатдан ҳам барқарор йўналишга эга бўлади.

Тўртинчидан, фалсафа ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнида назарий-методологик асос бўлиб хизмат қилади. Адолат, эркинлик, масъулият ва инсон ҳуқуқлари каби концептуал тушунчалар фалсафий таҳлил орқали чуқур ёритилиб, давлат ҳуқуқий сиёсатини бойитади. Бу эса коррупцияга қарши кураш, ижтимоий барқарорликни таъминлаш ва ҳуқуқий онгни юксалтиришда стратегик восита сифатида аҳамият касб этади.

Бешинчидан, фалсафа таълим ва маданиятни ривожлантиришда алоҳида ўрин тутди. Мустақил фикрлаш, танқидий ёндашув ва ижодий тафаккурни шакллантириш орқали у таълим тизимининг сифатини оширади ва интеллектуал салоҳиятни кучайтиради. Бу эса давлат учун замонавий компетенцияларга эга, глобал рақобатбардош кадрларни тайёрлаш имконини беради.

Ҳозирги даврда **замонавий Ўзбек фалсафаси ривожини таъминлаш имкониятлари** қуйидагилар билан узвий боғлиқ:

1. Фалсафани миллий ривожланиш стратегияларига интеграциялаш тенденциясини кучайтириш зарурати пайдо бўлмоқда. Мамлакатимизнинг янги тараққиёт босқичига кўтарилиши ва кейинги йилларда амалга оширилган ислохотлар туфайли “Янги Ўзбекистон – 2030” стратегияси, “Рақамли Ўзбекистон – 2030” дастури ва бошқа соҳадаги ислохотларда фалсафанинг методологик асослари етарли даражада ифодаланиши зарурлиги аниқ-тиниқ намоён бўлмоқда.

Бу жиҳатдан фақатгина фалсафа назариясини эгаллаш, фалсафий тушунча ва категориялар мазмунини билишнинг ўзига ҳаёт талабларини бажариш учун етарли эмаслиги шубҳасиз. Фалсафа қонунлари ва категорияларини яхши билиш ҳали масаланинг моҳиятини тўғри тушуниш, ўқиш эса уни тўла англаб олиш бўлмагани каби, фалсафа асосларини назарий ўрганиш ҳам бу фанни бевосита ҳаётда қўллашда мақсадга етиш ва муваффақиятга эришишни англамайди.

2. Замонавий ўзбек фалсафасида диалектик ёндашув ва замонавий услублардан ташқари, миллийлик тамойиллари устувор бўлиши зарур. Яъни Ўзбек фалсафаси миллий тараққиёт моделига уйғунлашмаса ва халқимиз ҳаётининг маъноси, мазмуни ва мақсадини ифодаламаса, ўзининг барча таркибий қисмлари ва йўналишлари билан бирга, мавҳум ва ҳаётдан йироқ тушунча ҳамда категориялар мажмуи бўлиб қолаверади.

Ҳаётий жараёнлар билан уйғун ва ҳамоҳанг бўлмаган, фақат дарсхоналар доирасида қолиб кетадиган фалсафани ва жамиятдан узилиб, шахсий дунёқараши доирасидан чиқаолмайдиган мутахассисни ўз вазифаси ва ижтимоий масъулиятини тўғри англаяпти, дейиш қийин.

3. Бугунги ўзбек фалсафасида бугунги ҳаёт, глобаллашув тизимлашган ва дунё киёфасида ўзгаришлар тезлашган ҳозирги шароитда мамлакатимиз учун муҳим жараёнлар, халқимиз тақдирига дахлдор муҳим воқеалар, долзарб вазифалар ва уларнинг фалсафий ечимлари ўз аксини топсагина ушбу фаннинг ижтимоий функцияси бажарилади, у жамият тараққиётининг зарур қадириклари ва ундовларига жавоб бера олади.

Бу, бир томондан, давлат бошқаруви ва жамият тараққиётига илмий-фалсафий ёндашувни кучайтирса, иккинчи томондан, миллий кадриятлар билан уйғунлашган замонавий дунёқарашни, мустақилликни мустаҳкамлашга хос фикрлаш ва яшаш тарзини шакллантиришга измат қилади.

4. Фалсафа таълимини модернизация қилиш, яъни университетлар ва илмий марказларда фалсафа таълими фақат тарихий мактаблар билан чекланмасдан, балки ахборот фалсафаси, технология этикаси, экологик фалсафа, биополитика, жамият соционикаси, сунъий интеллект фалсафаси каби янги соҳаларни қамраб олиши керак.

Университетларда фалсафа фанини ўқитиш методикаси замонавий талабларга мос янгиланиши шарт. 6. Фалсафий тадқиқотларни халқаро миқёсда интеграциялаш, яъни ўзбек олимлари учун Оксфорд, Гарвард, Сорбонна, Токио университети каби нуфузли илмий марказлар билан ҳамкорлик дастурлари йўлга қўйилиши муҳим. Қўшма лойиҳалар, илмий конференциялар ва академик алмашинувлар орқали фалсафа соҳаси халқаро тажриба билан бойитилади ва Ўзбекистон илмий мактаблари глобал фалсафий дискурда ўз ўрнини топади.

Бу жараёнда халқаро ҳамкорлик ҳам муҳим. Масалан, Оксфорд, Ҳарвард, Сорбонна тажрибаларини миллий шароитга мослаштириш катта илмий-назарий ва амалий натижалар бериши мумкин.

7. Фалсафа ва ижтимоий ҳаёт ўртасидаги алоқани кучайтириш ва шу асосда миллий фалсафанинг амалиётдаги ўрнини мустаҳкамлаш зарур. Яъни, Ўзбек фалсафасининг ривожланиши уни ижтимоий амалиётдан ажратмаган ҳолда самарали бўлади. Фалсафа фақат назарий мутолаа эмас, балки ижтимоий онгни шакллантириш, ҳуқуқий маданиятни юксалтириш, диний бағрикенгликни тарғиб қилиш ва ёшларнинг маънавий иммунитетини мустаҳкамлаш воситасидир.

Шу боис фалсафа оммавий ахборот воситаларида, таълим тизимида, маданий-маънавий марказларда фаол тарғиб қилиниши лозим. Давлат бошқаруви, фуқаролик жамияти, таълим ва тарбия, маданият сиёсатида фалсафий тафаккурга асосланган қарашлар мустаҳкамланиши лозим. Хусусан, миллий кадриятлар ва замонавий модернизатсия ўртасидаги уйғунликни фалсафий даражада изоҳлаш сиёсий-ижтимоий барқарорлик учун муҳим аҳамиятга эга.

8. Илмий-фалсафий мактабларни мустаҳкамлаш ва янги авлод фалсафа тадқиқотчиларини шакллантириш. Фалсафа фанлари доктори ва профессорлари раҳбарлигида илмий мактаблар ташкил этиш, ёш тадқиқотчиларни фундаментал ва амалий фалсафий изланишларга жалб қилиш, замонавий илмий методология асосида докторантура ва магистратура дастурларини ривожлантириш зарур.

Ўзбек фалсафасининг тарихий илдизлари жуда бой. Форобий, Беруний, Ибн Сино, Навоий каби мутафаккирларнинг асарлари бугунги давр фалсафий муаммолари билан қайта уйғунлаштирилиши лозим. Шу билан бирга, миллий фалсафий анъаналарни жаҳон фалсафий тажрибаси билан солиштириш орқали замонавий илмий мактабларни шакллантириш, уларни университет ва илмий марказларда доимий фаолият юритадиган тадқиқот институтларига айлантириш самарали йўл бўлади.

9. Бугунги ўзбек фалсафаси такомилида илмий тил ва методологияни ривожлантириш ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга. Афсуски кўплаб бу соҳадаги асарлар, диссертация ва монографияларда “категориал апарат” деб аталадиган жиҳат етарлича ишланмаганлиги яққол кўриниб туради.

Шунинг учун ҳам, фалсафий тадқиқотларда илмий аппарат ва методология бойитилиши зарур. Замонавий илмий парадигмалардан – ҳерменевтика, феноменология, аналитик фалсафа, постколониал назария каби ёндашувлардан фойдаланиш Ўзбек фалсафасининг жаҳон миқёсида тан олинисини тезлаштиради.

Шу билан бирга, ўзбек тилида фалсафий терминология тизимли ишлаб чиқилган “Фалсафа қомусий луғати” ва “Жаҳон фалсафаси қомуси” каби асарлардан унумли фойдаланиш лозим.

10. Халқимизнинг ёш авлоди фалсафий тафаккурини янги босқичга кўтариш, миллий кадриятларга садоқатли файласуфларнинг янги авлодини тарбиялаш замонавий Ўзбек фалсафасининг бош вазифаларидан бири эканини асло унутмаслигимиз лозим.

Ушбу таъкидланганлардан асосий хулоса шуки, бугунги Ўзбекистонда фалсафа фанини ривожлантириш, аввало, уни жамиятнинг долзарб муаммолари билан боғлаш, таълим ва тадқиқотларда замонавий йўналишларни интегратсиялаш ва ёш авлод фалсафий тафаккурини юксалтириш орқали амалга ошади.

Шундагина фалсафа фани жамиятни танқидий фикрлаш, инсонпарварлик, бағрикенглик ва илмий асосланган қарорлар қабул қилишга йўналтирувчи куч сифатида қайта тикланади. У нафақат илмий соҳада, балки миллий тараққиёт стратегиясини амалга ошириш йўлидаги ислохотларда ҳам ҳал қилувчи маънавий омиллардан бирига айланади.

Буларнинг барчасидан хулоса шуки, Ўзбекистонда фалсафани ривожлантириш давлат учун фақатгина академик фан доирасидаги муваффақият эмас, балки стратегик ресурсдир. У сиёсий қарорлар қабул қилишда концептуал асос яратади, миллий гўяни мустаҳкамлайди, инновацион ривожланишнинг маънавий йўналишини белгилайди, ҳуқуқий ва фуқаролик жамиятини шакллантиришга хизмат қилади ҳамда таълим тизимида интеллектуал салоҳиятни кучайтиради. Шу боис, фалсафа Янги Ўзбекистон тараққиётининг назарий ва маънавий таянчларидан бири сифатида ҳар томонлама қўллаб-қувватланишга муҳтож фанлардан биридир.

ЎЗБЕКИСТОН ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ҲОЛАТИ

Г.Б.Шоумаров,
“Profi University” ректори,
Психология фанлари доктори, академик

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон таълим тизимида гендер тенгликнинг ижтимоий-психологик ҳолати таҳлил қилинади. Шунингдек, гендер маданиятини ривожлантиришнинг педагогик ва психологик механизмлари ҳамда мавжуд муаммоларни бартараф этиш йўллари илмий асосда ёритилади.

Калит сўзлар: гендер тенглик, таълим тизими, ижтимоий-психологик ҳолат, гендер маданияти, педагогик муҳит.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-психологическое состояние гендерного равенства в системе образования Узбекистана. Также на научной основе освещаются педагогические и психологические механизмы развития гендерной культуры, а также пути преодоления существующих проблем.

Ключевые слова: гендерное равенство, система образования, социально-психологическое состояние, гендерная культура, педагогическая среда.

Abstract.. This article analyzes the socio-psychological state of gender equality in the education system of Uzbekistan. It also scientifically examines the pedagogical and psychological mechanisms for developing gender culture, as well as ways to overcome existing problems.

Keywords: gender equality, education system, socio-psychological state, gender culture, pedagogical environment.

Гендер “gender” инглиз тилидан олинган бўлиб – насл, уруғ, насаб, шажара, аймоқ, зот маъноларини англатади. Рус тилида “гендер” жинс деб тушунилади. Инглиз тилида “gender” тушунчасини 2 хил кўриниши бор. Бирида гендер – “Sex” – жинс сифатида идрок этилса, иккинчи ифодаси gender – “социопол” – ижтимоий жинсдир. “Sex” – жинс туғма биологик бўлса, “Gender” – биологик омил асосида ижтимоий шаклланган шахс (эркак шахси ёки аёл шахси) тушунилади. Шу сабабли ҳам жинси биологик белгиланган, шахсий сифатлари шу асосда шаклланган эркак ёки аёл шахси тушунилади.

Тарихан жинсга бўлган муносабат турли халқларда турлича бўлган. Масалан, Японияда XX аср бошларигача ўғил болаларни маълум қисмини чақалоқлик даврида ўлдириш одати бўлган. Сабаби – қиз болани вояга етганида сотиб бўлади, ўғил болаларни сотиб бўлмас эди, харидори топилмас эди.

Канада эскимосларида эса янги туғилган чақалоқ қизларни тоғга ташлаб келиш одати бўлган. Уларни тушунчасига кўра оилада имкон борида эркак жинсидагилар сони кўпроқ бўлиши кераклигидир. Шунда оила кучли, бақувват, ўзга оилалар олдида устунликка эришади ва бошқаларга қарам бўлмайди.

Эркак ва аёл ҳақидаги стереотиплар, установкалар бугунги кунда ҳам кенг тарқалган.

Эркак шахсида кучлироқ ифодаланган индивидуал-психологик хусусиятлар:

Ташаббускорлик, фаоллик, мустақиллик, агрессивлик, устунликка интилиш, авантюризм, авторитарлик, етакчилик-лидерликка интилиш, фаолият, ҳаракат ва фикрлашда рационаллик, ўз “Мен” (“Я”) сини тасдиқлашга интилишни кучлилиги, эгоцентризм, эгоизм, қатъийлик, бир сўзлик, мардлик, жасурлик кабилар кўпроқ ҳамда кескинроқ

Аёл шахсида кучлироқ ифодаланган индивидуал-психологик хусусиятлар:

Юмшоқлик, конформизм, ўз кўриниши, кийими, ўз шахсига кўпроқ эътибор бериши, эмоционаллик, ҳиссий таъсирчанлик, кўп ҳолларда ҳиссиётни ақл-идрок ва тафаккурдан устунлиги, дидни кучлилиги, меҳрибонлик, меҳр ва ҳиссиётни кучлилиги, йиғлашга мойиллик, воқеа, ҳодиса ва шахсларни фаолиятини кўпроқ ҳиссиёт, эмоция асосида талқин этиши, баҳолаши эркакларга нисбатан кучлироқ ифодаланган,

ифодаланган тасаввур кенг тарқалган. Воқеа ва ҳодисаларга аналогик фикрлаш, акл-идрок асосида объектив баҳо беради.

альтруизм, вербал интеллектни юқорилиги, мулоқотчанлик, болажонлик, ўзгаларни танқид қилишга мойиллик, стрессга бардошлилик, бир вақтни ўзида икки ва ундан ортиқ фаолиятни олиб бориш қобилиятига эғалиги, севги-муҳаббат ҳисларини эркакларга нисбатан узоқроқ давом этиши, ўз ота-оналари ҳамда фарзандларига бўлган меҳрни кучлилиги (эркакларга нисбатан устунлиги).

Долзарблиги. Гендер тенглик муаммосининг тарихига назар ташлайдиган бўлсак, одамзод юзага келгандан бошлаб турли фармацияларда турлича талқин ва ифода этилган.

Барча муқаддас китобларда, шу жумладан, энг сўнггиси ва такомил ҳисобланган – Қуръонда ҳам аёл ва эркак мавқеи, ҳуқуқ ҳамда вазифалари аниқ белгилаб қўйилган. Ҳатто психологик жиҳатдан эркак ва аёл шахсидаги нозик томонларига илмий жиҳатдан тўғри таъриф берилиб, уларни ҳисобга олиш тавсия этилган. Шу билан бирга, қайси давлат, мамлакат, халқ ва фармация бўлмасин, гендер тенглик ўта актуал муаммолардан ҳисобланади.

Юқоридаги фикрни тасдиғи сифатида бугунги кунда ХХІ асрнинг II чораги бошланган 2026-йилда Афғонистонда аёлларга нисбатан муносабат, сиёсатни, *гендер тенгсизликка идеал намуна* сифатида келтиришимиз мумкин.

Афғонистондан ҳар томонлама “осмон билан ерча фарқ қилган” Ўзбекистонда ҳам гендер тенглик айрим масалалар бўйича ўз актуаллигини йўқотмаган. Бунинг далили сифатида, ажралишлар сонини сўнгги 10 йил ичида кескин ошганлиги (2024-йилга нисбатан 2025-йилда ажралишлар сони 1,8 мингга ошгани), ўз жонига қасд қилиш асосида ҳар йили 2 мингдан ортиқ одамларни бевақт ҳаётдан кетиши, шулардан 50 % дан ортиғини ёши 16-35 ёшгача бўлганлар ташкил этиши, суицидни келтириб чиқарувчи сабаб ва омиллари орасида оила ва оиладаги шахслараро муносабатлар стабил равишда биринчи ўринда эканлигидир.

ЖССТ (Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти – “ВОЗ”) берган расмий маълумотига кўра суицид асосида оламдан ўтганларни дунёда жинси бўйича нисбати ўртача 3:1 ни, яъни 3 нафар ўлган эркакка 1 нафар ўлган аёл тўғри келади. Ўзбекистонда эса айрим вилоятларда 2:1 ни, айрим ҳудудларда 1:1 ни айрим туманларда эса 1:2, яъни аёлларни ўлими дунёдаги ўрта рақамлардан кўплигини кўрсатапти.

Оиладаги зўравонликлар (жисмоний, жинсий, психологик, иқтисодий) ҳам гендер тенглик маданиятини етарли савияда эмаслигини кўрсатади. Шахсни сурункали равишда стресс ҳолатида бўлиши 20 га яқин номдаги касалликларни келиб чиқишига ёки мавжуд ҳасталикларни ўткирлашишига, айрим ҳолларда ўлимга ҳам олиб келади (инсульт, инфаркт ва бошқалар).

Юқоридагиларнинг барчаси гендер тенглик маданияти муаммосини долзарблигини кўрсатади.

Гендер тенгликнинг қуйидаги турлари мавжуд:

1. Ҳуқуқий – Ўзбекистонда муаммо деярли йўқ. Ҳуқуқий имкониятлар ва масъулият жиҳатдан гендерлар орасидаги тенглик мавжуд. Шу билан бирга ҳали ниҳоясига етказилмаган ҳуқуқий масалалар бор, қайсики бевосита гендер тенгсизлик масаласидир. Масалан, оилавий (никоҳ) ажримларида болалар ким билан қолиши (отаси ёки онаси биланми?) масаласидир.

2. Иқтисодий – бир хил меҳнат учун эркак ва аёлларда иш ҳақи орасидаги тафовут. Бу ҳам айрим ўзга давлатларга тегишли, Ўзбекистонга эмас. Шу билан бирга, Ўзбекистонда бу турдаги муаммолар ўзга кўринишларда мавжуд.

3. Сиёсий – юқори лавозимларга тайинлашда эркаклар устуворлиги. Афсуски бу муаммо бизда мавжуд. Биз аёллар потенциалидан етарли фойдаланмаяпмиз.

4. Ижтимоий-маданий – ОТМ битирувчилари ичида эркаклар сони кўпроқдир. Оилада аёллар ва эркаклар мавқеи орасидаги тафовут. Таълимда, соғлиқни сақлаш тизимида, маданият тизимидаги ташкилотларда, айримларни меҳнат шароитида. Масалан, таълим олишда Ўзбекистонда ҳеч қандай гендер тенгсизлик, дискриминация йўқ. Шу билан бирга, статистик маълумотларни кўрсатишича, 2019-йил Ўзбекистон ОТМ битирувчиларини 38,2% аёллар, 61,8% эркаклар ташкил қилган.

Иқтисодий соҳада ишлаётганларни 90% эркаклар Ўзбекистонда энг катта ойлик маош олишади.

Таълим (ММТВ тизимида таълим муассасалари) 73,4% деярли $\frac{3}{4}$ қисмини (744555 нафар) аёллар ташкил этади. Соғлиқни сақлаш вазирлиги тизимида ҳам аёллар сони жуда катта 79,9% ва ойлик маоши энг паст бўлган тизимлардир. Буни очик эмас, балки латент (яширин) гендер тенгсизлик дейишга ҳақлимиз.

Ҳомиладор аёлни имкони борича 90% ни раҳбарлар (ўзи аёл бўлса ҳам) корхона, муассаса манфатида ишга олишмайди. – Бу гендер тенгсизлик эмасми?

Шуни ҳисобга олишимиз керакки, ҳар доим ҳам ва барча давлатларда ҳам Индира Ганди, Маргарет Тетчер, Ангела Меркель каби раҳбарлар шаклланавермайди. Ривожланган, аммо шарқ давлати ҳисобланган Япония тарихида биринчи маротаба Давлатни аёл – Премьер министр **Санаэ Такаити** бошқараяпти. Бунинг учун шахс жуда кучли ва тажрибали бўлиши шарт. Акс ҳолда, унинг раҳбарлик умри узоқ бўлмайди. Этнопсихология бу ерда катта роль ўйнайди.

Шу билан бирга, айрим вазирликларда ўрта ва қуйи савиядаги раҳбарлар орасида гендер тенглигини маъмурий тури бўйича аёллар етарли фоизни ташкил қиладилар. Масалан, Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигида (1 ва 2-жадваллар). Шу билан бирга, турли ҳудудларда кўрсаткичлар турлича. Шу жадваллардан 2 та тенденцияни гувоҳи бўламиз. Ҳудуд марказдан узоқлашган сари Сирдарё 27%, Сурхондарё 18,6%, Қашқадарё 23,8%, Жиззах 17,1% ва бошқа айрим ҳудудларда раҳбар аёллар фоизи камаёди, марказга яқинлашган сари эса Тошкент шаҳар, Тошкент вилоятида раҳбар аёллар фоизи ўсиб боради (Тошкент шаҳри 84,4%, Тошкент вилояти 44,3%, Андижон вилояти 49,2%).

1-жадвал

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalarda faoliyat yuritayotgan jami xodimlar soni haqida MA'LUMOT				
№	Tashkilot nomi	Jami ishlayotgan xodimlar soni	Shundan ayollar soni	Foizda
JAMI:		1014712	744555	73,4
1	Vazirlik markaziy apparati	347	84	24,2
2	Ixtisoslashgan maktablar agentligi va uning tizimidagi tashkilot va muassasalar	14500	7888	54,4
3	Pedagogika oliy ta'lim muassasalari va uning tizimidagi tashkilotlar	10210	5192	50,9
4	A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va uning tizimidagi mahorat markazlari	1627	856	52,6
5	Vazirlik tasarrufidagi boshqa tashkilotlar	1801	772	42,9
6	Hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	1042	299	28,7
7	Tuman, shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari	13010	4812	37,0
8	Umumta'lim muassasalari	708688	494716	69,8
9	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari	248939	218374	87,7
10	Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari	14548	11562	79,5

2-жадвал

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигидаг бошқарма бошлиқлари ҳамда мудирлар
ҳақида маълумот (2026-йил)

№	Ходимлар	Жами ишлаётган ходимлар сони	Шундан, аёллар	Фоизда, (%)
1	Бошқарма бошлиқлари	14	5	35,7
2	Туман, шаҳар мудирлари	208	56	26,9

3-жадвал

Умумий ўрта таълим муассасалари директорлари ҳақида маълумот (2025-2026-ўқув йили)

№	Hududlar	Faoliyat ko'rsatayotgan direktorlar	Shundan ayollar	Foizda, (%)
JAMI:		9813	3241	33
1	Toshkent shahri	294	248	84,4
2	Andijon viloyati	750	369	49,2
3	Toshkent viloyati	835	370	44,3
4	Farg'ona viloyati	959	335	34,9
5	Qoraqalpog'iston Respublikasi	693	236	34
6	Namangan viloyati	715	242	33,8
7	Xorazm viloyati	519	170	32,8
8	Samarqand viloyati	1081	353	32,7
9	Navoiy viloyati	375	121	32,3
10	Buxoro viloyati	537	149	27,7
11	Sirdaryo viloyati	285	77	27
12	Qashqadaryo viloyati	1225	292	23,8
13	Surxondaryo viloyati	989	184	18,6
14	Jizzax viloyati	556	95	17,1

Ушбу ҳолатни, бизнинг фикримизча, 2 та омил билан тушунтиришимиз мумкин.

Биринчидан, қуйидаги вилоятлардаги оилалар ўзга ҳудудларга нисбатан кўп болали бўлгани сабабли аёллар ўз касб фаолиятида мавжуд раҳбарлик потенциалини тўлиқ ифода этиш имконияти чекланади.

Иккинчидан, айрим ҳудудлар аҳолисининг маълум фоизи (Жиззах, Сирдарё вилоятларида) ижтимоий-иқтисодий савияси қуйи бўлган мамлакат ичидаги мигрантлардан иборат. Уларда раҳбарлик лавозимларга даъвогарлик қиладиган психогенетик потенциаллари ҳам юқори эмас.

Умумий ўрта таълим муассасалари директорлари лавозимларида фаолият олиб бораётган аёллар сони бўйича сўнгги 4 та ўринни Сирдарё вилояти **27%**, Қашқадарё вилояти **23,8%**, Сурхондарё вилояти **18,6%** ва Жиззах вилояти **17,1%** ташкил қилади (3-жадвал).

Маънавий-маърифий ишлар бўйича директор ўринбосари лавозимида фаолият олиб бораётган аёллар сони бўйича қуйи кўрсаткичлар Сирдарё вилоятида **32,2%**, Сурхондарё вилоятида **21,8%** ни, Жиззах вилоятида **16,5%** ни ташкил этди (4-жадвал).

Аналогик ҳолат директорнинг ўқув-тарбиявий ишлар бўйича аёл ўринбосарларда ҳам кузатилди. 14 ҳудуддан сўнгги 3 ўринни Сирдарё вилояти **28,3%**, Жиззах вилояти **23%** ва Сурхондарё вилояти **18,1%** эгаллади (5-жадвал).

Шу билан бирга, ижобий кўрсаткичлар ва эътироф сифатида раҳбарлик лавозимларида аёллар етарли бўлган ҳудудлар:

Мақтаб директорлари бўйича ўринбосарлар, % ҳисобида	1. Тошкент шаҳри 2. Андижон вилояти 3. Тошкент вилояти 4. Фарғона вилояти 5. Қорақалпоғистон Республикаси	84,4% 49,2% 44,3% 34,9% 34%
Маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосарлар, % ҳисобида	1. Тошкент шаҳри 2. Тошкент вилояти 3. Хоразм вилояти 4. Қорақалпоғистон Республикаси 5. Андижон вилояти	83,4% 62,1% 56,1% 51,4% 50%
Ўқув-тарбиявий ишлар бўйича ўринбосарлар, % ҳисобида	1. Тошкент шаҳри 2. Тошкент вилояти 3. Андижон вилояти 4. Фарғона вилояти 5. Хоразм вилояти	85,3% 64,7% 62,1% 58,9% 50,5%

Шу ўринда яна бир муҳим маълумотни таъкидлаш жоизки, 95 йўналишда 300 дан ортиқ лавозимларга аёлларни ишга олиш тақиқланган. Буни гендер тенгсизлик деймизми ёки ижтимоий-маданий гендер тенглик деб ҳисоблаймизми?

Чеклов асосида аёллар саломатлиги, аёлни ортиқча оғир ва зарарли меҳнат тури билан қийнамаслик ётади. Шу касбларда ишлашга трансгендерлар олингани ёки йўқми? Эртага бир “аёл-трансгендер” тақиқланган иш, лавозимларда ишлайман деб қатъий мурожаат қилади. Ким ва қайси ҳужжат асосида бу масалани ҳуқуқий томондан тўғри ҳал қилади? 2023-йилдаги ҳужжатда бу масала тилга олинмаган. Бу ҳам гендер тенгликни абсолют деб тушунмаслик, тенгсизлик ҳам ҳаётда инсонлар саломатлиги, тинчлиги, оила мустаҳкамлиги, урф-одатларни сақланиши, миллатни этнопсихологик хусусиятларини ҳуқуқий томондан ҳисобга олиш лозимлигини кўрсатади. Ҳар бир қилинган ишимиз шахс, оила, жамият, миллат, давлат манфаатига зарар етказмаслиги, аксинча уларни янада мустаҳкам такомил бўлишига хизмат қилиши зарур. Бунда ижтимоий психология, этнопсихология фанини ва халқни психологик саводхонлигини аҳамияти бениҳоя каттадир.

Гендер тенглик нуктаи назаридан, бугунги кунда ажралишда эркак аёлини уй-жой билан таъминлаши, фарзанд моддий таъминоти зарур ва қонунийлиги ҳар бир конкрет оилада конкрет кўриб чиқиши лозим. Қурби етса, эр ҳаммасини қилсин, аммо ўзини ҳам эплай олмайдиган эр ушбу қонун асосида нима қилиши керак? Ўзини осийми? Бундай ҳолларда “английское право” (“инглиз ҳуқуқи”) тамойилида иш кўрилиши ва қарор қабул қилиниши лозим.

Юқоридагилар асосида қуйидаги ҳулосалар қилиш мумкин.

Янги Ўзбекистон, янги фармация – бозор иқтисодиёти асосидаги янги жамият қураётган ўтиш даврида юқорида ифода этилган муаммоларни бўлиши муқаррар равишда юзага келадиган табиий ҳолдир. Буни ҳеч ким четлаб ўта олмайди.

Ушбу муаммоларни Давлат раҳбари ҳам, Ҳукумат раҳбари ҳам, конкрет вазирлик раҳбарлари ҳам яхши билишади ва қўлдан келганча қисқа муддатда бартараф этишга, халқни ҳаётини, ижтимоий-иқтисодий ҳолатини янада яхшилашга барча кучларини сафарбар қилишмоқда.

Юқорида баён қилинганлар асосида қуйидагиларга эътибор беришимиз лозим:

1. Ривожланган давлатлардаги гендер тенгликни шундайлигича олишимиз илмий жиҳатдан нотўғридир. Ҳар бир халқни ўз ривожланиш йўли, тамойиллари ва энг муҳими, маҳаллий халқни этнопсихологик хусусиятлари бор. Уларни ҳисобга олмаслик, кейин тузатиш оғир бўладиган асоратларга олиб келиши мумкин.

2. Гендер тенглик маданиятини ривожлантиришда етакчи рольни таълим муассасалар ўйнаши керак. Гендер тенглик маданиятини асослари мактабгача таълим ташкилотларида, мактабгача ёшдан бошланиши ва шу мавзу бўйича махсус оригинал “Ўғил ва қизлар мулоқот маданияти” дастурини ишлаб чиқиш ҳамда педагогик эксперимент тарзида синовдан ўтказиб, натижалари асосида Республика миқёсида жорий қилиниши керак.

3. Гендер тенгликни ўқувчиларда узлуксиз равишда бошланғич синфларда, ўрта ва юқори синфларда тарбиявий соатлар, турли тарбиявий тадбирларда давом эттириш лозим. Юқори синф ўқувчилари учун “Оила психологияси” курсида берилгани мақсадга мувофиқдир.

4. Гендер тенгликда, авваламбор, таълим муассасаси педагог ходимлари шахсий намуна бўлишлари шарт.

5. Гендер тенгликни ёшларда шакллантириш оилавий кадриятларга, миллий анъаналаримизга, этнопсихологик хусусиятларимизга салбий таъсир этмаслик чораларини кўришимиз зарур.

6. Аёллар сон жиҳатдан кўпчиликни ташкил этган, инсоният учун энг муҳим ҳисобланган аҳолини таълим-тарбияси ва саломатлигини касб қилиб олган педагог ҳамда тиббиёт ходимларининг ойлик маошини сезиларли равишда ошириш ҳам аёлларни гендер тенглигини таъминлашга қаратилган Ҳукуматнинг катта қадами бўлур эди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон / Шавкат Мирзиёев. — Тошкент: Ўзбекистон, 2024.
2. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Шавкат Мирзиёев. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020-йил, 24-январ.

ТАРИХ ФАЛСАФАСИ НУҚТАИ НАЗАРИДАН ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

Бахтиёр Ҳасанов,
ЎЗР ВМ ҳузуридаги
Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи директори,
“Шаҳидлар хотираси” жамоат фонди раиси,
“Ўзбекистон тарихчилар жамияти” раиси,
“Турон” фанлар академиясининг академиги,
Тарих фанлари доктори, профессор

Аннотация. Мазкур мақолада Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотлар тарих фалсафаси нуқтаи назаридан таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, тарих фалсафаси, тарихий хотира, қатағон қурбонлари, тарихий адолат, жадиидчилик ҳаракати, миллий ўзлик.

Аннотация. В данной статье реформы, осуществляемые в Новом Узбекистане, анализируются с точки зрения философии истории.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, философия истории, историческая память, жертвы репрессий, историческая справедливость, джадидское движение, национальная идентичность.

Abstract. This article analyzes the reforms being implemented in New Uzbekistan from the perspective of the philosophy of history.

Keywords: New Uzbekistan, philosophy of history, historical memory, victims of repression, historical justice, Jadid movement, national identity.

Бугунги давр инсоният тараққиётининг ўта мураккаб ва айни пайтда юксак масъулият талаб этувчи босқичи сифатида тарихда алоҳида ўрин эгалламоқда. Ҳар бир жамият ўз ривожланиш стратегиясини белгилар экан, у фақат иқтисодий ёки сиёсий ислохотлар билан чекланиб қолмай,

балки ўзининг тарихий хотираси, маънавий мероси ва шаклланган фалсафий дунёқараши билан ҳам мулоқотга киришмоқда.

Шу нуктаи назардан, “Янги Ўзбекистон” тушунчаси оддий модернизация ёки янгиланиш жараёнини эмас, балки тарихни чуқур англаш, ўтмиш тажрибасини танқидий таҳлил қилиш ва шу асосда келажакни онгли, мақсадли ва изчил барпо этишга қаратилган фалсафий-концептуал ёндашувни англатади.

Тарих фалсафаси инсонни воқеа ва ҳодисаларнинг шунчаки хронологик кетма-кетлиги билан эмас, балки уларнинг ўзаро ички алоқадорлиги, сабаб-оқибат занжири ва инсоният тажрибасида мужассам бўлган чуқур маъноси билан таништиради. У тарихни маълумотлар тўплами сифатида эмас, балки тараққиёт қонуниятларини очиб берувчи маънавий-интеллектуал жараён сифатида кўрсатиб беради [1].

Хар қандай ислохот, агар у тарихий онг ва тажриба билан уйғунлашмаса, муайян қисқа муддатли самара бериши мумкин, аммо барқарор ва изчил тараққиётга эришиш учун жамиятнинг тарихий хотирасига таянган фалсафий тафаккур зарур ҳисобланади. Зеро, тарихни англаган жамиятгина келажакни пухта ва онгли равишда қайта бунёд эта олади.

Бугунги кунда Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотлар ҳам айнан шу тамойилга асосланмоқда. Давлат бошқаруви, ҳуқуқий тизим, иқтисодий модернизация, фуқаролик жамиятини ривожлантириш, инсон қадрини улуғлаш каби йўналишлар бир-биридан ажралган жараёнлар эмас. Улар ягона мақсадга хизмат қилади, яъни адолатли жамият қуриш, тарихий хатолардан сабоқ олиб, инсон манфаатини олий қадрият сифатида қарор топтириш.

Тарих фалсафаси нуктаи назаридан қараганда, хар қандай жамиятнинг маънавий камолоти унинг ўтмишга бўлган муносабати, айниқса, адолатсизлик ва зўравонлик даврларини қандай англаши ва баҳолаши билан белгиланади [2]. Шу маънода, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг мазмун-моҳияти фақат ижтимоий-иқтисодий янгиланиш билан чекланмай, балки тарихий адолатни тиклаш, миллий хотирани қайта жонлантириш ва маънавий меросни асраб-авайлашга қаратилгани билан ҳам аҳамиятлидир.

Бу жараёни Қатагон қурбонлари хотираси давлат музейи фаолияти мисолида яққол кўриш мумкин. Мазкур муассаса нафақат Совет даври қурбонларининг ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш билан шуғулланади, балки жамиятнинг тарихий онгини шакллантириш, қатагон йилларида ноҳақ айбланган фан ва давлат арбоблари, адабиёт ва санъат намёндаларининг илмий-ижодий меросини тиклаш орқали тарихий хотирани институционал даражада мустаҳкамлаш вазифасини бажаради. Тарих фалсафаси нуктаи назаридан, бу – ўтмишни қайта баҳолаш орқали келажакни онгли барпо этиш жараёни ҳисобланади.

Айниқса, “Қатта қирғин” йилларида “халқ душмани”, “аксилинқилобчи”, “миллатчи”, “қулоқ” сифатида қораланиб қатагон этилган ватандошларимиз пок номларининг оқланиши тарихий адолатни тиклашнинг муҳим босқичи бўлди. Бу жараён фақат ҳуқуқий ёки сиёсий қарор эмас, балки фалсафий жиҳатдан жамиятнинг ўз ўтмиши билан юзлашиши, хатоларни тан олиши ва маънавий покланишини англатади.

Тарих фалсафаси таъкидлаганидек, ҳақиқатни англаш ва адолатни тиклаш орқали жамият ўз тараққиётининг янги босқичига кўтарилади. Қатагон қурбонлари хотирасини абадийлаштириш, уларнинг илмий ва ижодий меросини халққа қайтариш – бу фақат ўтмишни ёдга олиш эмас, балки миллий ўзликни мустаҳкамлаш, эркинлик ва ҳуррият қадрини чуқур англашга хизмат қиладиган маънавий-фалсафий жараёндир. Зеро, тарихий ҳақиқат қарор топган жамиятгина барқарор ва адолатли келажакни барпо эта олади. Тошкентда “Шаҳидлар хотираси” ёдгорлик мажмуаси барпо этилиб, унинг ҳудудида Қатагон қурбонлари хотираси давлат музейи ташкил этилиши ҳам таъбир жоиз бўлса оғир, мураккаб ва айни дамда шарафли ўтмиш билан юзлашиш жараёнининг бошланиш нуктаси бўлди.

Айниқса, 2017 йилда музей тарихида ўта муҳим воқеа содир бўлди.

2017 йил 31 август – “Қатагон қурбонларини ёд этиш куни” муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирамонович Мирзиёев музейга ташрифи чоғида, “ушбу музей – музейларнинг музейи” деб, юксак баҳо берди ҳамда музейнинг вилоятларда ҳам бўлимларини ташкил этиш бўйича таклиф киритиб, бу музейлар халқимиз, айниқса, ёшларимиз учун муқаддас зиёратгоҳ, маънавият ва маърифат ўчоғи бўлиб қолиши кераклигини таъкидлаб ўтдилар.

Билдирган таклиф ва мулоҳазалар асосида 2017 йил 22 ноябрда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Қатагон қурбонлари хотираси давлат музейи ва ҳудудлардаги олий таълим муассасалари тузилмасида

Қатағон қурбонлари хотираси музейларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 936-сон қарори [3] чиқди ва музей Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси тасарруфига ўтказилиб фаолияти янада кенгайтирилди ва такомиллаштирилди. Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлардаги 13 та олий таълим муассасаси тузилмасида Қатағон қурбонлари хотираси музейлари ташкил этилди. 2021 йилда давлат раҳбарининг топшириғига биноан Қарши шаҳридаги Одина масжидида Қашқадарё вилоят Қатағон қурбонлари хотираси музейи янгитдан яратилди. Советлар даврида НКВД қамоқхонасига айлантирилган ушбу тарихий обидада ташкил этилган музей 2021 йилнинг 11 октябрда Президентимиз томонидан тантанали равишда очилди [4].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2020 йил 8 октябрь санали Ф-5598-сон фармойишининг қабул қилиниши эса тарихий адолатнинг тикланиши ва шаҳидлар хотирасини абадийлаштирилиши борасида олиб борилаётган ишларни янги бир сифат босқичига кўтарди [5]. Фармойиш асосида Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри кесимида жами 14 та “Қатағон қурбонлари” Хотира китоблари тайёрланди. Уларга 40 мингга яқин қатағон қурбони бўлган ватандошларимизга оид маълумотлар киритилди

Шунингдек, Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейининг экспозицияси “Янги Ўзбекистон: учинчи Ренессанс асослари” концепцияси асосида тубдан янгиланди. Замонавий сенсор киосклар ва мониторлар билан жиҳозланди.

Музей ҳамда Худудий музейларнинг асосий вазифаси ташрифчиларни қатағон сиёсати тарихи билан таништириш, қатағон қурбонларини ёд олиш, ёшларни уларнинг энг яхши анъаналари асносида тарбиялашдан иборат. Уларнинг илмий-маърифий мақсади эса мустамлака давридаги сиёсий, иқтисодий, маданий жараёнларни ўрганиш, англаш, қатағон сиёсатининг фожиаи оқибатларини тадқиқ қилиш, ёшларни Ватанга муҳаббат, мустақиллик ғояларига садоқат руҳида тарбиялашдир.

Бу борада Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи томонидан “Ватан ҳимоячилари куни”, “Халқаро музейлар куни”, “Хотира ва кадрлаш куни”, “Қатағон қурбонларини ёд этиш куни”, Мустақиллик байрами муносабати билан мунтазам равишда ўтказилиб келинаётган илмий-амалий, маънавий-маърифий, маданий тадбирлар (халқаро ва республика миқёсидаги конференциялар, кўргазмалар, давра суҳбатлари, семинарлар, хотира кечалари) алоҳида аҳамиятга эга. Хусусан, музей томонидан турли маҳаллий ва хорижий ташкилотлар билан ҳамкорликда 2002-2022 йиллар мобайнида 50 га яқин конференциялар (шулардан 10 таси халқаро миқёсда), 700 дан ортиқ илмий, маънавий-маърифий тадбирлар (кўргазмалар, давра суҳбатлари, хотира кечалари, семинарлар ва бошқалар) ўтказилди.

Ҳайдар Алиев номидаги Озарбайжон маданият маркази билан ҳамкорликда ўтказилган “Озарбайжон ва Ўзбекистон халқларининг қатағон фожеаси: бир тарих, бир тақдир” мавзусида халқаро конференция (2022 йил 7 апрел), “Шаҳидлар хотираси” жамоат фонди билан ҳамкорликда таваллудининг 120 йиллигига бағишлаб “Моҳир таржимон, публицист Санжар Сиддиқ меросининг Янги Ўзбекистон давридаги аҳамияти” мавзусида Республика илмий анжуманини (2022 йил 15 сентябрь), “Янги Ўзбекистон тарихшунослигида Туркистон Мухторияти тарихининг ўрганилиши: янгича ёндашув ва тадқиқотлар” мавзуидаги Республика илмий-амалий конференциясини (2023 йил 17 май) мисол тариқасида қайд қилиш мумкин.

2022 йилда ўтказилган яна бир анжуманга тўхталиш ўринли. 11 октябрда Самарқанд шаҳрида Туркистондаги жадидчилик ҳаракатининг етук вакилларида бири, маърифатпарвар, тилшунос олим Сайид Ризо Ализода (1887-1945) таваллудининг 135 йиллигига бағишлаб катта илмий анжуман ўтказилди. 1937 йилда қатағон қилинган ушбу шахс ҳам ўз умри ва жонини Ватан учун, унинг ҳур озод бўлиши, халқнинг фаровон, тинч яшаши учун фидо қилган инсон ҳисобланади. Унинг 1920 йил “Хуррият” газетасида эълон қилган “Туркистон бизнинг Ватанимиз” мақоласидаги қўйидаги фикрлари бугунги ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ҳам муҳим аҳамият касб қилади: “Шу ернинг об-ҳавосидан баҳраманд бўлиб камол топсангу, унинг шарафини ҳимоя қилмасанг, (она диёринг) оёқости бўлиши, кадрсизланишига йўл қўйсанг, нобакор ажнабий ўз ватани шон-шавкати учун сенинг ота-боболаринг киндик қони тўкилган ерингни ваҳшийларча топтаб, қонингни симирса ва уни ахлатхонага айлантирса-ю, сен хиссизларча қараб турсанг ёки ундан қочсанг, ўзинг унинг ғоратланишига қўмаклашсанг, унда сен бу Ватанинг фарзанди эмассан!”. Айнан шу сингари фикрлари учун Сайид Ризо Ализода совет тузими томонидан мавҳ этилди.

Музей томонидан республикада катагон курбонлари хотирасини абадийлаштириш, номларини оқлаш, жадидларнинг меросини ўрганиш борасида қилинаётган ишларни турли оммавий ахборот воситаларида, ижтимоий тармоқларда ёритилишига алоҳида эътибор қаратилиб келинмоқда. Айниқса, Янги Ўзбекистон даврида Республиканинг “O‘zbekiston tarixi”, “O‘zbekiston24”, “Madaniyat va ma’rifat”, “Sevimli”, “Renessans tv” ва бошқа телеканаллари орқали 300 га яқин чиқишлар қилинган. 2019 йилдан “O‘zbekiston tarixi” телеканали билан ҳамкорликда Музей техник базасидан фойдаланган ҳолда катагон курбонлари бўлган ватандошларимизнинг ҳаёти, фаолияти ва фожеали тақдирига бағишланган “Миллат фидойилари” туркум кўрсатуви ташкил этилиб, ўтган давр ичида 300 дан зиёд катагон курбони бўлган шахс ҳақида кўрсатувлар тайёрланди ва эфирга узатилганлигини алоҳида таъкидлаш ўринлидир.

Музей фаолиятида илмий-тадқиқот ҳамда нашр ишлари алоҳида ўрин эгаллайди. Ўтган давр мобайнида музей илмий жамоасининг тадқиқотлари натижасида 55 та монография, 35 та илмий мақолалар тўплам, 5 та ўқув қўлланмаси, газета ва журналларда 850 дан зиёд илмий, илмий-оммабоп мақолалар нашр этилган.

Музей томонидан 2009 йилдан буён нашр этиб келинаётган “Тарихнинг номаълум саҳифалари” (масъул муҳаррир: Б.Ҳасанов) тўпламини алоҳида қайд этиб ўтиш жоиз. 2022 йилда мазкур тўпламнинг 10-китоби [6], 2024 йилда XI китоби, 2025 йилда XII китоби нашрдан чиқарилди. Ҳозирда мазкур илмий тўпламнинг XIII китоби чоп этилиш арафасида.

Шунингдек, Президентнинг Ф-5598-сонли фармойиши асосида эса биргина шу вақтга қадар ўттизга яқин катагон курбонлари ҳамда ўша давр тарихига бағишланган китоблар нашр этилди. Хусусан, Б.Ҳасановнинг “Катагон курбонлари хотираси давлат музейи. Йўлқўрсаткич” (ўзбек, рус, инглиз тилларида), Б.Ҳасанов ва Б.Ирзаев ҳаммуаллифликда тайёрлаган “Миллатимиз фидойилари” китоблари, “Ўттиз еттинчи йил турналари. 1937-1938 йиллардаги “Катта қирғин” курбонларига бағишланган очерк ва мақолалар” тўплами, Дилором Алимованинг “Жадидчилик феномени” монографияси Шарқия Эшжонова, Юлдузхон Раҳмонова, Бахтиёр Ҳасановларнинг Ж.Султонмуродов ва М.Султонмуродова ҳаёти, фаолияти, ижодий ишлари, мактублари ва хотираларидан иборат “Чироқ кўтарган аёл” китоблари, Б.Ҳасанов, М.Алижоновлар томонидан нашрга тайёрланган Ғози Юнуснинг ҳали нашр юзини кўрмаган танланган асарларидан иборат “Кўз очинг Турон эли” китоби, яна Б.В.Ҳасанов ва М.Алижоновларнинг ўзаро ҳамкорлигида чоп этилган “Мустафо Чўқай: Туркистоннинг асл фарзанди”, “Туркистон хуррияти йўлида” ва бошқа шулар каби кўплаб китоб ва монографиялар шулар жумласидандир.

Музей томонидан яратилган китобларни ёзиш жараёнида ҳақли равишда бизда тарих фалсафасининг муҳим саволлари бизнинг онг ва шууримизда пайдо бўлди: жамият қандай қилиб ўз ўтмиши билан муроса қилади? Ўтмиш фақат фахрланиш манбаими ёки у огоҳлантирувчи сабоқ ҳам бўлиши керакми?

Албатта, тарихни фақат ғалабалар ва ютуқлар орқали эмас, балки мураккаб, баъзан фожеали саҳифалари орқали ҳам англаш зарур. Зеро, инсоният тараққиёти кўпинча хатоларни тан олиш ва уларни такрорламаслик орқали таъминланади.

Шу нуқтаи назардан қараганда, Ўзбекистон тарихидаги катагон даври миллий тарихий хотиранинг энг оғриқли, аммо энг муҳим сабоқ берувчи саҳифаларидан биридир. XX асрнинг тоталитар тузум шароитида минглаб зиёлилар, давлат арбоблари, маърифатпарварлар ва оддий инсонлар адолатсиз жазоларга дучор бўлди. Уларнинг тақдири нафақат шахсий фожиа, балки жамиятнинг маънавий тараққиётига берилган зарба ҳам эди.

Тарих фалсафаси бизни бундай ҳодисаларга фақат статистик рақамлар ёки сиёсий жараён сифатида эмас, балки инсон қадр-қимматининг поймол этилиши сифатида қарашга ундайди. Катагон даври бизга шуни англатадики, давлат кучли бўлиши мумкин, аммо адолат бўлмаса, бундай куч жамиятни тараққиёт сари эмас, балки инкироз сари етаклайди.

Янги Ўзбекистон ислохотларининг энг муҳим фалсафий асосларидан бири айнан мана шу сабоқдан келиб чиқади. Бугунги сиёсий-ҳуқуқий ислохотлар марказида инсон ҳуқуқлари, очиқлик, қонун устуворлиги, тарихий адолатни тиклаш каби тамойиллар турибди. Бу тамойиллар шунчаки замонавий бошқарув стандартлари эмас, балки тарихий тажриба натижасида шаклланган зарурий хулосалардир.

Катагон курбонлари хотирасини абадийлаштириш, уларнинг номини тиклаш, илмий тадқиқотларни кенгайтириш, музейлар ва илмий марказлар фаолиятини ривожлантириш ҳам айнан тарихий онгни тиклаш жараёнининг муҳим қисмидир. Чунки жамият ўз тарихини унутса, у ўз келажагини ҳам йўқотиши мумкин.

Ана шу тарихий онгни тиклаш йўлида ҳам Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейининг бевосита ташаббускорлиги билан қатағон этилиб оқланмай қолган юзлаб ватандошларимизнинг пок номлари оқланиб яна халқимизга қайтариб берилди. Жумладан, Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи томонидан мустабид совет тузими даврида қатағон қилинган ва муайян сабабларга кўра оқланмай қолган ватандошларимизни оқлаш борасида ҳам муҳим ишлар қилинди. Натижада, Олий суд томонидан 2021 йил 25 августда совет даврида қатағон қилинган 115 нафар, 2022 йил 6 январда 120 нафар, 2022 йил 19 декабрда 173 нафар, 2023 йил 19 апрелда 208 нафар, 2023 йил 24 августда 240 нафар, 2024 йилда 205 нафар, жами 1220 нафар шахс оқланди. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида оқланган шахсларнинг миллатлараро таснифи қуйидагича эканлиги аниқланди: ўзбек 981, тожик 86, қирғиз 9, татар 5, форс 5, туркман 4, эрон 1, қорақалпоқ 22, козок 104, рус 2, араб 1, жами 1220 та.

Оқланганларнинг аксарияти, Туркистондаги жадидчилик ҳаракати намояндалари эканлиги бежиз эмас. Бинобарин, мустабид совет даврида айнан маърифатпарвар, тараққийпарвар, зиёли инсонлар қатағон қилинган.

Алоҳида қайд этиш жоизки, тарих фалсафаси нуқтаи назаридан қараганда, хотира бу шунчаки эслаш эмас. Хотира бу ахлоқий масъулиятдир. У бизни ҳушёр тутати, адолатсизликка бефарқ бўлмасликка ундайди, инсон қадрини олий мезон сифатида эътироф этишга мажбур қилади.

Янги Ўзбекистоннинг маънавий асослари айнан мана шу тарихий онг билан мустаҳкамланмоқда. Жамиятда очиқлик ва ҳақиқатга интилиш кучайиб бораётгани, тарихий манбаларни қайта ўрганиш, илгари ёпиқ бўлган саҳифаларни очиш, илмий муҳокамаларнинг кенгайиши тарих фалсафасининг амалий ифодасидир.

Янги Ўзбекистон ислохотларининг чуқур моҳиятини англаш учун биз тарихни нафақат ўрганишимиз, балки уни тушунишимиз зарур. Тарихни тушуниш эса фактларни билишдан кўра мураккаброқ жараён. Бу сабабларни таҳлил қилиш, оқибатларни баҳолаш ва энг муҳими, инсоний қадриятлар мезонида ҳулоса чиқаришдир.

Қатағон даври бизга эркинликнинг қадрини, адолатнинг зарурлигини ва инсон шаънининг муқаддаслигини англатади. Янги Ўзбекистон эса айнан шу қадриятларни амалда қарор топтиришга интилаётган жамиятдир.

Ҳулоса қилиб айтганда, тарих фалсафаси ва замонавий ислохотлар бир-биридан ажралмас тушунчалардир. Тарихий хотира ислохотларга маънавий асос беради, ислохотлар эса тарихий сабоқларни амалий ҳаётга татбиқ этади. Ўтмишни англаган жамиятгина келажакни онгли равишда қуриши мумкин.

Бугунги вазифамиз тарихни унутмаслик, уни адолат мезонида англаш ва шу асосда инсон қадрини улуғловчи жамиятни барпо этишдир. Ана шунда Янги Ўзбекистон нафақат сиёсий ёки иқтисодий тушунча, балки чуқур маънавий-фалсафий ҳодиса сифатида тарихда ўз ўрнини эгаллайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Collingwood R.G. The Idea of History. – Oxford: Oxford University Press. 1946. – P. 215.
2. Ricoeur P. Memory, History, Forgetting. – Chicago: University of Chicago Press. 2004. – P. 78.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta‘lim muassasalari tuzilmasida Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeylarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 936-sonli qarori. 22.11.2017. <https://lex.uz/docs/-3422637?ONDATE=28.08.2021%2000>
4. Қадимий масжидда музей ташкил этилди – <https://president.uz/oz/lists/view/4692>
5. Қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ф-5598-сонли Фармойиши. 08.10.2020. <https://lex.uz/docs/5041012>
6. Тарихнинг номаълум саҳифалари X китоб. [Б.Хасанов масъул муҳаррирлиги остида]. – Т.: “Академнашр” нашриёти. 2022. – Б. 311.

ЁШЛАР ТАРБИЯСИ ШУКРОНАЛИК ВА ИШОНЧДАН КУЧ ОЛАДИ

Мансур Бекмуродов,
Ўзбекистон Президенти ҳузуридаги
давлат сиёсати ва бошқаруви академияси профессори,
Социология фанлари доктори

Аннотация. Мазкур мақолада ёшлар тарбиясининг шукроналик, ишонч, мақсадлилиқ ва меҳнатсеварлик каби омиллар билан узвий боғлиқлиги ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинади. Шунингдек, Янги Ўзбекистон шароитида ёшларнинг маънавий етуклиги, касбий камолоти ва ижтимоий фаоллигини оширишга қаратилган ёндашувлар илмий асосда баён этилади.

Калит сўзлар: ёшлар тарбияси, шукроналик, ишонч, мақсадлилиқ, меҳнатсеварлик, жамоавийлик, ибрат омили, маънавий камолот, ижтимоий фаоллик.

Аннотация. В данной статье социально-философски анализируется взаимосвязь воспитания молодёжи с такими факторами, как благодарность, доверие, целеустремлённость и трудолюбие. Также на научной основе излагаются подходы, направленные на повышение духовной зрелости, профессионального становления и социальной активности молодёжи в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: воспитание молодёжи, благодарность, доверие, целеустремлённость, трудолюбие, коллективизм, фактор примера, духовная зрелость, социальная активность.

Abstract. This article provides a socio-philosophical analysis of the interconnection between youth education and such factors as gratitude, trust, purposefulness, and diligence. Furthermore, the paper scientifically outlines approaches aimed at enhancing the spiritual maturity, professional development, and social activity of youth in the context of the New Uzbekistan.

Keywords: youth education, gratitude, trust, purposefulness, diligence, collectivism, role model factor, spiritual maturity, social activity.

Мамлакатимизни тубдан такомиллаштириш борасида жадал суръатларда амалга оширилаётган ислохотлар тарбия омилининг фавқуллодда муҳим аҳамиятини англаш, ҳар бир инсоннинг ҳаётда муносиб ўрнини топиш ва уни ижтимоий фаоллаштириш масаласини долзарб масала сифатида кун тартибига чиқарди. Тарбия омили эса, инсондан жамиятга аввал қандай бўлса шундайлигича эмас, балки янгиланган, такомиллашган, яъни, сифат жиҳатидан юксалган ҳолда уйғунлашувни, маънавий, касбий ва ижтимоий фаоллашувни тақоза этади. Зеро, бугунги Янги Ўзбекистонимиздаги кенг қамровли ўзгаришлар муҳити мамлакатимиздаги барча соҳалар, технологиялар ва инсоннинг ўзини ҳам янгиланиш жараёни билан тўла қамраб олган десак, асло хато бўлмайди.

Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев халқимизга, Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига қилган Мурожаатномасида тарбия омилига катта эътибор қаратиб, замоннинг суръати ҳар қачонгидан ҳам тезлашгани, жамиятдаги муаммоларни ўз вақтида аниқлаш ва энг тўғри ечимларни топиш ижтимоий ривожланишда муҳим аҳамиятга эгаллигини таъкидладилар ва бундай ёндашувни амалга оширмаслик замондан орқада қолиш ва ёш авлодни рози қилмасликка олиб келишини алоҳида қайд этдилар.

Ёшларнинг ҳаётда ўз ўрнига эга бўлиши яхшиланиш рағбати ва истаги тарбиянинг марказий нуқтаси ҳисобланади.

Тарбия сўзи тилимизга арабчадан кириб келган бўлиб, “парваришлаш”, “ўстириш”, яхшилаш ва яхшиланиш маъноларини англатади. Инглизчада “bring up”, яъни, “турғизмоқ”, “ўқитмоқ” “яхшиламоқ” маъноларини берса, рус тилида эса, “воспитание”, яъни “озиклантirmoқ” мазмунини ифодалайди. Араб тилидан кириб тарбия сўзи маъносининг таркибидаги парваришлаш орқали яхшилаш ва яхшиланишда инсон омили мавжудлиги катта аҳамиятга эга. Эътибор қилинг: яхшиланиш истаги тарбия ҳодисасининг марказий нуқтаси ҳисобланади. Чунки, ҳар қандай ташқи таъсирга инсоннинг муносабати, яхшилиқни олиш ва ўзгаришга рағбат тарбия самарадорлигини таъминлайди.

Ҳар бир инсоннинг ўзида яхшиланиш рағбати ва ўзгаришларга тайёрликнинг ўрни муқаддас динимизда ҳам муҳрланган. “Раъд” сурасида “Албатта, Аллоҳ бирор бир қавм ўзларидаги

нарсани ўзгартирмагунларича, улардаги нарсани ўзгартирмас”, деб бежиз айтилмаган. Шундай экан, одамдаги яхшиланиш, тарбиявий ишлар таъсири кўп ҳолларда инсоннинг ўзига боғлиқдир. Муҳтарам Президентимиз ҳам Янги Ўзбекистонни барпо этиш, ўзгаришларни рўёбга чиқариш даставвал инсоннинг ўзига боғлиқ ва ундан бошланади, деб қайта қайта таъкидлашлари негизда чуқур маъно муҳассамдир.

Тарбия - тараққиёт драйвери

Президентимиз мамлакатимиз ривожда инсон омилини тараққиётнинг бевосита иштирокчисига, унинг драйверлик улушини оширишга ҳалал берувчи асосий омилларга тўхталиб, **”бошлаган ислохотларимизни давом эттиришимиз, таълим даргоҳларига бориб, ўқитувчи ва мураббийлар билан кўпроқ мулоқот қилиб, ўқув-тарбия ишлари сифатини ошириш бўйича улар қўйган масалаларни биргаликда ҳал этишимиз керак. Ушбу жараёнларда депутат ва сенаторлар, маҳалла вакиллари, зиёлилар, ёшлар, тадбиркорлар ва кенг жамоатчиликдан фаол бўлишларини, янги-янги таклиф ва ташаббуслар билдиришларини сўрайман”**, дедилар.

Тарбия омилининг билим билан бирликда ижтимоий юксалишимизда драйвер бўлиши хусусида улуғ маърифатпарвар жадидларнинг **“Нажот -таълимда, нажот -тарбияда, нажот – билимда. Чунки, барча эзга мақсадларга билим ва тарбия туфайли эришилади”** деган фикрларини Президентимиз Шавкат Мирзиёев Мурожаатномада алоҳида қайд этганлари ҳам бежиз эмасдир.

Дарҳақиқат, билим ва тарбиянинг тараққиёт суръатларини оширишига хизмат қилиши учун уч омил устуворлиги, яъни, ёшларнинг эркин ва креатив фикрлаши, жамоада ишлай олиши ҳамда мулоқот кўникмаларига эга бўлиши муҳим аҳамият касб этади. Президентимиз таъбири билан айтганда, бугунги ёшлар учун **“билим, меҳнат ва ақл”** бирлиги ва уйғунлигига эришиш фавқуллоҳда зарурдир. Бунинг учун эса, ҳар бир соҳани ўрганаётган ёшлар ҳаётда энг аввало юксак маънавиятли, одоб-ахлоқли бўлишлари, ўзлари эгаллашга киришган касб, ҳунар ва мутахассисликни энг юқори даражада ўзлаштириб олишлари, билиб олиб, теран англаган нарсаларини бошқаларга ҳам ўргата олиш даражасига чиқишлари уларнинг асосий ҳаётий мезонларига айланиши талаб этилади. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, Президентимиз томонидан айтилган фикр, яъни, ёшларимизнинг касб ва ҳунарларни эгаллашлари учун зарур бўлган уч талабнинг иккитаси, яъни, ақл ва меҳнат омиллари фақат узлуксиз тарбия орқали амалга оширилади.

Тарбиянинг драйверлик роли нафақат ҳаётий муаммоларга тўғри ечимлар топишга балки, инсоннинг шахс сифатида шаклланиб, билим ва мотивацияга эга бўлиш, етук мутахассис сифатида ҳаётда ўзлигини намоён этиш жараёнларида ҳам бевосита ўз таъсирини кўрсатиб туради. Тарбиядан кузатилган асосий мақсад ҳам аслида ҳар бир ёш йигит- қизнинг ҳаётдан хоҳ тадбиркорлик бўлсин, хоҳ врач ёки педагог бўлсин, энг муҳими ўзининг муносиб ўрнини топишига кўмаклашиш, мақсад ва мотивацияларини шакллантириб, уни тўғри йўлга солишдан иборатдир. Бу борада Президентимиз Ёшлар Форумида сўзлаган нутқларида ҳам алоҳида тўхталиб, **“Яқинда ўтказилган ижтимоий сўровлар аксарият ёшларимизда ижобий мотивация, бизнес ва тадбиркорлик соҳасида зарур билим ва малака етишмаслигини кўрсатди. Демак, уларга тадбиркорлик асосларини ўргатишга қаратилган ишларимизни янада кучайтиришимиз лозим”**, деб таъкидладилар.

Билимларнинг тарбия билан бевосита боғлиқлиги тараққиёт босқичларида миллатимизнинг маънавий яхлитлиги, иқтисодий, ижтимоий ва интеллектуал ривожланиш жараёнларида минимал ўзига ҳослик ҳамда миллий ўзликни сақлашда ҳам муҳим ўрин тутди.

Мақсади йўқнинг тарбияси сўст

Инсоннинг, хусусан, ёшларнинг ҳаётда ўз муносиб ўрнини топишларида мақсад омилининг ўрни ва роли бекиёсдир. Мақсад барча интилиш, хоҳиш, ҳаракатларнинг негизда туради ва уларга жон бағишлаб турувчи куч вазифасини ўтайди. Антик даврнинг буюк алломаси Аристотель ўзининг “Поэтика” асарида “Мақсад ҳамма нарсанинг бошидир. Мақсади бор одамнигина барқарор феъл-атвори, характери бўлади. Мақсади бор одамлар билангина бирор бир ишни битказса бўлади. Мақсади йўқлар билан эса, ҳеч қандай ишни охиригача етказиб бажариб бўлмайди”, деб таъкидлаган. Дарҳақиқат, агар инсонда ўз ҳаётини ўзгартириш, яхшилаш бўйича бирор бир аниқ мақсад, режа бўлмаса, табиийки, унда интилиш ҳам, ҳаракат ҳам, қизиқиш ёки иштиёқ ҳам бўлмайди. Мақсадсизлик ишда ва ҳаётда тайинсизлик ва қўнимсизликни ҳам юзага

чиқазади. Қўнимсизлик эса, иш жойларини танлаш ва янги иш жойида мустаҳкамланишда ҳам, топаётган маошига қаноат қилишда ҳам беқарорлик, ношукурликни юзага келтиради.

Мақсад омилининг муҳим масала эканлиги ижтимоий муносабатларда ҳам яққол намоён бўлади. Бугунги кунда ёш оилалар ўртасидаги ўзаро қелишмовчиликлар ва оилавий ажримлар негизида ҳам аксарият ҳолатларда мақсадсизлик муаммоси ҳам борлиги ва муҳим роль ўйнашини эътибордан чиқармаслик керак..

Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси олимлари томонидан аҳоли турли табакалари вакилларининг мақсадлилиқ даражаси ва ҳолати бўйича Тошкент шаҳрининг “Кўкча дарвоза”, Хоразм вилоятининг Янгибозор туманидаги бир қатор маҳаллаларида ўтказилган социологик тадқиқот натижаларининг кўрсатишича, доимий даромад манбаига эга бўлмаган ва ишсиз ёшларнинг 57 фоизиди ҳамда ҳозирда муайян фаолият билан банд бўлиб келаётган ёшларнинг 35 фоизиди ўз фаолиятини яхшилаш, такомиллаштириш бўйича яқин муддатли, яъни 2-3 йиллик ҳамда 5-10 йилга қаратилган узокрок истиқболга мулжалланган мақсад ва режаларининг умуман йўқлиги аниқланди.

Шундан сўнг ҳудудлардаги ички имкониятлар баланси ўрганилиб, тез ва сифатли ўзгартириш режаси тузилиб, айнан ҳар бир инсоннинг ҳаётий мақсадларинини шакллантириш орқали ҳолатни ижобий ўзгартириш борасида тизимли тарбиявий ишлар олиб борилди. Ҳамма нарсанинг негизида яхшиланишга интилиш, мақсадли яшашнинг фароғатини англаш ётишини одамларнинг ўзларига аниқ фаолият (касб-хунар эгаллаш, олий таълим олиш, тадбиркорлик)га жалб этиш орқали англанилди. Амалга оширилган барча ишлар эса, Президентимизнинг **“мотивация, кўникма, молиявий кўмак бериш”** модели орқали аниқ намуна, ибратли мисолларга таянган ҳолда ташкил этилди. Маълумки, мотивация сўзи моҳият эътиборига кўра, мақсад, рағбат ва интилишга шайлиқни ифодалайди.

Инсонда кучли мотивация бўлмаса, бирор бир ишнинг бошини тутиш учун шу соҳани мукамал ўзлаштириш, кўникмалар шакллантириш ҳаракати ҳам бўлмайди. Бир сўз билан айтганда ҳамма нарса мақсадлилиқдан куч олади. Юқорида айтилган маҳаллаларда мақсадлилиқни шакллантиришга асосланган мазкур ривожланиш моделини қўллаш қисқа вақт ичида қувонарли натижалар бера бошлади. Ҳар икки ҳудудда ҳам ишсизлик, боқимандалик, жамоат тартиботларини бузиш, жиноят қилиш ва айниқса, оилавий ажримлар кескин камайди. Одамларда ўзини ўзгартириш, ўз ҳаёти ва фаолиятини яхшилаш истаги кучайди. Хусусан, ёшларда олий таълим муассаларига ўқишга кириш, тадбиркорлик билан шуғулланиш, хорижга иш излаб кетиш ўрнига ўзини ўзи банд қилиш, ҳудуд ва маҳалладаги ҳамда ўзидаги қобилиятлар, ички имкониятларини тўлароқ рўёбга чиқариш ҳаракати кенг тус олди. Касб-хунарлар ёшлар томонидан пухта ўзлаштирилиб, деярли барчада ўз ҳаётини фаровонлаштириш, тадбиркорлик билан шуғулланиш, ҳаётдан завқ ва шукроналик ҳисси кучайди.

Ишонч – ярим давлат

Инсоннинг бахтли саодатли бўлиши ва маънавий ҳамда касбий қомилликка эришишининг иккинчи муҳим жиҳати ишонч омилidir. Агар инсон ўзи қилмоқчи бўлган ёки бажараётган ишига ички ишончи барқарор бўлмаса, унинг ишида баракот ҳам, фаолият натижадорлиги ҳам кутилганидек бўлмайди. Ишончлилиқнинг маънавий қадрият сифатида англаниши учун эса, даставвал, инсонда муайян соҳа, касб ёки инсон фаолиятига нисбатан барқарор қизиқиш шакллантирилиши зарурдир. Қизиқиш ҳолати қанчалар кучли бўлса, инсоннинг меҳнатининг натижалари, танлаган ишига бўлган иштиёқи, ғайрати ҳам шунча юқори бўлади. Ишонч омили ҳаётда ҳали юз бермаган, аммо, юз бериши мумкин бўлган нарсаларни инсон томонидан тасаввур этилишига, тасаввури доирасида эса эътиқоди шаклланишига кўмак беради. Бу борада инглиз ёзувчиси Вильям Шекспир томонидан келтирилган қуйидаги Худо ва Инсон ўртасидаги мулоқот нақли жуда ибратlidir. **“Мен фақат кўрсамгина ишонаман”**, -деди Инсон Худога, **“Агар ишонсанг, кўрасан”**, -деб жавоб қайтарди Худо Инсонга”. Инсон томонидан руҳий ва моддий борлиқнинг ўрнини идрок этишга қаратилган бу машҳур нақл ҳам ишонч омилининг нечоғли қудратли куч эканлигини ифода этади.

Тарбия - меҳнатга муҳаббат бешиги

Тарбия орқали бахт-саодатга эришишнинг яна бир муҳим жиҳати меҳнатсеварлик фазилати бўлиб, бу хусусият ҳам оила бағрида шаклланиб, боғча, мактаб ва мактабдан кейинги даврдаги мақсадли фаолият жараёнида мустаҳкамланади. Меҳнатсеварлик фазилати нафақат режавий тарзда бажарилувчи фаолият, балки, ҳар бир йигит-қизнинг ижтимоий фазилати ва кўникмаси даражасида шаклланишига эришиш лозим.

Қадимги эътиқодий йўналишлардан бўлган Буддизм, Жайнизм, Брахманизм диний таълимотларидаги энг муқаддас сўз бўлган “карма” сўзи “меҳнат қилиш” деган маънони англатади, яъни, ҳаётда амалга ошириладиган барча ишлар ҳам, Тангрига ибодат ҳам, яхши амаллар ҳам, “карма”, яъни меҳнат орқали намоён бўлади. Меҳнат катарсисга йўл очади, яъни, меҳнат орқали олам ва одамни янгидан кашф этиш, эхтирослар, ҳиссиётлар, рухий зўриқишлардан тозаланиш, муаммолардан халос бўлиб, покланиш имконияти кенгаяди, деб қайд этилади.

Меҳнатнинг тарбияловчи моҳиятини улуғловчи, меҳнатни сифатли адо этувчиларнинг фазилатлари ҳақида улуғ мутафаккир Абу Райҳон Беруний ҳам ўзининг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар”, ва “Ҳиндистон” китобларида алоҳида тўхталган. Айниқса у меҳнатда натижадорлик, доимийлик ва узлуксизлик хусусиятига алоҳида эътибор қаратиб, бу борада ўқитувчи меҳнатининг тарбия билан бевосита боғлиқлигига аҳамият берган. Ўқитувчи меҳнати толиб онгига узлуксиз таъсир кўрсатиши натижасида аниқ самара беришини, билим олиш эса фақат такрорланувчи меҳнат орқалигина амалга ошишини қайд этади. (Қаранг. Беруний “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асари, Т.1. 1968, 102-бет).

ПРЕЗИДЕНТИМИЗ Мурожаатномада ислохотлар тақдири биринчи галда сифатли ва натижадор меҳнатга боғлиқлиги ҳамда унинг ижтимоий самарадорлиги борасида кенг жамоатчилик эътиборини қаратди. Мурожаатнома матнини контент -таҳлил усули орқали ҳисоблаганимизда “инсон кадри”, “меҳнат,” “иш”, “фаолият”, “амалиёт”, “натижадорлик” сўзларини энг кўп ишлатилгани ҳам Янги Ўзбекистонни бунёд этишда меҳнат ва бунёдкорлик омилларининг ислохотлар тақдири учун нечоғли муҳим эканлигига амин бўламиз.

Маълумки, муайян меҳнат, инсон ёки фаолиятга бўлган муҳаббат ниҳоли даставвал қизиқишдан куч олади ва қизиқиш заминида ўсиб ўнади. Дарҳақиқат, қизиқишга асосланган меҳнатсеварликни тарбиялашда инсоннинг вақт билан ҳисоблашмаслиги, ўзи меҳр қўйган соҳасига берилиб ишлаши эътиборга олинади. Аммо, ўзгараётган замон талаблари инсондан жамиятга кўпроқ наф келтирадиган таклифлар асосида яшаш заруратини ҳам кун тартибига чиқаради. Шу боисдан ҳам қизиқишларни шакллантириш, янги дунё эҳтиёжларига мувофиқ тарзда ҳаракатланиш учун инсон ўзини ўзи мақсадли ўзгартириши ҳам катта аҳамиятга эгадир.

Бугунги кунда замоннинг энг муҳим касбий йўналишлари каторида “IT” технологиялари, қурилиш, иссиқхона юритиш, дизайн, хизматлар. боғдорчилик, чорвачилик, балиқчилик, асаларичилик, электротехника, туризм ва бошқа шунга ўхшаш соҳаларда шуғулланиш тез иқтисодий наф келтириши жамоатчилик фикрида мустаҳкамланган. Президентимиз томонидан келтирилган муҳим маълумот, яъни, АҚШнинг Гарвард университети тадқиқотларига кўра, Ўзбекистон яқин йилларда 50 дан ортиқ саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда нисбий устунликларга эгадир. Хусусан, нефт-газ, металлургия, машинасозлик, электротехника, фармацевтика, қурилиш материаллари, тўқимачилик, чарм-пойафзал, озиқ-овқат ҳамада “яшил иқтисодиёт” билан боғлиқ саноат тармоқлари иқтисодиётимизнинг “драйверлари” га айланиши учун барча шароитлар мавжуд. Шу боисдан ҳам, касбий камолотга эришишда меҳнатсеварликни мақсадли шакллантириладиган қизиқишлар негизида шакллантириш катта аҳамиятга эгадир.

Мазкур омилларнинг ўзаро уйғунлашган ҳолда амалга оширилиши Президентимиз Шавкат Мирзиёев томонидан айtilган ҳар бир ишнинг натижадорлиги “**билим, меҳнат ва ақл**” бирлигида амалга оширилишидан иборат даъватига айланиб мос тушади.

Жамоавийлик кучининг тарбия ва шукроналик омилига таъсири

Тарбия самарадорлиги миллатнинг нечоғли жамоавий эканлигига бевосита боғлиқдир. Ўзбек халқининг жамоавий табиати тарбия ишларини самарали йўлга қўйишга кенг йўл очади. Чунки жамоавий муҳит одамларга кўпчилик томонидан мақбул деб қабул қилинган йўлдан боришни рағбатлантиради. Жамоавий тарбия эса, халқимиз турмуш тарзида асрлар мобайнида шаклланиб, мустаҳкам ўрнашган урф-одатлар, анъаналар ҳамда аҳоли орасидаги обрў-эътиборли шахслар, лидерлар, кайвониларнинг ақли, салоҳияти, фидойилиги, ватанпарварлигидан куч олади. Жамоавий ёндашув одамларнинг бирлашуви, мақсадларни биргаликда рўёбга чиқаришдаги яқдиллик руҳини таъминлайди.

Миллатимизни пароканда қилишга қаратилган ҳар қандай ташқи таъсирдан кузатилган мақсад ҳам айнан халқимиз менталитетининг бош буғини бўлган жамоавий табиатимизни бузишдан иборатдир. Мурожаатномада Президентимиз томонидан жадидлар ҳаракатининг улуғ намоёндалари илгари сурган бош ғоя ҳам миллатимизни маърифат, илм, замонавий тарбия орқалигина халқни мустаҳкам бирлаштириш, буюк марраларга эришиш мақсади бўлганлиги алоҳида таъкидланди. Жамоавийликни мустаҳкамлашга ичдан зарар келтирувчи уч хавф, яъни,

халоллик тарбиясининг сустиги, ватанпарварликни ҳар вақт ва ҳар вазиятда намоён этиб бориш рағбатининг пастлиги ҳамда ўз она тилига бўлган муҳаббатнинг етишмаслигидир. Ўз она тилини ўзлаштиришга мажбурлашни давлат қонун ёки фармойишлар билан бажара олмайди. Бу иш фақат жамоатчиликнинг фаол таъсири, муассаса ва ташкилотлар фаолияти доирасида бажарилиши даркор. Жамоатчиликнинг ижтимоий фаоллигини жойлардаги фидоий лидерлар, ўз халқи маънавиятини олий кадрият деб англовчи обрў-эътиборли шахслар, халқпарвар сиёсатни амалга ошириб келаётган Президентимиз иродасини ўз шахсий маслағи ва эътиқоди деб билувчи инсонларнинг виждони бажаради.

Тарбия бу - тартиблилик

Тарбияни оддий ва содда тилда тушунтириш уни жамият қабул қилган тартиб-қоидаларга амал қилиш, тўғри яшаш, ўзини ва бошқалар ҳаётини англаш деб тушунишга олиб келади. Жамоа ва атроф-муҳитда ўзини тўғри тута билмаган одамни тарбиясиз дейишади. Шу боисдан ҳам, ёшлар тарбиясини самарали олиб бориш учун биринчи галда уларни оилада, ўқиш ва ишхоналардаги тартибларга қатъий риоя қилиш кўникмасини шакллантириш катта аҳамиятга эгадир.

Тартиб сўзи улуғ мутафаккирлар Форобий, Беруний, Амир Темур, Навоий асарларида инсон одобининг энг улуғ зийнати, деб талқин этилган. Хусусан, Форобий оддий инсон, давлат хизматчиси ёки ҳукмдорнинг жамият тартиботларига риоя қилиш фазилатини фозил давлатнинг асоси деб, тушунтирса, Беруний **тартибли фаолият жамиятнинг ижобий анъанасига, тартиблаган билимлар эса, илм-фанга айланади**, дейди. Шунингдек, Амир Темур тартибларга риоя қилишни бош кадрият сифатида англаганлиги сабабли, ўзини мамлакатнинг бош ҳукмдори, хони эмас, балки ҳукумат раҳбари, амири сифатида тутган. Алишер Навоий эса, тартибларга риоя қилиш маданиятини тарбиянинг бош буғини - ақллилик билан боғлайди. Улуғ мутафаккир ўзининг “Мажолисун нафоис” номли асарида ўша даврдаги ўндан ортиқ таниқли шахсларнинг ноўрин ҳатти-ҳаракатлар қилиш орқали эътибордан қолганликлари, яъни, амалдаги жамоа тартиботларига риоя қилмаган Хуррабий, Биноий, Шоҳий сингари шахсларнинг изза бўлиб, бир жамоада ўзининг обрў-эътиборини барқарор сақлай олмасдан бошқа жойларда сарсон-саргардон бўлганликлари тўғрисида ёзган.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг ёшларни тўғри тарбиялаш энг аввало, жамиятимизда асрлар мобайнида шаклланган тартиботлар, миллий кадриятлар бўлган каттага ҳурмат, кичикка иззат, ота ва она кадрлаш, касб-ҳунарни эъзозлаб аجدодлардан авлодларга ўтказиш, устозларга эҳтиром анъаналарига қатъий риоя қилишга боғлиқ эканлигига эътибор қаратмоқдалар. Бунинг учун эса, уч авлод учрашувлари, устоз-шогирд анъаналари, “бир нурунийга ўн ишсиз ёш” ва бошқа ўнлаб ташаббуслари жамият тартиботларига ёшларнинг эъзозли муносабатини шакллантиришга қаратилганлиги билан қимматлидир.

Тарбия бу – сифат

Тарбиядан кутиладиган асосий натижа бу одам ёки жамоадаги амалдаги ҳолатни ижобий томонга ўзгартиришга эришиш ҳисобланади. Ижобий ўзгариш эса сифат кўрсаткичи саналади. Таълим соҳасида сифат кўрсаткичи билимларнинг юқори даражаси, илм-фаннинг фаол тижоратлашуви тарзида намоён бўлади. Тарбияда эса, сифат кўрсаткичи Янги Ўзбекистоннинг стратегик мақсадларига айна мувофиқ бўлган ёшлар умумментал ахлоқи, ижтимоий мўлжаллари ҳамда сиёсий дунёқарашининг ягона маънавий стандарти шаклланиши ҳамда бу маънавий стандартнинг халқимизнинг уч минг йиллик миллий маънавиятимиз, давлат ва жамиятимиз манфаатларига мос келиши, ватанпарварликнинг юқори фаоллик даражасида намоён бўлишида кўринади.

Дунёда юз бераётган глобал ўзгаришлар анъанавий тарбия мазмунига катта таъсир кўрсатмоқда. Айниқса, сунгги 35 йил мобайнида мамлакатимиз ёшларининг муайян қисми хориж давлатларига меҳнат миграциясида бўлиб қайтганлари, илғор хориж давлатларнинг олий ўқув юртларида таълим олаётганликлари, интернет тармоқларидан турли йўналишлардаги маълумот ва ахборотлардан эркин фойдаланаётганликлари уларнинг ҳаёт ва фаолиятларга бўлган муносабатига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Ёшлар қатлами таркибида муайян даражадаги ёшлар миллий адабиётимиз, санъатимиз ва маданиятимиздан йироқлашиб қолганлар, ўзга давлатларнинг сиёсий ғояларига эргашишга мойиллар юзага келди. Бир сўз билан айтганда, ёшлар маънавиятининг сифат таркиби жиддий трансформацион ўзгаришларни бошидан кечирмоқда.

Ана шундай мураккаб шароитда тарбиянинг сифат мезони ҳар бир ёшнинг ўзини ўзи тубдан ислоҳ этиши, ўзгаришларга шайлиги, маънавий яхшиланиш мақсадини ҳаёти ва фаолиятининг мазмуни сифатида теран англашида намоён бўлади.

Ибратни бошқариш

Мамлакатимизни тубдан ислоҳ этиш, уни ривожланган давлатлар қаторига чиқариш, халқимиз ҳаётини фаровон қилиш борасида Президентимиз ибрат омилини муҳим тарбиявий қадрият даражасида ҳаётимиз ва фаолиятимизнинг барча соҳаларига сингдирмоқдалар. Ибрат омилини оилавий тарбия, таълим, санъат, маданият, ижтимоий фаоллик ва ҳатто тадбиркорлик борасида қандай қўллаб, самара олиш юзасидан аниқ шакл ва механизмларни тавсия этганликларини яхши биламиз. Хусусан, “энг яхши оила”, “йилнинг энг яхши ўқитувчиси”, “фаол, намунали маҳалла”, “энг ёш тадбиркор”, “касби комиллик”, “1+1”, “1+10”, “фаол депутат”, “яшил макон” сингари номланиш, йўналиш ва шаклларда ибрат омилини кенг ижтимоий ҳаракатга айлантириш жонланмоқда.

Барчамиз таълим соҳасида Президент мактаблари, ихтисослаштирилган мактабларнинг мамлакатимиздаги барча таълим муассалари учун **ибрат омили** сифатида ташкил этилганлиги ва бу ерда ўқийдиган иқтидорли ўқувчилар қўлга киритаётган қувончли натижалардан мамнунмиз. Зеро, давлатимиз раҳбари Президент мактаблари ва ихтисослаштирилган таълим муассасалари ҳақида тўхталиб, **“бу мактаблар юқори даражадаги таълим муҳитини, илғор методикани бошқа мактабларга ҳам олиб кириши керак”**, деб алоҳида таъкидлаганлари ибрат омилининг катта ижтимоий масъулияти, кучи ва имкониятларига берилган баҳодир. Яқин келажакда таълим ва бошқа соҳаларда ана шу ибратли умуммиллий ҳаракат катта натижалар бериши шубҳасиздир.

Аммо, ибрат омилини том маънодаги тарбиявий ва ижтимоий ҳаракатга айлантиришда ижтимоий бошқарув механизмлари етарли даражада қўлланилмаяпти. Ибрат омили орқали тарбиялашга доир фаолият билан асосан давлат идоралари, Ёшлар агентлиги, вазирлик ва ҳокимликлар муайян даражада шуғулланмоқдалар. Нодавлат ташкилотлар, партиялар, хотин-қизлар ташкилоти, маҳалла тузилмалари эса, ибратнинг қудратли кучидан етарли даражада фойдаланилмаяптилар. Яхшидан ибрат олиш, намунага эргашиш, устозларнинг этагидан маҳкам тутиш ишларини тизимли ривожлантиш ўрнига ўз ҳолига ташлаб қўйилган, десак хато бўлмайди. Ибрат омилини турли соҳалардаги меҳнат фаолиятларида, таълим ва тарбияда тизимли бошқариш механизми ҳам, назорати ҳам, ҳисобдорлиги ҳам йўқ. Бундай ёндашув кўпгина яхши ташаббусларнинг эътибордан қолиши ва унутилишига олиб келмоқда.

Ибрат омилини реал кучга айлантириш учун у аниқ режалаштирилиши, раҳбарлар ва фаол шахслар фаолиятининг муҳим йўналиши сифатида идрок этилиши ҳамда қатъий назоратини йўлга қўйилиши зарурдир. Зеро, мақсадли ва аниқ манзилли тарзда бошқарилмайдиган, эътиборсизлик билан ўз ҳолига ташлаб қўйиладиган ҳар қандай эзгу иш ҳам муқаррар равишда таназзулга юз тутади. Шу боисдан ҳам, Президентимизнинг миллатимизнинг буюк тарихи ва маданиятининг буюк ворислари бўлган ёшларга мурожаат қилиб, **“аждодлардан ибрат олиб, ҳаётда муъжизалар яратишга астойдил интилишингиз керак”**, деган сўзлари ҳам ибратнинг буюк қудратини яна бир бор тасдиқлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон / Шавкат Мирзиёев. — Тошкент: Ўзбекистон, 2024.
2. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Шавкат Мирзиёев. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
3. Мирзиёев.Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев.Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб- интизом ҳамда шахсий жавобгарлик — ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

ЎЗБЕКИСТОН ПРЕЗИДЕНТИ – ГЛОБАЛ ТАРАҚҚИЁТНИНГ ЯНГИ МОДЕЛИНИ
ЯРАТАЁТГАН БОШ МЕЪМОР

Алишер Мўминов,
“Барқарор ривожланиш маркази” экспертлари,
С.ф.д., профессор

Гулҳаё Барноева,
тадқиқотчи

Аннотация. Мазкур мақолада покистонлик адиб ва журналист Муҳаммад Аббос Хоннинг “Ўзбекистон: Учинчи Ренессанс — тараққиёт концепти” асари таҳлил қилинади. Унда Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилган Учинчи Ренессанс ғояси глобал тараққиётнинг янги модели сифатида талқин этилади.

Калит сўзлар: Учинчи Ренессанс, Янги Ўзбекистон, глобал тараққиёт модели, Буюк Ипак йўли, маънавий мерос, илм-фан ва таълим, гуманитар ҳамкорлик, цивилизацион тараққиёт.

Аннотация. В данной статье анализируется произведение пакистанского писателя и журналиста Муҳаммад Аббос Хон «Узбекистан: Третий Ренессанс — концепция развития». В нем идея Третьего Ренессанса, выдвинутая Шавкат Мирзиёев, интерпретируется как новая модель глобального развития.

Ключевые слова: Третий Ренессанс, Новый Узбекистан, модель глобального развития, Великий шелковый путь, духовное наследие, наука и образование, гуманитарное сотрудничество, цивилизационное развитие.

Abstract. This article analyzes the work “Uzbekistan: The Third Renaissance — The Concept of Development” by Pakistani writer and journalist Muҳammad Abbos Xon. It interprets the idea of the Third Renaissance, put forward by Shavkat Mirziyev, as a new model of global development.

Keywords: Third Renaissance, New Uzbekistan, model of global development, Great Silk Road, spiritual heritage, science and education, humanitarian cooperation, civilizational development.

Покистонлик адиб ва журналист Муҳаммад Аббос Хоннинг урду тилидаги “Ўзбекистон: Учинчи Ренессанс — тараққиёт концепти” бадиий-публицистик асари ўзбек тилига таржима қилиниб китобхонларга тақдим этилмоқда.

Покистонлик сиёсатчи ва илмий экспертларнинг фикрича, ушбу асар ва унда кўтарилган фикр ва талқинлар нафақат Покистоннинг, балки бошқа мамлакатларнинг илмий ҳамжамияти томонидан ҳам юқори баҳоланмоқда.

Мазкур асарда жаҳон миқёсидаги давлат ва сиёсат арбоби Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилган Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш ғояси буюк цивилизациявий ўзгаришлар лойиҳаси сифатида талқин этилган.

“Зеро, деб ёзди покистонлик ёзувчи, — Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев Жаноби Олийларининг Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш ғояси — вақт измига бўйсунмас абадий ғоя.

Ушбу китоб “Янги давр тасодифан шаклланмайди. У, аввало, шууримизда уйғониб, ҳаётимизда намоён бўлади”, деган фикрлар билан бошланади.

Ушбу асарга шахсан Покистон Бош вазири жаноб Муҳаммад Шаҳбоз Шариф сўз боши ёзганлиги Покистон давлати ва халқининг Президентимизнинг ғоялари ва халқлар ўртасида ҳамкорлик ва хавфсизликни таъминлашга қаратилган глобал миқёсдаги қатор ташаббусларининг ҳам юксак эътирофидир.

“Мазкур китоб, — деб ёзди Покистон Бош вазири жаноб Муҳаммад Шаҳбоз Шариф ўз сўзбошисида, — кадрдон дўстим, Жаноби Олийлари Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилган Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс пойдеворини яратиш ташаббусини, унинг ғоявий концепциясини чуқурроқ англашга ёрдам беради. Ўзбек халқининг буюк аجدодлари маънавий меросига таянган бу улуғвор ғоя бутун башариятнинг фаровон келажагига хизмат қилиши шубҳасиздир”.

Муҳаммад Аббос Хон ўзининг мазкур асарида Ўзбекистоннинг янги тараққиёт босқичи, ислохотларнинг фалсафий асосларини ва Президент Шавкат Мирзиёевнинг стратегик дунёқараши ва амалга ошираётган эзгу ишларини таҳлилий ва ҳаётий мисоллар орқали очиқ берган.

Хусусан, асарнинг “Вақт измига бўйсунмас абадий ғоялар” деб номланган бобида муаллиф Учинчи Ренессанс ғоясини замонамизнинг янги глобал модели сифатида талқин этади. Асарда таъкидланишича: “Ишончим комилки, Ўзбекистон Президенти Учинчи Ренессанс ғоясини илгари сурганда ушбу умумбашарий қадриятларга асосланган келажак доктринасини дунё ҳамжамиятига етказишни ният қилган”.

Учинчи Ренессанс ғояси китобда маърифат, тинчлик ва мулоқот қадриятларига асосланган чуқур трансформация лойиҳаси сифатида изоҳланган. Қайд этиш лозимки, Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Хайрли иш яхши ниятдан бошланади” деган сўзлари муаллиф томонидан китобнинг фалсафий асоси сифатида талқин этилган. Демакки, чин маънодаги ўзгаришлар инсоннинг эзгулик ва адолатга хизмат қилиш истагидан бошланади.

Мазкур асарда давлатимиз раҳбарининг инсонпарварликка асосланган янгича тафаккури акс эттирилган. “Менинг назаримда, – деб ёзади Муҳаммад Аббос Хон ўз асарида, – инсоният тарихида давлат ёки империянинг мавжудлигидан ҳам барқарорроқ нарса — бор. Бу — буюк ғоялар. Улар тарихнинг йўналишини ўзгартириб, келажакни шакллантира оладиган қудратли куч ҳам ҳисобланади. Ана шундай ғоялардан бири – Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш ғояси, деб биламан. Мазкур ғоя инсон тафаккурининг бемисл уммонига қуйилувчи қудратли дарёга ўхшайди”.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан жаҳон сиёсати луғатига “Янги Ўзбекистон” тушунчасининг киритилиши ўзига хос ҳам илмий ва ҳам тарихий аҳамиятга эгадир. Бу ғоя асосида, бир томондан, ҳозирги ва яқин келажак авлодларнинг Учинчи Ренессансга пойдевор қўйишдек эзгу мақсад ва интилишлари, иккинчи томондан, ўзбек халқининг қадим тарихида Биринчи ва Иккинчи Ренессансга бошлаб берган буюк мутафаккирларнинг орзу армонлари ҳам мужассам.

Ўзбекистондаги Учинчи Ренессанс — фақат Ўзбекистон халқи учунгина эмас, балки минтақадаги бошқа давлатлар, эҳтимол, янада кенгроқ глобал жараёнлар учун ҳам муҳим аҳамиятга эга.

“Ишончим комилки, бу ғоя нафақат Ўзбекистон келажаги учун асос, балки янги, янада уйғун ва самарали дунёни шакллантиришнинг инновацион модели ҳамдир” – деб таъкидлайди муаллиф.

Учинчи Ренессанс ғояси — бу олов янглиғ “лов” этиб ёниб, тезда сўнадиган ҳодиса эмас. Бу атрофни қуршаган қоронғуликни аста ёритувчи нурдир. Бу нигоҳ – масъулиятга тўла назардир. Агар Биринчи Ренессансда инсон “Мен яратувчиман”, Иккинчи Ренессансда “Мен тадқиқотчиман” деган бўлса, Учинчи Ренессансда у “Мен олам яхлитлигининг бир бўлагиман”, демоғи керак, деб таъкидлайди муаллиф.

Муаллиф Ўзбекистонни инсоният тамаддунига беназир ҳисса қўшган юрт сифатида таърифлайди. “Мамлакатлар борки, улар китоб саҳифаларига ўхшайди — ўқиб, ёпиб қўясан, – деб ёзади муаллиф. – Аммо муқаддас Ўзбекистон заминининг тарихи келажак истиқболни белгиловчи китобдир. Бу муқаддас замин ўтмишини ўрганган инсон аввалгидек қолмайди, у албатта ўзгаради. Чунки ҳақиқий тарих худди яхши суҳбатдошга ўхшайди: ўргатмайди, муҳокамага чорлайди, фикрлашга, хулоса чиқаришга ундайди”.

Маънавий мерос – Учинчи Ренессанснинг мустаҳкам пойдевори экани, Ўзбекистон – асрий донишмандлик ва Буюк уйғониш оҳангида бонг ураётган тамаддун юрти экани, уч минг йиллар мобайнида тўпланган бебаҳо маданий ва маънавий мерос туганмас хазина экани Янги Ўзбекистон тарақиётига хизмат қилаётгани ҳаётий мисоллар ҳамда Осиё, Европа, АҚШ сиёсатчи ва тарихчи олимларининг асарларидан олинган иқтибослар орқали баён этилган.

Фикримизча, муаллиф ўз асарини ёзишда Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг фундаментал асарларидан бири – “Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон” номли китобидан илҳомланган.

Зеро, асарнинг “Учинчи Ренессанс — Буюк Ипак йўли ғояларининг вориси” боби Президентимизнинг Буюк Ипак йўли анъаналарини замонавий шароитда қайта тиклаш ҳақидаги ғоясига ва Учинчи Ренессансга етаклаётган иқтисодий-стратегик ташаббуслар талқинига бағишланган. Муаллиф фикрига кўра, Буюк Ипак йўли фақат тарих саҳифаларида сақланиб қолмаган, балки бу муқаддас юртнинг қалбида, халқнинг хотираси ва маданий ўзлигида ҳамон яшамоқда. Шунингдек, Учинчи Ренессанс ғоялари орқали ушбу мерос янги аср талаби ва глобал тараққиёт қадамлари билан уйғунлашиб, замонавий Ўзбекистоннинг маънавий ва иқтисодий ривожланишини таъминлайди.

“Жаноб Шавкат Мирзиёевнинг Буюк Ипак йўлини янги тарихий шароитда қайта тиклаш ғояси — бу шунчаки стратегик ташаббус эмас. Ўзбекистон етакчиси “Ипак йўли дарвозалари”ни дунёга очар экан, янгиликдан қўрқмайди, уни кутмайди — балки ҳар қандай янгиликни унинг ўзи яратади. Менинг тушунчамга кўра, бу — янги дунё тартибига мутлақо янги чақириқдир. Бу — фарқлар ажратилмайдиган, балки бойитилмайдиган, глобал бирлик эса миллий ўзликка ҳурматдан бошланадиган дунёни қуришга даъватдир”, – деб таъкидлайди муаллиф.

Зеро, Буюк Ипак йўли анъанасини тиклаш — бу нафақат дипломатия, балки ишонч фалсафасидир. Бу — қўрқув, ёпиқлик ва яккаланишга қарши курашдир. Бу – бир вақтлар карвон йўллари шаҳарлар ва тамаддунларни боғлагани каби, бугун ҳам истак ва самимият билан биз онг ва қалбларни бирлаштира олишимиз мумкинлиги ҳақидаги эслатмалар. Бу башариётнинг зиддияти эмас, балки мулоқот, эътибор ва ҳамкорликда яшаш қобилиятидир.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек, бугун Ўзбекистоннинг жаҳон бозорларига муносиб чиқиши ва Буюк Ипак йўлини замонавий тарихий шароитда қайта тиклаши – мамлакатимиз учун устувор мақсаддир. Зотан, ушбу сайёҳ-ҳаракатлар Учинчи Ренессанснинг мустаҳкам пойдеворини барпо этишга хизмат қилади.

Асардаги “XXI асрда Ўзбекистон, кўп асрлар олдин бўлганидек, яна дунёга юзланмоқда: интеллектуал тараққиёт ва уйғун иқтисодий ҳамкорликни ривожлантириш борасида Ўзбекистон учун янги уйғониш даври бошланди. Турли мамлакатлар Хитой, Марказий Осиё, Яқин Шарқ ва Европани боғловчи транспорт йўлакларини тизими бўлган “Янги Ипак йўли” ҳақида гапирмоқдалар.

Ипак йўлини тиклаш борасида амалга оширилаётган сайёҳ-ҳаракатлар — дунёга очилик, ҳурмат ва янги уйғониш даври сари ҳаракатни бошлаш демакдир. Ўзбекистон етакчисининг қуйидаги сўзлари унинг глобал микёсда фикрлашидан далолат беради: “Ўтмишда бўлгани каби, тараққиётнинг моҳияти рельслар ва магистралларда эмас, балки одамларда — уларнинг маданияти, қадриятлари, ишончи ҳамда мулоқотга ва тинч-тотувликда яшашга интилишида, уларнинг умид ва орзуларидадир”, деган фикрлар аниқ мисоллар ёрдамида шарҳланган. “Айнан шу каби илғор ғоялар билан Ўзбекистон минтақавий ҳамкорликнинг янги намунаси — янги моделини ҳам тақлиф этмоқда”, деб алоҳида қайд этади.

Асарнинг “Уйғониш даври илм-фан ва маърифатдан бошланади” номланган боби китобхон эътиборини ўзига алоҳида жалб этади, деган фикрда. Негаки, бугун мамлакатимизда Ренессанснинг учинчи тўлкини тобора буюк суръат билан намоён бўлмоқда. Маърифат, илм-фан ва таълим эса Учинчи Ренессанс ғоясининг асосий ҳаракатлантирувчи кучига айланди. Янги Ўзбекистонда илм-фан, инновацион технологиялар ва илғор кашфиётлар барчамиз орзу қилган ушбу уйғонишнинг ҳаётбахш руҳини юксалтирмоқда. Аждодларимизнинг маънавий илдизлари эса замонавий Ўзбекистон тараққиётида ўзининг мустаҳкам ва муносиб ифодасини топмоқда.

Айниқса Президент мактаблари бу келажак ижодхоналаридир. Ўзбекистон янги авлодни — нафақат профессионаллари, балки илғор фикрлайдиган инсонларни шакллантирмоқда. Миллат етакчиси орзу қилаётган Ренессанснинг давом эттириш, янада чуқурлаштириш ҳам айнан уларнинг зиммасидадир.

“Президент мактаблари, – деб ёзади покистонлик адиб, – Шавкат Мирзиёевнинг шахсий ташаббуси билан ташкил этилган инновацион умумтаълим муассасалари тармоғидир. Бундай мактабларни ташкил этишдан мақсад — замонавий дунё чақириқларига жавоб бера оладиган янги авлод етакчилари ва мутахассисларини тайёрлаш. Халқаро ўқитиш услублари (масалан, Cambridge, IB) изчил жорий этилган ушбу мактабларда, таълим ва тарбия ўзбекистонлик ва хорижлик малакали ўқитувчилар ёрдамида, ўқувчиларни саралаш эса қатъий танлов асосида амалга оширилади. Зеро, Янги Ренессанс ғояси кучли инсонлар танловидир. Бу нафақат тарихий давр, балки қалб амри ҳамдир”.

Асарда, жумладан, Ўзбекистон миллий давлатчилиги ривожининг уч минг йилдан зиёд тарихий тажрибасига оид қатор тарихий мисоллар келтирилади. Китобхон Самарқанддан Бухорогача, Хивадан Тошкентгача бўлган бепоён ўзбек замини асрлар давомида маданиятлар ва савдо йўллари чоррахаси, Шарқ илмий, фалсафий ва маънавий тафаккурининг юраги бўлиб келганини англаб олади.

Асарда Ўзбекистон Президентининг Биринчи Ренессанс даврида Ўзбекистон заминида илм-фан соҳасида дунёга машҳур буюк хирадмандлар, хусусан, Муҳаммад Хоразмий, Аҳмад Фарғоний, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Имом Бухорий, Имом Мотурудий ва бошқа алломалар, ўнлаб даҳолар ўзларининг жаҳон микёсидаги илмий ютуқ ва кашфиётлари билан инсоният ривожига улкан ҳисса қўшган, деган фикрлари ўнлаб мисоллар, Ўзбекистон, Германия,

Англия, АҚШ, Франция каби давлатларнинг етук олимлари асарларидан олинган иқтибослар орқали баён этилган.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Буюк аждодларимизнинг бетакрор ва ноёб илмий-маънавий мероси биз учун ҳаракатдаги ҳаётий дастурга айланиши керак. Бу ўлмас мерос бизга ҳамиша куч-қувват ва илҳом бағишлаши лозим”, деган сўзлари китобнинг “Асрий донишмандлик ва Буюк уйғониш оҳангида бонг ураётган тамаддун юрти” бобининг асосий мазмунини белгилайди.

Буюк аждодларнинг маънавий меросига таянган Учинчи Ренессанс ғояси покистонлик адиб назидида фақат сиёсий ташаббус сифатидагина эмас, балки бутун инсониятнинг адолатли, маърифатли ва бунёдкорликни шиор қилган келажаги учун ўзига хос гуманитар-маданий платформа тарзида намоён бўлади.

“Шавкат Мирзиёевнинг ғояси – инсон тафаккурининг бемисл уммонига қуйилувчи қудратли дарёга ўхшайди. Фикримча, бу ғоялар нафақат Ўзбекистон келажаги учун асос, балки янги, янада уйғун ва самарали дунёни шакллантиришнинг инновацион модели ҳамдир.

Чунки бу концепция фан, маданият, технологиялар ва инсонпарварлик қадриятларини уйғунлаштирган ҳолда инсоният тамаддунини тизимли равишда ўзгартириб, янгилаб боришни тақлиф этади” – деб таъкидлайди муаллиф.

Хусусан, У ўз фикрини аниқ тарихий ҳужжатли маълумотлар, кўплаб ишончли манбалар ва таниқли европалик олимларнинг гувоҳликлари асосида исботлашга ҳаракат қилади. “Ўша давр мутафаккирлари, олимлари ва маданият арбобларининг аксарияти айнан, туркий муҳитдан – Хоразм, Бухоро, Самарқанд, Шош, Фарғона ва Насаф каби муаззам заминларда етишиб чиққан”, – деб уни европалик тарихчиларнинг асарларида келтирилган мисоллар ва тарихий далиллар орқали исботлайди.

Хусусан, ушбу китобда таниқли олим Фредерик Старрнинг (АҚШ) фикрини ўқир экансиз, жуда қизиқ бир тарихий далил эътиборингизни олмай қолмайди. Муаллиф ўз асарида шундай ёзади: “ХІ асрда яшаган араб олими Абу Али аль-Мисрий араб тилида ижод қилган барча “даврнинг энг муносиб кишилари” рўйхатини тузганида, умумий 415 кишининг учдан бир қисми Марказий Осиёдан чиққан, яъни туркийлар эди. Айниқса, табиий фанлар, фалсафа ва математика соҳаларида Марказий Осиёнинг устунлиги яққол кўзга ташланади — бу йўналишда минтақа олимлари умумий соннинг 90 фоизини ташкил этган. Бу олимларнинг она тили асосан туркий тиллар оиласига мансуб бўлган”. Фредерик Старр алоҳида жўшқинлик билан ишончли тарзда фикр билдириб, Ислом олтин асрининг ҳақиқий интеллектуал маркази Марказий Осиё бўлганини таъкидлайди. Ана шундай марказлар асосан ҳозирги Ўзбекистоннинг Урганч, Хива, Бухоро, Самарқанд, Насаф, Шош (Тошкент) Марғилон каби ўнлаб шаҳар ва қишлоқлари бўлганлигини таъкидлаб ўтади.

Бинобарин китобда, шунингдек, Шавкат Мирзиёевнинг Учинчи Ренессансни шакллантириш ғояси мустаҳкам тарихий асосга эга экани алоҳида таъкидланади. Муаллиф шундай ёзади:

“Ғоялар — бу абстракт тушунчалар эмас, балки тарих йўналишини ўзгартиришга қодир улкан кучдир. Ўзбекистон Президенти жаноб Шавкат Мирзиёевнинг Учинчи Ренессанс концепцияси — шунчаки ғоя эмас, балки инсонпарварлик, маърифат ва таълимга асосланган аниқ амалий дастурдир. Унинг мақсади — барқарор ривожланиш ва фаровонликка эришиш, кенг маънода эса — адолатли ва самарали жаҳон тартибини барпо этишдир”.

Шунингдек, муаллиф ўз асарининг “Юксак билим ва буюк кашфиётлар бешиги” номли бобида бутун инсоният меросига айланган, Биринчи ва Иккинчи Ренессансни яратишда беназир ҳисса қўшган Ал-Хоразмий, Ал-Фарғоний, Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, Мирзо Улуғбек каби буюк алломалар ҳақида атрофлича сўз юритади.

Ушбу бобнинг аксарият саҳифалари Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Замахшарий, Баҳовуддин Нақшбанд каби ислом оламининг маънавий пешволари ижодий меросига бағишланган.

Китобда, шунингдек, жадидчилик феномени — ХІХ асрнинг охирида Ўзбекистонда шаклланган маърифатпарварлик ҳаракати ҳам таҳлил қилинади. Муаллиф таъкидлайдики, жадидлар учун халқни маърифатлаштириш — тараққиётнинг калити бўлган. У ислохотларнинг ғоявий жиҳатларини, миллий онг уйғониши ва маънавий янгиланиш масалаларини таҳлил қилади ҳамда уларни буюк покистонлик файласуф Муҳаммад Иқбол фалсафаси билан қиёсий таҳлил қилади.

Ислоҳотлар таълим билан, иқтисодий тараққиёт эса инсонпарварлик ғояларини тиклаш билан бирга олиб борилганда барқарор тараққиётга эришиш мумкин. Шу маънода, Ўзбекистон интеллектуал компас-кутбнамо бўлиб, Евроосиёнинг қоқ юрагида жойлашган мамлакат сифатида яна янги ғоялар ва мулоқотлар марказига айланмоқда. “Иккинчи Шарқ Уйғониш даври” сифатида — Темурийлар Уйғониш даврига мурожаат қилишнинг долзарблиги шундан келиб чиқади.

Зеро, улуғ Ренессанс тажрибаси энди фан, маънавият, маданият ҳамда инновацияларнинг ягона, уйғун ривожланиш моделига бирлаштирилади. Бу эса “келажак формулаларини” яратиш имконини беради. Шунинг учун ҳам китобимнинг бешинчи боби асосий ўринни эгаллайди. У Ўрта асрлар даврининг буюклиги ва келажакка интилаётган замонавий воқелик ўртасидаги ўзига хос кўприк бўлади. Темурийлар Уйғониш даври Амир Темури ва унинг авлодлари Улуғбек, Шохрух, Ҳусайн Бойқаро ва бошқалар ҳукмронлик қилган замондир. У ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида XIV–XVI асрларда гуллаб-яшнаган улкан маданий ва илмий кўтарилишдир. Биринчи Шарқ Ренессансини буюк даҳолар — Хоразмий, Беруний, Ибн Сино каби алломалар яратган бўлса, иккинчиси билим, куч ва санъат уйғунлигида содир бўлди. Бунда ғоялар давлат сиёсатига, илм-фан эса салтанат таянчига айланди.

Шавкат Мирзиёевнинг таъбири билан айтсак, деб ёзади муаллиф: “...замонлар ўтади, муҳит ўзгаради. Бугунги пойдевор натижасини ҳалқимиз албатта кўради. Ёшларимиздан яна кўплаб бухорийлар, берунийлар, улуғбеклар етишиб чиқади”.

Дарҳақиқат, буюк тафаккур тарихий билим ва ҳақиқатга интилиш бор жойда ҳамиша давом этади. Ўзбекистон тарихи бу заминдан етишиб чиққан жаҳонга машҳур даҳоларга бой. Агар ҳозирги авлод сифатли таълим, илмий мадад ва фикр эркинлигидан баҳраманд бўлса, Президентимизнинг сўзлари рўёбга чиқиши шубҳасиз.

Мазкур асарнинг хулосаларидан бири қуйидагича: “Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев Жаноби Олийларининг халққа хизмат қилиш — келажакка хизмат қилиш демакдир, деган самимий фикрларида мен Учинчи Ренессанснинг ҳақиқий моҳиятини англайман. Зеро, Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида Ўзбекистоннинг ҳар бир сўзи, эзгу ҳаракатлари ҳамда ҳар бир ташаббуси қўллаб-қувватланганидан ва олға ташланган ҳар бир қадами инсонийликнинг абадий қадриятларига таянган ҳолда амалга ошириладиган ўзаро ҳамжиҳатлик мамлакатига айланмоқда.

Янги Ўзбекистон том маънода уйғунлик манбаига, инсон яна ўзлигини топадиган заминга айланмоқда. Дунёнинг бу муқаддас гўшаси барча халқлар учун очикдир. Ўзбекистоннинг бунёдкор халқи ўз ғояларини дунё билан бўлишишга, оламни тинчлик ва ҳамжиҳатликда жаннатга айлантиришга тайёр.

Ишончим комилки, Учинчи Ренессанс фақат улкан ғоя бўлиб қолмайди; у барқарор келажакка олиб боровчи амалий йўл — харита сифатида ҳам хизмат қилади. Бу ғоянинг туб қиймати — ҳамкорлик, билимни бирга яратиш, ишончни қайта тиклаш — барча учун фаровон, уйғун ва бир-бирига бағрикенг дунёни бунёд этишга ёрдам беради.

Мен шунга ишонаманки, вақтлар ўтиб, инсоният ана шу қадриятларга таянган ҳолда янги бир олам яратади. У оламда халқлар қўлни-қўлга бериб ишлайди, илмларни бирга кашф этади, муносабатлар ишончга қурилади. Ва шу дунё учун пойдевор Учинчи Ренессанс ғояси бўлади.

Китоб фалсафий хулоса билан яқунланади: Ислоҳ — бу Ҳақни англаш, ахлоқий покланиш ва яхшилиқка интилиш йўлидир. У — тинчлик, адолат ва ҳақиқий инсонийлик дини ҳисобланади. Муаллиф таъкидлаганидек, Шавкат Мирзиёев ушбу қадриятлар орқали ўз халқига маънавий уйғониш ва фаровонлик сари йўл кўрсатишга интилади.

“Ўзбекистон: Учинчи Ренессанс — тараққиёт концепцияси” номли ушбу асар, шубҳасиз, нафақат ўзаро тушуниш кўприги, балки Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларни чуқур англаш калити бўлиб хизмат қила олади.

Мазкур китоб ўқувчини теран мулоҳазага чорлайди — унда давлатимиз раҳбарининг тарих девор эмас, балки кўприкка, келажак эса рақобат эмас, балки ҳамкорлик майдонига айланади, деган фикрлари аниқ мисоллар ва ҳаётий воқеалар орқали ифода этилган. Асар китобхонга Ўзбекистоннинг маданий янгилиниш, халқлар мулоқоти ва ижодий ҳамжиҳатлик майдонига айланиб бораётганини чуқурроқ англашга ёрдам беради.

Шуни таъкидлаб ўтиш керакки, “Ўзбекистон: Учинчи Ренессанс — тараққиёт концепти” номли ушбу асар Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларни чуқур англаш учун мустаҳкам асос бўла олади.

Покистонлик сиёсатчи ва илмий экспертларнинг фикрича, ёзувчи Муҳаммад Аббос Хон томонидан ёзилган ушбу асар ва унда кўтарилган фикр ва талқинлар нафақат Покистонда, балки Европа ва бошқа мамлакатларда ҳам юқори баҳоланмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон: Учинчи Ренессанс — тараққиёт концепти / Муҳаммад Аббос Хон. — Тошкент: Таржима нашри, 2024.
2. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон / Шавкат Мирзиёев. — Тошкент: Ўзбекистон, 2024.
3. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Шавкат Мирзиёев. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020-йил, 24-январ.
5. Мирзиёев.Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – ёрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев.Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
7. Мирзиёев.Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб- интизом ҳамда шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

ПРЕЗИДЕНТ МУРОЖААТИ – ПРОАКТИВ МАЪНАВИЯТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Муҳаммаджон Қуროнов,
Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти
директори ўринбосари,
Педагогика фанлари доктори, профессор

Аннотация. Мазкур мақолада Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси ижтимоий, маънавий ва сиёсий жиҳатдан таҳлил қилинади. Шунингдек маҳалла институтининг жамият ҳужайраси сифатида аҳамияти, маънавий етуқлик, ижтимоий фаоллик ва инновацион ёндашувлар асосида эришилаётган ижтимоий-иқтисодий натижалар таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Президент мурожаати, маҳалла ривож, жамиятни юксалтириш, ёшлар тарбияси, ижтимоий фаоллик, стратегик тамойил, инсон қадри, янгиланиш.

Аннотация. В данной статье проводится социально, духовно и политически ориентированный анализ Послания Президента Шавката Мирзиёева Олий Мажлису. Также рассматривается значимость института махалли как ячейки общества, а также социально-экономические результаты, достигаемые на основе духовной зрелости, социальной активности и инновационных подходов.

Ключевые слова: послание Президента, развитие махалли, повышение уровня общества, воспитание молодежи, социальная активность, стратегический принцип, ценность человека, обновление.

Abstract. This article provides a social, spiritual, and political analysis of President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis. It also examines the significance of the mahalla institution as a social unit, as well as the socio-economic outcomes achieved through spiritual maturity, social activity, and innovative approaches.

Keywords: Presidential address, mahalla development, societal advancement, youth education, social activity, strategic principle, human dignity, renewal.

Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси мамлакатимиз босиб ўтган йўл, бугунги натижалар ва эртанги марраларни халқ билан бирга муҳокама қилишга қаратилган самимий мулоқот бўлди. Мурожаатномада халқимизни

кувонтирган янги ташаббуслар, хулосалар, эришилган натижалар янги ғоя ва ташаббусларнинг кўлами, ҳажми, муддати, шиддати халқимизнинг завқига завқ қўшди. Қолаверса, бу натижа, ташаббус ва янгиликлар мазмун-моҳиятини халқимиз, айниқса, ёшларимиз онги ва қалбига жойлаш ҳар бир зиёлининг муҳим вазифасидир.

2026 йилнинг “Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили” деб эълон қилиниши халқчил сиёсатнинг мантиқий давоми бўлди. Таҳлил қилсак, бу ном Янги Ўзбекистон тараққиётининг чуқур маънавий-ижтимоий маъносини очиб берувчи концептуал код, механизм эканлигини кўради.

Маҳалла сўзи араб тилидаги “*маҳал*” — *жой, маскан, тураргоҳ* дегани. Бу сўз одамлар яшайдиган жой, кўни-кўшничилик асосида шаклланган жамоа, ўзаро таниш, қадрдон одамларнинг ўзаро масъулият ва бирдамлик макони, деган маъноларни беради. Қисқаси маҳалла бу — жамиятнинг маънавий-ижтимоий хужайраси. Демак, ривожланиш ва юксалиш хужайралардан бошланади.

Ривож сўзида (“*раважа*”) — ўсиш, кенгайиш, мукаммаллашиш, деган маънолар бор. Ривожлантириш эса: маҳаллалардаги барча салоҳиятни очиш, сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқиш, тизимли ва барқарор такомиллашув, дегани. Бу ерда гап маҳалланинг фақат инфратузилмасида эмас. Гап маҳалладошларнинг ижтимоий фаоллиги, иқтисодий имкониятлари, маънавий муҳитини ривожлантириш ҳақида кетмоқда.

Жамият сўзи “*жам*” — *йиғиш, бирлаштириш, деган* маъноларни беради. Жамият — бу одамлар, элимиз, халқимиз. “Жамият” сўзининг мақоми “аҳоли” сўздан баланд. Аҳоли бу одамларнинг статистик йиғиндиси, деб қарасак, жамият бу - умумий мақсад, қадрият ва масъулият атрофида бирлашган аҳил одамлар уюшмаси. Шу боис жамиятнинг кучли ёки заифлиги унинг хужайралари - маҳаллаларга бевосита боғлиқ.

Юксалиш бу ўсиш, лекин оддий ўсиш эмас. Бу: руҳий, маънавий, ижтимоий-иқтисодий камолот сари, юқорига кўтарилиш демак. “Жамиятни юксалтириш” деганда: инсон қадри устувор бўлган муҳит, адолат, қонун устуворлиги, фаол фуқаролик позицияси, маънавий баркамол авлод назарда тутилади. Демак, жамиятнинг юксалиши одамларнинг билим, феъли, компетенциялари, ақли ва ҳулидаги ўзгаришлардан бошланади. Ҳазрат Алишер Навоийнинг “Ақл ила олам юзин обод қил, Хулқ ила одам элини шод қил”, деган ҳикмати 500 йилдан сўнг давлатимиз сиёсатининг тамойилига айланиб турибди.

“Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили” деган номда сабаб-оқибат занжири жуда аниқ кўриниб туради. Яъни, агар маҳалла ривожланса → жамият жипслашади → жамият жипслашса → Янги Ўзбекистон барпо бўлади.

Бунинг учун давлатимиз сиёсати шундай стратегик тамойилни илгари сурмоқда: ислохотлар юқоридан пастга эмас, балки пастдан юқорига - маҳалладан жамиятга қараб амалга оширилади. Яъни Янги Ўзбекистон — пойтахтда эмас, куйидан - маҳалладан бошланади; тараққиёт деганда фақат иқтисодни эмас, маънавий юксалишни, кучли иқтисодиётга баробар кучли маънавиятни тушунишимиз керак. Чунки жамиятни юксалтириш — фақат давлатнинг иши эмас, умуммиллий масъулият. Мана шу умуммиллий масъулиятни тарбия ва тарғибот орқали қанчалик тез ва соз, натижали амалга оширсак, маҳалла ривожланади, маҳалла ривожланса — жамият юксалади. Кўзларимиз 2030 йилда янги Ўзбекистон қиёфасини кўради.

Мурожаатнома давомида миллий бирлик, ҳамжиҳатлик, Ватан манфаати ғояси бош ғоя сифатида янгради. Барчани бирлаштирадиган ягона мақсад — халқ ва Ватан манфаати экани алоҳида урғу билан айтилди. Бу эса албатта жамиятни бирлаштиради. Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти ўтказган ижтимоий сўровларда иштирок этганларнинг 90 фоиздан кўпроғи “Мен маҳалламнинг бир қисмиман”, дегани ҳам бу фикрни тасдиқлаб турибди.

Ислохотларни аниқ амалий натижага айлантириш бу янги, илғор механизмларни жорий этиш, мақсадни натижага айлантириш, дегани. Бу эса барча соҳаларда ислохотлар Президентимиз таъкидлаган “Ҳар бир соҳанинг илми бор. Илмга асосланмаган соҳанинг келажаги йўқ”, деган илмий принцип асосида ташкил қилинаётганини кўрсатади. Мурожаатномада халқимизнинг турмуши, кайфияти, динамикаси аниқ факт ва рақамларда намоён бўлди. Миллионлаб аҳолининг иш билан таъминланиши, камбағаллик даражасининг кескин пасайиши, минглаб маҳаллаларнинг “камбағалликдан холи” ҳудудга айланиши ўз-ўзидан бўладиган ишми? Йўқ, албатта. Бу натижаларда Давлат сиёсатининг марказида Инсон тургани яққол намоён бўлди.

Бу натижаларни фақат рақамлар эмас, ҳар биримизнинг кўзларимиз тасдиқлаб турибди. Келинг, бир блиссўров ўтказамиз. Мана бу 10та оддий, жайдари, содда саволга “ҳа”, ёки “йўқ”

жавобларидан бирини беринг: 1/ шаҳарларимиз жамоли ўзгараяптими? Қишлоқларимиз шаҳарга ўхшаб бораёптими? 2/ Янги корхоналар, савдо ва сервис масканлари очилаётими? 3/ Мактаб, боғча, шифохоналар қурилаяптими? 4/ Кўчалар асфальтлашиб, хизматлар рақамлашиб, ақлимизни шошираяптими? 5/ Автомашиналаримиз кўплигидан йўللарга сиғмай бораёптими? 6/ Халқимиз қишлоқлардан гуруҳ-гуруҳ бўлиб, умра зиёратларига бориб келишаяптими? 7/ Ўзбекистонликларнинг таътилни чет элларда ўтказиши оммалашиб кетаяптими? Янги 2026 йил арафасида туристик операторларимиз одамларнинг мурожаатларига «Пакетларни одамлар анча олдин сотиб олишган. Узр-а», деган жавобни беришдими? 8/ Исрофгарчиликка қарши маромийлик учун бошлаган миллий маърифий ҳаракатимизга сабаб ҳам аслида одамларимизга топган бойлигини исроф қилмасликни ўргатиш учун эмасми? 9/ Буларнинг ҳаммаси одамларимизда турмушдан орттирган пул, маблағи кўпайиб бораётганидан эмасми? 10/ Буни кўриш учун расмий ҳисобот шарт эмас, атрофга ҳолис қарашнинг ўзи етарли эмасми? Албатта, ҳисоб: “10 (ҳа): 00 (йўк)” бўлди. Бу саволларни давом эттириш мумкин. Уларга берган ҳар бир ҳолис жавобимиз биздаги розиликни, шукронани ошириб бораёпти. Бу ҳақиқатнинг боиси - биз ислохотларни аниқ амалий натижага айлантиришни ўрганганимиздан эмасми?!

Мурожаатномадаги **«Биз ўзгаришларни кутиб яшамаймиз, аксинча, уларни ўзимиз, ўз ақл-заковатимиз ва масъулиятли меҳнатимиз билан яратамиз»**, деган сатрларни ўқиганда бир азалий ҳақиқат - халқимиз бошқаларга эргашиб юрмагани, балки, аксинча, эргаштиргани эсга тушади. Бейхтиёр академик шоиримиз Ғафур Ғуломнинг “Тақдирин кўл билан яратар одам, Ғойибдан келажак бахт бир афсона”, деган ғайратли сатрлари эсга тушади. Ва албатта, ҳар биримиз ишга бораётганда, енгил автомобилимиз, электр автобуслар ойнасидан ҳар куни кўриб-кузатаётган ўзгаришларни эслаймиз.

Мурожаатномада таълим ва ёшлар тарбияси масаласига алоҳида эътибор қаратилди. Ўқувчи ва талабаларимизнинг халқаро олимпиадаларда қўлга киритаётган ютуқлари миллат келажаги билимли, рақобатбардош авлод қўлида эканини кўрсатди.

Бунга қандай омиллар сабаб? Аввало мамлакатимизда таълим тизимига жаҳоннинг энг зўр технологиялари модификация қилинаётгани, “Узлуксиз маънавий тарбия” Концепцияси амалга оширилаётгани ва кўплаб инновациялар боис бўлмоқда. Кучли маънавиятли авлодни етиштиришнинг 0 ёшдан 30 ёшгача индивидуал ва дифференциал технологияси амалга оширилмоқда. Бошқача қилиб айтганда, тарбия ва таълимда ҳам Президентимизнинг “биз ўзгаришларни кутиб яшамаймиз, аксинча, уларни ўзимиз, ўз ақл-заковатимиз ва масъулиятли меҳнатимиз билан яратамиз”, деган ғояси амалга ошмоқда.

Президентимизнинг Мурожаатномаси – маънавият ва маърифат, таълим ва тарбия ходимлари учун ҳам янги концепция, модель, дастурлар, илмий қўлланмаларнинг методологик манба. Мурожаатномадаги “Албатта, бугунги мураккаб замонда ёшларимизни турли синовларга чидамли, ватанпарвар инсонлар этиб тарбиялаш” ҳақидаги дастурий фикр маънавият ва тарбия назарияси, методикаси учун модернизация манбаидир. Яъни, маънавий-маърифий ва тарбиявий ишлар назарияси “бугунги мураккаб замон” талабларига мос бўлиши керак.

Бунинг учун нима қилиш кераклиги Мурожаатномада аниқ-тиниқ қилиб берилди: “ёшларимизни турли синовларга чидамли, ватанпарвар инсонлар этиб тарбиялаш” керак. Нима учун? Чунки, замон мураккаб. Ёшларимиз мураккаб савол, вазиятларда тўғри қарор қабул қилишга ўргатилмаса, алданади, адашади. Ўзларини ҳам уларни асраб-авайлаб ўстирган ота-оналарини ҳам ғам-ғуссага ботириб қўйишлари мумкин. Афсуски, бундай мисоллар ҳаётимизда учради.

“Турли синовларга чидамли ёшлар” — бу ҳаётда учрайдиган гиёҳвандлик, диний радикализм, нигилизм, беватанлик ғоялари таъсирида синмайдиган, балки синдирадиган ёшлар. Бугуннинг Алпомишдай ҳар куни ўсиб, кучайиб бораётган Z ва Альфа авлодлари. “Чидамли”, деган сифат ҳаммада ҳам бўлавермайди. Чунки бу сифат туғма эмас — ўргатиш-ўрганиш натижаси. Агар бу сифат, фазилят, компетенция атайлаб ўргатилмаса, ўғил-қизларимиз ўрганмаса, улар мўрт, бўш, қалқийдиган бўлишлари мумкин. Президентимиз Мурожаатномаси ана шундан бизни огоҳлантирмоқда.

Биз тарбиячилар, педагог, ўқитувчилар, маънавият ходимлари Мурожаатномани гавҳардек беэаб турган **«Биз ислохотларни аниқ амалий натижага айлантиришни ўргандик»**, деган фикрдан куч олиб, тарбиявий натижани ошириш учун илмий-методик инновацияларга қиришишимиз керак. Ана шунда мактабгача, мактаб ва олий таълим тизимида узлуксиз маънавий тарбия жараёни “бугунги мураккаб замонда ёшларимизни турли синовларга чидамли, ватанпарвар

инсонлар этиб тарбиялаш” билан такомиллашади. Ана шунда ёшларимиз хулқида мустаҳкам мафкуравий иммунитетни кўрамиз. Унинг қай даражада эканлигини ва бу компетенцияни “бугунги мураккаб замон” талабларидан келиб чиқиб, ўлчаётган оламиз. Бу ёшларимиз олдига тўсиқ, лабиринтлар чиқаётган, ҳалқимизни янада бирлаштириш ва жипслаштириш талаб қилинаётган бугунги кун талабидир.

«2030 йилда эришиладиган маррага 2026-йилнинг ўзида бемалол эриша оламиз». Мана бу - проактив сиёсат. Бугунги Ўзбекистон қудрати, сиёсати ва халқ салохиятининг мезони. Аниқ, халқаро ҳисоб-китобларга, натижаларга таянган қатъий ишончнинг шижоатли ифодаси. Бу ишончни бир вақтлар АҚШнинг оталаридан бири Авраам Линкольн “Келажакни башорат қилишнинг энг яхши йўли – уни яратишдир”, деб орзу қилган эди.

Зеро бу сўзларда улкан маънолар мужассам:

Биринчидан — вақтдан ўзиш шижоати. Президентимиз ислохотлар муддатини чўзмаслик, вақтдан ўзиш, тараққиётни тезлаштириш иродасини ифода қилади.

Демак, биз келажакни кутмаяпмиз. Биз келажакка бораяпмиз. Уни Ўзбекистонга олиб келаяпмиз. Келтираяпмиз. Бу билан биз “бугун” билан “келажак”, деган тушунчаларни яқинлаштираяпмиз. Яъни, илгари “келажак”, деганда биз узокдан, юқоридан кўриниб турадиган, бизга боғлиқ бўлмаган, қачондир бизга ўзи етиб келадиган маъво, объект, манзилни тушунган бўлсак, бугун келажакни “биз боражак манзил”, деб тушундик. Демак, унга етиб бориш вақти бизга, ҳалқимизнинг сафарбарлигига боғлиқ. Ана шунда отни қамчилаб, 3 йиллик йўлни 1 йилда босиб ўтиш мумкин. Шунинг учун 2030 йилда етмоқчи бўлган даражага 2026 йилда етиб боришимизга ишончимиз комил.

Иккинчидан — ислохот натижалари бераётган ишонч. Бу фикрнинг пойдеворида ялпи ички маҳсулотнинг 145 млрд доллардан ошгани, инфратузилма, энергетика, сув таъминотидаги тарихий сакрашлар, камбағалликнинг кескин қисқариши, ёшлар, таълим ва илм-фандаги ютуқлардаги аниқ натижалар турибди.

Учинчидан — ҳалқимизга чексиз муҳаббат, унинг салохиятига берилган юксак баҳо бор. Бу иборада ҳалқимизнинг Президентимизга, Президентимизнинг ҳалқимизга мустаҳкам ишончи мужассам. Ана шунинг учун бугунги Ўзбекистон бу — кутувчи давлат эмас, яратувчи, проактив давлат. Биз ўзгаришларни ташқаридан эмас, ўз ақл-заковатимиз, меҳнатимиз ва бирдамлигимиздан излаяпмиз. Топаяпмиз.

Хуллас, Президентимиз томонидан айтилган **«2030 йилда эришиладиган маррага 2026-йилнинг ўзида бемалол эриша оламиз»** деган фикр ўзидан кучли маънавий энергия таратмоқда. Демак, ҳалқимиз бирдам, мақсади аниқ экан, вақт ҳам бизга ета олмайди.

«2030-йилгача барча туманлардаги маҳаллаларга Янги Ўзбекистон қиёфасини олиб қирамиз». Мурожаатда айтилган бу фикр бизни энг орзиқиб, интиқиб кутаётган манзарани тақдим қилди. Бу иборада Янги Ўзбекистон қиёфаси мамлакатнинг ҳар бир кўча, ҳар бир хонадониди, ҳар бир инсон ҳаётида кўриниши керак, деган қатъий ирода мужассам.

Бунинг учун тараққиётни марказдан маҳаллага тушириш, ислохотлар маҳаллага, одамлар олдига бориши керак, деган ҳикмат бор. Чунки Янги Ўзбекистон қиёфаси фақат пойтахтда эмас, балки энг чекка маҳаллаларда ҳам яққол кўриниши лозим. Бу — тараққиётни ҳудудларга тенг тақсимлаш тамойилининг тантанаси бўлади.

Янги Ўзбекистоннинг **маънавий қиёфаси** намоён бўлади. Бу меҳр-оқибатли, адолатли муносабат, инсон қадри устувор бўлган муҳит, ишли, даромадли одамлар, маънавий ва жисмоний соғлом одамлар, каттага ҳурмат, кичикка иззат демакдир. Демак, бу қиёфа ўй ва сўзларимизда, хулқ ва муносабатларимизда ҳам бир хил намоён бўлиши керак. Зеро Мурожаатдаги “барча туманлар, барча маҳаллалар”, деган ибора “ривожланган” ва “ортда қолган” деган фарқларни йўқ қилишга қаратилган.

Президентимиз Мурожаатномаси ҳозирги ва келажак авлодларимиз учун бахтли ҳаётга олиб борадиган йўл харитасининг улуғ марраларини белгилаб берди. Энди ҳар биримиз ўзимиздан сўрайлик: бу жараёнда мен кимман? Томошабинми ё иштирокчи? Иштирокчиман, деб, енг шимарайлик. Ана шунда бир ёқадан қўл, бир енгдан қўл чиқариб, юртимизни меҳр-оқибат, ҳамжихат, фаровонлик, бахт масканига айлантирамиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Шавкат Мирзиёев. — Тошкент: Ўзбекистон, 2022.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 24.01.2020-йил, 24-январ.
3. Мирзиёев.Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — ёрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев.Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб- интизом ҳамда шахсий жавобгарлик — ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев.Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатнома. Тошкент: Ўзбекистон, 2026.
6. Мирзиёев.Ш. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири С. Дониёров саволларига жавоблар // Янги Ўзбекистон. 2021 йил 17 август.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг Жадидлар меросини ўрганишга бағишланган Халқаро конференция иштирокчиларига табриги. // “Халқ сўзи” газетаси. 2023 йил 6 март сони.

**ТЕХНОЛОГИК ВА ИННОВАЦИОН ТАРАҚҚИЁТ МОДЕЛИГА ЎТИШ –
ЖАМИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОМИЛИ**

*Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиси ва Ўзбекистон
аҳолисига Мурожаатномасида илгари сурилган гоялар асосида*

**Бахтиёр Якубов,
сиёсий фанлар доктори (DSc)**

Аннотация. Мақолада Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлиси ва Ўзбекистон аҳолисига Мурожаатномасида белгилаб берилган ушбу мақсад ва вазифалардан иккитаси — Ўзбекистонни даромади жон бошига ўртадан юқори бўлган мамлакатлар қаторига киритиш ҳамда мамлакатнинг ўз тараққиётида янги тараққиёт моделига — технологик ва инновацион ўсиш моделига ўтиши учун асосларни яратиш билан боғлиқ масалалар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Фуқаролик жамияти, Даромади жон бошига ўртадан юқори бўлган давлат, технологик ўсиш модели, инновацион тараққиёт, тўртинчи саноат инкилоби, “Индустрия 4.0.”, ўрта қатлам, давлат бошқаруви.

Аннотация. В статье проанализированы вопросы, связанные с двумя из целей и задач, обозначенных в Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису и народу Узбекистана, а именно: вхождением Узбекистана в число стран с уровнем дохода выше среднего на душу населения, а также созданием основ для перехода страны к новой модели развития — модели технологического и инновационного роста.

Ключевые слова: гражданское общество, государство с уровнем дохода выше среднего на душу населения, модель технологического роста, инновационное развитие, четвертая промышленная революция, «Индустрия 4.0», средний класс, государственное управление.

Abstract. The article analyzes issues related to two of the goals and objectives outlined in the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan, namely: integrating Uzbekistan into the group of countries with upper-middle-income per capita and creating the foundations for the country’s transition to a new development model — a model of technological and innovative growth.

Keywords: civil society, upper-middle-income country, technological growth model, innovative development, the Fourth Industrial Revolution, “Industry 4.0,” middle class, public administration.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига йўллаган Мурожаати нафақат Ўзбекистон, балки дунё жамоатчилигининг ҳам эътиборини ўзига тортмоқда. Хўш, мамлакат раҳбарининг Мурожаатномасига жаҳон жамоатчилиги, сиёсий, иқтисодий доиралари томонидан катта қизиқиш билдириляётганлиги замирида нималар турибди?

Биринчидан, **Марказий Осиёнинг энг йирик давлати яқин ва ўрта келажакда ўзи учун қандай ривожланиш истиқболларини белгилаб олаётганлиги**, албатта бугун Ўзбекистонга қизиқиш билан қараб турган халқаро ҳамжамиятнинг эътиборини тортганлиги табиий ҳол.

Иккинчидан, **Ўзбекистоннинг амалда ўз тараққиётидаги янги сифат даражасига – технологик-инновацион ривожланиш босқичига ўтаётганлиги**, мамлакатнинг кейинги ривожига доир мулақо янгича ёндашувлар белгилаб оизбиланганлиги ҳам “ақл марказлари”нинг эътиборини тортмасдан қолмади.

Айниқса, Мурожаатномада таъкидланганидек, қисқа муддатда, яъни 2030 йилгача мамлакат иқтисодиёти ҳажмини 240 млрд доллардан оширишдек жуда улкан вазифа қўйилмоқда. Ваҳоланки, дастлаб қабул қилинган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида бу кўрсаткич 160 млрд долларга тенг эди.

Демак, шунинг ўзиёқ Ўзбекистон иқтисодиёти қандай тезлик билан ўсиб бораётгани ва мамлакат ўз олдида қанчалик улкан вазифани белгилаб олаётганлигини кўрсатади. Асосийси, мазкур кўрсаткичлар ўз-ўзидан пайдо бўлиб қолгани йўқ. Балки жуда жиддий асосларга таянган ҳолда ишлаб чиқилган бўлиб, юртимизнинг ўтган йиллар ичида босиб ўтган тараққиёт йўли бугун шундай катта мақсадларни қўйишга етарлича асос яратди. Ушбу прогнозларни Халқаро валюта жамғармаси ва нуфузли экспертлар ҳам тасдиқлаганликлари ҳам уларнинг пишиқ-пухта ишлаб чиқилганлигидан далолат беради.

Энг муҳими, ана шундай натижаларга эришиш орқали Ўзбекистон яқин йилларда ўз тарихида илк бор даромади жон бошига ўртадан юқори бўлган мамлакатлар қаторига киришидир.

Хўш, ривожланишнинг мазкур даражасига ўтиш Ўзбекистон учун нимани аңлатади?

Аслида мамлакат раҳбари қисқа сатрларда ифодалаган ушбу мақсад иқтисодиётдаги навбатдаги миқдорий ўсишнигина аңлатмайди, балки фақат иқтисодиётда эмас, балки жамиятда жуда чуқур ижобий ўзгаришларга олиб келадиган концептуал янгиланишларни ўзида мужассам этади. Ушбу ўзгаришлар мамлакатнинг дунёдаги янги қиёфаси ва даражасини шакллантиришга тўғридан-тўғри таъсир қилади. Даромади жон бошига ўртадан юқори бўлган давлатларга дунёдаги йирик инвесторларнинг муносабати ўзгаради, бундай мамлакатлар бозорларига янги инвесторлар баробарида йирик халқаро компанияларнинг қизиқиши ортади.

Бу мамлакатлар иқтисодиётининг хусусияти ўзгара бориб, улар иқтисодиёти учун фақат миқдор ва сон жиҳатдан ўсишга асосланган ўсиш эмас, сифат жиҳатдан ўзгаришларга асосланган ўсиш асосий мақсадга айланади, ишлаб чиқариш унумдорлиги, инновация ва технологиялар, бошқариш сифати, юқори қўшимча қийматли экспорт, инсон капитали каби кўрсаткичлар биринчи ўринга чиқади.

Иқтисодиётдаги ўзгаришлар билан боғлиқ равишда тараққиётнинг ушбу даражасига чиққан давлатларда ижтимоий соҳага, хусусан, таълим ва соғлиқни сақлаш, шаҳар инфраструктураси, экология ва атроф-муҳит муҳофазасини таъминлаш сифатига қўйиладиган талаб кучаяди.

Буларнинг барчаси охир-оқибат жамиятнинг қиёфасини ўзгартиради. Аҳоли таркибида ўрта қатламнинг улуши тобора кенгайиб, камбағаллик даражаси камади, аҳолининг харидорлик қуввати ошиб, сифатли таълим, соғлиқни сақлаш, хизмат кўрсатиш, уй-жой сотиб олиш ва дам олиш имконияти ошиб боради.

Шуларнинг ўзиёқ мазкур Мурожаатномада аниқ белгилаб берган мақсад – даромади жон бошига ўртадан юқори давлатлар қаторига киришга эришиш ортида қандай кенг кўламли ўзгаришлар, аввало, иқтисодиётни, умуман жамиятни, фуқароларнинг фаровонлик даражасини ўзгартириб юборишга қодир янгиланишлар турганлигини тушуниб олишга асос бўлади.

Хўш, қандай омиллар ҳисобига Ўзбекистон қисқа муддатда бундай катта вазифани ууддалашни ният қилган?

Мамлакатимиз ўз олдида қўяётган катта мақсадларга нисбатан қисқа муддатда эришиш фақатгина иқтисодиётнинг аъъанавий йўналишларида ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш билан бирмунча қийин, албатта. Шундай мураккаб бир шароитда эришишнинг бирдан-бир йўли ҳам Мурожаатномада аниқ кўрсатиб берилган. Бу – **Ўзбекистон иқтисодиётини технологик ва инновацион ўсиш моделига ўтказиш**. Мамлакат иқтисодиётининг барча соҳаларини ушбу ўсиш

моделига ўтказиш келгуси йилларда давлатимиз иқтисодий тараққиёт стратегиясининг асосий йўналиши сифатида белгиланди.

Технологик ва инновацион ўсиш модели – бу иқтисодийни ҳаракатга келтирувчи асосий куч сифатида тизимли равишда янги технологиялар, билимлар ва инновацияларни яратиш, жорий қилиш, шу орқали юқори технологик иқтисодийни шакллантиришга, ишлаб чиқариш самарадорлигини ва рақобатбардошлигини ошириб боришга, узок муддатли барқарор ривожланишни таъминлашга асосланувчи иқтисодий модель ҳисобланади. **Бундай тараққиёт моделида** ривожланиш, аввало, **инсон капитали, илм ва инновацияларга инвестициялар киритиш** ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Ушбу моделга ўтиш инновациялар ва технологияларни иқтисодий ўсишнинг асосий генераторига айлантириб, мамлакатга узок муддатли иқтисодий ўсиш истикболларини таъминлаб беради, янги маҳсулотлар яратилиши асосида халқ ҳўжалигида замонавий йўналишларнинг, қолаверса ушбу маҳсулотлар атрофида янги бозорларнинг вужудга келишига, маҳсулотлар рақобатбардошлигининг ошишига туртки беради. Қолаверса, янги технологик даражадаги ишлаб чиқариш унда ишлай оладиган юқори малакали ишчилар сонинг ошиб боришига, демакки, таълим тизимининг мутлақо янги талаблар асосида қайта қурилишига, сифат жиҳатидан такомиллашиб боришига ўзига хос драйвер вазифасини бажаради.

Шу ўринда **Ўзбекистон ўзи учун белгилаб олаётган янги ўсиш модели бевосита “Индустрия 4.0” ёки бошқача айтганда, “Тўртинчи саноат инқилоби” талаблари билан бевосита боғлиқ** эканлигини ҳисобга олсак, Мурожаатномада илгари сурилган вазифа амалда мамлакат иқтисодийини тизимли равишда “Тўртинчи саноат инқилоби” талаблари даражасига мослаштиришни ҳам амаллашини тушуниш қийин эмас.

Мамлакат иқтисодийига бундай замонавий ёндашувларнинг кириб келиши нафақат мамлакат иқтисодийи ҳажмини белгиланган 240 млрд доллар даражасига олиб чиқиш, балки ялпи ички маҳсулот таркибини ўзгартиришга, унда юқори қўшилган қийматли инновацион маҳсулотлар улушининг ошишига, ишчи кучи сифат таркибининг ўзгаришига ва қатор бошқа ижобий ўзгаришларига асос яратади.

Мурожаатноманинг муҳим жиҳати, унда фақатгина мамлакатнинг технологик ва инновацион ўсиш моделига ўтиши зарурлигини асослаш билан чекланилмаган, балки бу йўлда ҳал қилиниши керак бўлган вазифалар доираси ҳам аниқ кўрсатиб берилган. Ушбу вазифаларнинг барчаси бажарилиш муддатлари билан янгиланган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясида ўз аксини топади.

Эътиборни тортадиган муҳим жиҳатлардан яна бири “Тўртинчи саноат инқилоби маркази” ташкил этилиб, унинг негизида робототехника, интернет буюмлари, “ақлли фабрика” каби “Индустрия 4.0” ечимларини саноат корхоналарида жорий этиш учун “тартибга солиш механизмлари” яратиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилганлигидир. “Индустрия 4.0”нинг ўзи бугун ўз келажагини ўйлаган давлатлар жуда катта эътибор билан қараётган масалалардан бири ҳисобланади.

Мурожаатномада олтита йўналишда устувор вазифалар илгари сурилган бўлса, ҳар бир йўналиш бўйича мутлақо ўзгача ёндашувлар илгар сурилганлиги ва уларнинг бир-бири билан яхлит равишда ягона ёндашув ташкил қилганлигини кўриш мумкин.

Хусусан, учинчи устувор йўналиш бўлмиш ички бозорда талабни рағбатлантириш йўналишида **сервис соҳасини иқтисоднинг “драйвери”га айлантириш**, тўртинчи устувор йўналиш доирасида касбларни ривожлантириш ва **янги меҳнат бозори архитектурасини яратиш**, бешинчи устувор мақсад доирасида илгар сурилган **“яшил энергетика” ва сув ресурсларидан оқилона фойдаланиш** каби вазифалар бунга яққол мисол бўла олади. Уларнинг бу тарзда белгиланиши нафақат халқ ҳўжалигининг тегишли йўналишларини янги даражага олиб чиқишда муҳим роль ўйнайди, балки ушбу вазифалар Ўзбекистон ўз олдида қўяётган янги марра – технологик ва инновацион ўсиш моделининг ажралмас қисмлари ҳам ҳисобланади. Мана шундай комплекс ёндашув мамлакатимизнинг технологик ўсиш моделига ўтиш йўлининг хусусиятларини белгилаб беради.

Яна бир муҳим жиҳат; Ўзбекистонда ривожланишнинг ушбу моделига ўтиш фикри бирданига бугун шаклланиб қолгани йўқ. Балки Мурожаатномада мазкур ғоянинг илгари сурилиши асосида Ўзбекистонда ўтган тўққиз йил давомида амалга оширилган ишлар турганлиги тушунарли албатта.

Қисқача айтганда, ўтган йиллар мамлакат иқтисодиётини, бошқарув тизимини ва умуман жамиятни тараққитнинг мутлақо янги сифат даражасига - технологик ва инновацион ривожланиш босқичига ўтиши учун ўзига ҳос асосини шакллантирди.

Технологик – инновацион ўсиш моделига ўтиш давлат бошқарувидан нафақат ўзининг янги технологик даражага мослашишини, балки ушбу модел қарор топиши учун зарур шароитларни яратишда ташаббускор бўлишини талаб қилади.

“McKinsey” агентлиги таҳлилчилари давлатнинг инновацион жараёнлардаги иштирокига тўхталиб, агар илгари бу иштирок фақат инновацион муҳитни яратиш ва фундаментал фан ва ишланмаларни молиялаштириш билан чекланган бўлса, эндиликда ўзгаришлар тезлиги мисли кўрилмаган даражада ошиб бораётган бир даврда унинг иштироки ҳам тубдан ўзгариб бораётганлини таъкидлашади. Улар инновацион жараёнларнинг муваффақиятли бориши бевосита давлат иштироки билан боғлиқ бўлган бешта омилни кўрсатиб ўтишади. Улар қаторида давлатнинг инновациялар буюртмачиси сифатида майдонга чиқиши, инновациялар учун зарур инфраструктурани шакллантиришдаги фаоллиги, инновацион ишлаб чиқаришни молиялаштиришдаги, янги малакалар яратишдаги ўрни, жамиятда инновацион маданиятни шакллантиришдаги аҳамияти каби омиллар ўрин олган.

Ўтган тўққиз йилнинг таҳлили Ўзбекистонда давлат бошқарувини янги давр талабларига мослаш борасида ҳам тизимли ишлар амалга оширилганлигини кўрсатади. Ана шу йиллар давомида қабул қилинган қонунлар ва норматив ҳужжатлар орқали мамлакатимизда давлат томонидан инновацион ривожланиш учун зарур деб ҳисобланган барча омилларнинг шакллантирилиши учун муҳим асослар яратилди.

Хусусан, 2020 йилда қабул қилинган “Инновацион фаолият тўғрисида”ги қонун билан инновацияларга давлат буюртмасини шакллантириш, инновацион фаолият учун зарур ҳуқуқий ва ташкилий шароитларни яратиш, малакали кадрларни тайёрлаш ва бошқа масалаларда давлатнинг ролини белгиловчи нормалар белгилаб қўйилди.

Давлат раҳбари Фармони билан Ўзбекистон Республикасининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Инновацион ривожланиш стратегияси тасдиқланди. Унга кўра инновацион технопарклар, технологиялар трансфери марказлари, венчур капитал тузилмалари, акселераторлар ва инкубаторларлар тизимининг шакллантирилганлиги, қолаверса, инсон капиталини ривожлантириш, таълимнинг барча босқичларида инновацион маданиятни жорий этиш йўналишларида Ўзбекистонда ўзига ҳос тизим яратилди.

2020 йилда Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони билан тасдиқланган “Рақамли Ўзбекистон – 2030” Миллий стратегияси эса телекоммуникация ва давлат хизматларидан тортиб, таълим, соғлиқни сақлаш ва иқтисодиётга бўлган турли соҳаларда рақамли технологияларни тизимли равишда жорий этиш учун асос яратди. Ушбу ҳужжатнинг муҳим жиҳати – стартаплар, технопарклар, венчур фондлар ва аҳоли ва давлат хизматчиларининг рақамли саводхонлиги ва компетенцияларини оширишга қаратилган таълим дастурларини қўллаб-қувватловчи қулай инновацион экотизим яратишга алоҳида урғу берилганлигидир.

Шундай қилиб, Ўзбекистонда рақамли трансформация нафақат технологик янгиланиш, балки давлат институтларини мустаҳкамлашга, бошқарув самарадорлигини оширишга ва фуқаролик ҳуқуқлари ва имкониятларини кенгайтиришга катта ҳисса қўшмоқда.

Рақамлаштириш ва сунъий интеллектдан фойдаланиш Ўзбекистонда давлат бошқарувида инновацияларнинг асосий йўналишларига айланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг тегишли фармон ва қарорлари билан инновацион фаолиятни молиялаштириш, зарур институционал инфраструктура ва экотизимни шакллантириш, инсон капитали равнақини таъминлаш каби йўналишларда ҳам давлатнинг ўрнини белгиловчи асослар яратиб берилди.

Албатта, ушбу ҳуқуқий ва ташкилий асослар ҳамда улар асосида ўтган йиллар давомида амалга оширилган тизимли ишлар Ўзбекистоннинг бугунги кунда ўз тараққиётида, мамлакат раҳбари таъкидлаганидек, “ҳал қилувчи босқич”га чиқишига асос яратди.

Мурожаатномада эндиги босқичда давлат бошқарувини янада ислоҳ қилишни янги даражага олиб чиқиш борасида аниқ вазифалар белгилаб берилган.

Давлат бошқаруви билан бир қаторда мамлакат ҳаётида фуқаролик жамиятининг ўрнини бундан кейин ҳам тизимли равишда ривожлантириб бориш мақсадида фуқаролик жамиятини ривожлантириш бўйича беш йиллик стратегия ишлаб чиқиш, сўз ва матбуот эркинлигини таъминлаш, суд-ҳуқуқ тизимини халққа яқинлаштиришга қаратилган ишларни изчил давом

эттириш устувор вазифа сифатида сақлаб қолиниши ислохотларнинг мазкур даври учун устувор вазифалар қаторида белгиланди.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига 2025 йилги мурожаатномасида илгари сурилган мақсадлар ва вазифалар амалда мамлакатнинг ўз тараққиётида мутлақо янги сифат даражасига ўтаётганлигини кўрсатади.

Хусусан, Ўзбекистон олдида унинг тарихида илк бор даромади жон бошига ўртадан юқори бўлган мамлакатлар қаторига кириш мақсадининг белгилаб қўйилаётганлиги яқин ва ўрта келажакда нафақат мамлакат иқтисодиёти, балки жамият ҳаётини ҳам тубдан ўзгартирувчи салоҳиятга эга бўлган ўзгариш ҳисобланади. Демак, нафақат иқтисодий соҳада, балки жамият ҳаётининг бошқа соҳаларида ҳам рўй берадиган мазмунига кўра ижобий бўлган ўзгаришлар албатта бошқа фанлар, биринчи навбатда ижтимоий фанлар вакиллари томонидан чуқур таҳлил қилишни талаб қилувчи масалалар қаторига киради.

Ўзбекистоннинг ўз тараққиётида технологик ва инновацион ўсиш моделига ўтиши, “тўртинчи саноат инқилоби” асосларининг кенг тадбиқ этила бориши мамлакат ялпи ички маҳсулоти, қолаверса ишлаб чиқариш, саноат таркибини ўзгартириб, унда юқори технологик маҳсулотлар улушини ошириб бориш баробарида давлат бошқарувида, фуқаролик жамиятида тегишли ўзгаришлар амалга оширилишини долзарб қилиб қўяди. Айни пайтда меҳнат ресурсларининг янги ишлаб чиқариш даражасига мос равишда ривожланиши кадрларни ўқитиш, тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимларини ҳам янги давр талабларига мослашни талаб қиладики, ушбу масалаларнинг барчаси ижтимоий-гуманитар соҳалар вакиллари томонидан атрофлича ўрганилишини бугунги куннинг энг муҳим масалалари қаторига олиб чиқади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 26.12.2025// <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони, 2020 йил 5 октябрь, ПФ-6079-сон // <https://lex.uz/en/doc-passport/5030957>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сунъий интеллект технологияларини 2030 йилга қадар ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори, 2024 йил 14 октябрь, ПҚ-358-сон// <https://lex.uz/docs/7158604>.
4. 2025 Was The Year Of The New Uzbekistan// www.eurasiareview.com/07012026-2025-was-the-year-of-the-new-uzbekistan-oped/#google_vignette.
5. Fitch Upgrades Uzbekistan to 'BB'; Outlook Stable// fitchratings.com/research/sovereigns/fitch-upgrades-uzbekistan-to-bb-outlook-stable-26-06-2025.

ТАЛАБАЛАР МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҚАДРИЯТЛАР УЙЎНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

З. Исмаилова,
“ТИҚХММИ” МТУ профессори,
педагогика фанлари доктори

Р. Чорийев,
“ТИҚХММИ” МТУ профессори,
педагогика фанлари доктори

Аннотация. Мақолада миллийлик ва динийлик талқини ва моҳияти, миллий ва диний қадриятларни уйғунлаштиришнинг ижтимоий-маънавий зарурати, мафкуравий иммунитет ва мафкуравий компетентлик педагогик муаммо сифатида тадқиқ этилиб, олий таълим талабаларининг мафкуравий иммунитетини ривожлантиришнинг педагогик-психологик жиҳатлари миллий ва диний қадриятлар асосида шакллантирилишига оид назарий билимлар қиёсий ўрганилган.

Калит сўзлар: тарбия, таълим, компетенция, миллий-маънавий кадриятлар, диний-маърифий тарбия, миллий таълим, миллий кадриятлар, миллий анъаналар, дин, мазҳаб, мафкуравий иммунитет, мафкуравий компетентлик.

Аннотация. В статье исследуются интерпретация и сущность национальности и религиозности, социально-духовная необходимость гармонизации национальных и религиозных ценностей, а также идеологический иммунитет и идеологическая компетентность как педагогическая проблема. Сравнительно изучены теоретические знания о формировании педагогико-психологических аспектов развития идеологического иммунитета студентов высших учебных заведений на основе национальных и религиозных ценностей.

Ключевые слова: воспитание, образование, компетенция, национально-духовные ценности, религиозно-просветительское воспитание, национальное образование, национальные ценности, национальные традиции, религия, конфессия, идеологический иммунитет, идеологическая компетентность.

Abstract. The article examines the interpretation and essence of nationality and religiosity, the socio-spiritual necessity of harmonizing national and religious values, as well as ideological immunity and ideological competence as pedagogical problems. In addition, theoretical knowledge concerning the formation of the pedagogical and psychological aspects of developing ideological immunity among higher education students on the basis of national and religious values is comparatively studied.

Key words: upbringing, education, competence, thinking, national-spiritual values, religious-enlightenment upbringing, national education, national values, national traditions, ideological immunity, ideological competence.

Кириш. Жаҳон таълим муассасаларида инсон омили, унинг онги, тафаккури, ижтимоий ҳаётга муносабати, мафкуравий иммунитетни ривожлантиришда миллий ва диний кадриятлар уйғунлигини таъминлаш технологиялари амалиётга татбиқ этилмоқда. Умумбашарий бирлик, интеграция ва этник-маданий бирликни амалга ошириш, миллий кадриятлар глобаллашуви ва диний кадриятларнинг сиёсийлашувини олдини олиш, таълим жараёнида маънавий-маърифий фаолият самарадорлигини ошириш, малакали кадрлар тайёрлашда мафкуравий иммунитет даражасини аниқлашга қаратилган амалий лойиҳалар амалга оширилмоқда.

Жаҳон ақл марказлари ва илмий тадқиқот муассасаларида мафкуравий иммунитетни ташхис қилиш ва бошқариш, миллий ва диний кадриятларни сингдиришнинг усул ва воситаларини ишлаб чиқиш, шахс мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш ишларини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш тажрибаси амалга татбиқ этилмоқда.

Республикаимизда сўнгги йилларда диншунослик, тарбия ва баркамолликка эришиш, мафкуравий иммунитет ҳақидаги билимларни ривожлантиришнинг тарихий, ижтимоий, фалсафий, педагогик, психологик жиҳатларини такомиллаштиришнинг меъёрий-услубий асослари ривожлантирилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон “2022–2026-йилларда Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси”, 2023-йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сон “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисидаги фармонлари, 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон “Диний-маърифий соҳа фаолиятини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори бу борада янги босқични бошлаб берди.

Асосий қисм. Кейинги йилларда Президентимиз томонидан амалга оширилаётган ислохотлар туфайли эришилаётган юксак натижалар нафақат мамлакатимиз ёки минтақамиз, балки бутун дунёда эътироф этилмоқда. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси билан “Маърифат ва диний бағрикенглик” деб номланган махсус резолюция қабул қилиниши бунинг ёрқин ифодасидир.

Ёш авлод тарбияси ҳақида гап кетганда, шуни таъкидлаш керакки, миллий ва диний тушунчалар остида жамланган кадриятлар ёшларнинг онгини мустаҳкамлашга катта таъсир кўрсатади. Бунда, энг аввало, ғоялар ва ниятлар кўринишидаги нормалар, мақсад ва идеаллар сифатида, умуминсоний тадқиқот объекти бўлган “миллий” ва “диний” тушунчаларини тўлиқ таҳлил қилишдан бошлаш мақсадга мувофиқдир.

Миллий, диний ва умуминсоний кадриятлар уйғунлигида ўзига хос диалектик боғлиқлик мавжуд бўлиб, у тўғридан-тўғри маълум бир мамлакатда нафақат ёшларга, балки бутун жамиятга

хам таъсир кўрсатади. Шунингдек, у ҳам расмий (ҳуқуқий асосга эга), ҳам норасмий (ҳуқуқий асосга эга бўлмаган) шаклда намоён бўлиши мумкин.

Бу жиҳатдан, “миллий” ва “диний” қадриятларни мувофиқлаштиришга доир тўртта зарурий жиҳат мавжуд: биринчидан, ижтимоий барқарорликни таъминлаш ва миллий ёки диний қадриятлардаги тафовутларнинг ижтимоий кескинликка олиб келмаслиги; иккинчидан, хилма-хилликни ҳурмат қилиш, турли маданий ва диний анъаналарни тан олиш ва ҳурмат қилиш орқали ижтимоий бирликни мустаҳкамлаш; учинчидан, таълимдаги фарқларни тушуниш ва маданиятлараро мулоқот кўникмаларини ривожлантириш; тўртинчидан, умумахлоқий меъёрларга мос равишда қадриятларни уйғунлаштириш орқали одамларнинг умумий тил топиши ва жамият фаровонлигини таъминлаш имкониятларини таҳлил қилиш лозим.

Талабаларда мафкуравий иммунитет ва мафкуравий компетентликни шакллантиришнинг педагогик шарт-шароитлари, шунингдек, миллий ва диний қадриятлар асосида уларнинг мафкуравий иммунитетини шакллантириш модели ва механизмларини татбиқ этиш масалалари бугунги куннинг долзарб муаммоларидан бирига айланди.

Мафкуравий иммунитет – бу юксак ахлоқий, илмий, сиёсий ва педагогик қадриятларни ифодаловчи кенг қамровли ижтимоий-фалсафий тушунча бўлиб, инсонларни турли маънавий ва мафкуравий иллюзиялар, хавф ва таҳдидлардан асраш, уларга қарши курашишга қаратилган кучдир. Мафкуравий иммунитет – бу алоҳида шахслар ёки гуруҳларнинг ўз онги ёки хатти-ҳаракатларини манипуляция қилиши мумкин бўлган мафкураларнинг салбий таъсиридан ҳимоя қилиш кўникмаси эканлиги, унинг уч компоненти – танқидий фикрлаш, ахборотлардан фойдаланиш саводхонлиги ва ҳиссий барқарорлик – муҳим эканлигини қайд этади.

Мафкуравий компетентлик – шахснинг муайян миллий, диний ва умуминсоний қадриятлар асосида мафкура соҳасида чуқур билимга эга бўлиши, катъий эътиқод (мафкуравий иммунитет) шаклланганлиги ва ўз мафкураси доирасида бошқа одамларнинг ғоялари ва қарашларини шакллантира олиш қобилиятидир. Мафкуравий компетентлик турли мафкураларни тушуниш, таҳлил қилиш ва танқидий баҳолай олиш, ўз эътиқодини онгли равишда танлаш қобилияти эканлигини ҳам кўрсатади.

Таълим жараёнида ғоявий компетентликнинг аксиологик омиллари – қадриятлар ва эътиқодлар, танқидий фикрлаш, ахлоқий меъёрлар, фуқаролик позицияси, турли маданий ва мафкуравий анъаналарни тушуниш ва ҳурмат қилиш – сифатида намоён бўлади.

Таълим муҳиtida ушбу омиллар талабаларнинг ғоявий ривожланишининг муҳим жиҳати ҳисобланади ва бу жамият ҳаётида фаол иштирок эта оладиган билимли фуқароларни шакллантиришга ёрдам беради.

Таълим методлари. Талабаларни узлуксиз маънавий тарбиялашда мафкуравий иммунитетни ривожлантиришнинг интерактив методлари самарали восита сифатида аҳамият касб этади.

Хусусан, “Қадам-бақадм” технологияси орқали талаба ёшларда толерант хулқ-атворни эгаллаганлик даражаларини аниқлаш имконияти мавжуд. Мазкур технология воситасида талабалар бир-бирига қарама-қарши сўзларни топиш орқали “мафкуравий иммунитет” ва “қадрият” каби тушунчалар билан танишадилар, уларнинг ҳаётдаги ўрнини аниқлайдилар ва бу сўзларни ўз фаолиятларида қўллаш даражасини белгилайдилар.

Ушбу мавзудаги машғулоти “қадам-бақадм” усули асосида ташкил этилади, яъни машғулоти давомида амалга оширилиши керак бўлган ҳар бир иш бир қадам деб қабул қилинади ва ҳар бир қадамда талабалар бирон-бир фаолиятда иштирок этадилар ёки бирон-бир лойиҳа ишини бажарадилар.

Мисол тариқасида, “Бир-бирига қарама-қарши маъноли сўзларни айт” мавзусидаги машғулоти ўтказиш тартиби қуйидагича:

1-қадам – талабалар ўқитувчи томонидан тарқатилган материалда ёзилган сўзларни диққат билан ўқиб чиқадиладар ва ҳар бир сўзнинг қаршисига аҳамиятга мувофиқ қарама-қарши сўзларни ёзишлари зарур:

Мафкура –

Қадрият –

Миллий тарбия –

Таҳдид –

Маданият –

Интеграция –

Миллий ғурур –

Аффе́кт –

2-қадам – талабалардан ҳар бир сўзга таъриф бериш талаб қилинади.

3-қадам – гуруҳларга бўлиниб, келтирилган сўзларни ҳозирги замонда бўлиб ўтаётган воқеалар билан боғлаш тавсия этилади.

4-қадам – гуруҳларда бир-бирларининг ҳикоялари юзасидан савол-жавоблар ўтказилади.

5-қадам – гуруҳ ишлари ўзаро мунозара қилиб баҳоланади.

6-қадам – ўқитувчи машғулоти якунлайди.

“Ҳаёт чизиги” методи. Ушбу метод талабаларни ўтмиш ҳаётини таҳлил қилиб, бугуни ва келажаги тўғрисида ўйлашга, келажакни тасаввур қилиш ва режалаштиришга имкон беради. Талабаларга ўтмишдаги ҳаётини, ҳозирги куни ва келажагини қуйидаги чизма асосида тасвирлашлари сўралди. Улар ўз эътиборларини кўпроқ “Истакдаги келажак” катاكلарига қаратди ва деярли ҳаммалари орзусидаги келажакни катта ижодкорлик билан тасвирлаган. Биз уларга “Истакдаги келажак”га эришиш учун шундай мотив бердик: “Бир вақтлар ҳозир ҳаммангизни кўлингизда турган, исталган сотув растасидан сотиб олишингиз мумкин бўлган ручка ҳам инсоният учун орзу бўлган, чўнтагингиздаги телефонни ихтиро қилиш ҳатто инсон зотининг ҳаёлига келмаган, лекин инсон тафаккури, унинг ижодий тасаввури жуда улкан эканки, кўз кўриб – кулоқ эшитмаган нарсаларни яратишга қодир экан.

“Ўзингизни кашф этинг!” методи.

Масалан: “Учинчи ренессанс даврида миллий тарбиянинг тикланиши ва ривожланиши” мавзуси доирасида ўзаро ўзларининг ўтмишдаги ҳаётини, ҳозирги куни ва келажагини чизма асосида тасвирлашлари сўралди.

Свот таҳлили. Мавзу: “Ўзбек оиласидаги миллий тарбия”. Мақсад: Талабларда мустақил, креатив, ва танқидий фикрлашни шакллантиради. шунингдек уларда мафкуравий иммунитетни ҳосил қилишига ёрдам беради. шунингдек талабаларда жамаовий ишлаш кўникмларини ҳосил қилади. Ўтакзлиши тартиби: талабларга А3 фарматдаги қоғоз тарқатилади ва фан юзасидан мавзу берилади ва талаблар томонидан мавзунини 1. кучли томонлари; 2. Кучсиз томонлари; 3. Имкониятлари; 4. Таҳдидларини кенг баён этади.

Керакли жихозлар: А3 фарматдаги қоғоз, қаламлар ва фломастер.

Свот таҳлил методикаси натижасида талабаларда мафкуравий иммунитет ҳосил бўлади, шунингдек, миллий ғурур, ифтихор, ватанпарварлик ва толерантлик тўғулари шаклланади.

Хулоса ва тавсиялар. Янги Ўзбекистонда миллий ва диний қадриятлар асосида талабалар мафкуравий иммунитетини шакллантириш Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишнинг асосидир. Мафкуравий иммунитет ва мафкуравий компетентлиги ривожланган талаба - бу ижтимоий фаол, маънан юксак, интеллектуал бой, рационал фикрловчи, ўз меҳнати билан жамиятимизнинг гуллаб-яшнашига ҳисса қўшишга даъват этилган ижодкор шахсдир.

Бу борада Президентимизнинг қуйидаги фикри барчамиз учун дастурул амал бўлиши лозим: “Жамиятимиз ва ёшларимизнинг маънавияти, мафкуравий тарбияси учун ўзини масъул деб биладиган инсонлар – ҳоҳ маҳаллий ёки диний ташкилотлар, ҳоҳ ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари бўлсин, ҳоҳ катта таъсир кучига эга зиёлилар – барчаси, айниқса, фаол бўлиши керак.”

Глобаллашув ва тезкор ахборот алмашиш даврининг таълим-тарбия талабларидан келиб чиққан ҳолда, олиб борилган илмий тадқиқотлар, ёш авлоднинг ахлоқий ва мафкуравий тарбиясини юксалтириш мақсадида ёшларнинг, хусусан, талабаларнинг мафкуравий иммунитетини ва мафкуравий компетентлигини ривожлантириш зарурлигини кўрсатади.

Таълим ва тарбия жараёнида миллий ғоя асосида талабаларнинг мафкуравий иммунитетини ва мафкуравий компетентлигини шакллантириш аудиторияда ўқитиш билан чекланиб қолмаслиги, балки тартибли амалга оширишга эришишни талаб қилувчи узлуксиз жараён эканлиги намоён бўлади.

Мазкур йўналишда ўтказилган илмий-назарий изланишлар ва экспериментал тадқиқотлар натижасида қуйидаги **тавсиялар** бериш мумкин:

- Жаҳон халқлари алломаларининг маънавий-ахлоқий тарбия шакллари ва усуллари ҳақидаги қарашлари ҳамда бу борадаги дунё тажрибасига асосланиб, диншунослик, мафкура ва қадриятлар тўғрисидаги билимларни ривожлантиришга бевосита хизмат қиладиган янги замонавий педагогик технологияларни ишлаб чиқиш ва ўқув амалиётида қўллаш.

- Олий ўқув юртлари фаолиятида таълим ва тарбиявий йўналишлар мутаносиблигини таъминлаш, бунинг учун таълим-тарбия жараёнини миллий мафкура билан боғлиқ ҳолда, аудитория ва аудиториядан ташқари маънавий-маърифий тадбирлар асосида ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

- “Миллий тарбия асослари” ва “Умумий педагогика” фанларининг дидактик имкониятлари ёшларни мафкуравий иммунитетни шакллантириш, билим ва амалий кўникмалар билан қуроллантиришда замонавий педагогик технологиялар билан бирга, ғоявий таълим жараёни сифатини ошириш зурур;

- талабаларда мафкуравий иммунитет ва мафкуравий компетентлигини ривожлантиришга хизмат қилувчи тарихий ва замонавий, бунёдкор ва бузғунчи мафкураларнинг мазмун-моҳиятини очиб берувчи назарий материаллардан ўқув жараёнида кенг фойдаланишга эътибор қаратиш;

- талабаларнинг мафкуравий иммунитетини ва мафкуравий компетентлигини ривожлантиришга қаратилган қисқа муддатли тренингларни тизимли ташкил этиш; миллий ва диний қадриятлар асосида талабаларнинг мафкуравий иммунитетини ва мафкуравий компетентлигини ривожлантиришга қаратилган илғор педагогик ва замонавий ахборот-коммуникация технологияларини ўқув жараёнига тизимли равишда жорий этиш.

Шу билан бирга, талабаларнинг мафкуравий иммунитет ва мафкуравий компетентлик тўғрисида соғлом дунёқарабини шакллантиришга, шунингдек, мафкуравий таҳдидларга қарши курашиш имкониятларини кенгайтиришга асосланган билимларни ривожлантириш моделининг амалий компоненти, алгоритмнинг бевосита тескари алоқаси интенсивлигини таъминлаш асосида, диний ва гуманистик қадриятлар тизимларининг ўзаро боғлиқ мазмунини аудиториядан ташқари фаолият билан такомиллаштирилиши зарур.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент.: “Ўзбекистон”, – 2016. Б.216.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 15 июн куни Тошкент шаҳрида «Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби» мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи // [хтп://www.uza.uz](http://www.uza.uz). 15.06.2017.

3. 2022-йил 28-январдаги ПФ-60-сон “Диний-маърифий соҳа фаолиятини такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори.

ИМКОНИАТДАГИ ДУНЁЛАР ФАЛСАФАСИ

Бахтиёр Тураев,
Фалсафа фанлари доктори, профессор

Аннотация. Мақолада имкониятдаги дунёлар ҳақидаги фалсафий, космологик, мантикий ва табиий-илмий ғоялар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Коинот, дунё, олам, имкониятдаги дунёлар, Хинтикка тўплами, Гут – Линде инфляция модели, Хокинг дунёси, космологик моделлар, антроп тамойили, коинотлар ансамбли.

Аннотация. В статье анализируются философские, космологические, логические и естественнонаучные представления о возможных мирах.

Ключевые слова: Вселенная, мир, космос, возможные миры, множество Хинтикка, инфляционная модель Гута-Линде, мир Хокинга, космологические модели, антропный принцип, ансамбль вселенных.

Abstract. The article analyzes philosophical, cosmological, logical and natural science ideas about possible worlds.

Key words: Universe, world, space, possible worlds, Hintikka set, Gutha-Linde inflationary model, Hawking world, cosmological models, anthropic principle, ensemble of universes.

Олимлар қадимдан имкониятдаги дунёлар ҳақида бош қотириб келишади. Айниқса бу борада ёзувчилар анча илгарилаб кетишган. Алишер Навоий(1441-1501) нинг ўлмас ижодида сув остида, ер остида, осмон-фалакда жойлашган ғаройиб дунёлар ҳақида бир-биридан қизиқарли ҳикоялар шеърӣ услубда баён қилинади. Ирландиялик Жонатан Свифт(1667-1745)нинг «Гулливёрнинг саёҳатлари» асарида ҳам эҳтимолдаги хилма хил дунёлар ҳақида ҳикоя қилинади. Шу тарзда дунё адиблари хилма-хил фантастик дунёлар ҳақида бир-биридан ғаройиб асарлар бунёд қилишди. Инглиз теологи ва ёзувчиси Эдвин Эбботт Эббот(1838-1926)нинг 1884 йили ёзган “Флатландия” асарида турли ўлчовли дунёлар ҳақида ҳикоя қилинади. Буларнинг барчаси имкониятдаги дунёлар мавзусига алоқадордир. Аммо эҳтимолдаги ва имкониятдаги дунёлар ҳақидаги фаразлар буюк ватандошимиз Абу Райҳон Беруний (973-1048) асарларида яхши асосланган. Ўрта асрларда италиялик Жордано Бруно (1548-1600) эса бу ғояни фалсафӣ концепция даражасига кўтарган.

Табиӣ-илмӣ билимлар тараққӣети олам – коинот ҳақидаги тасаввурларни ҳар тарафлама кенгайтирди. Айниқса кузатиш астрономиясининг ривожланиши, Куёш системасидаги сайёралар ва астероидлар ҳаракатларини аниқроқ кузатишга имкон берувчи телескопларнинг кашф этилиши, оптик телескоплардан кўра кенг имкониятларга эга бўлган радиотелескопларнинг яратилиши астрономларнинг имконият доирасини ҳам кенгайтирди. Ердан ташқаридаги цивилизациялар ҳам мавжуд бўлиши мумкинлиги ҳақидаги кўплаб ғоялар илгари сурила бошлади.

ФАНДА ИМКОНИЯТДАГИ ОЛАМЛАР КОНЦЕПЦИЯСИ

Имконият ва воқелик категориялари ҳақидаги таълимот олам тараққӣетининг ўзига хос хусусиятларини ўрганишда, оламнинг тараққӣети қайси йўналишда бораётганлигини аниқлашда катта методологик аҳамиятга эгадир. Хўш, имконият ва воқелик нима? Имконият ҳали рўй бермаган, лекин рўй бериши мумкин бўлган воқеликдир. Воқелик бу имкониятнинг рўёбга чиқиши, амалга ошишидир. Ҳамма имкониятлар ҳам воқеликка айланадими? Бу борада фалсафа фани имконият етарли шарт-шароит бўлгандагина воқеликка айланади, деб таълим беради. Кутилмаган тасодифлар имкониятнинг воқеликка айланишига тўсиқ бўлиши мумкин. Масалан, келажакда ширин мева бериши мумкин бўлган дарахтнинг илдизига зарар келтириши эҳтимоли бўлган қурт тушиши дарахтнинг мева қилмасдан нобуд бўлишига олиб келиши мумкин. Бу мазкур дарахт учун тасодиф. Хашоратнинг ҳаракати эса тирик қолиши ва уруғининг кўпайиши учун озуқа топиш илинжидаги фаолияти заруриятдир.

Замонавий космологик моделлар коинотнинг глобал миқёсда ривожланиши ғоясини яратишга имкон беради. Оламнинг ҳозирги ҳолати ва тузилиши коинот эволюциясининг дастлабки дақиқаларида содир бўлган физикавий шарт-шароитлар ва параметрлар билан белгиланади (бундан кейин биз олам деганда Космологик оламни, яъни биз яшаётган Коинотни назарда тутамиз); Агар бошланғич ҳолатида бошқача шарт шароитлар бўлганида, эҳтимол ҳозиргидан бутунлай бошқачароқ олам пайдо бўлар эди. Шу сабабли, коинотнинг "эмбрион" ҳолатини ўрганиш коинотнинг кейинги ривожланиш имкониятларини ўрганишда катта аҳамиятга эга. Уни ўрганиш учун оламнинг ҳозирги ҳолатига, унинг фазо-вақт структурасига эътибор қаратишга тўғри келади. Бу ҳолат назарий физика ва квант физикаси томонидан ўрганилади, унда имкониятлар ва эҳтимолликларни ҳисобга олиш алоҳида ўрин тутади. Ҳозирги Коинотнинг фазо ва вақт хусусиятларини яхшироқ ўрганиш унинг ўтмиши ва келажagini чуқурроқ ва аниқроқ тасаввур қилишга имконият яратади. Бу ҳақда ушбу сатрлар муаллифининг мақоласидан тўлиқроқ маълумот олишингиз мумкин.

ЭҲТИМОЛДАГИ ОЛАМЛАР ҲАҚИДАГИ ҒОЯЛАР

Эҳтимолдаги оламлар ҳақидаги дастлабки ғоялар қадимги Миср ва Бобил, қадимги ҳинд, қадимги хитой ва қадимги юнон файласуфларининг асарларида учрайди. Қадимги ҳиндлар олам цикли ривожланувчан турли шакллардан ташкил топган бўлиб турли даврларда ўзига хос хусусиятларга эга бўлган деб ҳисоблашган. Турли физик қонуниятларга эга бўлган оламларнинг мавжуд бўлиш имкониятлари ҳақидаги ғоялар ўрта асрларда яшаган буюк мутафаккир ватандошимиз Абу Райҳон Беруний асарларида баён этилган. Оламларнинг кўплиги ғояси Жордано Брунонинг рисолаларида ёзилган. Эҳтимолдаги оламлар мавжудлигининг мантиқӣ асослари эса Лейбницнинг телеологик концепциясида асослаб берилган. Лейбницнинг фикрига кўра, имкониятдаги дунё - бу барча "композициялар" (compossibilia) йиғиндисидир. Квант механикасининг учинчи талқини ҳисобланган Хью де Эверетт концепциясига кўра, оламнинг барча имкониятлари мустақил коинотларда рўёбга чиқади. Яъни бу олам кўплаб бошқа оламларга тармоқланиб, ҳар бир янги оламда бир имконият воқеликка айланади. Замонавий тадқиқотларда

мумкин бўлган оламлар ғояси Б. Рассел, Р. Карнап асарларида, С.Крипке, С.Кангер, Ж.Хинтиikka, Я.Хинтиikka мантикий моделларида, В.В.Целищевнинг модал мантигида, А.М.Мостепаненконинг сўнгги фалсафий монографияларида ўз аксини топган.

ЭХТИМОЛДАГИ ОЛАМЛАР КОСМОЛОГИК КОНЦЕПЦИЯСИ

А.М.Мостепаненко космологик талқинларга асосланиб, кўплаб мумкин бўлган оламларнинг мавжудлигига имкон берувчи гипотезаларнинг олтига муҳим турини санаб ўтади: 1) Эверетта-де Виттанинг “Оламларнинг тармоқланиши” ҳақидаги квант механикаси талқини; 2) Эйнштейннинг гравитация қонунининг кўплаб космологик ечимлари бўлиши мумкинлиги ҳақида ғояси; 3) Коинотда мумкин бўлган космологик сингуларликларнинг кўплиги ва хилмахиллиги (“Хокингнинг квази-сингуларлик”) ҳақида ғояси; 4) К. Шварцшилд сферасида “ўзга” оламлардан ахборот олиш имконияти ҳақидаги космологик фараз; 5) Коинотнинг Гут-Линде инфляцион моделида пайдо бўладиган коинотларнинг кўплиги ҳақидаги фарози; 6) Ж.Уилернинг фазо-вақтнинг кўпбоғланган топологияси ҳақидаги ғояси. Санаб ўтилган гипотезалар ишончли математик ҳисоб-китоблардан ва табиатнинг объектив қонунларидан келиб чиқарилган, улар бир вақтнинг ўзида мумкин бўлган кўп дунёлар ғоясини назарий амалга ошириш вазифасини бажаради. Эҳтимолдаги оламлар концепцияси Коинотда рўй берувчи имкониятларни, эҳтимолликларни чамалаш ва ўлчаш усулларини такомиллаштиришга йўл очади. Оламда ҳар бир ходисанинг рўй бериш имконияти бор. Оддий танганинг ерга қайси томони билан тушушининг имконияти $\frac{1}{2}$ га тенг. Бу танганинг ё А томони ё Б томони албатта ерга тушади деган фикрга тенг. 6 қиррали шошқолнинг ерга қайси томони билан тушушининг эҳтимоллиги $\frac{1}{6}$ га тенг. Бу унинг олти томонидан бири албатта тепага қараб тушади деган фикрни беради.

Америкалик физик-назариётчи Хью де-Эверетт (1930-1982) 1957йили фалсафа доктори диссертациясида квант механикасининг кўпдунёли талқинини илгари суради. Унинг фикрича, квант ходисалар кетма-кетлигидаги барча имкониятлар воқеликка айланади. Ҳар бир имконият алоҳида тармоқланган Коинотда амалга ошади. Квант механикасининг бундай талқини Нильс Бор ва Макс Планк талқинларидан кейинги учинчи талқин сифатида фанга кирди.

Альберт Эйнштейннинг дастлабки космологик тенгламасига кўра Коинот вақт давомида ўзгармайдиган, стационар ҳолатда бўлади деб ҳисоблаган. Шу сабабли Эйнштейннинг дастлабки космологик модели цилиндрсимон шаклда ифодаланган. Кейинчалик нидерландиялик Виллем де-Ситтер (1872-1934) Коинотнинг гравитация тенгламаларига ламда (λ) қийматини киритиб, у критик зичликдан кичик қийматда кенгаювчи ва катта қийматда эса зичланувчи ҳолатда бўлишини ҳамда шу асосда кенгаювчи ва тораювчи коинотлар бўлиши мумкинлиги ҳақидаги ғояни илгари суради. Рус олими Александр Фридман (1888-1925) ҳам 1922-1924 йиллари релятивистик физика қоидаларини коинотнинг гравитацион тенгламаларига тадбиқ этиб шундай фикрга келган. Шунингдек, XX аср физикларидан америкалик олим Ричард Чейс Толмен (1881-1948) пульсланувчи, яъни кенгайиб ва яна тораювчи коинот моделини илгари суради. Космология тарихида англиялик астроном ва космолог Фред Хойлнинг (1915-2001) стационар кенгаювчи Коинот ғояси ҳам эътиборга лойиқ. Унинг фикрича, Коинот кенгайиб бормоқда, аммо ғойибдан бетўхтов яратилиб турган заррачалар эвазига унинг зичлиги ўзгармайди, деб ҳисоблайди.. Англиядаги И.Ньютон кафедраси мудири бўлиб ишлаган физик, математик ва космолог олим Стивен Уильям Хокинг (1942-2018) немис астрономи ва физиги Карл Шварцшилднинг (1873-1916) сингулярлик ва гравитацион коллапс тенгламаларини Коинотдаги қора туйнуклар физикасига тадбиқ этиб, сингулярликнинг турли шакллари ҳақидаги ғояларни асослайди ва қора туйнуклар ва оқ туйнуклар коинотнинг дастлабки (портлаш) ва сўнгги (ёпилиш) вақтига мос келишини асослайди. Бу Коинотнинг мураккаб тузилишга эгалигини, унинг ривожланиши жараёнида хилмахил тармоқланган ички гравитация туйнуклари мавжудлигини, Оламнинг янада мураккаб ва хилмахил табиатга эгалигини асослаб беради.

ХИНТИККА МОДЕЛЛАРИ

Я. Хинтикканинг мантикий тадқиқотларида “мумкин бўлган дунё” тушунчаси “модел” тушунчаси билан қиёсланади, шу ердан у модел тўплами тушунчасига келади (“Хинтиikka тўпламлари” адабиётида). Я.Хинтикке концепциясига кўра агар Σ белгиланган тартиб (сигнатура) бўлсин, S -тўпلام Σ га тегишли бўлмаган янги доимий белгилар тўплами бўлсин. $\Sigma_c = (\Sigma, c: c \in C)$ белгиланган тартибли (сигнатурали) X ёпиқ тўпламлар мажмуаси, агар у қуйидаги хусусиятларга эга бўлса, - белгиланган тартибли (сигнатурали) S тўпلام Σ - **Хинтиikka тўплами** дейилади:

1) ҳеч бир ϕ формула учун Σ_c сигнатураси ϕ формула ва $\neg\phi$ (эмас) бир пайтнинг ўзида X га тааллуқли бўлмаса;

2) агар $\neg(\phi \rightarrow \psi) \in X$, то $\phi \wedge \neg\psi \in X$;

3) агар $\neg\neg\phi \in X$, то $\phi \in X$;

4) агар $\neg(\phi \wedge \psi) \in X$, то $\neg\phi \vee \neg\psi \in X$;

5) агар $\neg(\phi \vee \psi) \in X$, то $\neg\phi \wedge \neg\psi \in X$;

6) агар $\neg(\forall x)\phi \in X$, то $(\exists x)\neg\phi \in X$;

7) агар $\neg(\exists x)\phi \in X$, то $(\forall x)\neg\phi \in X$;

8) агар $\phi \wedge \psi \in X$, то $\phi \in X$ и $\psi \in X$;

9) агар $\phi \vee \psi \in X$, то $\phi \in X$ или $\psi \in X$;

10) агар $\phi \rightarrow \psi \in X$, то $\neg\phi \vee \psi \in X$;

11) агар $(\forall x)\phi \in X$, то $(\phi) x c \in X$ барчаси учун $c \in C$;

12) агар $(\exists x)\phi \in X$, то $(\phi) x c \in X$ айрим $c \in C$ учун.

13) агар t — оддий ёпиқ терм ΣC сигнатура бўлса, унда $c m t \in X$ айрим $c \in C$ учун;

14) ҳар қандай оддий ёпиқ t терм учун ΣC сигнатура, ҳар қандай $c \in C$ ва любой ΣC сигнатуранинг ϕ формуласи битта эркин z ўзарувчисига эга бўлса, агар $c m t \in X$ и $(\phi) z t \in X$, то $(\phi) z c \in X$ бўлса.

Фин файласуф ва математик олими Каарло Яакко Хинтика (1929-2015) имкониятдаги оламларнинг кўплигини мантикий позитивистик услубда асослашга интилган. Ҳар бир янги оламга ўзига хос мантикий тартиб хосдир. Шу сабабли ҳақиқатнинг нисбийлиги турли мантикий моделларда турлича намоён бўлиши мумкин деб ҳисоблайди олим. Яъни ҳақиқатнинг мантикий маъноси ҳам турли сабаб-оқибат муносабатларида турлича намоён бўлиши мумкин. Уларни математик мантик асосида рақамлаштириш имконияти мавжуд.

Дунёнинг ҳар бир мумкин бўлган модели ўзига хос метрик ва топологик хусусиятлар билан ажралиб турадиган маълум фазо-вақт тузилишига эга. Шу муносабат билан, турли метрик ва топологик хусусиятларга эга бўлган коинотларнинг турли моделларининг фазо-вақт тузилишини ўрганиш долзарб аҳамият касб этади.

ГУТ-ЛИНДЕ ИНФЛЯЦИОН МОДЕЛИ

Олам тузилишини ўрганишда унинг фазо-вақт тузилишининг ривожланиш имкониятларини ҳисобга олиш керак. Масалан, Америкалик космолог Алан Харви Гут (Гус) (1947. 27 фев.) ва россиялик физик Андрей Дмитриевич Линделар (1948. 2 март) ишлаб чиққан инфляцион моделига кўра, олам эволюциясининг дастлабки дақиқаларида у ўн бир ўлчовли ва кўп боғланган фазо-вақт тузилишига эга бўлган. Ўша пайтда уч ўлчовли ва оддий боғланган фазо фақат имконият даражасида эди. Олам ўз эволюцияси жараёнида унинг фазо-вақт тузилиши ҳам ривожланди. Мавжуд моделларга кўра, коинот эволюциясининг якуний босқичида унинг фазо-вақт тузилиши яна кўп боғланган ва кўп ўлчовли бўлади. Дастлабки кўпикнинг шишиши ва кўплаб кўпикларга парчаланиб, сон-саноксиз кўпикларнинг пайдо бўлиши бутун бошли коинотлар ансамблини вужудга келтирган. Биз яшаётган Коинот шу кўпикларнинг бирининг кескин катастрофик (ҳалокатли) портлаши тарзда қисқа вақт ичида (10^{-42} сек.) шишиб, кенгайиб кетиши натижасида вужудга келган. Бу назария ўз навбатида коинотлар ансамбли ҳақида мулоҳаза юритишга ҳам имкон беради.

Хуллас, бу назария оламларнинг кўплиги ҳақидаги илмий гипотезанинг космология нуқтаи назаридан исботланишига имкон туғдиради.

Коинотда рўй бераётган жараёнлар келажақда ҳақиқатга айланиши мумкин бўлган имкониятлардир. Гераклитнинг дунё узлуксиз шаклланишда бўлиб, доимий равишда “бир борлиқдан бошқа борлиққа, иккинчисидан (ҳозирги) борлиққа” айланиб туради, деган ибораси шуни англатадики, вақтнинг ҳар бир лаҳзада эски воқелик ўрнини янги воқелик борлиғи эгаллайди. Вақт бўйича битта мумкин бўлган олам бошқа имкониятдаги оламлар билан алмашилиб туради.

КОИНОТЛАР АНСАМБЛИ ВА АНТРОП ТАМОЙИЛИ

Австралияда яшовчи инглиз олими Брэндон Картер (1942) томонидан 1973 йилда илгари сурилган антроп (ёки антропологик) тамойил бир-биридан турли физикавий шарт-шароит ва константалар билан фарқ қилувчи мумкин бўлган оламлар ансамблини таҳлил қилиш имконини беради. Унинг фикрича, бизнинг коинотдаги ҳозирги ҳолатимиз коинот вужудга келган пайтдаги Катта портлаш жараёнига бевосита боғлиқдир. Ўша пайтда бошқачароқ портлаш бўлганида биз балки вужудга келмаган бўлар эдик. Бу тамойилнинг моҳиятини ушбу мақола муаллифининг “Борлиқ” номли монографиясидан ўқишингиз мумкин.

Коинотда рўй берган Катта портлаш битта пуфакчанинг кескин шишиб кетиши туфайли содир бўлган дейилади А.Гут ва А.Линде космологиясида. Бу пайтда биттагина пуфакча бўлганми, ёки бир қанча пуфакчаларнинг биттасидан бизнинг коинот ва бошқа қўплаб пуфакчаларнинг ҳар биридан алоҳида бошқа коинотлар вужудга келганми? – деган савол вужудга келади. Бу саволга тасдиқловчи жавоб ҳақиқатни ифодаласи, у ҳолда Катта портлаш пайтида сон-саноксиз коинотлар ансамбли вужудга келгандир, деган фараз пайдо бўлади. Уларнинг ҳар бирида ўзига хос бўлган физик, химик ва биологик жараёнлар рўй беради ҳамда биз учун бегона бўлган муҳит шаклланган бўлиши мумкин. Масалан, бизнинг Ер шари муҳитида кислородли атмосфера мавжуд бўлса, Коинотнинг асосий таркиби водород атомидан таркиб топган бўлса, қўшни коинотларда бутунлай бошқа химиявий элементлар устуворлик қилиши ҳам мумкин. Шу тарзда ўзга коинотларда ўзига хос табиий қонуниятлар амал қилиши мумкин. Бу масала ўрганилиши ҳамда бизнинг Коинотга хос бўлган универсал қонуниятларнинг имкониятлари моҳияти очилиши лозим. Бу имкониятлар Коинот келажагида воқеликка айланиб боради.

ХУЛОСА

Қадимдан файласуфлар, физиклар, космологлар, диний уламолар, фантаст ёзувчилар коинотлар ансамбли ҳақидаги ғояларни турли тушунчаларда ифодалашга ҳаракат қилиб келишган. Мульти коинот, мегакоинот, гиперкоинот, параллел оламлар ҳақидаги хилма хил ғоялар умумий ҳолда коинотлар ансамбли ҳақидаги тасаввурларни вужудга келтирган бўлиб, уларни реал олам билан қиёслаганда янги-янги ғоялар вужудга келиб, уларга хос умумий ва универсал хусусиятлар мажмуаси ҳосил бўлиши мумкин. Бундай хусусиятларни математик мантиқ асосида рақамлаштириш ва универсал математик коинот модели тузилса оламнинг ўзига хос математик манзараси вужудга келади. Бундай модел реал оламнинг имкониятдаги фазо-вақт структурасига таяниб тузилади. Турли хил коинотлар турлича фазо-вақт структурасига эга бўлади. Кўп ўлчовли метафазодаги жараёнлар тўрт ўлчовли фазо-вақт хусусиятларидан тубдан фарқ қилади. Масалан торсимон (тешик кулчага ўхшаш) коинот фазоси қўпбоғланганлиги билан фарқланади ва бундай фазода кичик идиш ичига катта идишни сиғдириш мумкин. Турли хил коинотлар ва оламлар бир биридан метрик ва топологик фазо-вақт хусусиятлари билан фарқ қилади. Шу сабабли турли хил имкониятдаги дунёларнинг фазо-вақт манзарасини яратиш, уларнинг математик моделларини ишлаб чиқиш (коинотни рақамлаштириш) космологиядаги энг долзарб вазифалардан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Беруний Абу Райҳон. Ҳиндистон // Танланган асарлар II. –Т.: «О‘zbekiston» НМИУ, 2022.
2. Линде А. Раздувающаяся Вселенная // Наука и жизнь.1985, №8.
3. Миры Фреда Хойла // https://web.archive.org/web/20061010010925/http://schools.keldysh.ru/sch1216/materials/sun_sys_do/Personalia/Hoyle/hoyle.htm

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИСЛОҲОТЛАРИ ШАРОИТИДА ТАРИХИЙ ОНГ ВА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ

Алишер Равшанов,
с.ф.д (PhD) “ТИҚХММИ” МТУ
Гуманитар фанлар кафедраси мудири

Аннотация. Мазкур мақолада Янги Ўзбекистон ислохотлари шароитида тарихий онг ва ахлоқий тарбиянинг ўзаро боғлиқлиги ижтимоий-фалсафий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистон, тарихий онг, тарихий хотира, ахлоқий тарбия, маънавий трансформация, миллий идентичлик, фуқаролик масъулияти, миллий ўзлик.

Аннотация. В данной статье социально-философски анализируется взаимосвязь исторического сознания и нравственного воспитания в условиях реформ Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, историческое сознание, историческая память, нравственное воспитание, духовная трансформация, национальная идентичность, гражданская ответственность, национальная самобытность.

Abstract. This article provides a socio-philosophical analysis of the interrelation between historical consciousness and moral education in the context of the reforms of New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, historical consciousness, historical memory, moral education, spiritual transformation, national identity, civic responsibility, national identity.

Ҳозирги глобал трансформация ва Янги Ўзбекистонни барпо этиш шароитида тарихий онг ва ахлоқий тарбия масаласи алоҳида аҳамият касб этмоқда. Чунки ислохотлар фақат ташқи институтларни янгилаш эмас, балки жамият онгида янги кадриятлар тизимини қарор топтиришни тақозо этади. Бу эса миллий тарихга ҳолис ва танқидий ёндашувни шакллантириш, ёш авлодда ватанпарварлик, масъулият ва маънавий иммунитетни кучайтиришни талаб қилади.

Бугунги глобаллашув жараёнлари, ахборот маконининг чегарасизлашуви, рақамли маданиятнинг кенгайиши ва мафкуравий таъсир воситаларининг кучайиши шароитида тарихий онг ва ахлоқий тарбия муаммоси янада долзарб тус олмоқда. Турли ғоявий таъсирлар, тарихни субъектив талқин қилиш ҳолатлари ва кадриятлар трансформацияси жамият маънавий барқарорлигига таҳдид солиши мумкин. Шу боис тарихий хотирани асраш ва ахлоқий тарбияни тизимли йўлга қўйиш стратегик вазифага айланмоқда.

Янги Ўзбекистон ислохотларининг маънавий-ижтимоий мазмуни.

“Янги Ўзбекистон” концепцияси мамлакат тараққиётининг янги босқичини ифода этувчи стратегик ғоя сифатида шаклланди. Унинг мазмуни фақат иқтисодий ўсиш ёки институционал модернизация билан чекланмай, балки жамият ҳаётининг барча соҳаларида сифат жиҳатдан янгиланишни назарда тутди.

Мазкур концепциянинг марказида инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, шаъни ва кадр-қиммати туради. Бу эса давлат бошқарувида, жамоат муносабатларида ва таълим-тарбия тизимида янги ёндашувни талаб этади. “Янги Ўзбекистон” ғояси мазмунан миллий ўзликни тиклаш, ҳуқуқий давлат барпо этиш, фуқаролик жамиятини ривожлантириш ва маънавий барқарорликни таъминлашни қамраб олади.

Мамлакат тараққиётининг янги босқичида давлат раҳбари томонидан илгари сурилган қатор ташаббуслар маънавий янгиланиш ғоясини амалий мазмун билан бойитди. Хусусан, ёшлар сиёсати, таълим тизимини ислох қилиш, маданий меросни тиклаш, китобхонлик маданиятини ривожлантириш каби йўналишлар жамият онгини юксалтиришга қаратилган.

Бу ташаббуслар фуқароларда ижтимоий масъулият, ватанпарварлик ва миллий ғурур туйғуларини шакллантиришга хизмат қилмоқда. Давлат ва жамият муносабатларида очиқлик, адолат ва қонунийлик тамойилларининг кучайиши ҳам маънавий трансформациянинг муҳим кўрсаткичидир.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси” асарида Янги Ўзбекистон тараққиётининг концептуал асослари баён этилган бўлиб, унда адолатли жамият барпо этиш, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, миллий кадриятларни асраш ва замонавий тараққиётни уйғунлаштириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

Асарда илгари сурилган ғоялар ислохотларнинг фақат иқтисодий самарадорликка эмас, балки маънавий барқарорликка таянишини кўрсатади. Бу эса жамият тараққиётини комплекс ёндашув асосида кўриб чиқиш зарурлигини англатади.

Янги Ўзбекистон тараққиётининг асосий шиорида айланган “Инсон қадри учун” тамойили ислохотларнинг ахлоқий пойдеворини белгилаб берди. Ушбу тамойил инсонни давлат сиёсатининг объекти эмас, балки субъекти сифатида эътироф этади.

Инсон қадрини юксалтириш деганда фақат ижтимоий ҳимоя ёки иқтисодий қўллаб-қувватлаш эмас, балки унинг маънавий камолоти, ҳуқуқий онги ва фуқаролик фаоллигини ривожлантириш ҳам назарда тутилади. Шу жиҳатдан, мазкур тамойил ахлоқий тарбия ва тарихий онгни шакллантириш билан узвий боғлиқдир.

Фалсафий нуқтаи назардан қаралганда, Янги Ўзбекистон ислохотлари жамият институционал тизимини янгилаш билан бирга, кадриятлар тизимини ҳам трансформация қилишга қаратилган. Бу жараёнда тарихий хотирага муносабат, миллий ўзликни англаш ва фуқаролик масъулияти каби омиллар қайта шаклланмоқда.

Ислохотларни онг трансформацияси сифатида талқин қилиш шуни англатадики, жамият тараққиётининг барқарорлиги фақат ташқи ўзгаришларга эмас, балки инсон онгидаги маънавий

янгилашишга боғлиқ. Агар институционал янгилашиш онгий янгилашиш билан уйғун кечса, модернизация барқарор ва узоқ муддатли натижа беради.

Шу тариқа, Янги Ўзбекистон ислохотлари маънавий-ижтимоий мазмунга эга бўлган комплекс жараён бўлиб, улар тарихий онгни мустаҳкамлаш ва ахлоқий тарбияни такомиллаштириш орқали жамият онгини янгилашга қаратилган.

Тарихий онг тушунчасининг ижтимоий-фалсафий моҳияти.

Тарихий онг – ижтимоий онг шаклларида бири бўлиб, жамиятнинг ўтмишга муносабати, тарихий тажрибасини англаши ва уни қадриятли баҳолаш тизимида ифода этиш қобилиятини англатади. У фақат воқеаларни эслаб қолиш эмас, балки ўтмишни маънавий тажриба сифатида қабул қилиш, уни ҳозирги ва келажак тараққиёти билан боғлаш жараёнидир.

Тарихий онг икки даражада намоён бўлади:

1. индивидуал даражада – шахснинг тарих ҳақидаги тасаввури;
2. ижтимоий даражада – миллат ёки жамиятнинг умумий тарихий хотираси.

Фалсафий нуқтаи назардан тарихий онг вақт ва маъно муносабатининг ифодасидир. Жамият ўз ўтмишини қандай талқин қилса, келажакни ҳам шу асосда қуришга интилади. Шу жиҳатдан, тарихий онг жамиятнинг стратегик ўзини англаш механизми ҳисобланади.

Тарихий онг миллий ўзлик билан узвий боғлиқдир. Миллий ўзлик – миллатнинг ўзини алоҳида ижтимоий-тарихий субъект сифатида англаши, умумий қадриятлар, тил, маданият ва тарихий тажриба асосида бирлашишидир.

Тарихий хотира эса ушбу ўзликнинг маънавий негизи ҳисобланади. У аجدодлар тажрибаси, тарихий ютуқлар ва фожиаи саҳифаларни қамраб олади. Миллат тарихий хотираси орқали ўзининг маънавий чегараларини белгилайди, умумий мақсад ва ғоялар атрофида жипслашади.

Тарихий хотиранинг сусайиши миллий ўзликнинг заифлашишига, қадриятлар тизимининг парокандалашувига олиб келиши мумкин. Шу сабабли, тарихий онгни шакллантириш миллий барқарорликни таъминлашнинг муҳим омили ҳисобланади.

Тарихий онгни англашда коллектив онг тушунчаси муҳим аҳамият касб этади. Коллектив онг – муайян жамият ёки ижтимоий гуруҳга хос умумий қадриятлар, эътиқодлар ва тасаввурлар тизимидир. У алоҳида индивидлар онгидан устун турадиган умумий маънавий майдон сифатида намоён бўлади.

Тарихий онг ана шу коллектив онгнинг муҳим таркибий қисми бўлиб, жамиятнинг ўз ўтмишини қандай қабул қилиши ва баҳолашини белгилайди. Коллектив хотира орқали тарихий воқеалар умуммиллий рамзларга айланади, умумий маънавий тажриба сифатида сақланади.

Бу жараён ижтимоий бирликни мустаҳкамлаш билан бирга, жамият аъзоларида умумий масъулият туйғусини шакллантиради. Шу нуқтаи назардан, тарихий онг – ижтимоий интеграция механизми ҳамдир.

Тарихий онг миллий идентичликни шакллантирувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Миллат ўз тарихини англамас экан, унинг умумий мақсад ва стратегик йўналишлари мустаҳкам бўлмайди. Тарихий тажриба миллий ғурур, ватанпарварлик ва фуқаролик масъулиятини мустаҳкамлайди.

Бу масалада Карл Теодор Ясперс тарихий масъулият ғоясини илгари сурган. Унинг фикрича, инсон ва жамият ўз тарихий ўтмишини англаб, ундан маънавий хулоса чиқариши лозим. Тарихий хотирадан қочиш эмас, балки уни англаш ва масъулият билан қабул қилиш – маънавий камолот шартидир.

Миллий маърифатчилик анъаналарида ҳам тарих ва тарбия ўртасида узвий боғлиқлик таъкидланган. Хусусан, Абдулла Авлоний тарбияни миллат тақдири билан боғлаб, маънавий барқарорликни тарихий тажрибага таянган ҳолда шакллантириш зарурлигини таъкидлаган. Унинг қарашларида миллий ўзлик ва ахлоқий камолот бир-биридан ажралмас жараён сифатида талқин этилади.

Шу тариқа, тарихий онг ижтимоий онгнинг стратегик шакли бўлиб, у миллатнинг ўтмиш тажрибасини англаш, миллий ўзликни мустаҳкамлаш ва келажак тараққиётини белгилашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. У коллектив хотира, миллий идентичлик ва ахлоқий масъулият билан чамбарчас боғлиқдир.

Янги Ўзбекистон шароитида тарихий онгни мустаҳкамлаш маънавий трансформациянинг асосий шarti сифатида намоён бўлади. Чунки тарихий онг шаклланмаган жамиятда барқарор миллий идентичлик ва мустаҳкам ахлоқий тизим қарор топиши қийин.

Тарихий онг ва ахлоқий тарбия ўртасидаги узвий боғлиқлик.

Тарихий онг ва ахлоқий тарбия жамият маънавий тизимининг ўзаро боғлиқ икки устуни ҳисобланади. Уларни алоҳида ҳолда таҳлил қилиш мумкин бўлсада, амалда улар бир-бирини шартлайдиган ва тўлдириб турадиган жараёнлардир. Тарихий онг умумий маънавий тажриба ва қадриятлар мазмунини ифода этса, ахлоқий тарбия ана шу мазмунни шахс ҳуқ-атвори ва ижтимоий муносабатлар даражасида амалга ошириш механизми сифатида намоён бўлади.

Тарихий хотира миллатнинг ўтмиш тажрибасини сақловчи маънавий омбордир. У фақат воқеалар тўплами эмас, балки улардан чиқарилган ахлоқий ҳулосалар мажмуасидир. Жамият ўз тарихидаги муваффақиятлар ва фожиаларни англаган сари, унда ижтимоий масъулият туйғуси шаклланади.

Тарихий хотира шахсда қуйидаги ахлоқий сифатларни ривожлантиради:

- бурчни англаш;
- адолатга интилиш;
- умумий манфаатни шахсий манфаатдан устун қўйиш;
- ватанпарварлик ва фуқаролик фаоллиги.

Агар тарихий хотира узлуксиз сақланса, у авлодлар ўртасида маънавий меросни узатиш механизмига айланади. Шу орқали ахлоқий меъёрлар барқарорлашади ва жамиятда умумий масъулият муҳити қарор топади.

Тарих – бу тажриба мактаби. Ўтмишдаги хатолар ва ютуқлардан ҳулоса чиқара олган жамият маънавий жиҳатдан барқарор бўлади. Тарихий сабоқлар шахс ва жамиятни ташқи мафкуравий таъсирлардан ҳимоя қилувчи маънавий иммунитетни шакллантиради.

Маънавий иммунитет деганда қуйидагилар назарда тутилади:

- ёт ғояларга танқидий муносабат;
- ахлоқий меъёрларни сақлаш қобилияти;
- қадриятлар тизимини онгли равишда ҳимоя қилиш.

Тарихий онгнинг кучли бўлиши ахборот хуружлари ва мафкуравий манипуляцияларга қарши туриш имконини беради. Шу жиҳатдан, тарихий хотира фақат ўтмишга эмас, балки келажак хавф-хатарларига нисбатан ҳам ҳимоя механизми вазифасини бажаради.

Миллий ғурур – тарихий онгнинг эмоционал-руҳий ифодасидир. Миллат ўз тарихий мероси ва маданий ютуқлари билан фахрланган сари, унда ушбу меросни сақлаш ва бойитиш масъулияти кучаяди. Шу маънода, миллий ғурур ижтимоий фаоллик ва фуқаролик позициясини рағбатлантиради.

Тарихий онг шаклланмаган жамиятда барқарор ахлоқий тизим қарор топмайди. Чунки ахлоқий меъёрлар абстракт ҳолда эмас, балки муайян тарихий тажриба ва маданий замин асосида шаклланади. Агар жамият ўз ўтмишини англамаса, унинг қадриятлар тизими пароканда бўлиб, ахлоқий меъёрлар субъектив ва ўзгарувчан тус олади.

Тарихий онг ахлоқий тарбия учун мазмун манбаи бўлса, ахлоқий тарбия тарихий онгни амалий ҳаётда мустаҳкамлайди. Уларнинг уйғунлиги ижтимоий барқарорлик, маънавий изчиллик ва авлодлар ворислигини таъминлайди.

Шу тариқа, тарихий онг ва ахлоқий тарбия ўртасидаги узвий боғлиқлик жамият маънавий тараққиётининг асосий қонуниятларидан биридир. Тарихий хотира ахлоқий масъулиятни шакллантирса, ахлоқий тарбия тарихий тажрибани ҳаётини меъёрга айлантиради.

Янги Ўзбекистон шароитида мазкур уйғунликни таъминлаш онг трансформациясининг марказий шarti бўлиб, ижтимоий барқарорлик ва миллий тараққиётни мустаҳкамлайди.

Амалий таклифлар.

Янги Ўзбекистон шароитида тарихий онг ва ахлоқий тарбия уйғунлигини таъминлаш фақат назарий таҳлил билан чекланиб қолмаслиги, балки аниқ амалий механизмлар орқали ҳаётга татбиқ этилиши зарур. Қуйида мазкур йўналишда бир қатор таклифлар илгари сурилади.

Таълим соҳаси учун

1. Тарихий онгни шакллантирувчи махсус курслар жорий этиш

Умумтаълим мактабларида тарих фанини фақат фактологик маълумот бериш доирасида эмас, балки тарихий тафаккурни шакллантирувчи фан сифатида ташкил этиш зарур. Бунинг учун:

- “Тарихий тафаккур асослари” ёки “Миллий тарих ва қадриятлар” каби интегратив курслар ишлаб чиқиш;
- тарихий воқеаларни ахлоқий ҳулосалар билан боғлаб ўргатиш;
- ўқувчиларни тарихий манбалар билан мустақил ишлашга ўргатиш;

• ўтмиш сабоқларини замонавий ижтимоий муаммолар билан қиёсий таҳлил қилиш методикасини жорий этиш мақсадга мувофиқ.

Бу ёндашув тарихий онгни пассив хотира эмас, балки фаол ижтимоий тафаккур шакли сифатида шакллантиришга хизмат қилади.

Олий таълим учун

1. Фалсафа ва маънавият фанларини кучайтириш

Олий таълим муассасаларида фалсафа, маънавият, этика ва маданиятшунослик фанларининг ролини ошириш зарур. Бу фанлар орқали:

- тарихий онг ва миллий идентичлик масалаларини чуқур таҳлил қилиш;
- ахлоқий қадриятларнинг назарий асосларини ўрганиш;
- жамият тараққиётида маънавий омилларнинг аҳамиятини англаш таъминланади.

Фанларнинг мазмунини замонавий ижтимоий жараёнлар билан боғлаб янгилаш мақсадга мувофиқ.

2. Танқидий фикрлашни ривожлантириш

Тарихий онгни мустаҳкамлаш ва ахлоқий барқарорликни таъминлашда танқидий фикрлаш муҳим ўрин тутди. Шу мақсадда:

- талабаларни турли манбаларни таҳлил қилишга ўргатиш;
- ахборот манипуляциясини аниқлаш кўникмаларини шакллантириш;
- фалсафий ва ижтимоий муаммолар бўйича эркин муҳокамаларни йўлга қўйиш;
- илмий баҳс маданиятини ривожлантириш зарур.

Танқидий фикрлаш ривожланган жамиятда тарихий хотира субъектив талқинлар таъсирига тушиб қолмайди.

Янги Ўзбекистон ислохотлари маънавий-ахлоқий мазмунга эга бўлиб, инсон қадрини юксалтириш, миллий ўзликни мустаҳкамлаш ва фуқаролик масъулиятини оширишга қаратилган. Ушбу жараён тарихий онг ва ахлоқий тарбия уйғунлиги асосида амалга ошган тақдирдагина барқарор ва изчил тараққиёт таъминланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси / Ш. Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2022.
2. 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144
3. Abu Nasr Farabi. Fozil odamlar shahri. (O‘zbekcha tarjima nashri). “Yangi asr avlodi” nashriyot – matbaasi. Toshkent.
4. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

ПАХТА ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ РИВОЖИ - КАФОЛАТЛАНГАН ВАЛЮТА ТУШУМИНИНГ ГАРОВИ

Низомиддин Сидиков,
Alfraganus university доценти, и.ф.н.

Анотация. Ўзбекистонда пахта-тўқимачилик кластерларининг пайдо бўлиши, уларнинг ривожланиш босқичлари, пахта хомашёсини етиштиришдан тортиб то тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришга қадар жараёнлар мутассадди вазирлик ва идоралардан олинган маълумотлар асосида ўрганиб чиқилди ва таҳлил қилинди.

Калит сўзлар: парадигма, кластер, призма, механизм, мезон, принципа.

Аннотация. На основе информации, полученной от соответствующих министерств и ведомств, изучены становление хлопково-текстильных кластеров в Узбекистане, этапы их развития, процессы от выращивания хлопка-сырца до производства готовой продукции.

Ключевые слова: парадигма, кластер, призма, механизм, критерия, главный.

Annotation. Based on information received from relevant ministries and departments, the formation of cotton-textile clusters in Uzbekistan, stages of development, and processes from the growth of raw cotton to the production of finished products were studied.

Key words: paradigm, cluster, prism, mechanism, criteria, principal

Кириш. Сўнги йилларда “кластер” атамаси Ўзбекистон республикаси иқтисодиётининг айниқса, пахтачилик, тўқимачилик, ғаллачилик ва бошқа кўплаб тармоқлар ривожланиш истикболларини муҳокама қилишда энг баҳсли мавзуларидан бирига айланган. Агросаноаткластер қатнашчиларининг инновацион йўналтирилганлик омили кластерни ажратиб турадиган муҳим жиҳат ҳисобланади. Кластерлар, қондага кўра, ишлаб чиқариш технологиялари ва техника соҳасида илғор ўсиш ва келгусида янги «бозор ўринларига» чиқиш кутилаётган ёки амалга оширилаётган жойларда шакллантирилади.

Мавзуга оид адабиётлар шарҳи. Кластер тизимини ривожлантиришнинг истикболлари борасида кўплаб олим ва иқтисодчилар томонидан фикр ва мулоҳазалар билдирилган. Ф.М.Рахматуллаева фикрига кўра “Кластер томонидан технологияларнинг жорий этилиши тадбиркорлик тузилмалари ишбилармонлик фаоллигининг ўсишига, минтақада инвестиция муҳитининг яхшиланишига, ижтимоий, иқтисодий, информацион ва интеграцион тизимларнинг ривожланишига имкон беради, бу эса тадбиркорликнинг интенсив ривожланишига, инвестицияларни жалб этиш ва ҳудудларни иқтисодий кўтаришга туртки бўлади” Ш.Ш.Файзиеванинг ёзишича „Қишлоқ хўжалигида кластер тизимини ривожлантиришнинг истикболлари аграр соҳада энг катта муаммоларимиздан бўлган фермерларнинг қишлоқ хўжалиги соҳасида етарли билимга эга бўлишига эришиш, қишлоқ хўжалиги технологияларини мукамал эгаллашини таъминлаш, замонавий ишлаб чиқариш ва инновация усулларидан хабардор бўлиши учун имкониятлар яратишнинг иқтисодий омилидан биридир“. Ю.С.Артамонованинг таъкидлашича “Кластер ўзига нисбатан мураккаброқ бўлган хусусий системалар тўпламидан ҳосил бўлиб, ишлаб чиқаришнинг давлат, индивидуал сектори; тармоқ, тармоқлараро ва ҳудудий-ишлаб чиқариш мажмуалари; иқтисодий муносабатларнинг ҳар хил турлари ва бошқаларни қамраб олади“. Т.В.Ускованинг изоҳича ”Ҳозирги вақтда кластерлар шаклланадиган ҳудудларда иқтисодий ривожланишнинг етакчиларига айланади, деган нуқтаи назар тобора кенгрок эътироф этилмоқда. Бундай етакчи ҳудудлар миллий иқтисодиётларнинг рақобатбардошлигини белгилаб беради. Кластерларга эга бўлмаган ҳудудлар эса ночор иқтисодий мавқега эга.”

Тадқиқот методологияси.

Тадқиқот жараёнида назарий, илмий манбалар, статистик маълумотлар, хорижий давлатлар тажрибаларини ўрганиш, таҳлил қилиш, таққослаш, мантиқий фикрлаш, илмий мушоҳада, тизимли ёндашув каби усуллардан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Қайд этиш лозимки, давлат раҳбарининг 2016 йил 21 декабрдаги “2017- 2019 йилларда тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги қарорига мувофиқ Бухоро вилоятида “ВСТ Cluster” хориж корхонаси ташкил этилиши республикамизнинг барча вилоятларида пахта-тўқимачилик кластерларининг пайдо бўлишига ҳуқуқий замин бўлди.

1-жадвал

Пахта-тўқимачилик кластерлари томонидан етиштирилган пахта хомашёси ва ҳосилдорлик тўғрисида МАЪЛУМОТ

Ҳудудлар номи	Кластерлар сони	Ер майдони гектар	2023 йилда етиштирилган пахта хомашёси тонна	Ҳосилдорлик ц/га				
				Ташкил этилгунга қадар	2021 йилда % да	2022 йилда % да	2023 йилда % да	Ўзгариш и (тэ қадар) фоизда
ЖАМИ	143	1 012 587	3 800 680	29	33	4	8	33%
Қашқадарё	19	133050	471681	26	31	3	5	37%
Навоий	4	28155	109952	29,9	33,8	6,3	9,0	33%
Сурхондарё	2	72270	290284	29,8	35,1	5,4	9,5	34%
Сирдарё	9	77500	300249	28,0	31,5	2,6	8,5	49%
Тошкент	7	70161	273114	29,3	34,5	5,6	8,7	34%

1-жадвалда келтирилган маълумотларга асосан 2023 йил ҳисобига республикада фаолият юритаётган 143 та пахта-тўқимачилик кластерлари томонидан 1 012 587 гектар ер майдонида 3 800 680 тонна пахта хом-ашёси етиштирилди. Кластерлар ташкил қилингунга қадар пахта хомашё етиштириш ўртача 29 центнерни ташкил этган бўлса 2021 йилда 33 центнер, 2022 йилда 34 центнер 2023 йилда эса 38 центнерни ташкил этганлигини, шунингдек вилоятлар кесимида ўртача уч йиллик кўрсаткич Тошкентда 7 центнер, Сирдарёда 6,2; Сурхандарёда 6,8; Навоийда 6,5 ва Қашқадарё вилоятида 7 центнер ўсиш сураълари қайд этилган. Кластер тизими жорий қилиниши пахта хом-ашёси етиштиришнинг самарадорлигини ортишига бироз ижобий таъсир кўрсатганлиги статистик маълумотлардан кўриниб турибди.

Кластер тизими қишлоқ хўжалиги ва саноат интеграциясини таъминлаб, иқтисодиётга салмоқли таъсир кўрсатди. Аммо сўнги йилларда давлат органларининг ортиқча маъмурий аралашуви, бозор тамойилларининг чекланиши кластерларни молиявий инқирозга олиб келди. Республика тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатининг инвестицион жозибадорлигини ва рақобатбардошлигини янада ошириш, соҳанинг экспорт салоҳиятини янада кенгайтириш, маҳаллий тўқимачилик маҳсулотларининг хорижий бозорларга кенгроқ кириб бориши учун шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ривожлантиришни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 01.05.2024 йилдаги ПФ-71-сонли фармони қабул қилинди. Президентнинг янги қарорлари орқали кластерларни қўллаб-қувватлаш, уларни сунъий тўсиқлардан халос этиш ва бозор механизмлари асосида яна тиклашга қаратилган изчил ишлар бошланди. Бу ислохотлар ўз вақтида ва адолатли қарор бўлиб, кластерлар иқтисодиётимизнинг янада мустахкам таянчига айланишига ишончимиз комил.

Фрамонга мувофиқ газлама, трикотаж мато ишлаб чиқариш ва бўйаш ҳажмини ошириш учун инфратузилмавий ва молиявий шарт-шароитлар яратиш орқали ип-калавани қайта ишлаш даражасини 2027 йил якунига қадар босқичма-босқич 100 фоизга олиб чиқиш, шунингдек, 2026 йил 1 январга қадар тўқимачилик саноат зоналари дирекциялари ва уларда ташкил этиладиган корхоналар мол-мулк солиғи, ер солиғи ва сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқдан озод этилиши, бўйланган мато ва тикув-трикотаж маҳсулотларини ташиш харажатларининг бир қисmini компенсация қилиш тартибини такомиллаштириш белгиланган.

Давлатимиз раҳбари томонидан кластерлар олдида четга ярим тайёр маҳсулот эмас, балки қўшимча қийматга эга тайёр маҳсулот экспорт қилиш вазифаси қўйилганлиги шунингдек, «Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини тубдан ислох қилиш ҳамда соҳанинг экспорт салоҳиятини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони ушбу мақсадга эришишда дастуриламал бўлиб хизмат қилади, албатта.

Маълумки, аҳоли турмуш даражасининг яхшиланиши иш ўринларининг яратилиши билан узвий боғлиқ. Пахта-тўқимачилик соҳасида янги лойиҳаларни амалга оширилиши бир томондан янги иш ўринларини яратилишига, иккинчи томондан эса солиқ тушумларининг ортишига, учинчидан эса валюта захирасини мустаҳкамланишига ва пировард натижада ижтимоий соҳаларни ривожлантириш ва аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Кластерларнинг пайдо бўлиши билан бир неча юзлаб йирик корхоналар ишга туширилди. Натижада ип-калава ишлаб чиқаришдан тортиб тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришгача бўлган занжирли жараён яратилди. 2023 йилда тўқимачилик маҳсулотлари нафақат Россияга балки Хитой, Туркия, Эрон ва бошқа давлатларга экспорт қилинди. Шу тариқа, Ўзбекистон яқин келажакда Осиё ва Европа Иттифоқида талаб юқори бўлган текстил маҳсулотлари ишлаб чиқаришни такомиллаштириш ва экспорт салоҳиятини янада ошириш миллий иқтисодиётни валюта манбаи бўлган мазкур тармоқни ҳар томонлама жадал ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга соҳа деб ўйлаймиз.

Хулоса

Пахта-тўқимачилик кластерларининг шаклланиши, ривожланишининг назарий, иқтисодий ва ҳуқуқий асосларини ўрганиш натижасида қуйидаги хулоса ва таклифлар шакллантирилди.

- пахта-тўқимачилик кластерларига ишлаб чиқариш қувватларига нисбатан номуаносиб (ортиқча берилган) ер майдонларини қайта кўриб чиқиш;

- 2022 йилда пахта хомашёсининг ички ва жаҳон нархлари ўртасидаги катта фарқ туфайли Ўзбекистон кластерларига олинган кредитлар бўйича 6 трлн сўм зарар етганлиги ва уларни жонлантириш мақсадида мамлакатимиз президентининг қарорларига асосан кредит тўлаш

муддатини 2025 йил 1 апрелга қадар узайтирилган эди. Кластерларнинг молиявий ҳолатини ўрганган ҳолда 2026 йил пахта ҳосилини йиғиштириш ва қайта ишлаш муддатига қадар узайтириш чораларини кўриш;

республикада етиштириладиган пахта толасининг умумий ҳажмига нисбатан ип-калава ишлаб чиқариш корхоналарининг кўплиги, янгитдан ташкил қилиш бўйича банк маблағларини жалб қилиниши натижасида бир томондан ички бозорда пахта толасига дефицит юзага келиши, иккинчи томондан эса корхоналарнинг тўла қувват билан ишламаслиги ва охир оқибат корхоналарнинг банклар олдидаги кредиторлик қарзлари кўпайишига олиб келмоқда. Шу сабабли банк маблағлари ҳисобидан бир хил йўналишдаги корхоналарни очишга барҳам бериш ва ички бозорда пахта толасига бўлган эҳтиёжни республикада етиштириладиган пахта толасига мос равишда жорий этишни таъминлаш.

- ҳудудларнинг тупроқ-иклим шароитидан келиб чиққан ҳолда ғўзанинг серҳосил, тезпишар, тола сифати юқори ва турли касалликларга бардошли ва экологик тоза навларини яратиш чора тадбирларини кўриш.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Артамонова Ю.С. Кластерные политики и кластерные инициативы: теория, методология, практика: кол. монография.
2. Камарова О.В. Проблемы развития кластеров с участием малого и среднего бизнеса.
3. Портер М. Международная конкуренция: /Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В.Д. Шетинина. – М.: Международное отношения,
4. Рахматуллаева Ф.М. Кластерларни яратишнинг асосий шарт-шароитлари.

FALSAFA VA TARIXNI UYG'UNLASHTIRISH ORQALI MILLIY ONGNI SHAKLLANTIRISH

Asila Abdullayeva,

University of Business and Science katta o'qituvchisi,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola falsafa va tarix fanlarini integratsiyalash orqali milliy ongni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy tahlil qiladi

Kalit so'zlar: Milliy ong, falsafa, tarix, madaniy meros, ijtimoiy ong, milliy qadriyatlar, pedagogik strategiyalar, ilmiy integratsiya.

Аннотация. Данная статья научно анализирует теоретические и практические аспекты формирования национального сознания через интеграцию философии и истории.

Ключевые слова: национальное сознание, философия, история, культурное наследие, социальное сознание, национальные ценности, педагогические стратегии, научная интеграция.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the theoretical and practical aspects of shaping national consciousness through the integration of philosophy and history.

Keywords: national consciousness, philosophy, history, cultural heritage, social awareness, national values, pedagogical strategies, scientific integration.

Kirish. Milliy ong bu bir xalqning tarixiy tajribalari, madaniy qadriyatlari, ijtimoiy va falsafiy qarashlari orqali shakllanadigan murakkab ijtimoiy fenomen bo'lib, uning shakllanish jarayoni ko'plab omillar, jumladan, tarixiy voqealiklar, milliy adabiyot va falsafiy tafakkur bilan uzviy bog'liqdir. Milliy ongni rivojlantirish nafaqat jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirish, balki barqaror madaniy identifikatsiya va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega[1]. Shu nuqtai nazardan, falsafa va tarix fanlarini uyg'unlashtirish milliy ongni shakllantirishning metodologik va kontseptual asosini yaratadi. Falsafa va tarixning integratsiyasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda milliy qadriyatlarni chuqur tahlil qilish va ularni amaliy pedagogik jarayonlarga tatbiq etish imkonini beradi.

Falsafa – insonning dunyoqarashi, axloqiy va estetik qadriyatlar tizimini shakllantirish vositasi sifatida milliy ongni rivojlantirishda nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, tarix fanlari esa milliy ongning amaliy va faktologik asosini ta'minlab, tarixiy voqealarni chuqur tahlil qilish va ularni zamonaviy sharoitga mos ravishda talqin etish imkoniyatini beradi. Falsafa va tarixning sintezlangan o'rganilishi milliy qadriyatlarning izchilligi va uzluksizligini ta'minlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tajriba ko'rsatadiki, milliy ong shakllanishi davrlar davomida turli ijtimoiy va siyosiy sharoitlar ta'sirida yuzaga kelgan. Masalan, milliy uyg'onish davrlarida falsafiy tafakkur va tarixiy xotira bir-birini to'ldirib, xalqning madaniy va ma'naviy o'zligini mustahkamlashda markaziy rol o'ynagan. Shu bilan birga, milliy ongni shakllantirishda falsafa va tarixning uyg'unligi jamiyatning bilim, estetik va axloqiy rivojlanishini birlashtiruvchi integratsion platforma vazifasini bajaradi. Bu jarayon milliy qadriyatlarni saqlash, ularni avloddan-avlodga uzatish va zamonaviy sharoitda yangicha talqin qilish imkoniyatini yaratadi. Zamonaviy o'qitish amaliyotida falsafa va tarixni uyg'unlashtirish milliy ongni pedagogik nuqtai nazardan rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Falsafiy yondashuv talaba va o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirsa, tarixiy bilim ularning tarixiy ongini shakllantiradi va milliy xotirani mustahkamlaydi. Shu bilan birga, interfaol metodlar va integratsiyalashgan darslar orqali milliy qadriyatlar tizimi ilmiy va amaliy jihatdan mustahkamlanadi. Milliy ongni shakllantirishning pedagogik strategiyalari falsafa va tarixni uyg'unlashtirish orqali nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy va madaniy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Falsafa va tarix fanlarining uzviy integratsiyasi milliy ongni shakllantirishning nazariy asoslarini yaratish bilan birga, metodologik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu integratsiya jarayoni milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va falsafiy konsepsiyalarni birlashtiradi va ularni jamiyat hayotining turli sohalariga tatbiq etish imkonini beradi[2]. Shu nuqtai nazardan, milliy ongni shakllantirishda falsafa va tarixning uyg'unligi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Xulosa sifatida, kirish qismida qayd etish joizki, milliy ongni shakllantirishning ilmiy va amaliy masalalari falsafa va tarix fanlarining uzviy uyg'unligi orqali o'rganilishi lozim. Bu yondashuv nafaqat xalqning tarixiy va madaniy merosini saqlash, balki zamonaviy sharoitda milliy identifikatsiyani rivojlantirish va mustahkamlash imkoniyatini yaratadi. Shu nuqtai nazardan, maqola falsafa va tarixni uyg'unlashtirish orqali milliy ongni shakllantirishning kontseptual, metodologik va pedagogik jihatlarini tizimli tarzda tahlil qilishga bag'ishlangan.

Adabiyotlar tahlili. Milliy ong va uning falsafiy-tarixiy ildizlari sohasidagi xalqaro ilmiy munozaralar shu kungacha davom etib kelmoqda va bu munozaralar falsafa va tarixning birgalikda tadqiq qilinishini talab etadi. Bu borada ikki nafar xorijiy olimning ishlari milliy ongning kontseptual va metodologik asoslarini chuqur tahlil etishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Birinchi olim sifatida Johann Gottfried Herderning millat, til va tarix tushunchalariga bo'lgan yondashuvi ko'rib chiqiladi. Herderning fikricha, milliy identifikatsiya va ong shakllanishi insonlarning tarixiy tajribasi va til orqali ifodalangan o'zaro madaniy aloqalar orqali yuzaga keladi. Xususan, u millatni faqat siyosiy birliklar nuqtai nazaridan emas, balki madaniy va tarixiy kontekstda tushunish zarurligini ta'kidlaydi; u har bir xalqning o'ziga xos til, madaniyat va tarixiy tajribalari bor ekanligini, bu elementlarning milliy ongni shakllantirishda markaziy rol o'ynashini ko'rsatadi. Shuning uchun Herder tarix tushunchasini faqat voqeliklar ketma-ketligi sifatida emas, balki xalqning dunyoqarashi va ruhiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy fenomen sifatida qaraydi. Bu yondashuv milliy ongni falsafiy hamda tarixiy kontekstda mustahkamlash zaruratini ochib beradi va tarixiy tafakkur hamda madaniy ongni uzviy bog'laydi, shuningdek tarixiy tafakkur va tarixiy tajribaning milliy o'zlikni anglashdagi epistemologik vazifasini ko'rsatadi (Herder's work on cultural particularism and the nation). Ikkinchi olim sifatida Paul Ricœurning «History and Truth» kabi falsafiy asarlaridagi tarix va tarixiy ongga oid yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin[3]. Ricœur tarix va haqiqat o'rtasidagi antinomiyaning o'rganar ekan, tarixiy ongning nafaqat voqea-hodisalarni qayd etishdan iboratligini, balki ularning ma'nosini izlash orqali insoniyatning o'z taraqqiyoti va madaniy identitetini tushunish imkonini berishini ta'kidlaydi. Ricœurning tezisiga ko'ra, tarixiy tafakkur voqealarning yuzaki ketma-ketligidan chuqurroq, u voqealarning ichki mantiqiy bog'liqligini ochib berish orqali tarixiy ongni shakllantiradi va shu tariqa milliy tarixga oid umumiy tushunchalarni yaratadi. U tarixni sub'ektiv tushunchalar majmuasi sifatida ham ko'radi, ya'ni tarixiy voqealar individual va kollektiv tajribani o'zida mujassam etganligi bois ularga oid haqiqatlar turlicha bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan Ricœurning falsafasi milliy ongni yaratishda tarixiy tafakkur va haqiqatning hermenevtik yondashuvini ta'kidlab, milliy voqelikni tushunishning nazariy poydevorini mustahkamlaydi. Herder va Ricœurning ishlari milliy ongni falsafa va tarixning uyg'unligi orqali o'rganishning nazariy modelini taqdim etadi. Ularning yondashuvlari shuni ko'rsatadiki,

tarixiy tajriba milliy ongni shakllantirishning muhim elementi bo'lib, uni falsafiy tahlil bilan boyitish jarayoni milliy identifikatsiya jarayonini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, bu olimlarning ishlari mazkur maqolaning konseptual asosini mustahkamlash barobarida milliy ongni chuqur ilmiy tahlil qilish imkonini beradi.

Metodologik qism: Falsafa va tarixni uyg'unlashtirish orqali milliy ongni shakllantirish masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda nafaqat tarixiy voqealiklar va madaniy merosni o'rganish, balki ularni falsafiy tafakkur bilan integratsiyalash orqali milliy qadriyatlarni chuqur tushunish imkoniyatini beradi. Tadqiqot metodologiyasi milliy ongni shakllantirish jarayonini tizimli tarzda tahlil qilish va uning nazariy hamda amaliy jihatlarini birlashtirishga qaratilgan bo'lib, bunda bir nechta uzviy metodlar bir-birini to'ldiradi. Birinchidan, tarixiy-tahliliy metod milliy qadriyatlarning tarixiy rivojlanishini aniqlash va ularning ijtimoiy ongdagi aksini tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu metod orqali milliy ongning turli davrlarda siyosiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlar ta'sirida qanday shakllanganligi aniqlanadi; tarixiy manbalarni sistematik tahlil qilish orqali milliy xotira, identitet va madaniy merosning uzluksizligi ochib beriladi, bu esa milliy ongni shakllantirishning epistemologik poydevorini yaratadi. Ikkinchidan, falsafiy konseptual tahlil milliy ongning axloqiy, epistemologik va estetik jihatlarini o'rganishga xizmat qiladi. Bu metod yordamida tarixiy voqealiklarning ma'nosi, milliy qadriyatlarning falsafiy mohiyati va ijtimoiy ongning shakllanishidagi axloqiy asoslar aniqlanadi. Shu bilan birga, falsafiy tahlil milliy qadriyatlarni faqat faktlar sifatida qabul qilishdan ko'ra ularning ichki mazmunini, tarixiy tafakkur va madaniy talqin bilan birlashtirib o'rganish imkonini yaratadi. Uchinchidan, komparativ yondashuv milliy ong va madaniy tajribalarni turli xalqlar kontekstida solishtirish orqali umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Bu metod nafaqat xalqaro tajriba bilan solishtirish, balki milliy qadriyatlarning universalligi va o'ziga xosligini aniqlash, pedagogik strategiyalarni boyitish imkonini ham beradi. To'rtinchidan, hermenevtik tahlil tarixiy voqealiklarni va madaniy matnlarni talqin qilishda asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Ushbu metod yordamida tarixiy va madaniy fenomenlarning ichki mantiqiy bog'liqligi ochib beriladi, milliy ong shakllanishida voqealarni faqat fakt sifatida emas, balki ularning axloqiy, madaniy va falsafiy mazmunini izlash orqali tushunish imkoniyati yaratiladi. Hermenevtik tahlil milliy tarixiy xotira va identitetni anglashda voqealarning kontekstual va epistemologik ahamiyatini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, integratsion pedagogik metod falsafa va tarix fanlarini birlashtirib, ularni o'quv jarayonida uyg'unlashtirish orqali milliy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o'quvchilarda tarixiy tafakkur va falsafiy qarashlarni birlashtirishga imkon beradi, shuningdek, milliy qadriyatlarni amaliy tarzda mustahkamlashga yordam beradi. Interfaol darslar, fanlararo integratsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali integratsion metod milliy identitetni rivojlantirish, madaniy merosni o'rganish va ijtimoiy ongni shakllantirishning samarali mexanizmini yaratadi.

Natijalar. Milliy ongni shakllantirish jarayonida falsafa va tarix fanlarini uyg'unlashtirish orqali olingan tadqiqot natijalari ko'rsatadiki, ushbu yondashuv milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ijtimoiy ong va madaniy merosning integratsiyalangan tizimini yaratishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi; tarixiy-tahliliy metod yordamida milliy qadriyatlarning davrlar davomida evolyutsion o'sishi va ijtimoiy hayotdagi aksini chuqur tahlil qilish imkoniyati yuzaga kelgan bo'lsa, falsafiy konseptual yondashuv milliy ongning epistemologik, axloqiy va estetik tarkibiy qismlarini ochib berdi, bu esa milliy identitetning nafaqat faktologik, balki ma'nodiy va mantiqiy jihatdan shakllanishini ta'minladi. Shu bilan birga, komparativ tahlil turli xalqlarning tarixiy va madaniy tajribalarini solishtirish orqali milliy qadriyatlarning universalligi va o'ziga xosligini aniqlashga xizmat qildi, natijada milliy ongni shakllantirishda xalqaro kontekstni inobatga olish va pedagogik strategiyalarni boyitish imkoniyati yaratildi. Hermenevtik metod yordamida tarixiy voqealiklar va madaniy matnlarning ichki mantiqiy bog'liqligi ochib berilib, ularning milliy ongni shakllantirishdagi epistemologik, axloqiy va madaniy ahamiyati tahlil qilindi, bu esa o'quvchilarda tarixiy tafakkur va madaniy xotirani birlashtiruvchi chuqur tasavvur hosil qilishga yordam berdi. Shu bilan birga, integratsion pedagogik metod orqali falsafa va tarix fanlari birlashtirilib, milliy ongni amaliy pedagogik jarayonda shakllantirish imkoniyati yuzaga keldi; interfaol darslar, fanlararo integratsiya va zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tushunish, tarixiy voqealarni falsafiy tahlil qilish va madaniy merosni mustahkamlash qobiliyatini rivojlantirdi. Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki, falsafa va tarixni uyg'unlashtirish milliy ongni shakllantirishning nazariy, epistemologik va amaliy jihatlarini uzviy tarzda birlashtiradi; bu yondashuv milliy qadriyatlarning tizimli rivojlanishi, ijtimoiy ongning barqarorligi va madaniy merosning uzluksizligini ta'minlaydi.

Muxokama. Milliy ongni shakllantirish jarayonida falsafa va tarix fanlarining uzviy uyg'unligi masalasi Johann Gottfried Herder va Paul Ricoeurning ilmiy qarashlari asosida chuqur tahlil qilinadi va

ular o'rtasida qiziqarli polemika yuzaga keladi. Herderning fikricha, milliy ongning markaziy elementi – bu tarixiy tajriba va madaniy meros bo'lib, ularning o'zaro aloqasi orqali xalqning o'ziga xos dunyoqarashi va ijtimoiy ongining barqaror shakllanishi ta'minlanadi; u millatni faqat siyosiy birlik nuqtai nazaridan emas, balki tarixiy va madaniy kontekstda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi, chunki til, adabiyot va tarixiy tajriba milliy ongni shakllantiruvchi asosiy vositalardir. Shu bilan birga, Herder milliy identitetning evolyutsion tabiatini, ya'ni tarixiy voqealiklar va madaniy tajribalar uzluksizligini ta'kidlab, ularni jamiyatning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi bilan bog'laydi. Paul Ricœur esa tarixiy haqiqat va ongning hermenevtik tabiatiga urg'u beradi va tarixiy voqealarni faqat faktlar ketma-ketligi sifatida emas, balki ularning ma'nosini izlash orqali milliy identitetni shakllantirish vositasi sifatida ko'radi; u tarixiy tafakkur sub'ektiv tajribalar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlab, milliy ongning shakllanishida voqealarni talqin qilish jarayonining epistemologik ahamiyatini ochib beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy ongni shakllantirish jarayonida falsafa va tarix fanlarini uyg'unlashtirish nazariy va amaliy jihatdan uzviy bog'liq bo'lib, u milliy qadriyatlar, ijtimoiy ong va madaniy merosni tizimli ravishda rivojlantirish imkonini yaratadi; tadqiqot doirasida qo'llangan tarixiy-tahliliy metod, falsafiy konseptual tahlil, komparativ yondashuv, hermenevtik va integratsion pedagogik metodlar milliy ongning epistemologik, axloqiy va amaliy asoslarini chuqur yoritib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov O., Qoraboyev S. O'zbekistonning eng yangi tarixi //SamDVMCHBU. Samarqand. – 2022.
2. Назаров Қ. Фалсафа асослари //Т.: Ўзбекистон. – 2005.
3. Файзуллаев О. Фалсафа ва фанлар методологияси //Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2006.

YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI VA TARIX FALSAFASINING DOLZARB MASALALARI: TASHQI SIYOSAT MISOLIDA

Muhriddin Boysariyev,
“TIQXMMI” MTU
tayanch doktranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston islohotlarining mazmun-mohiyati tarix falsafasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ushbu jarayonlarning tashqi siyosatdagi amaliy ifodasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, tarix falsafasi, tashqi siyosat, xalq diplomatiyasi, mintaqaviy hamkorlik, global integratsiya.

Аннотация. В данной статье с точки зрения философии истории анализируется сущность и содержание реформ Нового Узбекистана, а также раскрывается их практическое воплощение во внешней политике.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, философия истории, внешняя политика, народная дипломатия, региональное сотрудничество, глобальная интеграция.

Abstract. This article analyzes the essence and significance of the reforms of New Uzbekistan from the perspective of the philosophy of history and reveals their practical implementation in foreign policy.

Keywords: New Uzbekistan, philosophy of history, foreign policy, public diplomacy, regional cooperation, global integration.

Kirish. XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan boshlab O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi — “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi shakllandi. Ushbu konsepsiya mamlakatning ichki va tashqi siyosatida tub o'zgarishlar, jamiyat hayotida ochiqlik, pragmatizm va inson manfaatlarini ustuvor qo'yish tamoyillari bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, tashqi siyosat sohasidagi islohotlar O'zbekistonning mintaqaviy

va global maydondagi rolini sezilarli darajada oshirdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi asosida so'nggi besh yilda mintaqaning barcha mamlakatlari bilan oliy darajadagi tashriflar almashinuvi amalga oshirildi. Mintaqa davlatlarining yetakchilari o'rtasidagi o'zaro ishonchga asoslangan siyosiy muloqot doimiylik kasb etdi. Bunday aloqalar natijasida Markaziy Osiyo davlatlarini qiziqtiradigan xavfsizlik, chegaraviy masalalar, iqtisodiyot, investitsiya, turizm, madaniyat, sog'liqni saqlash va ekologiyaga oid o'zaro, mintaqaviy hamda xalqaro ahamiyatga molik muhim qo'shma qarorlar qabul qilindi.

Ushbu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlar bilan munosabatlari tubdan yaxshilandi va mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Shu bilan birga, xalq diplomatiyasi faol rivojlanib, gumanitar yordam almashinuvi, madaniy tadbirlar, qo'shma festivallar va ta'lim sohasidagi hamkorlik yana jonlandi. Bu holat mintaqada barqarorlik va ishonchni mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Mazkur jarayonlarni chuqur anglash va ilmiy tahlil qilishda tarix falsafasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix falsafasi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni faqat voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki ularning mazmuni, sabablari va kelajak istiqbollari nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois Yangi O'zbekiston islohotlarini tarix falsafasi prizmasida o'rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Asosiy qism. Bugungi globallashuv sharoitida Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro jarayonlardagi faol ishtiroki tobora kengayib borayotgani mutaxassislar va jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Mamlakatimiz qisqa vaqt ichida tashqi siyosat yo'nalishida tub burilish yasab, o'z milliy manfaatlarini ustuvor qo'ygan holda ochiq va muvozanatli diplomatik siyosat olib borishni maqsad qilib oldi. Ushbu yondashuv o'zaro ishonchga asoslangan muloqot, konstruktiv hamkorlik va teng huquqli sheriklik tamoyillariga tayanganligi bilan ajralib turadi.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining muhim jihatlaridan biri uning ko'p tomonlama va faol xarakterga ega ekanligidir. Mamlakatimiz nafaqat mintaqaviy masalalarda, balki global muammolarni hal etishda ham mas'uliyatli pozitsiyani egallab kelmoqda. Tinchlikparvarlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslar O'zbekistonni ishonchli va prognoz qilinadigan hamkor sifatida namoyon etmoqda. Bu esa xalqaro tashkilotlar, yetakchi davlatlar va nufuzli institutlar bilan aloqalarning mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosati ochiqlik, pragmatizm va konstruktiv muloqot tamoyillariga asoslanadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi bilan aloqalarni mustahkamlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Bu esa mintaqada ishonch va barqarorlik muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Tashqi siyosatda xalq diplomatiyasi, madaniy va raqamli diplomatiya vositalaridan keng foydalanilmoqda. Tarix falsafasi nuqtayi nazaridan, bu jarayon siyosatning insoniylashuvi, ya'ni davlatlararo munosabatlarda faqat manfaat emas, balki madaniyat va tarixiy xotiraning ham muhim omilga aylanishini anglatadi.

Global miqyosda O'zbekiston teng huquqli hamkorlik, xalqaro huquq normalariga sodiqlik va tinchlikparvarlik siyosatini ilgari surmoqda. Bu yondashuv tarixiy tajriba va zamonaviy geopolitik realiyatlar sinteziga asoslanadi.

Natijada, Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqei izchil ravishda oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi bugun nafaqat o'z manfaatlarini himoya qila oladigan, balki mintaqa va global miqyosda tinchlik va hamkorlikni ilgari suruvchi faol davlat sifatida e'tirof etilmoqda. Bu holat mamlakatimizning jahon hamjamiyati oldidagi obro'-e'tiborining mustahkamlanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

Bugungi murakkab va tezkor o'zgarib borayotgan xalqaro munosabatlar tizimida global muammolarni anglash va ularga samarali yechim topishda tarix falsafasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki tarix falsafasi insoniyat taraqqiyotida yuzaga kelgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni faqat bugungi holat doirasida emas, balki ularning ildizlari, sabablari va istiqboldagi oqibatlari bilan birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Aynan shu yondashuv Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida, xususan, BMT Bosh Assambleyasi sessiyalaridagi faol ishtirokida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib so'zlar ekan, dunyo hamjamiyatining e'tiborini global va mintaqaviy miqyosdagi eng dolzarb muammolarga qaratib, ularni hal etishda tarixiy tajriba va zamonaviy realiyat uyg'unligini taklif etmoqda. Xususan, 2017-yil 20-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlangan nutq Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnihilik, o'zaro ishonch va konstruktiv hamkorlik muhitini

shakllantirish g'oyasiga asoslandi. Ushbu yondashuv tarix falsafasining muhim tamoyillaridan biri — vorisiylik va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash g'oyasiga to'liq mos keladi.

Mazkur tashabbuslarning amaliy natijasi sifatida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasining qabul qilinishi tarixiy voqea bo'ldi. Ushbu hujjat O'zbekiston tashqi siyosatining xalqaro maydondagi samaradorligini namoyon etibgina qolmay, mamlakatimizning global diplomatiyada tashabbuskor va mas'uliyatli davlat sifatidagi mavqeini mustahkamladi.

Tarix falsafasi nuqtayi nazaridan, mazkur yo'nalish O'zbekiston uchun muhim siyosiy yutuqlarni ta'minlamoqda. Avvalo, mamlakatimiz mintaqada barqarorlik va ishonch muhitini shakllantiruvchi yetakchi subyekt sifatida tan olinmoqda. Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar bilan konstruktiv muloqot kuchayib, O'zbekiston tashabbuslari global muhokama maydoniga olib chiqilmoqda. Uchinchidan, bu siyosiy yo'nalish davlatimizning uzoq muddatli strategik manfaatlarini ta'minlash, suverenitet va milliy manfaatlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, tarix falsafasiga asoslangan tashqi siyosiy yondashuv Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi barqaror va obro'li o'rnini shakllantirishda muhim omil bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatining bugungi ustuvor yo'nalishlarini tahlil etar ekanmiz, mamlakatimizning yetakchi xorijiy davlatlar hamda nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan strategik hamkorligi tobora kengayib borayotganiga alohida e'tibor qaratish zarur. So'nggi yillarda O'zbekiston mintaqaviy diplomatiya doirasida ko'p tomonlama muloqot va hamkorlik mexanizmlarini faol rivojlantirib, Markaziy Osiyoni xalqaro aloqalarning muhim subyekt sifatida namoyon etmoqda. Xususan, "Markaziy Osiyo + Rossiya Federatsiyasi", "Markaziy Osiyo + Xitoy Xalq Respublikasi", "S5 + 1" (AQSH), "Markaziy Osiyo + Hindiston", "Markaziy Osiyo + Yaponiya", "Markaziy Osiyo + Koreya Respublikasi" hamda "Markaziy Osiyo + Yevropa Ittifoqi" formatlari doirasidagi muloqotlar O'zbekistonning tashqi siyosiy faolligi va tashabbuskorligini yaqqol aks ettirmoqda. Ushbu platformalar orqali siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiyalarni jalb etish, xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalari tizimli ravishda muhokama qilinmoqda. Natijada Markaziy Osiyo mintaqasining yetakchi davlatlar bilan aloqalari yangi sifat bosqichiga ko'tarilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi va bu jarayon, avvalo, iqtisodiy aloqalarning faollashuvida yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, 2017 yildan keyin ikki davlat munosabatlari tarixida birinchi bor AQSHning yuqori darajadagi iqtisodiy vakillari O'zbekistonga tashrif buyurdi. Jumladan, AQSH savdo vaziri Uilbur Ross, Missisipi shtati gubernatori Fil Brayant hamda AQSHning sertifikatlangan savdo missiyasi doirasidagi delegatsiyaning 2019 yildagi tashriflari iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qildi. Mazkur tashriflar savdo, investitsiya va sanoat sohalarida o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish uchun muhim zamin yaratdi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlari ham so'nggi yillarda yangi mazmun bilan boyidi. Siyosiy muloqot faollashib, iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik kengayib bordi. Bu jarayonda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga 2018 yilda, Germaniyaga 2019 yilda hamda Turkiyaga 2017 va 2020 yillarda amalga oshirgan rasmiy tashriflari muhim rol o'ynadi. Ushbu tashriflar Yevropa davlatlari bilan strategik sheriklikni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish va O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqeini kuchaytirishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati jahon va mintaqada yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, shuningdek, mamlakat ichida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda. Ichki barqarorlik, ochiqlik va islohotlarga yo'naltirilgan siyosat tashqi aloqalarning mustahkamlanishiga qulay sharoit yaratmoqda. Bu esa qisqa vaqt ichida O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilashga, mamlakatning ishonchli va prognoz qilinadigan hamkor sifatidagi imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Natijada O'zbekiston global va mintaqaviy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi, o'z tashabbuslari bilan ajralib turuvchi davlat sifatida tobora mustahkam o'rin egallamoqda.

O'tgan bir yillikni tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakat Prezidenti 10 dan ortiq davlatlarga tashrif buyurib, Yangi O'zbekiston uchun yangi qadamlarni va "Uchunchi Renesans" davrini yanda yuksaltirishni boshqichlarni olib borildi. 2025 - yilda dastlabki oyidan boshlab, davlat rahbari BAA davlartiga tashrifi bilan boshlangani ko'rishimiz mumkin, O'zbekiston va BAA yetakchilari iqtisodiy sheriklikning yangi davrini boshlashga kelishib oldilar. O'zbekiston Prezidenti BAA bilan yirik energetika loyihalari, su'niy intellekt, yashil iqtisodiyotni amalga oshirish masalalarini muhokama qildi.

Fevral oyining dastlabki 10 kunida, Malaysiyaga tashrif bilan boshlangani ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Mamlakatimiz rahbari va Malaziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim bilan istiqbolli islohotlarni amalga oshirish uchun muzokaralar olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish'al as-Sabohning taklifiga binoan 17-fevral kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi. O'zbekiston bilan Kuvayt o'rtasidagi do'stlik va ko'p qirrali sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi. Bahor kelishi bilan mamlakatimiz rahbari Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Parij shahriga keldi. Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar. Ko'p tomonlama tashkilotlar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish, terrorizm, ekstremizm, radikalizm, kiberjinoyatchilik va xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish muhim ekani ta'kidlandi. Tizimli muloqotni yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish maqsadida tashqi ishlar vazirliklari boshchiligidagi iqtisodiy idoralarni jalb qilgan holda Strategik rejalashtirish guruhini tuzishga kelishib olindi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida tarixiy qarorga keldilar.

Dunyodagi buyuk davlatlaridan biri bilan hamkorlik olib borish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun Nyu-York shahriga tashrif buyurdi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampni ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi yuksak muvaffaqiyatlari bilan samimiy tabrikladi. Uning xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi o'tkir mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish borasidagi shaxsiy hissasi va sa'y-harakatlari alohida qayd etildi. O'z navbatida, AQSH yetakchisi Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini oshirish va xalqaro nufuzni yuksaltirishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni yana bir bor qo'llab-quvvatladi. Turli darajalardagi siyosiy muloqot va almashinuvlar jadal rivojlanib borayotgani, ishbilarmonlik aloqalari faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. AQSH Prezidenti kuni kecha O'zbekiston yetakchisining AQSHning 50 dan ortiq yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan o'tkazgan uchrashuv va muzokaralarining samarali natijalarini yuksak baholadi. Fuqaro aviatsiyasi, tog'-kon sanoati, muhim minerallar, moliya, innovatsiyalar, kimyo, energetika va boshqa ustuvor yo'nalishlarda shartnomalar va istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirildi.

2025 - yilda ham tashiq siyosat borasida juda katta yutiqlarga erishildi va salmoqli g'alabalar tarix sahanalarida joy olib bormoqda, tashiq aloqlarimiz kengayib, 170 ga yaqin davlar bilan diplomatik aloqalarni mustahkalab kelmoqdamiz, bundan tashqari esa, Markaziy Osiyo davrlarimiz bilan yaqin qo'shnichilik aloqlarimiz, 2017 - yildan so'ng esa yangi bosqichga ko'tarildi hamda yildan yilga bu do'stlik aloqlarni xalqlarimiz o'rtasida chuqur singib ketayotganligini ko'rishimiz mumkin. Tarix bu jarayonlarni xalqimizga yorin tarzida namoyon qilib bermoqda, xalqmizning tashiq siyosat borasidagi qarashlari ham o'zgarib kelmoqda. Bundan tashqari, tashqi siyosatimizni faqat siyosiy diplomatiya emas, balki xalq diplomatiyasi bilan ham boyitib borib, xorijdagi vatandoshlarimiz bilan aloqlarimizni ham hamkorliklarimiz yangi bosqichga chiqib bormoqda. Bu kabi yangi jabhadagi siyosatlar 2026 - yilda ham davom etishi kutilmoqda.

Xulosa . Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekiston islohotlari mamlakat taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi va bu jarayon, ayniqsa, tashqi siyosat sohasida yaqqol namoyon bo'ldi. O'zbekistonning so'nggi yillardagi tashqi siyosiy faoliyati tarix falsafasi nuqtayi nazaridan qaralganda, uzluksizlik, vorisiylik va modernizatsiya tamoyillarining uyg'unlashuvi asosida shakllanayotganini ko'rish mumkin. Tarixiy tajribani inkor etmagan holda, zamonaviy global talablarga mos ochiq va pragmatik siyosat yuritish Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy xususiyatiga aylandi.

Maqolada tahlil qilinganidek, Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch va konstruktiv hamkorlik muhitining shakllanishi O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yutuqlaridan biridir. Chegaralarning ochilishi, mintaqaviy muloqotning faollashuvi va xalq diplomatiyasining rivojlanishi tarix falsafasining muhim masalalaridan bo'lgan barqarorlik va ijtimoiy totuvlik g'oyalarini amalda namoyon etdi. Bu jarayonlar mintaqani nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham yaqinlashtirdi.

Shuningdek, O'zbekistonning BMT, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan aloqalarining kengayib borishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi. Tarix falsafasi nuqtayi nazaridan bu holat O'zbekistonning global jarayonlarda passiv kuzatuvchi emas, balki faol subyekt sifatida maydonga chiqayotganini anglatadi. Xalqaro tashabbuslar,

tinchlikparvarlik siyosati va ko'p tomonlama diplomatiya davlatimizning uzoq muddatli strategik manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, tarix falsafasiga tayangan holda olib borilayotgan Yangi O'zbekiston tashqi siyosati mamlakat suverenitetini mustahkamlash, milliy manfaatlarni himoya qilish va global hamjamiyatda munosib o'rin egallash uchun muhim siyosiy va mafkuraviy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv kelgusida ham O'zbekistonning barqaror taraqqiyoti va xalqaro obro'-e'tiborini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi. — 2017-yil 20-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi siyosat konsepsiyasi. — Toshkent, 2018.

ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОН МАДАНИЙ ТАРАҚҚИЁТ ТИЗИМИНИНГ ТАРБИЯВИЙ САМАРАДОРЛИГИ

Гуларо Нишонбоева,
Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос
илмий-тадқиқот институти катта илмий ходими,
“Маданиятшунослик” бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада замонавий маданиятнинг бир қанча функциялари, унинг ҳозирги кундаги аҳамиятининг тобора ортиб бориши, ушбу фаннинг баъзи долзарб масалалари ҳақида баён этилган.

Калит сўзлар: маданият, этнос, моддий объект, маданиятнинг функциялари, маданий мулоқот, вербал ва новербал маданият, медиа макон, маданий динамика, маданий жараён.

Аннотация. В данной статье изложены некоторые функции современной культуры, возрастающее ее значение в настоящее время, актуальные вопросы данной науки

Ключевые слова: культурология, этнос, материальный объект, функции культуры, культурный диалог, вербальная и невербальная культура, медиа пространство, культурная динамика, культурный процесс.

Annotation. This article sets out some of the functions of modern cultural studies, its growing importance at the present time, topical issues of this science.

Keywords: cultural studies, ethnos, material object, cultural functions, cultural dialogue, verbal and non-verbal culture, media space, cultural dynamics, cultural process.

Бугунги кунда мамлакатимизда миллий анъаналар ва маданий қадриятлар, ўзига хос бўлган тараққиёт омилларига асосланган ўзгаришлар ва янгиланишлар йўлидан бормоқда. Юртимизда янги жамиятни барпо этишда маданият соҳасини янада тараққий эттириш, миллатимизнинг бой тарихий-маданий тажрибасига суянади ҳамда ушбу жараён ҳозирги замон ва ривожланиш талабларига мос келадиган томонларини ўзлаштириш орқали амалга ошмоқда.

Бу жиҳатдан, ушбу соҳадаги маданий тараққиёт тамойиллари ҳамда омиллари, унинг амалиёт механизми билан боғлиқ ўта серқирра жараённи ҳозирги кундаги воқеликлар, хусусан “Фалсафа” ва “Маданиятшунослик” фанлари нуктаи назаридан тадқиқ этиш муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда.

Маълумки, ҳар бир мамлакатга хос бўлган маданий жараённи бошқариш ҳамда уни ташкил этиш механизмни яратиш ва ушбу механизмни муттасил тарзда замонга мослаб бориш тарихий зарурат ҳисобланади. Ана шу муҳим ижтимоий-культурологик заруратнинг чуқур англаб олиниши, бу борадаги жараёнларнинг йўналишлари, жамиятимизда рўй бераётган ўзгаришлар

ва янгиланишлар билан узвий алоқаси, ёшлар камолоти ва уларнинг таълим-тарбиясига таъсири механизмини самарали ишлатишнинг ҳам ўзига хос хусусиятлари мавжуд.

Мазкур ўзига хосликлар ва хусусиятлар ҳамда бу соҳадаги ютуқлардан фойдаланиш имкониятларини аниқлаб олиш янгиланаётган Ўзбекистонда туб ўзгаришлар рўй бераётган бугунги маданий ҳаёт соҳалари тузилишига мос бўлган фаолият тизимини ҳар томонлама чуқур ўрганиш ҳам ўта муҳим ҳисобланади.

Фалсафий маънода “Маданий тараққиёт механизми” ҳар қандай жамиятнинг маданият соҳасида ўз фаолиятини амалга ошираётган давлат ва нодавлат ташкилотлари, хилма-хил муассалар ва идоралар тизимини, ушбу жабҳада хизмат қилаётган кўп сонли фуқаролар, хизматчилар ва мутахассисларни жамлаган тузилмалар, ижодий ва бадий жамоалар мажмуини ифодалайдиган тушунча, бу соҳага нисбатан илмий доираларда қўлланиладиган культурологик атамадир.

Ушбу таъриф нафақат мазкур механизмнинг бутун дунё мамлакатларига хос умумий тавсифини, балки бизнинг республикамызга хос хусусиятларини ҳам яққол ифодалайди. Яъни, унда ҳар қандай мамлакат каби, Ўзбекистон жамиятининг маданий соҳаси амалиёти ва ривожини белгилайдиган фаолият механизмнинг барча умумий жиҳатлари ўз ифодасини топган.

Бугунги кунда юртимизда жаҳон халқлари илғор тажрибалари ва ўзбек миллий анъаналари уйғун дунёвий жамият ривожланиб бормоқда ва унга мос равишда маданий тараққиёт механизми ҳамда унинг тарбиявий тамойиллари муттасил такомиллашмоқда.

Бинобарин, бугунга кунда бизнинг мамлакатимизда янги Ўйғониш даври – Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш учун астойдил киришилаётган бир даврда тарихда қандай цивилизациялар бўлгани, уларнинг тараққиёти ва таназзули қонуниятлари, бу жараёнда маданият ва таълим-тарбия омилларининг диалектикаси қандай аҳамият касб этганига доир масаларни чуқур ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Таъкидлаш лозимки, Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йилда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони ушбу йўналишдаги янги тараққиёт босқичини белгилаб берди. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ва “Янги Ўзбекистон – 2030 стратегияси тўғрисида”ги Фармонлари мазкур йўналишдаги ислохотлар ва янгиланишлар жараёнини янада янги босқичга кўтарилиши учун асосларни яратди.

Бу жиҳатдан, кейинги беш йил учун мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси қабул қилинган 2017 йил янгиланаётган Ўзбекистоннинг иқтисодий-ижтимоий, сиёсий-маданий тақдирида катта ўзгаришлар йили бўлди, десак асло муболаға бўлмайди. Жамиятимизда мазмунан янги давлат, ўзгача дунёқарашга эга бўлган фаровон юрт бунёд этиш, унга мос миллий-маданий қадриятлар ва муносабатлар тизимини яратиш, уни шакллантириш масаласида шиддатли ислохотлар даври бошланди.

Мана шу даврдан бошлаб маънавий муҳитни яхшилаш ҳамда тараққий эттириш, маданий соҳани тобора юксалтириш, ижод аҳлининг меҳатини қадрлаш, рағбатлантириш, уларни моддий-маънавий қўллаб-қувватлашга қаратилган кўплаб ҳужжатлар қабул қилинди. Ушбу ҳужжатларда энг аввало маданият соҳасини бошқаришни тубдан ислох қилиш, маданият ташкилотларининг ҳамда маданият ва аҳоли дам олиш масканларининг моддий-техник базасини янада такомиллаштириш, замонавий технология асосида билимга эга бўлган кадрларни тўғри танлаш ҳамда уларни ўз ўринларига мос ҳолда жойлаштириш, шу соҳа менежерларини тайёрлаш, уларнинг малакасини ошириш мақсадида ўқитиш, соҳанинг ҳақиқий мутахассисига айлантириш, касбига фидоий этиб тарбиялаш каби долзарб муаммоларни ҳал этиш устувор вазифа қилиб белгиланган.

Бунда аввало, мамлакатимизнинг маданий ҳаётидаги янгиланишлар учун муҳим бўлган ўзгаришларни амалга ошириш, шу жумладан, бу соҳага тегишли бўлган бошқариш ҳамда фаолият тизимини такомиллаштиришга қаратилган ислохотларни янада чуқурлаштиришга, унинг маънавий-тарбиявий таъсирчанлигини янада оширига доир тамойиллар белгилаб берилгани ҳозирги кунлардаги амалиёт учун ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда, дейиш учун барча асослар бор.

Шу нуқтаи назардан, ўтган йиллар маданият соҳасини ривожлантириш, унинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш йиллари ҳам бўлди, десак муболаға бўлмайди.

Давлатимиз раҳбари томонидан қабул қилинган қарорлар, фармонлар, чора-тадбир дастурлари айнан шу жараёнларни ҳал қилишга ўзининг ҳиссасини қўшмоқда. Президентимиз

Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 2017 йил 15 февралдаги ПҚ-2778-сон қарори билан Маданият вазирлиги ташкил этилди.

Мазкур ҳужжат бутун жамиятимиз ва ҳамда маданий турмуш соҳасидаги стратегик мақсадлар, ҳозирги ривожланиш босқичига хос маданият даражасини таъминлашга хизмат қилаётган устувор тамойилларни аниқ-тиниқ белгилаб бергани билан аҳамиятга эгадир.

Бу эса, юртимизда кейинги йилларда миллатимизнинг маданий-маърифий қиёфасини янада ошириш масаласида маданият муассасаларининг, санъат даргоҳларининг моддий-техник базасини янада мустаҳкамлаш, шу соҳа вакиллари ҳар томонлама рағбатлантириш, уларни моддий-маънавий қўллаб-қувватлаш, ушбу соҳадаги ўсиб чиқаётган ёшларга йўл очиш борасида комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш тизими йўлга қўйилиши имконини яратди.

Бунда Янгиланаётган Ўзбекистоннинг барқарор ривож ва истикболини белгилайдиган маданий тараққиёт механизми самарасини ошириш тамойиллари, маданият ривожининг демократик ислохотлар жараёнининг устувор йўналишлари, мамлакатимиз маданий тақомилига таъсир кўрсатаётган омиллар ҳамда мазкур соҳада эришаётган ютуқлар, натижалар билан бевосита боғлиқлигини таъминлаш борасида ҳам диққат-эътибор талаб этилмоқда.

Мазкур йўналишдаги иш тизимининг масъулиятини янада кўтариш ва янгиланаётган Ўзбекистоннинг маданий тараққиёт механизми ва унинг самарасини ошириш мақсадида Ш.Мирзиёевнинг 2023-йил 11-сентябрдаги ПФ-158-сонли “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги Фармони ниҳоятда муҳим аҳамиятга эга бўлган тарихий ҳужжатлардир.

Айни пайтда Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 январда қабул қилинган ЎРҚ - 668-сон “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни, Давлатимиз раҳбарининг 2017 йил 18 октябрда Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлигининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш тўғрисида“, “2018 йил 27 июнда Ўзбекистон давлат филармонияси фаолиятини ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармонлари ҳамда мавзуга оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда соҳа тараққиёти учун салмоқли ишлар амалга оширилишига туртки бўлди.

2018 йилнинг 28 ноябридаги “Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорига мувофиқ мана шу вазифалар конкрет ҳолда белгилаб берилган эди. Ушбу Концепцияда, энг аввало, маданият тизимидаги норматик-ҳуқуқий ҳужжатлар базасини яратиш, соҳадаги институтчионал тизимни ҳамда бу борадаги қонун ижодкорлигининг асосий омили бўлгани шубҳасиз.

Бундан ташқари, Президентимизнинг чора-тадбирлари тўғрисида” Қарорлари ва Фармонлари, Республика Маънавият ва маърифат Кенгашининг 2023-йил 22-декабрдаги 50-сон Баёни ҳам бу борадаги қонун ижодкорлигининг бардавомлигидан далолат беради. Айни пайтда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2024 йил 20 декабрдаги “Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузурида “Маданият таълими маркази” давлат муассасаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори ҳам буни яққол тасдиқлайди.

Ҳозирги кунда маданият соҳасидаги вазифаларни самарали ташкил этиш, мазкур масаладаги жабҳанинг тараққиётини таъминлашга хизмат қиладиган бошқарув тизими ҳамда унинг тузилмалари шаклланди. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан тайёрланган маданият ташкилотлари ҳақидаги маълумотлар буни яққол исботлайди.

Кейинги йилларда маданият даражаси хали шаклланиб улгурмаган ёшларнинг муомала маданиятида, кийиниш услублари европа маданиятига тақлид қилишлари кўзга ташланмоқда. Ўзбекона миллий - маданий кадриятларимизни, миллатимизга хос бўлган урф-одатларимизни, аجدодларимиз қолдирган бой илмий меросимизни билмаслиги, илмий салоҳият даражасида катта бўшлиқ пайдо бўлишига олиб келиши мумкин.

Ушбу масалага жамоатчилик назоратини кучайтириш, маданият соҳасидаги кемтик бўлган жиҳатларини бартараф этадиган тақлиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш ҳамда уларни амалиётга тадбиқ этиш муҳим вазифалардан бири ҳисобланади.

Мазкур соҳани тубдан ислоҳ қилиш, маданият соҳасини илмий-культурологик жиҳатдан ташвиқ этиш бўйича сифатли механизмни яратиш лозимлиги яққол кўзга кўринмоқда.

Республикаимизда маданий-маърифий фаолият тури ҳамда шу асосда йўлга қўйилган тақдирганида ўзининг ижобий самарасини беради.

Ҳозирги пайтда, маданиятшунослик асослари, маданий тарбия айни пайтдаги таълим тизимида сифатли тарзда кучайтириш жуда ҳам керак бўлмоқда. Бу масалада албатта ўсиб келаётган ёшларнинг кизиқиш ҳамда эҳтиёжларини инобатга олиш зарур. Шу қоидага амал

килинса, маданий-маърифий тарбия тизимида, оилада ва ёшларнинг маънавий дунёқарашида сезиларли даражада ижобий натижага эришиш мумкин.

Умумий қилиб айтидиган бўлсак, узлуксиз таълим тизими ташкилотлари ҳамкорликда иш олиб бориш тизими самараси талаблар даражасида эмаслиги ишнинг натижадорлигини бирмунча пасайтирмоқда.

Маданият соҳасидаги бу каби муаммоларнинг ечимини топиш мақсадида бу йўналишни инновацион тарзда шакллантириш маданият ва санъат ташкилотлари ва аҳоли дам олиш масканларининг моддий-техник базасини тубдан кўриб чиқиш муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда.

Бугунги кунда ўсиб келаётган баркамол авлодга кенг имкониятли шароитлар яратилмоқда. Президентимиз юрт келажагига ўзининг беминнат ҳиссасини қўшадиган ёшларга катта лавозимларни ишониб топширмоқдалар. Бу каби ташаббускор ёшлардаги истеъдод, илмий салоҳиятни ишга солиш жараёнида миллий кадрияларимизга садоқатли бўлиш, ўзбекона ментал хусусиятларни ҳисобга олиш алоҳида диққатга сазовордир.

Фойдаланилган ажабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 20 январда қабул қилинган ЎРҚ - 668-сонли “Маданий фаолият ва маданият ташкилотлари тўғрисида”ги Қонуни.

2. “Маданият ва санъат ташкилотлари, ижодий уюшмалар ва оммавий ахборот воситалари фаолиятини янада ривожлантириш, соҳа ходимлари меҳнатини рағбатлантириш бўйича қўшимча шароитлар яратишга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2022 йил 16 ноябрдаги ПҚ-3017-сон.

3. “Маданият ва санъат, ахборот-кутубхона ва музейлар соҳасида фаолият олиб бораётган ходимлар иш ҳақи миқдорларини ошириш тўғрисида”ги 2024-йил 22-ноябрдаги ПҚ-400 қарорлари.

4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 11-сон. 168-моддаси.

YANGI O‘ZBEKISTONDA SANOAT SOHALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Marufjon Abdusodiqov,
“TIQXMMI” MTU assistenti

Annotatsiya. maqolada Yangi O‘zbekistonda Jizzax viloyatida sanoat sohalarining rivojlanish tendensiyalari, jumladan viloyatda ishlab chiqarish, xususi sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik muhiti ancha yaxshilangani, sanoat ishlab chiqarishining jadal rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotidagi ularning ulushini ko‘paytirish borasidagi strategik rejalar va ularning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: sanoat, tendensiya, innovatsiya, klaster, agroklaster, investitsiya, “Maxsus iqtisodiy zona”, xususi sektor, “Erkin iqtisodiy zona”, strategiya.

Аннотация. в статье анализируются тенденции развития отраслей промышленности в Джизакской области в новом Узбекистане, включая значительное улучшение деловой среды в регионе, стремительное развитие промышленного производства, стратегические планы по увеличению их доли в экономике страны и их результаты.

Ключевые слова: промышленность, тенденция, инновация, кластер, агрокластер, инвестиции, “Специальная экономическая зона”, частный сектор, “Свободная экономическая зона”, стратегия.

Abstract. The article analyzes the development trends of industrial sectors in the Jizzakh region of new Uzbekistan, including a significant improvement in the business environment in the region, the rapid development of industrial production, strategic plans to increase their share in the country’s economy and their results.

Key words: industry, trend, innovation, cluster, agro-cluster, investment, “Special Economic Zone”, private sector, “Free Economic Zone”, strategy.

Kirish. Sanoat sohasidagi o'zgarishlarning hududlar doirasidagi holatini jumladan, Jizzax viloyati misolida yangi O'zbekiston davridagi tarixini va rivojlanish tendensiyalarini, o'ziga xos xususiyatlarini hamda mazkur o'zgarishlarni qiyosiy tahlil etish hamda tegishli xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixining sovet davri o'zining murakkabligi va ziddiyatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, sovet davlatining iqtisodiy, sanoat sohasidagi siyosati, xalq xo'jaligini boshqarish tarixi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri masalalari, sovet iqtisodiy boshqaruv tizimining xususiyatlarini tahlil etish, sanoat rivojining asosiy yo'nalishlari, ishlab chiqarish va mehnat taqsimotining nazariy muammolarini ochib berish, sanoatni milliy kadrlar bilan ta'minlash masalalarini o'rganish bugungi kunda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga mustaqillik yillarida sohada amalga oshirilgan mazkur masalaga oid masalalarni o'rganish doimo tarix fani uchun asosiy tadqiqot obekti bo'lib kelganligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Muhokama. Yangi O'zbekiston davrida viloyatda sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 97,5 %ni tashkil qildi. Joriy statistikada 2024-yilga nisbatan oziq-ovqat tarmog'i o'sishi qayd etilgan [1]. 2025-yilda Jizzaxda oziq-ovqat sanoatida 2,9 trln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilganligi haqida rasmiy statistik ma'lumotlar mavjud. Jizzax viloyatida sanoatning umumiy rivojlanishi va klasterlar ta'siri, shu bilan xarakterlanadiki, Davlat menejmenti, sanoat va innovatsiyalar sohalarida sanoat klasterlari (*qurilish materiallari, to'qimachilik, oziq-ovqat, kimyoviy mahsulotlar*) yaratish orqali oziq-ovqat sanoati ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Masalan, bugungi kungacha viloyatda 37 ta loyiha qiymati 2,9 trln so'mlik qo'shimcha qiymat zanjirlarini shakllantirishga hissa qo'shmoqda [1].

Yana bir asosiy omil, bu huquqiy va iqtisodiy muhitdir. Oziq-ovqat sanoati Jizzaxda sanoat klasterlari va boshqa tarmoqlar bilan integratsiya qilinib, mintaqa iqtisodiyotining ayrim segmentlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. keyingi yillarda tadbirkorlikda yangi usul "Klaster" tizimi ham kichik biznesga jadal kirib kelmoqda. Mutaxassislar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi ilg'or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 % klaster usuliga to'g'ri keladi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo'lib, ularda ishchi kuchining 38 % qamrab olingan [2].

"Forish agrar Nurafshon" agroklasteri - uzumchilikka ixtisoslashgan bo'lib, 200 nafardan ortiq yoshlar mavsumiy ish bilan ta'minlanmoqda. Agroklasterga ajratilgan 3176 gektar yer maydoniga 4 mln. 233 ming donadan ziyod tok ko'chatlari ekilgan. Ushbu agroklasterde ish bilan band bo'lmagan yoshlarga tok qator oralarida turli oziq-ovqat ekinlari yetishtirish uchun 1 gektardan yer maydoni ajratib berilmoqda. Agroklaster 700 nafardan ziyod yoshlarni mavsumiy ish bilan ta'minlamoqda.

Umuman, klasterlarni shakllantirishdan maqsad, hududlarda joylashgan biror bir sohaga ixtisoslashib qolgan, ular bilan yagona tizimda turuvchi ishlab chiqarish, muhandislik, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, ta'lim, ilmiy va boshqa sohalarni o'zaro uyg'unlashtirishdir. Shu asosda innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarish takshil etiladi, raqobatbardosh tovar yaratishining yaxlit platformasi shakllanadi.

Viloyat sanoati tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari muhim ulushni egallaydi: 97,5 % dan ko'pdir. Ishlab chiqarish va boshqaruv tendensiyasida Jizzax viloyatida oziq-ovqat sanoati boshqaruv mexanizmlari, raqamli boshqaruv va klasterlashtirish tendensiyalari tahlil qilingan, bu sektorning rivojlanishida zamonaviy menedjment prinsiplari joriy etilayotgani ko'rsatdi. Jumladan, 2017–2023-yillarda viloyatda sanoat tarmoqlarini kengaytirish uchun katta ishlar amalga oshirildi, yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratildi va texnik modernizatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich olib borildi. Bu dasturlar Prezidentning iqtisodiy islohotlari doirasida amalga oshirildi. Masalan, 2020-2025-yillarda investitsiyalar va sanoat hajmi Jizzax viloyati statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-avgust davrida: 3810 ta sanoat korxona faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2476 tasi Jizzax shahrida joylashgan. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 21 735,5 mlrd so'mni tashkil qildi, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sishni ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tarkibida qayta ishlash sanoati ulushi katta (ya'ni sanoat mahsulotlarining asosiy qismi) [3].

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, yengil avtomobillar ishlab chiqarilishida sezilarli o'sish bor (masalan, "KIA", "Haval" va "BYD" avtomobillari) va boshqa sanoat mahsulotlari ham ko'paygan. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, ya'ni sanoat mahsulotlar hajmi 2025-yanvar-avgust oylarida 3810 ta, bu 21 735,5 mlrd so'mni tashkil qildi. Investitsiyalar va yangi korxonalar Jizzaxda so'nggi 6 yilda qariyb 5 milliard AQSh dollarlik investitsiya jalb qilindi, natijada 2 000 dan ortiq yangi sanoat korxonalari tashkil etildi [4].

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki baravarga oshdi va eksport ko'rsatkichlari ham o'sdi. Jumladan, industriyaning tarkibi qayta ishlash sanoati hali ham Jizzax sanoatida katta ulushga ega: 94 % darajasida (2022-yil ma'lumotlari bo'yicha). Qayta ishlash tarmog'i ichida to'qimachilik mahsulotlari (31 %), avtotransport vositalari va ular qismlari (19 %), shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari (13 %) asosiy o'rinni egalladi.

Jizzax sanoati rivojlanishining mintaqaviy ahamiyati. Jizzax sanoati O'zbekistonda jadal o'sib borayotgan hududlardan biri hisoblanadi: 2025-yilda sanoat sektoridagi investitsiyalar umumiy tarmoqning muhim qismiga aylandi. Avtomobil sanoati, qayta ishlash va yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari viloyat iqtisodiyotini tiklash va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Umuman, 2017-2025-yillar davomida Jizzax viloyati sanoati bozor iqtisodiyotini rivojlantirish sharoitida va xususiy sektorni jadal rivojlantirishga yo'naltirilganligini tasdiqladi. 2017-2025-yillarda sanoatni kengaytirish, texnik modernizatsiya va investitsiyalar hisobiga sanoat hajmi sezilarli darajada o'sdi. Jumladan, 2025-yil statistikasi viloyat sanoati strukturasi va hajmini aniq aks ettirib, sanoatning rivojlanayotganini ko'rsatdi. Viloyat sanoat sohalari rivojida shubhasiz, bu yerda tashkil etilgan Erkin iqtisodiy zonaning o'rni katta. Jizzax maxsus industrial zonasida 2009-yildan boshlab Xitoy Xalq Respublikasi bilan birgalikda "PENG SHENG" QK barpo qilindi. Ushbu industrial park tashkil etilishi 2009-yilda boshlangan bo'lib, uning hozirgi maydoni 80,0 ming kv.m.ga teng. 2013-yilda Prezident farmoni asosida "Jizzax" maxsus industrial zonasining shakllantirish munosabati bilan Sirdaryo industrial parki uning filialiga aylantirildi. Majmua keramik plitalar, natural teri va undan poyafzallar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. U to'la loyiha quvvatiga ega bo'lgach yiliga 100 mln AQSH dollari miqdorida turli xil mahsulot ishlab chiqaradi, uning deyarli yarmi eksport qilinadi.

Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida erkin iqtisodiy va sanoat zonalariga ham e'tibor qaratilganligi ahamiyatli ekanligini ta'kidlash o'rinni. Strategiyada yangi kichik sanoat zonalarini tashkil etish va faoliyat yuritayotganlarining samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutilgan:

kichik sanoat zonalarini ishtirokchilarining zaruriy muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish holatini tanqidiy o'rgangan holda tegishli chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;

kichik sanoat zonalariga ularning ixtisoslashuvi, hududning resurs salohiyatini inobatga olgan holda, ishlab chiqarishning to'liq siklini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subektlarini joylashtirish;

investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish va ishtirokchilarga yuklatilgan majburiyatlarning ijrosi yuzasidan tizimli monitoring olib borish;

kichik sanoat zonalarini hududida yangi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklarining ishtirokini kengaytirish kabilar belgilab berildi.

"Maxsus iqtisodiy zona"larda faoliyat yurituvchilar mol-mulk solig'idan, yer solig'idan va suv resurslaridan foydalanish uchun soliqdan ozod qilinadilar. Maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turda tashkil etilishi belgilandi.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yangicha asoslarda tashkil etish, ularga soliq va boshqa imtiyozlar kafolatlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida "O'zbekiston-2030 strategiyasi" da qator amaliy tavsiyalar va ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi:

- Strategiya 48-maqsadida har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish;

- 49-maqsadida barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan (yo'l, elektr energiyasi, suv va oqova tizimi) uzluksiz foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

- 55-maqsadida esa dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil qilish belgilab berilganligi muhim ahamiyatga egadir.

Shu o'rinda viloyatda an'anaviy hunarmandchilik bilan bog'liq sanoat sohalari rivojiga alohida e'tibor bermoq zarur:

Jizzax viloyatida - junchilik, to'qimachilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik, ip yigirish (*Baxmal, Forish, G'allaorol, Zomin tumanlari va Jizzax shahri*). Bu borada Jizzax va Sirdaryo viloyatlari o'z joylashuv va tabiiy-geografik xususiyatlariga ko'ra vodiylaridan tubdan farq qiladi. Bu hududda kichik tadbirkorlikda meva-sabzovotni qayta ishlash, to'qimachilik, baliq mahsulotlari ishlab chiqarish (*Aydar-Arnasoy ko'llari, Katta Mirzacho'l kanali*) ning birmuncha rivojlanganligi bu yerda suv resurslari va tabiiy-geografik omillar ta'siri hamda aholining asosan paxta, g'alla, meva-sabzovot yetishtirish bilan shug'illanib kelayotganligidir (*masalan, Mirzacho'l, Paxtakor, Zafarobod, Arnasoy, Do'stlik tumanlari asosan paxtachilikka ixtisoslashgan*). Yoki Jizzax viloyatining Zomin, Baxmal, Forish tumanlari tog'li,

tog'oldi, dasht-adir mintaqalar bo'lganligi bois, bugungi kunda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik sohalari shu hududlarga xos tarzda rivojlanmoqda.

Jizzax hunarmandchilik va kashtachilik markazi - hunarmand Gavhar Astanaqulova rahbarligida tashkil etilgan markazda ro'ja, so'zana, manglayqosh, zardevol, milliy liboslardan jelak, rido, paranji, so'zanalar, bo'g'jama, bo'xchalar, ro'molchalar, kuyov belbog'lar, joynamozlar, oddiy olachalar, gajariq olachalar, xoli gilam, zulbaroq, taqinchoqlar, kashta va boshqa milliy hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqariladi.

Xulosa. Umuman, Jizzax viloyatida sanoat sohalari rivojida iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida ushbu dolzarb vazifani hal qilish borasida salmoqli, ijobiy natijalarga erishildi. Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida viloyatda ishlab chiqarish, xususiy biznes faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik muhiti ancha yaxshilangani, buni mamlakatimiz tadbirkorlari, xorijiy ekspertlar ham e'tirof etgan. Biroq, bu borada bir qancha muammolar borligi aniqlandi. Jumladan, xususiy tarmoqda sanoat ishlab chiqarishining jadal rivojlanitirish, mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'payishini tasdiqladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi press-reliz. 20-oktyabr 2025.
2. Zaripov B. Klaster - yangi usul, yangicha yondashuv yoxud integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish mezonlari // Mahalla ko'zgusi. 2018. №11-12. 58-betlar.
3. Kushbakova D. "Jizzax viloyatida oziq-ovqat sanoatini boshqaruvini rivojlantirish tendensiyalari" // Центральноазиатский журнал академических исследований/ Tom 3, № B. 32–35. 15-dekabr 2025.
4. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi press-reliz. 20-oktyabr 2025.

БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИНГ РОЛИНИ КУЧАЙТИРИШ: ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ

Ҳасан Собиров,
Тошкент давлат транспорт университети
мустақил изланувчиси

Аннотация. Мақолада таълим тизимининг барқарор ривожланишга эришишда асосий омил сифатидаги роли кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: барқарор ривожланиш учун таълим, таълим тизими, инсон капитали, Ўзбекистон, таълим ислохотлари.

Аннотация. В статье рассматривается роль системы образования как ключевого фактора достижения устойчивого развития.

Ключевые слова: образование для устойчивого развития, система образования, человеческий капитал, Узбекистан, образовательные реформы.

Abstract. The article examines the role of the education system as a key factor in achieving sustainable development.

Key words: education for sustainable development, education system, human capital, Uzbekistan, educational reforms.

Кириш. Глобал муаммолар – экологик инқироз, иқлим ўзгариши, ижтимоий тенгсизлик ва технологик ривожланиш – жаҳон афкор оммасидан мазкур масалаларга янги ёндашувни талаб этмоқда. Бу шароитда таълим асосий омил сифатида нафақат билим беришнинг воситаси, балки барқарор келажакни қуриш асоси ўлароқ намоён бўлмоқда. ЮНЕСКО маълумотларига кўра, таълим барқарор ривожланиш мақсадларига эришишнинг кафолатидир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: «Ёшларга сифатли таълим бериш, уларни замонавий касб-хунар эгалари қилиб тарбиялаш – бу мамлакат раънақи ва барқарор тараққиётининг кафолатидир»[1]. Бу фикр мамлакатимиз ривожланишида

таълимнинг стратегик аҳамиятини белгилаб беради. Ҳақиқатан ҳам, Ўзбекистонда амалга оширилаётган кенг қўламли ислохотларнинг асосида таълим тизимини модернизация қилиш турибди.

БМТнинг 4-барқарор ривожланиш мақсади «Сифатли таълим»га бағишланган. Бу тасодифий эмас, чунки таълим барча бошқа мақсадларга эришиш учун асос яратади. Мазкур масалани ижтимоий фалсафа нуқтаи назаридан ўрганиш замонавий таълим назариясининг муҳим вазифасидир.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда комплекс методологик ёндашувдан фойдаланилди. Тизимли таҳлил усули таълим тизими ва барқарор ривожланишнинг ўзаро боғлиқлигини ўрганишга имкон берди. Қиёсий-тарихий метод барқарор ривожланиш учун таълим концепциясининг эволюциясини кўриб чиқишда қўлланилди. Институционал ёндашув Ўзбекистондаги таълим ислохотларининг институционал асосларини таҳлил қилишга хизмат қилди.

Шунингдек компаратив таҳлил Ўзбекистон таълим тизимини халқаро тажриба билан солиштиришга ёрдам берди. Эмпирик материал сифатида Ўзбекистон Республикасининг расмий статистик маълумотлари, ЮНЕСКО ва бошқа халқаро ташкилотларнинг ҳисоботлари ҳамда миллий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдаланилди.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Барқарор ривожланиш учун таълим масалалари XX аср охириларидан бошлаб фаол тадқиқ этилмоқда. 1992 йилда Рио-де-Жанейрода бўлиб ўтган БМТ анжуманида биринчи марта таълимнинг экологик жиҳатлари кўтарилди. 1997 йилда ЮНЕСКО «Барқарор келажак учун таълим» концепциясини ишлаб чиққан[2]. Бу ҳужжат барқарор ривожланиш учун таълимнинг асосий принципларини белгилаб берди.

Рус олими Н.Н. Моисеев таълимни барқарор ривожланишнинг асосий омили деб ҳисоблаган. Унинг фикрича, «Таълимсиз барқарор ривожланиш мумкин эмас, чунки у инсон онгини ўзгартиради»[3]. Олим таълим орқали ноосфера – ақл соҳаси – шаклланишини таъкидлаган.

В.И. Вернадский биосфера ва ноосфера ҳақидаги таълимотида таълимнинг ролига алоҳида эътибор қаратган. Олим таъкидлаганидек, инсон онги табиат билан мувозанатни таъминловчи асосий кучга айланиши керак[4]. Бу фикр барқарор ривожланиш учун таълимнинг фалсафий асосини ташкил этади.

Фарб олимларидан Л Браун, Деннис Медоуз ва Донелла Медоуз «Ўсиш чегаралари» асарида таълим ва барқарор ривожланишнинг боғлиқлигини кўрсатганлар. Улар таъкидлашича, жамият тараққиётини бошқариш учун янгича тафаккур зарур.

Рим клуби асосчиларидан бири А. Печчеи ўз қарашларида таълим орқали инсон шахсини такомиллаштириш зарурлигини асослаган. Унинг таъкидлашича: «Замонавий цивилизация инқирозидан чиқиш учун инсон сифатларини ўзгартириш керак, бу эса таълим орқалигина мумкин».

ЮНЕСКО эксперти С.А. Степанов барқарор ривожланиш учун таълимнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаган. У таъкидлаганидек, бу таълим фанлараро характерга эга бўлиб, экология, иқтисодиёт ва ижтимоий фанларни бирлаштиради. Олим таълимнинг нафақат билим бериш, балки кадриятларни шакллантириш функциясини алоҳида ажратиб кўрсатган.

Таҳлил ва натижалар. Таълим инсониятнинг энг қадимги ижтимоий воситаларидан биридир. Фалсафий жиҳатдан таълим нафақат билим узатиш жараёни, балки инсон онги ва тафаккурини шакллантириш, жамиятни ривожлантириш ва миллий маданиятни асрашнинг асосий воситасидир. Шу боис, барқарор ривожланиш контекстида таълимнинг роли муҳим мазмун касб этади. Буни қуйидаги жиҳатларда кўрсатиш мумкин:

Биринчидан, таълим ғносеологик функцияни бажаради. У инсонга дунёни англаш, табиат ва жамиятнинг қонуниятларини тушуниш имкониятини беради. Барқарор ривожланиш учун бу жуда муҳим, чунки мавжуд муаммоларни ҳал қилиш илмий билимларни талаб этади. Лекин замонавий таълим нафақат предмет билимларини, балки тизимли тафаккурни ҳам шакллантириши керак.

Иккинчидан, таълим аксиологик функцияни амалга оширади. У кадриятларни шакллантиради ва узатади. Барқарор ривожланиш парадигмасида кадриятларнинг ўзгариши катта аҳамиятга эга. Табиатга ғамхўрлик, келажак авлодлар олдида масъулият, ижтимоий адолат – булар барқарор ривожланишнинг асосий кадриятларидир.

Учинчидан, таълим ижтимоийлашув функциясини бажаради. У инсонни жамият аъзоси сифатида шакллантиради, ижтимоий нормалар ва қоидаларни ўргатади. Барқарор ривожланиш

учун бу жамоавий масъулият, ҳамкорлик ва фаол фукаролик кўникмаларини шакллантиришни англатади. Амартия Сен таъкидлаганидек, ривожланиш одамларнинг ҳаракат эркинлигини кенгайтиришдир.

Тўртинчидан, таълим трансформация функциясига эга. У жамиятни ўзгартиради ва ривожлантиради. Барқарор ривожланиш концепцияси айнан трансформацион ўзгаришларни назарда тутди. Таълим бу ўзгаришларнинг катализаторидир. Жон Дьюи таъкидлаганидек: «Таълим – бу ҳаёт учун тайёргарлик эмас, балки ҳаётнинг ўзидир».

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек, БМТнинг 4-барқарор ривожланиш мақсади «Сифатли таълим»га бағишланган бўлиб, бу мақсад 2030 йилгача барча болалар, қизлар ва ўғил болалар, аёллар ва эркеклар сифатли, инклюзив ва тенг таълимга эга бўлишларини таъминлашни назарда тутди. Мақсад 10 та аниқ вазифани ўз ичига олади.

Биринчи вазифа – барча болалар учун бепул, сифатли бошланғич ва ўрта таълимни таъминлаш. Бу таълим ҳуқуқининг универсаллиги принципига асосланади. ЮНЕСКО маълумотларига кўра, дунёда ҳали ҳам 258 миллион бола мактабга бормайди. Бу барқарор ривожланишга катта тўсиқдир.

Иккинчи вазифа – барча болалар учун сифатли мактабгача таълимни таъминлаш. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мактабгача таълим болаларнинг келгусидаги муваффақиятига катта таъсир кўрсатади. Эрта болалик даврида шаклланадиган кўникмалар ҳаёт давомида сақланиб қолади.

Учинчи вазифа – барча аёллар ва эркеклар учун арзон ва сифатли техник, касб-ҳунар ва олий таълимга тенг кириш имкониятини таъминлаш. Бу иқтисодий ривожланиш ва ижтимоий мобиллик учун муҳимдир. Замонавий меҳнат бозори юқори малакали кадрларни талаб қилади.

Тўртинчи вазифа – меҳнат билан банд бўлиш, муносиб иш ва тадбиркорлик учун зарур бўлган техник ва касб-ҳунар кўникмаларига эга ёшлар ва катталар сонини сезиларли даражада ошириш. Бу таълим ва меҳнат бозори ўртасидаги боғлиқликни таъкидлайди.

Бешинчи вазифа – таълимда гендер тенглигини таъминлаш ва ногиронлар, маҳаллий аҳоли ва заиф гуруҳлар вакиллари учун барча даражадаги таълимга тенг кириш имкониятини яратиш. Бу инклюзив таълим принципига асосланади.

Олтинчи вазифа – барча ёшлар ва катталарнинг саводхонлик ва ҳисоблаш кўникмаларига эга бўлишларини таъминлаш. ЮНЕСКО маълумотларига кўра, дунёда 773 миллион инсон саводсиз. Бу барқарор ривожланишга катта тўсиқдир.

Еттинчи вазифа – барча талабалар барқарор ривожланиш учун зарур бўлган билим ва кўникмаларни эгаллашларини таъминлаш. Бу вазифа мақоламизнинг асосий мавзуси бўлиб, у барқарор ривожланиш учун таълим, экологик таълим, инсон ҳуқуқлари, гендер тенглиги, тинчликни таъминлаш каби йўналишларни ўз ичига олади.

Айни даврга келиб, Ўзбекистонда рақамли таълимни ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Бу нафақат таълим сифатини ошириш, балки барқарор ривожланишга ҳам хизмат қилади. Буни қуйидаги жиҳатларда кўриш мумкин:

Биринчидан, рақамли технологиялар таълим имкониятларини кенгайтиради. Онлайн курслар, виртуал синфлар ва масофавий таълим платформалари географик жойлашувдан қатъий назар, барча талабаларга сифатли таълим олиш имкониятини беради. Бу БМТнинг «хеч кимни ортда қолдирмаслик» принципига мос келади.

Иккинчидан, рақамли таълим ресурсларни тежайди. Электрон дарсликлар қоғоз истеъмолини камайтиради, онлайн дарслар транспорт харажатларини қисқартиради. Бу экологик жиҳатдан ҳам фойдалидир.

Учинчидан, рақамли технологиялар янги ўқитиш усулларини яратади. Замонавий технологиялар — ўйин усуллари, виртуал воқелик ва сунъий интеллект таълимни жонлироқ ва натижалироқ қилишга ёрдам беради. Талабалар интерфаол тарзда билим оладилар, мустақил тадқиқотлар олиб борадилар.

Ўзбекистонда рақамли таълимни ривожлантириш бўйича бир қатор лойиҳалар амалга оширилмоқда. 2020 йилда «Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегияси қабул қилинди. Бу стратегия таълим соҳасини рақамлаштиришни устувор йўналиш сифатида белгилайди.

Хулоса ва таклифлар. Таълим барқарор ривожланишнинг асосий омили ҳисобланади. Фалсафий жиҳатдан таълим нафақат билим узатиш жараёни, балки инсонни шакллантириш, жамиятни трансформация қилиш ва барқарор келажакни куриш воситасидир. Барқарор

ривожланиш учун таълим холистик, фанлараро, кадриятларга йўналтирилган ва амалиёт билан боғлиқ бўлиши керак.

БМТнинг 4-барқарор ривожланиш мақсади «Сифатли таълим» барча бошқа мақсадларга эришиш учун асос яратади. Таълимсиз камбағалликни тугатиш, экологик муаммоларни ҳал қилиш, гендер тенглигини таъминлаш мумкин эмас. Таълим инсон капиталини ривожлантиради, инновацион тафаккурни шакллантиради ва ижтимоий ўзгаришларга йўл очади.

Ўзбекистон таълим тизимини модернизация қилиш ва барқарор ривожланиш мақсадларига мослаштириш борасида катта ишлар олиб бормоқда. «Ўзбекистон-2030» стратегияси таълимни устувор йўналиш сифатида белгилайди. Мактабгача таълимдан тортиб олий таълимгача барча даражаларда кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда.

Мамлакатимизда барқарор ривожланиш учун таълим экологик таълим, ижтимоий масъулият тарбияси, инновацион тафаккур шакллантириш, инклюзив таълим ва маънавий-ахлоқий тарбия йўналишларида амалга оширилмоқда. Рақамли технологиялар таълим имкониятларини кенгайтиради ва барқарор ривожланишга хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, таълим барқарор ривожланишнинг асосий воситаси ва мақсадидир. Таълим орқали янги авлодни табиатга ғамхўрлик қилувчи, ижтимоий жиҳатдан масъул ва инновацион тафаккурга эга қилиб тарбиялаш мумкин. Ўзбекистон бу борада миллий кадриятлар ва глобал стандартларни уйғунлаштириб, ўзига хос йўлни танлади. Мамлакатимиз тажрибаси шуни кўрсатадики, таълим тизимини барқарор ривожланиш мақсадларига мослаштириш комплекс, узоқ муддатли ва барча ижтимоий институтларнинг ҳамкорлигини талаб қилувчи жараёндир. Бу йўл орқали биз келажак авлодлар учун барқарор ва фаровон Ўзбекистонни қуришимиз мумкин.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 56 б.
2. Степанов С.А. Высшее образование для устойчивого развития: концепция, методология, практика. – М.: МНЭПУ, 2020. – 472 с.
3. Моисеев Н.Н. Экология и образование. – М.: ЮНИСАМ, 1996. – 192 с.
4. Вернадский В.И. Биосфера и ноосфера. – М.: Айрис-пресс, 2004. – 576 с.

РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Д.Б.Ахмедова,
старший преподаватель
“ТИИИМСХ” НИУ

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida kuzatilgan asosiy o'zgarishlar yoritilgan. Ta'limga innovatsion yondashuvlar, ta'lim sifatini oshirish strategiyalari va qulay ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan tashabbuslar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sohasidagi islohotlar, “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash dasturi”, 11 yillik ta'lim tizimiga o'tish, maktabgacha ta'lim, maktablar, oliy o'quv yurtlari.

Аннотация. Эта статья охватывает ключевые изменения, наблюдавшиеся в образовательной системе Узбекистана. Освещаются инновационные подходы к обучению, стратегии развития качества образования и инициативы, направленные на создание благоприятной образовательной среды.

Ключевые слова: реформы в сфере образования, закон “Об образовании”, “Программа подготовки кадров”, переход на 11-летнюю систему обучения, указ дошкольное образование, школы, высшие образовательные учреждения.

Annotation. This article covers the key changes observed in the educational system of Uzbekistan. Innovative approaches to teaching, strategies for developing the quality of education and initiatives aimed at creating a favorable educational environment are highlighted.

Keywords: educational reforms, the Law "On Education", "Personnel Training Program", transition to an 11-year education system, the Decree preschool education, schools, higher education institutions.

Реформы в сфере образования в Новом Узбекистане.

Система образования в Узбекистане начала свое развитие с принятия Закона "Об образовании" в 1992 году, который определил основные принципы государственной политики в этой сфере. В первые годы независимости были реализованы реформы, включающие приватизацию жилья для работников образования, предоставление земельных участков для индивидуального строительства, а также льготы по коммунальным услугам. Согласно постановлению Олий Мажлиса, День учителя, 1 октября, был установлен праздничным выходным. В последующие годы была принята национальная программа по подготовке кадров, осуществляемая в три этапа: подготовка правовых документов и материально-технической базы (1997-2001), улучшение качества образования (2001-2005) и завершение реализации программы, обобщение опыта (после 2005 года).

В соответствии с данным Законом Республики Узбекистан "Об образовании" было установлено девятилетнее общее среднее образование, после завершения которого учащиеся продолжали обучение в средних специальных учебных заведениях или профессиональных колледжах. Этот переход осуществлялся поэтапно. Национальная программа подготовки кадров в рамках первого этапа (1997-2001 годы) предусматривала открытие 300 новых образовательных учреждений, включая бизнес-школы и профессиональные курсы в общеобразовательных школах, а также включение новых специальностей, таких как фермер, работник налоговой и таможенной служб, аудитор и другие, в программу обучения. Начиная с 1997 года, было открыто более 1400 профессиональных колледжей и около 200 академических лицеев. Однако, несмотря на закрепление их за соответствующими организациями и вузами, на этом этапе не удалось добиться удовлетворительных результатов в сфере трудоустройства выпускников колледжей.

Позже, реформы, проведенные в 2017 году, направлены на совершенствование системы образования, однако они не принесли ожидаемых результатов. Инициатива Президента Ш. Мирзиёева о переходе к 11-летнему образованию вместо обязательного 9+3, в соответствии с мнениями родителей и учащихся, реализуется путем издания учебников и перевода общеобразовательных школ на 11-летнее обучение. При этом учтены пожелания и потребности учащихся и их родителей. Теперь, нацеленные на коренное улучшение и повышение качества среднего образования в стране, реформы в 2021 году, представляли собой создание достойных условий для учителей и обучения. В тот год из государственного бюджета страны было выделено значительное финансирование на строительство 30 новых школ и улучшение материально-технической базы 320 школ. Кроме того, были направлены значительные средства на внедрение единой системы "электронного образования".

Для кардинального повышения качества образования была проведена адаптация учебных планов и методических пособий к передовым международным стандартам, а также введение "Национальной учебной программы" в начальных классах на основе лучшего зарубежного опыта. Целью было развитие у детей аналитического и креативного мышления, без перегрузки их образовательными программами.

Шавкат Мирамонович, в своем заявлении 2021 года, также подчеркнул важность одинаково высокого качества школьного образования как в столице, так и в отдаленных селах. Для достижения этой цели была предусмотрена программа по обеспечению школ в отдаленных районах квалифицированными кадрами и повышению качества образования.

С учетом этого, введены стимулирующие меры для учителей, включая надбавки к заработной плате за работу в отдаленных районах и регионах, а также субсидии для стимулирования деятельности частных школ в регионах.

Для развития образования молодежи в стране, были открыты 10 президентских школ и 197 специализированных школ по различным направлениям. Кроме того, открываются новые современные университеты с передовыми образовательными программами, где преподают иностранные ученые и преподаватели.

Дошкольное образование является фундаментальным звеном в непрерывном процессе обучения. До достижения возраста 6-7 лет дети получают образование как в семьях, так и в детских садах и других образовательных учреждениях. Исходя из научных выводов, около 70% информации, усваиваемой человеком за всю жизнь, приходится на период до 5 лет. Поэтому детское образование играет ключевую роль в формировании здоровых, образованных и высококвалифицированных личностей с потенциалом для будущего. С целью дальнейшего совершенствования системы дошкольного образования, укрепления материально-технической базы и расширения сети дошкольных учреждений Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев 30 сентября 2017 года подписал Указ "О коренном совершенствовании управления системой дошкольного образования". В соответствии с этим документом были созданы Министерство дошкольного образования Каракалпакстана, Главное управление дошкольного образования города Ташкента, областные управления дошкольного образования и их городские и районные отделы. К 2017 году количество дошкольных образовательных учреждений превысило пять тысяч, а к 2021 году этот показатель увеличился до 19316, преимущественно за счет государственно-частного партнерства.

В последующем году основной целью нашего государства стало обеспечение доступа к дошкольному образованию для всех детей, что отражает стремление к гармоничному развитию каждого ребенка. Правительство выразило намерение увеличить охват дошкольным образованием до 75% к концу 2023 года, что стало значительным шагом в обеспечении качественного образования для молодого поколения.

Для достижения этих целей из бюджета государства выделены значительные средства, 600 млрд сумов субсидий, для создания 2000 негосударственных детских садов, что способствует разнообразию и доступности дошкольного образования. Кроме того, доля частного сектора в данной сфере увеличилась до 25%, что также содействует расширению возможностей для родителей выбора подходящего образовательного учреждения для своих детей.

Одновременно с этим, в 2021 году запущена система бесплатной подготовки к школе для 82% детей в возрасте шести лет, что обеспечивает им необходимые навыки и знания перед поступлением в школу. Также расширено использование альтернативных форм дошкольного образования в отдаленных селах, с целью доступности образовательных услуг для всех детей независимо от места проживания.

Касательно реформ в Высшем образовании... В 1992 году указом Президента Республики Узбекистан восьми областным педагогическим институтам был присвоен статус университетов. На основе этих институтов в марте 1992 года были созданы государственные университеты в Андижане, Бухаре, Термезе, Ургенче и Карши. Параллельно были учреждены новые высшие учебные заведения, ориентированные на современные специальности, такие как Университет мировой экономики и дипломатии, Навоийский горно-металлургический институт, Военная академия, Академия внутренних дел, и другие. Студентам и аспирантам были введены специальные стипендии в 1993 году. Для подготовки квалифицированных специалистов, соответствующих современным требованиям, были открыты новые университеты и институты, взяв за основу опыт развитых стран. Эксперимент по приему в вузы на основе тестирования начался в 1992 году и в 1993 году был расширен на 19 учреждений из 46. В 1994 году был создан Государственный центр тестирования, а прием в вузы начался на тестовой основе. С 1996 года начали вводить контрактную систему оплаты за обучение в высших учебных заведениях. В соответствии с законом от 1997 года "Об образовании" был введен переход на двухуровневую систему высшего образования: бакалавриат (4 года) и магистратура (2 года). В 2013 году юридический институт был преобразован в университет, а в 2014 году был основан Ташкентский государственный стоматологический институт. Коренные реформы также коснулись повышения квалификации педагогических кадров в системе образования на всех уровнях. В соответствии с Указом Президента от 2015 года о 15 ведущих учреждениях высшего образования стали базовыми для переподготовки педагогических кадров.

Коренные реформы, начатые в 2017 году в соответствии с Указом Президента от 7 февраля 2017 года о стратегии развития Узбекистана, предусматривали разработку программы совершенствования системы высшего образования на период с 2017 по 2021 годы. Эти реформы включают более семидесяти указов, постановлений и указаний от Президента и Кабинета Министров, что обозначает начало широкомасштабных изменений в системе образования. Охват выпускниками вузов за это время возрос с 9% до 25%, абитуриенты теперь имеют возможность

подать заявки в пять высших учебных заведений одновременно. Также усилено участие женщин и лиц с ограниченными возможностями в высшем образовании за счет выделения дополнительных грантов и кредитов на обучение. Профессорам и преподавателям предоставлены возможности для профессионального развития за границей, а их заработная плата увеличена в 2.5 раза. 2025 год был отмечен увеличением числа государственных грантов на получение высшего образования не менее чем на 25%. Кроме того, были предприняты шаги по удвоению квоты стипендий для девушек из малообеспеченных семей, а также введению специальных стипендий для нуждающихся девушек, которые достигают высоких результатов в учебе.

Для привлечения образованной и талантливой молодежи в высшие учебные заведения введена система предоставления частным вузам государственного заказа на подготовку востребованных специалистов. Также увеличилось количество молодых людей, направляемых на обучение за рубежом по линии фонда "Эл-юрт умиди".

В рамках укрепления преемственности между учебными заведениями различных уровней передано в ведение высших учебных заведений ряда академических лицеев и техникумов.

Для улучшения качества образования и сотрудничества с ведущими зарубежными университетами, расширено сотрудничество в области подготовки кадров. Кроме того, показано намерение предоставления ведущим университетам страны права самостоятельно разрабатывать учебные планы и определять квоты приема, что способствует их автономности и решению финансовых вопросов.

Подводя итог, наше правительство серьезно заботится о развитии государства, и повышении уровня образованности в стране. Внедрение инновационных подходов, таких как обеспечение воспитанников и учащихся современными образовательными средствами и продуктами, а также поддержка школьников на различных уровнях обучения, демонстрируют стремление создать благоприятную образовательную среду для роста человека. Вместе с тем, постоянное развитие профессионализма и преданности со стороны образовательных работников играет ключевую роль в достижении высоких результатов. Таким образом, наше правительство продолжает поощрять инновации и совершенствование образовательной системы для обеспечения успешного развития нашей страны и формирования качественных кадров для будущего.

Использованная литература:

1. Мирзиёев Ш.М. «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования». Ташкент. 2017 1 Закон Республики Узбекистан «Об образовании» Национальная программа по подготовке кадров. Ташкент.
2. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития нового Узбекистана. –Ташкент: Ўзбекистон 2022.
3. Закон Республики Узбекистан “Об образовании”. –Ташкент:, 2020.

YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI SHAROITIDA YOSH AVLOD HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA KONSTITUTSIYANING AHAMIYATI

Bahodir Rahmonov,
Falsafa fanlari bo'yicha
falsafa doktori (Phd)

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning asosiy shakllari hamda huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy ta'lim, huquqiy targ'ibot va huquqiy amaliyotning o'rni masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, tarbiya, huquq, ong, madaniyat, ta'lim, ma'rifat, oila, yoshlar, ixtimoiy tarmoq, media olam.

Аннотация. В данной статье анализируются основные формы духовного воспитания и роль правового воспитания, правового воспитания, правовой пропаганды и юридической практики в формировании правового сознания и культуры молодежи.

Ключевые слова: духовность, образование, право, сознание, культура, наука, просвещение, семья, молодежь, социальная сеть, медиамир.

Annotation. This article analyzes the main forms of spiritual education and the role of legal education, legal education, legal propaganda and legal practice in the formation of the legal consciousness and culture of youth.

Key words: spirituality, education, law, consciousness, culture, education, science, enlightenment, family, youth, social network, media world.

Yoshlarda ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu talim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi asosiy qonunimiz- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan.

Mamlakatimizda o'sib kelayotgan yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq e'tiborni qaratilib, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylandi. Har yili an'anaga aylangan davlat dasturida "Ona va bola", "Yoshlar", "Barkamol avlod", "Oila", "Obod turmush" yili kabi nomlari bilan atalishi, avvalo jismonan va ma'naviy sog'lom, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissigga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish muhim vazifalardan edi.

Bu esa yoshlarimizda ma'naviy tarbiyani shakllantirishda, ularda huquqiy ongini yuksaltirish va madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish kerakligini anglatadi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, yoshlarda vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash va bolalarni ma'naviy tarbiyalash asosiy yo'nalishlardan bo'lib qoladi. Mamlakatimizning ertangi kuni, jamiyatda o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etuvchi muhim kuch, ma'naviy salohiyatli resurs hisoblangan yoshlarni ma'naviy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyatda munosib o'rin egallashlariga qulay shart-sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylanishiga ko'maklashish har birimizning muhim vazifalarimizdan sanaladi. Shu sababdan yoshlarni milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat, insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy salohiyatli va jismonan sog'lom avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarda huquqiy ong va madaniyatini oshirishni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining -yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonibugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularni intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratilishiga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda huquqiy ta'lim va madaniyatini shakllantirishda demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, qonuniyligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Huquqshunos olimlar A.X.Saidov va U.T.Tadjixanovlarning ma'lumotiga qaraganda, "Huquqiy tarbiya-shaxslar va ijtimoiy guruhlarining huquqiy ongiga ko'rsatiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan va maxsus huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sir jarayonidir".

Akademik olim I.T.Tulteyev esa huquqiy tarbiyaning tor va keng ma'nolarda qo'llanilishini inobatga olgan holda "Huquqiy tarbiya-davlat organlari, nodavlat organlari, mansabdor shaxslar va alohida shaxslar guruhini aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maxsus faoliyati hisoblanadi", deb qayd qiladi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlash huquqiy ta'lim va ma'naviy tarbiya sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu masalaning muhimligini ta'kidlab: "Biz huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, har tomonlama bilimli, yuqori malakali, xalqaro standartlarga javob beradigan, o'z kasbining haqiqiy fidoyisi bo'lgan huquqshunos kadrlar tayyorlash

ishlarini takomillashtirishimiz kerak” -deb uni davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi.

Har bir shaxsning huquqiy ongi va madaniyati eng avvalo huquqiy ta‘lim va ma‘naviy tarbiya ta‘sirida shakllanadi. Ma‘naviy tarbiya yoshlarimizning huquqiy savodxonligini oshishiga, huquqiy bilimlarini chuqur o‘zlashtirishga, huquqga bo‘lgan munosabatini mustahkamlanishiga hamda huquqiy ongi va madaniyati darajasini yuksalishiga yordam beradi. Bu masalada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: “Aholisining huquqiy tarbiyasini tubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonlarini yaratib berish-huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo‘nalishdir”, -deb bejizga ta‘kidlamagan edi.

Shuningdek, bu to‘g‘risida birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: “O‘tib kelayotgan avlodga, uning ma‘naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma‘naviyatining munosib egalari. Shuning uchun har bir o‘g‘il-qizimiz dastlabki qadamlaridan boshlab madaniy boyliklarimizdan bahramand bo‘lishi kerak”, deb qayd etgan.

Bugungi kunda yoshlarimizning huquqiy ongi ommaviy axborot vositalari va ko‘pgina ijtimoiy tarmoqlar bilan band bo‘lib, ma‘naviy va tabiiy hayotdan uzilib qolganek tuyiladi nazarimizda. Aslida ham shunday. Biz axborot va media asrida yashar ekanmiz shunga ko‘nikishimiz ham kerak. Ammo, xalqimizda asalning ham ozi shirin deganlaridek, hamma narsaning o‘z meyori va me‘zonlari bor. Biz yoshlar, nafaqat yoshlar balki yoshi kattalar ham internet tarmoqlaridan unumli, meyorida foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiya, milliy va madaniy qadriyatlarimizga bo‘lgan talab kun sayin oshib, jadallashib bormoqda. Bu albatta, quvonarli hodisa bo‘lsada, ammo har qanday jamiyat o‘z istiqbolini, potensial imkoniyatlarini, odamlar ongida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib tasavvur eta olmaydi. Ushbu haqiqatni yashab turgan bugungi zamonimizning rivojlanish xususiyatlari ham tasdiqlab turibdi.

Ma‘naviyat va ma‘rifat omili necha ming yillar osha xalqimizning o‘zligini yo‘qotmay, ba‘zi millatlar kabi yo‘q bo‘lib ketmasdan saqlanib qolishini ta‘minlagan o‘ta muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Bugun esa o‘z oldiga ulkan rejalar qo‘yib, odimlab borayotgan mamlakatimizning ezgu maqsadlariga erishishi uchun zarur bo‘lgan quvvat manbaiga aylangani bejiz emas. Shu bois, yurtimizda ma‘naviyat va ma‘rifat masalalariga alohida e‘tibor berib kelinmoqda.

Sog‘lom fikrli, zamonaviy bilim va kasblarni puxta egallagan, yuksak mas‘uliyatli va barkamol avlodni tarbiyalash ma‘naviyat va ma‘rifat sohasi uchun birlamchi masaladir.

Globallashuv sharoitida mafkuraviy kurashlar, ommaviy madaniyat yosh avlodning ongi va qalbiga turli vosita va usullar orqali ta‘sir ko‘rsatishi yot va begona g‘oyalarning ta‘sirini kuchaytirmoqda. Natijada yoshlarning o‘zligini anglashi, milliylikni his qilishi, tilini e‘zozlashi, ma‘naviyatini qadrlashi, jismoniy va ma‘naviy komillikka erishishiga to‘sqinlik qilmoqda hamda erkin va mustaqil fikr-mulohazalar yuritish ko‘nikmalariga raxna solmoqda. Ma‘naviy tahdidlar kuchayotgan davrda yoshlarni jismoniy, intellektual va ma‘naviy barkamol etib tarbiyalash, huquqiy-siyosiy ongi va madaniyatini oshirish, ularda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali ijtimoiy faolligini kuchaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarimizning ma‘naviy tarbiyasini yanada mustahkamlash, rivojlantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish borasida kitobxonlik masalasi ham katta ahamiyatga ega. Chunki, kitob - inson umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘lguvchi sodiq do‘st. Insonning ruhiy-ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda kitobchalik kuchli qudratga ega vosita yo‘qdir. Shu boisdan, azal-azaldan ma‘rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilmu-odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelishgan. Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o‘rni nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko‘rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko‘tariladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta‘kidlaganidek, “Shu nuqtai nazardan qaraganda, biz o‘z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma‘naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatini yuksak cho‘qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo‘lishimiz darkor.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma‘naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta‘siri beqiyosdir”. Darhaqiqat, shaxs takomilida oilaviy muhit, oilaviy qadriyatlar asosiy vosita rolini o‘taydi. Ota-onaning ma‘naviy darajasi, axloqiy qarashlari bevosita farzandga ham ko‘chib o‘tadi, farzandlar shaxsiyatida aks-sado beradi. Binobarin, kitobxonlik, badiiy adabiyotga

muhabbat ham inson ma'naviy tafakkurini, tarbiya ahvolini namoyon qiluvchi muhim xususiyatlar sirasidandir. Kitob dunyosiga oshufta, adabiy olamga hamnafas, badiiyatdan bahramand qalb egasi o'zidagi bu tuyg'u va fazilatlarini atrofidagilarga, ayniqsa, oilasiga ham yuqtirishi, singdirishi ehtimoli yuqori. Kitobxon ota-onalarning farzandi ham kitobga o'zgacha mehr ko'rsatadi, bu ma'naviyat xazinasiga tabiiy qiziqish va intilish tuyadi. Shu bois kitobxon avlod tarbiyasida, avvalo, ota-onaning tarbiyali bo'lishi, badiiy adabiyotga oshno ekanligi muhim zaruriyatsidir.

Yoshlarimizda huquqiy savodxonlikni oshirishda oilada kitobxonlikni tashkil etish muhim omillardan hisoblanadi. 2017 yil 12 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi e'lon qilindi. Farmoyishdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarimizda kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otish va kitob mutolaasi hamda kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar va aholining keng qatlamlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish masalalariga alohida e'tibor qaratib: "Kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muhabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi",-deb ta'kidladi. Yoshlarimizni kitobga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ularning kitob bilan oshno bo'lishi, avvalo oiladan boshlanadi. Ayniqsa, ularning ixtiyoriga huquqqa oid adabiyotlarni tavsiya etish orqali huquqiy savodxonlikni oshirishimiz mumkin.

Yangi jamiyat bunyodkorlari bo'lgan yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning o'рни beqiyosdir. Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning o'z o'rinlarini topa olishida, kishilar o'rtasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollari va nuroniy otaxonlar, onaxonlarning tutgan o'rinlari muhimligini ta'kidlash lozim. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida ota-ona mas'uliyati alohida o'rin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk bor hayot to'g'risidagi tushunchalari, dunyoqarashi, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bo'lgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va so'ngra jamoaga ko'chadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish davr taqazosi, shunday ekan yoshlar ham o'z faolligi bilan davrning mazmunini yanada boyitishga, unga yangicha ma'no-mazmun olib kirishga imkoniyat yaratish lozim. Ayniqsa, ma'naviy tarbiya yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish hamda yuksaltirishning zaruriy vositasidir. Zero, demokratik huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh maqsadimiz ekan, ma'naviy tarbiya va ta'limning mukammal zamonaviy tizimini yaratish hamda yoshlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda foydalanish nihoyatda muhimdir. Buni O'zbekistonda yoshlarga yaratib berilayotgan yangi imkoniyatlar orqali ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda milliy-ma'naviy merosdan foydalanishda ham yangicha yondashilmoqda. Turli xil sohalarida turizm rivojlanmoqda. Yoshlarning bilim olishlari uchun yangi yo'nalishlar tashkil etilmoqda.

Yangi oliy ta'lim muassasalari va unga ko'proq yoshlarni jalb etish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Istiqbolda yoshlarimizni oliy ta'limga jalb etish bo'yicha oltmish-yetmish foizga yetkazish maqsad qilib belgilangan. Bu ilm-fan va raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadlari bilan mushtarak ekanligini ta'kidlashimiz lozim.

Bugungi yoshlar ilm-fan va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy va hal qiluvchi ijtimoiy qatlamga aylanishi zarurdir. Bu maqsadlarga erishishda yoshlarni yuksak ma'naviy salohiyatli va ilm-fanni egallashiga bo'lgan intilishi va vatanparvarlik tuyg'ularining yuqori bo'lishisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun yoshlarga yangicha yondashish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion loyihalarni qo'llash masalasi, nafaqat bugungi kun doirasida, balki kelajakda ham eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзлуксиз маънавий тарбия концепсини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарори 31.12.2019 йилдаги 1059-сон. <https://lex.uz/docs>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 09.01.2019 йилдаги ПФ-5618-сон. <https://lex.uz/docs>.
3. Саидов А.Х., Таджиханов У.Т. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. 2-жилд.-Т., 2001.

ГЛОБАЛ ЧАҚИРИҚЛАР ДАВРИДА МИЛЛИЙ МАЪНАВИЙ
РИВОЖЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Нодира Алимухамедова,
«ТИҚХММУ» МТУ доценти
Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация. Мақолада глобаллашувнинг интеграция жараёнлари шароитида глобал, геосийёсий, этник, миллий муаммоларнинг кескинлашуви кўриб чиқилади.

Калит сўзлар: глобаллашиб, миллат, миллий юксалиш, маънавият, миллий идентификация, идентиклик, қадрият.

Аннотация. В статье рассматривается обострение глобальных, геополитических, этнических, национальных проблем в контексте интеграционных процессов глобализации.

Ключевые слова: глобализация, нация, национальный прогресс, духовность, идентификация, идентичность, национальная идентичность, ценность.

Resume. The article deals with the aggravation of global, geopolitical, ethnic, national problems in the context of the integration processes of globalization.

Key words: globalization, nation, national progress, spirituality, identification, identity, national identity, value.

XXI аср бўсағасида бошланган ижтимоий, миллий, диний қарама-қаршилиқлар, экологик, энергетик, демографик ва озиқ-овқат муаммолари асримизда янада кучайди. Инсоният цивилизацияси муҳим бурилиш – келажакдаги ривожланиш йўлини танлашнинг оптимал муқобил вариантини аниқлашга уриниш – бифуркация нуқтасига етди. Жамият ва табиат ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг анъанавий схемаси доирасида инсониятнинг омон қолишини таъминлаш мумкин эмаслиги барчага аён дир. Бунинг учун эса янги ахлоқий императив, турмуш тарзи, яъни муносабатларнинг янги табиати шаклланиши зарур.

Тарихий жараёнларнинг мазмуни ва йўналиши муаммолари доимо ижтимоий фанлар, фалсафий изланишлар марказида бўлиб келган. Бугун, шу жумладан ижтимоий фалсафа олдида янги дунёқараш муаммоси ва мутлақо янги ноанъанавий вазифалар мавжуд. Ижтимоий ўзгаришлар динамикасининг таҳлили шуни кўрсатадики, бугун инсоният тақдири кескин ўзгариб бормоқда, инсонлар ўз ҳаётий фаолиятларини экологик ва ижтимоий муаммоларга тўла беқарор ва хавфли дунёда олиб бормоқдалар. Бу эса ижтимоий ривожланишнинг муқобил йўллари излашга эътиборни кучайтиради. Омон қолиш стратегияси вақт талабига айланган, унинг асосий қоидаларини эса ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Барқарор ривожланишнинг бутун қадриятлар тизими экологик ва гуманистик қадриятларга, табиат ва шахсга нисбатан зўравонлик қилмасликка асосланиши даркор. Ижтимоий тараққиётда спонтан омиллар устуворлигини енгиб ўтиш, технологик, экологик, ижтимоий ва бошқа муаммоларга тўла беқарор цивилизациянинг стихияли механизмларини тизимли, рефлексив ва институционал тарзда бошқаришнинг самарали, илмий асосланган, хавфсиз муқобилини яратиш давр талабига айланган.

Замонавий жамият ўз ривожланишининг ўтиш босқичида экан, чуқур ва кўп қиррали ижтимоий ўзгаришларни бошдан кечирмоқда. Бу жараён фақат иқтисодий ёки сиёсий соҳалар билангина чекланиб қолмай, балки инсон онги, қадриятлар тизими ва ҳаёт тарзига ҳам бевосита таъсир кўрсатади. Бу эса ижтимоий муносабатларнинг оптимал моделларини жорий этишни тақозо этади. «Ўзбекистон тараққиётининг бугунги жараёнлари миллий ғоя ва маънавий янгиланиш йўналишида ҳам жамият ва давлатимиз ривожининг янги босқичи бошланганидан далолат беради»[1]. Янги Ўзбекистонни барпо этиш бевосита миллат тараққиёти билан боғлиқ жараён дир. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида «Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари» мақсади белгиланган бўлиб, бу борада миллий тараққиётнинг концептуал асосларини – мавжуд назариялар, қарашлар ва ёндашувларни қиёсий таҳлил қилиш илмий зарурият дир, чунки «... ҳозирги вақтда ижтимоий-маънавий муҳитни илмий асосда таҳлил қилиб, уни яхшилаш, такомиллаштириш бўйича самарали механизмларни ишга солишни даврнинг ўзи талаб этмоқда»[1].

Замонавий глобал динамика кучайиб бораётган шароитда шахс маънавий камолоти ва жамият маънавий салоҳияти ижтимоий ривожланишнинг стратегик ресурси сифатида аҳамият касб этади. Миллий маънавий тараққиёт мураккаб ва кўп қатламли ижтимоий феномен сифатида намоён бўлмоқда экан, Янги Ўзбекистонда ягона маънавий макон барпо этишнинг зарурати вужудга келган. Ахборот маконининг кенгайиши, маданий алмашинув суръатларининг ортиши, иқтисодий ва сиёсий интеграция жараёнларининг чуқурлашуви миллий маънавият тизимига ҳам бевосита таъсир кўрсатмоқда. Бундай шароитда миллий маънавий тараққиётнинг идентиклик, маданий ва кадриятли асосларига эътибор қаратиш муҳимдир.

«Миллий ўзлик ва маънавий кадриятларларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортиб бормоқда. Дунёдаги айрим сиёсий марказлар томонидан баъзи ҳудудларда сунъий равишда беқарор вазият юзага келтирилмоқда, норозилик кайфиятлари авж олдирилмоқда»[1]. Глобал чақириқлар даврида дунёнинг ғоявий манзараси тубдан ўзгариши умумбашарий ахлоқ, глобал тафаккур ва глобал идентикликни, ҳатто «ҳиссиётларнинг глобаллашуви»ни шакллантирмоқда. У.Бек таъкидлайдики: «Мен кимман? Менинг ватаним қаерда? – деган саволга энди оддий ва умрбод ўзгармас жавоб йўқ. Турли хил идентиклик шакллари ва ўзига хослик қатламлари мавжуд бўлгани каби энди кўплаб жавоб вариантлари мавжуддир. Жавобни қай бирини танлаш ҳар бир алоҳида ҳолатда устувор бўлган ташқи шароитларга, шунингдек, индивиднинг интилишлари ва мақсадларига боғлиқ бўлади». Миллий идентиклик миллий давлатлар легитимлигининг ядросини ташкил этар экан, миллатнинг умумий ўтмиши, тарихий тақдирнинг бирлиги ҳақидаги тасаввурларни шакллантиради ва мустаҳкамлайди. Миллат вакилларида бирлик ҳисси мавжуд экан, халқлар миллий ўзига хослигини сақлаб қолишга интиладилар. Жамият аъзолари миллий идентикликни синфий, диний, маҳаллий фарқлардан юқори кўяр экан, миллат ҳам мавжуд бўлади. Аввало, идентиклик асослари миллат аъзоларининг ўзини муайян тарихий, маданий ва тил бирлигига мансуб субъект сифатида англаши билан боғлиқдир. Глобал ахборот муҳитида турли универсал маданий моделлар фаол тарқалаётган бир пайтда миллий идентиклик шахснинг маънавий барқарорлигини таъминловчи муҳим омилга айланади. Миллий ўзликни англаш тарихий хотира, рамзий тизимлар, анъаналар ва умумий кадриятлар орқали мустаҳкамланади. Шу маънода, миллий маънавият идентификация жараёнининг маънавий-аксиологик пойдевори сифатида хизмат қилади.

Турли маданиятларнинг «тўқнашуви» натижасида маданий идентификация ҳар доим биринчи ўринга чиқади. Ўн саккизинчи асргача ушбу муаммо маҳаллий, локал характерга эга бўлган, фақат мустамлакачилик экспансияси давридан бошлаб у глобал характерга эга бўла бошлади. Европа мисолида қараганда мустамлакачилар туб халқларни европалаштиришни, аборигенларни маданийлаштириш, уларни тараққиёт билан таништириш сифатида кўрганлар. Бироқ замонавий жамиятда глобаллашувни ҳаракатлантирувчи куч бу, алоҳида давлатлар эмас, балки трансмиллий корпорациялар, интернет, оммавий маданият ва миграцион оқимлар ҳисобланади. Масалан, миграцион жараёнларнинг жадаллашуви натижасида Европанинг маҳаллий аҳолиси ўз миллий идентиклигига кўпроқ эътибор бера бошлади. Яқин Шарқ ва Африка мамлакатларидан уруш ва қашшоқликдан қочган, «фаровон» ҳаёт илинжидаги мигрантлар Европа маданиятининг гомогенлигига раҳна солиб, яқин келажакда «европаликлар»нинг миллий қиёфасини тубдан ўзгартитиб юбориши мумкин. Бу ҳолат миллий идентиклик масалаларини кескинлашуви, долзарблалуви сабаб бўлмоқда. Глобаллашув технокадриятлар мақомини оширибгина қолмай, унинг янги турини, глобал маданиятни шакллантирди. Бу эса миллийликни заифлашуви, миллий кадрият ва анъаналарнинг ўз позицияларини йўқотишига олиб келмоқда. Хусусан, А.Коневанинг фикрича «маданий кодларнинг айнанлиги ва турфа хиллиги идентикликнинг асосини ташкил қилиши билан бирга, ушбу жараённинг статика ёки динамикасини белгилайди. Мазкур маданий кодлар идентификация жараёнлари динамикасини таъминлаш билан бирга уни ҳаракатлантирувчи куч сифатида ҳам намоён бўлади»[2]. Л.Гараи ўзининг идентиклик назариясига бағишланган тадқиқотида, идентикликнинг дуаллик ва ўзаро таъсир кучига эга жараён эканлигини қайд қилади. Шунинг билан боғлиқ равишда, идентиклик тил билан узвий боғлиқ матн ахборотни ташувчи, ахборот эса «мантикий хусусиятга эга»[3].

Миллий маданият миллий маънавий тараққиётнинг институционал ва меросий компонентларини қамраб олади. Миллий маданиятнинг ўзак кадриятлари жамиятнинг ички интеграциясини таъминлайди. Миллий маданий маконнинг мустаҳкамлиги маънавий суверенитетни сақлаш ва маданий ассимиляция хавфларини камайтиришда муҳим омил ҳисобланади. Кадриятлар эса миллий маънавиятнинг мазмуний йўналишини белгилайди. Ҳар бир

миллат ўз тарихи ва ижтимоий тажрибаси негизда муайян қадриятлар тизимини шакллантиради. Адолат, ватанпарварлик, жамоавийлик, инсонпарварлик, маърифатпарварлик каби қадриятлар миллий маънавий ривожланишнинг асосини ташкил этади.

Глобал универсализм ва бозор муносабатлари шароитида миллий қадриятлар тизими трансформацияга учраши мумкин, бироқ унинг ядроси жамият барқарорлигини таъминловчи маънавий ресурс сифатида сақланиб қолиши зарур. Шу нуқтаи назардан, глобаллашув шароитида миллий маънавий тараққиёт изоляция эмас, балки конструктив очиқлик ва маданий мулоқот орқали ривожланиши лозим. Миллий маънавият бир вақтнинг ўзида ҳам ўзликни сақлаш, ҳам умуминсоний қадриятлар билан уйғунлашиш қобилиятига эга бўлган динамик тизимдир. Демак, унинг идентификацион, маданий ва қадриятли асосларини мустаҳкамлаш жамиятнинг барқарор тараққиёти, маънавий хавфсизлиги ва цивилизацион рақобатбардошлигини таъминлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эгадир.

«Миллий давлат антропологияси» асарининг муаллифи америкалик олим Л.Фоллерснинг фикрига кўра, миллатлар ва миллий давлатларнинг энг жиддий муаммолари кўпинча иқтисодий, сиёсат ёки муҳофаа билан эмас, балки номоддий, кўз илғамас рамзлар билан боғлиқ. Барча илғор давлатларда ўз фуқароларига ўзига хос «ҳақиқат мезонлари» сифатида хизмат қиладиган муҳим рамзий элементлар тўплами мавжуд. Олим таъкидлайдики, рамзлар ватанпарварлик, миллатпарварлик, содиқликни рағбатлантиради, миллатга мансублик асосида инсонларни ўз кадр-қиммати ва ҳурматини кучайтирган ҳолда жамоатчиликнинг миллий муҳофаа, сиёсат ва ижтимоий-иқтисодий институтларнинг фаолиятида иштироки учун ахлоқий асос яратади.

Коммеморация – бу замонавий илмий ва ижтимоий-сиёсий соҳаларда мустаҳкам ўрнашган атама бўлиб, тор маънода бу воқеа-ҳодисалар ҳақидаги хотираларни абадийлаштириш: ёдгорликлар қуриш, музейлар ташкил этиш, турли артефактлар, асарлар, ғоялар, ёки матнлар, муҳим саналар, байрамлар, оммавий тадбирларни ўтказиш ва бошқалар. Кенг маънода, бу инсонни ўтмиши билан боғлайдиган ҳамма нарса, яъни коммеморация – бу ўтмиш хотирасини мустаҳкамлаш ва кейинги авлодларга етказиш усулидир. «Коммеморация» атамаси француз тарихчилари томонидан илмий муомалага киритилган бўлиб, улар коллектив хотиранинг моддий таркибий қисмини ўрганиш муҳимлигини асослаб беришди. Француз тарихчиси, «хотира жойи» концепциясининг асосчиси Пьер Нора бизнинг замонамизни умуман «коммеморация (эслаш) даври»[4], деб атайди. Олим фикрича хотира бутунлай одамлар ёки жамият томонидан синчковлик билан қайта реконструкция қилинади. Масалан, тарихий онгни бошқариш учун давлат томонидан қўлланиладиган коммеморация амалиётларидан бири бу ёдгорликларни ўрнатилишидир. Вержиния университети профессори А.Мегилл таъкидлашича: «...коммеморация мавжуд жамоанинг бирлик ва ҳамжихатлик ҳиссини тасдиқлаш истагидан келиб чиқади, жамоа ичидаги алоқаларни унинг аъзолари томонидан ўтмишдаги воқеаларга алоқадорлиги ёки аниқроғи, ўтмишдаги воқеалар намойишига умумий муносабати орқали мустаҳкамлашдир». Коммеморация шундай амалиётки, тарихий хотирани идентиклик билан боғлиқликда, ўтмиш билан жонли алоқани сақлайди, агар хотира асосан такрорлаш ва ёдлаш ўртасидаги ўзаро боғлиқликда мавжуд бўлса, рамзларни мустаҳкамлаш орқали коммеморация айнан тарихий хотирани англаб етиш, онгли такрорлашдир.

Миллат ва миллий давлат тараққиётига хизмат қилувчи муҳим рамзий элементлар тўплами ватанпарварлик, миллатпарварлик, содиқликни рағбатлантиради, миллатга мансублик асосида инсонларни ўз кадр-қиммати ва ҳурматини кучайтирган ҳолда жамоатчиликнинг миллийликни асраш, сиёсат ва ижтимоий-иқтисодий институтларнинг фаолиятида иштироки учун ахлоқий асос яратади, рамзлар ёрдамида ўзлари ҳақидаги ғояларини индивидуал ва жамоавий даражада ифода этадилар. Маънавият – бу шахснинг жамиятда уйғун яшаши учун зарур шарт бўлган экзистенциал қадриятларга асосланган шахсий пойдевор ҳисобланади. Маънавиятни онгли равишда англаш инсоннинг фақат билим олиши билан эмас, балки унинг фаол ҳаётий позицияси, аниқ мақсадлари ва воқеликка нисбатан масъулиятли муносабати орқали рўёбга чиқади. Чунки маънавият шахснинг ички эътиқоди, қарашлари ва кундалик хатти-ҳаракатларида намоён бўладиган амалий қадриятлар тизимидир. Шахс маънавияти жамиятнинг ахлоқий меъёрларини, тарихий-маданий ўзига хослиги, ижтимоий муносабатларнинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда шахснинг ўзини ва жамиятни идрок этишининг ўзига хос усулидир.

Таъкидлаш жоизки, ахборот асри фарзандларининг онги жадаллик билан трансформацияга учраши натижасида ёшлар орасида прагматиклар, космополитларнинг сони ортиб бормоқда. Менталитетимизга хос бўлган коллективизм тамойили асосида шаклланган анъанавий қадриятлар

Ўрнини шахсий манфаат, шахсий фойда олишга йўналтирувчи қадриятлар эгалламоқда. Одамлар ҳаётий ёндошувларида прагматизмнинг устуворлиги, уларнинг жамият ҳаётининг моддий ва маънавий асослари диалектикасини унутиши, ёш авлоднинг анъанавий маънавий ва ахлоқий қадриятларга беписанд муносабатига, бу қадриятларнинг конструктив салоҳиятини эътиборсиз қолдиришга олиб келиши мумкин. Бу ҳолат ижтимоий-маданий оғишларнинг оммавий тарқалиши ва уларнинг ҳулқ-атворини белгилайдиган асосга айланиши мумкин.

Глобаллашув объектив жараён сифатида «фойда олиш», «моддий манфаатлар устунлиги» тамойилларига асосланганлиги ушбу жараённинг «маънавий қашшоқ»лигининг мезонидир. Бугун «маънавий қашшоқлик» ҳавфи ёшлар орасида айниқса юқори бўлиб, миллат тараққиётининг асосларини, милли-маънавий меросни, маънавий қадриятларни барбод қилиши билан миллатни борлиқ сифатида мавжуд бўлишига раҳна солмоқда. Идентикликнинг характери, қўлами, жадаллиги, кишиларни йўналтириш ва сафарбар қилиш қобилияти жамият тараққиётида ижтимоий манба бўлиб, фуқаролар идентиклигини шакллантириш давлат яхлитлиги ва жамият барқарорлигини сақлаш шартидир. Фуқаролар ҳулқ-атворини йўналтириш ва тартибга солиш учун дастуриламал бўлиб хизмат қиладиган янги қадрият йўналишларини, миллий ғурурни шакллантирувчи, миллий идентикликни қайта ва қайта яратишга қодир миллий идеаллар, миллий мафқурани ривожлантириш борасида алоҳида тадқиқотлар олиб борилишини тақозо этади.

Бугунги дунёда мавжуд вазиятдаги беқарорлик, вайронкор ғояларнинг кучайиб бориши ҳар давлат ва жамиятни ҳушёрликка чақирмоқда. «Ўзбекистоннинг 2022-2032 йилларга мўлжалланган маънавий тараққиёт стратегияси» давлат сиёсатининг таркибий қисмига айлантирилди. Бу муҳим вазифа, ўз навбатида, илм-фан соҳаларидаги тадқиқотларни миллатни ўзлигини сақлаш, миллий идентикликни ривожлантириш ва мухтаҳкамлашга, миллий тараққиёт йўлидаги ғоявий, маънавий-маърифий ишларнинг таъсирчанлигини янада ошириши давр талабидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Мирзиёева Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент, Ўзбекистон, 2021. – Б. 293.
2. Конева А.В. Понятие и структура социального суждения // Вопросы философии. № 5. 2016. – С. 56.
3. Garai, Laszlo. Complementarity of Information Theory and Identity Theory in the Human Sciences, Voprosy Filosofii, Vol. 5. 2019, pp.118.
4. Франция-память / П. Нора, М. Озуф, Ж. де Пюимеж, М. Винок. - СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 1999.

JAMIYAT BARQARORLIGI VA FUQAROLIK BIRDAMLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY O'ZLIKNING INTEGRATIV FUNKSIYASI

Umidjon Davitov,
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi
O'quv adabiyotlari bilan ishlash bo'limi
bosh mutaxasisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy o'zlikning jamiyat barqarorligi hamda fuqarolik birdamligini mustahkamlashdagi integrativ funksiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqola yakunida milliy o'zlikni integrativ salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiluvchi konseptual yo'nalishlar va amaliy tavsiyalar umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, integratsiya, jamiyat barqarorligi, fuqarolik birdamligi, ijtimoiy ishonch, siyosiy barqarorlik, identitet, bag'rikenglik.

Аннотация. В статье рассматривается интегративная функция национальной идентичности в укреплении общественной стабильности и гражданской солидарности. В заключение предлагаются концептуальные ориентиры и практические рекомендации по усилению интегративного потенциала национальной идентичности в публичной политике и образовательной среде.

Ключевые слова: национальная идентичность, интеграция, общественная стабильность, гражданская солидарность, социальное доверие, политическая стабильность, ценности, толерантность.

Abstract. This article examines the integrative function of national identity in strengthening social stability and civic solidarity. The article concludes with conceptual directions and practical recommendations aimed at enhancing the integrative capacity of national identity in public policy and educational contexts.

Keywords: national identity, integration, social stability, civic solidarity, social trust, political stability, values, tolerance.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot makonining keskin kengayishi sharoitida jamiyat barqarorligi masalasi faqat iqtisodiy taraqqiyot yoki institutlarning samaradorligi bilan emas, balki fuqarolarning umumiy qadriyatlarga tayangan birligi, o'zaro ishonchi va ijtimoiy hamjihatligi bilan ham bevosita bog'liqdir. Turli ijtimoiy guruhlar, hududlar va avlodlar manfaatlarini tutashdigan murakkab ijtimoiy tizimda barqarorlikning ichki tayanchi sifatida fuqarolik birdamligi alohida ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik birdamligi esa ko'p hollarda jamiyatning "biz" tasavvurini shakllantiradigan, umumiy maqsad va mas'uliyatni uyg'otadigan integrativ g'oyaviy-axloqiy resurslar bilan mustahkamlanadi. Ana shunday resurslardan eng muhimlaridan biri — milliy o'zlik (milliy identitet)dir. Milliy o'zlik jamiyat a'zolarining o'zini muayyan tarixiy-madaniy makon, umumiy xotira, til, qadriyatlar va fuqarolik tuzilmasi bilan bog'liq holda anglashini ifodalovchi ko'p qatlamli hodisadir. U shaxsning "men kimman?" degan savolga javob berish bilan birga, jamiyat miqyosida "biz kimmiz, qaysi maqsadlar atrofida birlashamiz?" degan savolni ham mazmun bilan to'ldiradi. Shu sabab milliy o'zlikning integrativ funksiyasi — ya'ni ijtimoiy guruhlarni yagona qadriyatlar maydonida birlashtirish, umumiy identifikatsiya va ijtimoiy ishonchni kuchaytirish — jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligini ta'minlashning muhim sharti sifatida maydonga chiqadi.

Zamonaviy sharoitda jamiyatni ichkaridan zaiflashtiruvchi omillar qatoriga ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi, axborot xurujlari, radikal g'oyalar, "biz-ular" qarama-qarshiligining keskinlashuvi hamda ma'naviy-me'yoriy bo'shliqlar kiradi. Bunday vaziyatda milliy o'zlik bir tomondan birlashtiruvchi integrator vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta'minlaydigan "himoya mexanizmi" (rezistent salohiyat) sifatida ham namoyon bo'ladi. Ammo bu funksiyaning ijobiy natija berishi milliy o'zlikning mazmunan inklyuziv, fuqarolik ruhidagi, bag'rikeng va qonuniylikka tayangan talqiniga bog'liq. Aks holda, milliy o'zlik tor etnosentrik yoki kamsituvchi talqinda qo'llansa, integratsiya o'rniga ijtimoiy masofa va ziddiyatlarni kuchaytirishi ham mumkin. Shu ma'noda, milliy o'zlikning jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligidagi integrativ funksiyasini ilmiy tahlil qilish dolzarbdir. Mazkur maqolaning maqsadi — milliy o'zlikning integrativ funksiyasini nazariy jihatdan asoslash, uning amalga oshish mexanizmlarini (tarixiy xotira va ramzlar, fuqarolik identiteti, ijtimoiy ishonch, ma'naviy me'yorlar, tolerantlik va muloqot madaniyati) tizimlashtirish hamda globallashuv sharoitida uni kuchaytirish yo'nalishlarini konseptual tarzda belgilashdan iborat. Ushbu maqsad doirasida maqolada milliy o'zlikning integrativ salohiyati jamiyatning ichki barqarorligi, ijtimoiy hamjihatlik va siyosiy barqarorlik ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligini tushuntirishda klassik sotsiologiya avvalo "solidarlik"ni ijtimoiy tartibning tayanch mexanizmi sifatida ko'radi. E. Dyurkgeym "mexanik" va "organik" solidarlik g'oyasi orqali jamiyatni birlashtiruvchi omillar o'xshashlik (umumiy e'tiqod, me'yor) hamda funksional o'zaro bog'liqlik (mehnat taqsimoti)dan tarkib topishini asoslaydi; bu yondashuv milliy o'zlikning integrativ funksiyasini me'yorlar va umumiy ma'nolar tizimi sifatida talqin qilishga metodik zamin yaratadi.

Zamonaviy empirik yo'nalishlarda jamiyat barqarorligi ko'pincha ijtimoiy ishonch va ijtimoiy kapital tushunchalari bilan bog'lanadi. R. Putnam fuqarolik faolligi, tarmoq munosabatlari va ishonch resurslari pasayishi ijtimoiy birdamlikni zaiflashtirishini ko'rsatadi; shu nuqtai nazardan, milliy o'zlik fuqarolik institutlariga ishonch, jamoatchilik ishtiroki va hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan "umumiy identifikatsiya maydoni" sifatida ko'riladi.

Milliy o'zlikning integrativ funksiyasini izohlovchi nazariy bloklardan yana biri — millatni "tasavvur qilingan hamjamiyat" sifatida ko'ruvchi konstruktiv yondashuvdir. Bu yo'nalishda umumiy tarixiy narrativ, ramzlar, ommaviy kommunikatsiya va institutsional amaliyotlar ("biz" tasavvurini ishlab chiqaruvchi diskurslar) fuqarolik birdamligining kognitiv asosini yaratishi ta'kidlanadi. Natijada,

integratsiya faqat etnomadaniy belgilar bilan emas, balki umumiy siyosiy-ijtimoiy ma'nolar (fuqarolik "biz")i bilan mustahkamlanishi mumkin.

Siyosatshunoslikdagi maxsus tadqiqotlar milliy identitet va ijtimoiy uyushqoqlik (social cohesion) munosabatini alohida muhokama qiladi: umumiy milliy identitet ijtimoiy ishonch va solidar xatti-harakatlarni osonlashtirishi, biroq u "inklyuziv" (fuqarolik asosli) talqinda bo'lsagina barqarorlikka xizmat qilishi qayd etiladi. Shu sabab adabiyotlarda milliy o'zlikning integrativ funksiyasi ikki yo'nalishda ochiladi: (1) umumiy qadriyatlar va ramzlar orqali birlashtirish; (2) "umumiy fuqarolik qoidalari" orqali turli guruhlar manfaatini muvofiqlashtirish.

Biroq zamonaviy ilmiy muhokamalarda "identitet" va "solidarlik"ni aynanlashtirish ehtiyotkorlik bilan baholanadi. D. Kaplan millatshunoslik tadqiqotlarida kollektiv identitet (kimlik) va solidarlik (hamkorlik, yordam, o'zaro majburiyat) analitik jihatdan farqlanishi zarurligini asoslaydi: kuchli identitet har doim ham kuchli solidarlikni kafolatlamasligi, ayrim holatlarda esa "biz-ular" chegaralarini keskinlashtirib, ijtimoiy masofani oshirishi mumkin. Bu xulosa milliy o'zlikning integrativ funksiyasini baholashda tolerantlik, inklyuzivlik va fuqarolik tengligi indikatorlarini albatta kiritish kerakligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada milliy o'zlikning jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligini ta'minlashdagi integrativ funksiyasi normativ-huquqiy hujjatlar, strategik dasturlar hamda rasmiy nutq va ma'naviy-ma'rifiy diskurslar matnlari asosida kontent-tahlil orqali o'rganildi. Metod doirasida (1) "milliy o'zlik", "fuqarolik birdamligi", "ijtimoiy hamjihatlik", "bag'rikenglik", "barqarorlik", "milliy manfaat" kabi asosiy kategoriyalar tanlab olindi; (2) ushbu kategoriyalarning matnlarda uchrash chastotasi va kontekstlari aniqlanib, semantik guruhlariga ajratildi; (3) birlashtiruvchi (integrativ) va himoya (rezistent) funksiyalarni ifodalovchi mazmuniy birliklar kodlandi; (4) natijada milliy o'zlikning integratsion mexanizmlari — umumiy tarixiy xotira va ramzlar, fuqarolik identiteti, ijtimoiy ishonch, me'yoriy birlik hamda dialog madaniyati — konseptual model ko'rinishida umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Kontent-tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy o'zlik jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligini ta'minlashda, avvalo, umumiy ma'no-maydonini yaratadigan integrator sifatida talqin qilinadi. Matnlar mazmunida "biz" tasavvurini mustahkamlovchi birliklar (umumiy tarixiy xotira, ramzlar, madaniy meros, til va qadriyatlar) fuqarolarning turli ijtimoiy qatlamlari va hududiy guruhlar o'rtasida umumiy identifikatsiya nuqtalarini hosil qiluvchi resurs sifatida beriladi. Bu holat integratsiyaning birinchi mexanizmini — kognitiv-semantik integratsiyani anglatadi: ya'ni fuqarolar jamiyatni yagona hamjamiyat sifatida tasavvur qiladi, umumiy tarixiy narrativ va ramzlar esa "umumiy maqsad"ni tushunarli qiladi.

Ikkinchi muhim natija shundaki, milliy o'zlik ko'pincha me'yoriy integratsiya vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Kontentda "mas'uliyat", "burch", "fuqarolik pozitsiyasi", "qonuniylik", "hamjihatlik" kabi birliklar milliy o'zlik bilan bir semantik zanjirda keladi. Bunda milliy o'zlik faqat hissiy mansublik emas, balki ijtimoiy tartibni ushlab turuvchi me'yorlar (qonuniylikka hurmat, jamoat manfaatini tan olish, ijtimoiy intizom)ni legitimlashtiradigan tayanch sifatida ko'rinadi. Demak, milliy o'zlikning integrativ funksiyasi "birlashtiradi" degan umumiy iddaodan iborat bo'lmay, barqarorlikni ta'minlaydigan qoidalar va umumiy mas'uliyatni ichki qabul qilishga undovchi mexanizm sifatida ishlaydi.

Uchinchi natija — integratsiya jarayonida ijtimoiy ishonch va jamoaviy hamkorlikning alohida o'rni. Matnlarda birdamlik odatda "o'zaro ishonch", "hamkorlik", "murosa", "muloqot madaniyati" bilan bog'lanadi. Bu, milliy o'zlikning kommunikativ funksiyasini ko'rsatadi: u turli qarash va manfaatlarga ega guruhlar o'rtasida muloqotni osonlashtiruvchi "umumiy til" (umumiy qadriyatlar va maqsadlar)ni yaratadi. Shuningdek, kontent-tahlilda bag'rikenglik va inklyuzivlikka ishora qiluvchi birliklar integrativ funksiyaning sharti sifatida uchraydi: ya'ni milliy o'zlik fuqarolik tengligi va turfa ijtimoiy guruhlarining hurmatini ta'minlay olganida birdamlik kuchayadi; aks holda integratsiya o'rniga "biz-ular" qarama-qarshiligi kuchayishi xavfi yuzaga keladi.

To'rtinchi natija — globallashuv va axborot ta'sirlari fonida milliy o'zlikning himoya (rezistent) funksiyasi kuchayishi. Kontentda ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin bo'lgan omillar (axborot manipulyatsiyasi, ekstremistik chaqiriqlar, ijtimoiy ziddiyatni qo'zg'atuvchi diskurslar) fonida milliy o'zlik "mafkuraviy immunitet"ni shakllantiruvchi omil sifatida talqin etiladi. Bu yerda integrativ funksiya ikki yo'nalishda ishlaydi: birinchisi — jamiyatni ichkaridan parchalovchi narrativlarga qarshi umumiy qadriyatlar orqali "birlashtirish"; ikkinchisi — tanqidiy idrok, media savodxonlik, ijtimoiy mas'uliyat kabi ko'nikmalarni qo'llab-quvvatlab, fuqarolarni manipulyativ ta'sirlarga nisbatan chidamli qilish.

Natijalarni umumlashtirib, milliy o'zlikning integrativ funksiyasi uchun konseptual model taklif etiladi: (1) *kognitiv-semantik qatlam* (umumiy tarixiy xotira, ramzlar, narrativ) — “biz” tasavvurini beradi; (2) *me'yoriy-aksiologik qatlam* (qadriyatlar, qonuniylik, mas'uliyat) — fuqarolik qoidalarini ichki qabul qildirishga xizmat qiladi; (3) *kommunikativ-amaliy qatlam* (ishonch, hamkorlik, dialog) — birdamlikni real ijtimoiy amaliyotga aylantiradi; (4) *rezistent qatlam* (tanqidiy idrok, bag'rikenglik, axborotga bardoshlilik) — barqarorlikni tahdidlardan himoya qiladi. Shu model asosida, milliy o'zlikning integrativ salohiyatini baholashda “faqat identifikatsiya darajasi” emas, balki ishonch, hamkorlik, dialog, tolerantlik va fuqarolik mas'uliyati kabi natijaviy ko'rsatkichlar bilan birga ko'rish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Maqolada o'tkazilgan kontent-tahlil natijalari milliy o'zlikning jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligini ta'minlashda muhim integrativ resurs ekanini tasdiqladi. Milliy o'zlik fuqarolarning “biz” tasavvurini shakllantiruvchi umumiy tarixiy xotira, ramzlar va qadriyatlar maydonini yaratib, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, u jamiyatda me'yoriy birlikni mustahkamlab, fuqarolik mas'uliyati, qonuniylikka hurmat va ijtimoiy intizomni qo'llab-quvvatlovchi mafkuraviy omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, milliy o'zlikning integrativ funksiyasi faqat hissiy mansublik bilan cheklanmaydi: u ijtimoiy ishonch, hamkorlik, muros va muloqot madaniyati orqali fuqarolik birdamligini real amaliyotga aylantiradi. Shu bilan birga, globallashuv va axborot xurujlari sharoitida milliy o'zlikning himoya (rezistent) funksiyasi kuchayib, jamiyatning mafkuraviy immunitetini oshirish, fragmentatsiya hamda ziddiyatlar xavfini kamaytirish omili sifatida ishlashi belgilandi.

Umuman olganda, milliy o'zlikning integrativ salohiyatini kuchaytirish uchun uni inklyuziv fuqarolik mazmunida talqin qilish, bag'rikenglik va fuqarolik tengligini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, tarixiy xotira va qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy dialog hamda media-savodxonlik bilan uyg'unlashtirish zarur. Taklif etilgan konseptual model (kognitiv-semantik, me'yoriy-aksiologik, kommunikativ-amaliy va rezistent qatlamlar) milliy o'zlikni ilmiy baholash hamda barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan siyosiy-ijtimoiy dasturlarni metodik jihatdan asoslash uchun xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. “2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son Farmon (28.01.2022). — [Elektron resurs].
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) (30.04.2023).
3. Durkheim, E. The Division of Labor in Society / E. Durkheim; transl. by W. D. Halls. — New York: Free Press, 1997. — 352 p.
4. Putnam, R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community / R. D. Putnam. — New York: Simon & Schuster, 2000. — 544 p.

TEMURIYLAR DAVRIDAGI ILMIY UYG'ONISH JARAYONIDA ALI QUSHCHIYNING O'RNI: MIRZO ULUG'BEK AKADEMIYASI FAOLIYATI MISOLIDA

Shoxistaxon Uljaeva,
“TIQXMMI” MTU professori

Abdulosid Safarov,
Zaxiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada Ali Qushchiyning ilmiy va falsafiy merosi, uning Mirzo Ulug'bek akademiyasidagi faoliyati hamda Temuriylar Uyg'onish davrida ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ali Qushchiy, Ulugh Beg akademiyasi, Timurid Uyg'onish, astronomiya, matematika, falsafa, ilmiy meros.

Аннотация. В статье анализируется научное и философское наследие Али Кушчи, его деятельность в Академии Мирзо Улугбека и вклад в развитие науки и культуры в эпоху Тимуридского Возрождения.

Ключевые слова: Али Кушчи, Академия Улугбека, Тимуридское Возрождение, астрономия, математика, философия, научное наследие.

Abstract. The article analyzes Ali Qushchiy's scientific and philosophical legacy, his activities at the Mirzo Ulugh Beg Academy, and his contributions to the development of science and culture during the Timurid Renaissance.

Keywords: Ali Qushchiy, Ulugh Beg Academy, Timurid Renaissance, astronomy, mathematics, philosophy, scientific legacy.

Ali Qushchiy (1403-1474) Temuriylar Uyg'onish davrining muhim shaxslaridan biri bo'lib, u Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek akademiyasida faoliyat yuritgan davrida astronomiya, matematika va falsafaga qo'shgan katta hissasi bilan tanilgan. Uning ishlari nafaqat ilmiy yutuqlari, balki klassik bilimlar bilan empirik tadqiqotlarni birlashtirgan intellektual izlanish madaniyatini rivojlantirishdagi roli bilan ham ajralib turadi. Qushchiy tabiiy falsafani islom astronomiyasidan ajratish g'oyasini ilgari surgan bo'lib, bu ilmiy metodologiyada muhim burilish yasadi va Yerning aylanishi haqidagi nazariyalarni o'z ichiga olgan osmon hodisalarini yanada qat'iy, ma'lumotga asoslangan tarzda o'rganishga imkon yaratdi.[1] Ilmiy almashinuvga boy muhitda tahsil olgan Qushchiy o'z davrining yetuk olimlari bilan muloqotda bo'lgan va matematika hamda astronomiya tushunchalarini rivojlantirgan innovatsion kuzatuv usullaridan foydalangan. Uning "Astronomiyaning falsafaga bog'liqligi to'g'risida" nomli mashhur risolasi empirik yondashuvini ifodalab, o'sha davr ilmiy muhitida hukmron bo'lgan aristotelizm tamoyillariga qarshi chiqqan.[2]

Nazariy faoliyatidan tashqari, u "Zij-i Sultoni" nomli mashhur astronomik asarning yaratilishida muhim rol o'ynagan bo'lib, bu Mirzo Ulug'bek akademiyasining ilmiy markaz sifatidagi nufuzini mustahkamladi. Qushchiyning inqilobiy ilmiy merosi tarix davomida e'tibordan chetda qolgan bo'lsa-da, hozirda u Islom Ma'rifat davriga, ya'ni Yevropa Uyg'onishidan avvalroq yuz bergan ilmiy uyg'onish davriga chuqur ta'sir ko'rsatgan arbob sifatida tobora ko'proq tan olinmoqda. Uning faoliyati nafaqat ilmiy bilimlarni rivojlantirdi, balki ilohiy iroda va inson irodasi haqidagi falsafiy savollarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, uni o'rta asr islom intellektual an'anasining yirik mutafakkirlaridan biri sifatida ko'rsatadi. Mirzo Ulug'bek akademiyasidagi faoliyati orqali Ali Qushchiy Temuriylar Uyg'onish davrining haqiqiy ruhini ifoda etgan bo'lib, uning ilm va ta'lim sohasidagi merosi asrlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Temuriylar Uyg'onish davrining ta'sirli shaxslaridan biri bo'lgan Ali Qushchiy o'zining intellektual izlanishlarini shakllantirgan o'ziga xos muhitdan yetishib chiqqan. Uning shakllanish yillari diniy va dunyoviy fanlarga birdek e'tibor berilgan boy ta'lim tajribasi bilan ajralib turadi. Bu hol o'sha davrning madaniy muhitini yaqqol aks ettirgan. Markaziy Osiyodagi ta'lim maskanlari, xususan, XV asrda Mirzo Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan tashkil etilgan madrasalar, Qushchiyning olim sifatida shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan.

Bolalik davrida duch kelgan qiyinchiliklariga qaramay, Qushchiy o'z zamondoshlarining aksariyatiga nasib etmagan imkoniyatlardan foydalandi. Uning ulg'ayish davri ilmiy izlanishlar faol rivojlantirilayotgan davrga to'g'ri keldi. Ulug'bek akademiyasi - o'zida rasadxona, kutubxona va matematika, astronomiya hamda tibbiyot kabi fanlarni qamrab olgan keng qamrovli o'quv dasturini mujassam etgan markaz - o'sha davrda ilg'or ta'limning namunasi bo'lgan. Ana shu muhitda Qushchiy o'z mahoratini sayqalladi, mashhur olimlar bilan tanishdi va turli fan sohalariga katta hissa qo'shishining zaminini yaratdi.

Qushchiyning ta'limi o'z davrining yirik olimlari bilan muloqotlar orqali yanada boyidi. U klassik bilimlar va tajribaviy tadqiqotlarni qadrlaydigan ilmiy an'anaga mansub bo'ldi. Nufuzli ustozlar rahbarligida u murakkab ilmiy tushunchalarni chuqur o'rgandi va astronomik tadqiqotlarga katta qiziqish bildirdi. Uning dastlabki ta'limi ilmiy bilimlarni ustuvor qo'ygan qat'iy o'quv dasturi bilan ajralib turar edi, bu esa avvalgi islom ilm-fani buyuk namoyandalari - Beruniy va Ibn Sino ilgari surgan g'oyalarga mos kelardi.

Qushchiyning erta hayoti va ta'limi merosi uning keyingi faoliyatida - Ulug'bek akademiyasi va kengroq ilmiy hamjamiyatdagi hissasida yaqqol namoyon bo'ladi. Ulug'bek madrasalarida shakllantirilgan o'quv dasturi diniy ta'limot bilan dunyoviy fanlarni uyg'unlashtirgan bo'lib, Temuriylar

Uygʻonish davriga xos maʼrifatli taʼlim yondashuvining yorqin namunasi edi. Ana shu muhit izlanish va kashfiyot madaniyatini shakllantirdi hamda Qushchiy singari olimlarga oʻz sohalarida sezilarli yutuqlarga erishish, keyingi avlod olimlari va mutafakkirlariga chuqur taʼsir koʻrsatish imkonini berdi.

XV asrda Temuriy hukmdor Mirzo Ulugʻbek tomonidan Samarqandda tashkil etilgan Mirzo Ulugʻbek akademiyasi Markaziy Osiyoda ilmiy va astronomik tadqiqotlarning muhim markaziga aylandi. Akademiya oʻz tarkibiga rasadxona, keng qamrovli kutubxona va matematika, astronomiya, tibbiyot hamda anʼanaviy islom fanlari oʻqitilgan madrasani olgan edi[8]. Ushbu maskan mintaqaning turli hududlaridan olimlar va talabalarni oʻziga jalb etib, oʻsha davrning ilmiy-intellektual muhitiga katta hissa qoʻshgan.

Akademiyada muhim rol oʻynagan mashhur olim Ali Qushchiy Ulugʻbek tomonidan qoʻllab-quvvatlangan matematik va astronomik tadqiqot muhiti taʼsirida shakllandi. Ilmiy muloqotga boy muhitda voyaga yetgan Qushchiy Akademiyada Qozizoda Rumiy va Jamshid al-Koshiy kabi nufuzli olimlar bilan birga ishlagan boʻlib, ular matematik fanlar rivojida beqiyos hissa qoʻshganlar. Qushchiyning astronomiyaga oid hissasi ayniqsa muhim - u tabiiy falsafadan mustaqil nazariyalar ishlab chiqdi va Yerning aylanishi haqidagi gʻoyani empirik dalillar orqali asoslab berdi. Bu fikrlar uning mashhur “Astronomiyaning falsafaga bogʻliqligi toʻgʻrisida” nomli risolasida bayon etilgan.

Qushchiy akademiyada faqat dars berish bilangina cheklanmagan - u Ulugʻbekning mashhur astronomik asari “Zij-i Sultoni”ning yaratilishida ham faol ishtirok etgan. Bu asar Akademiyaning astronomik tadqiqotlar boʻyicha yetakchi ilmiy markaz sifatidagi nufuzini yanada mustahkamladi [3]. Akademiyaning tuzilishi va ilmiy hamjamiyati turli fan sohalarida gʻoyalar hamda tadqiqotlar almashinuvini ragʻbatlantirgan oʻziga xos muhitni yaratdi. Qushchiy singari olimlar Temuriylar Uygʻonish davrida matematika va astronomiya sohalarida sezilarli yutuqlarga olib kelgan ilmiy bahs va hamkorlik tizimining faol ishtirokchilari edilar. Bu hamkorlik ruhi Akademiya muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri boʻlib, olimlarga bir-birining ishlariga tayangan holda oʻz sohalarida jamoaviy yuksalish va ilmiy taraqqiyotga erishish imkonini berdi.

Temuriylar Uygʻonish davrining yirik namoyandalaridan biri sifatida Ali Qushchiy matematika, astronomiya va astrologiya sohalariga katta hissa qoʻshdi. Uning Mirzo Ulugʻbek akademiyasidagi faoliyati uni Abu Mahmud Xujandiy va Abu Rayhon Beruniy kabi buyuk allomalar merosini davom ettirgan, oʻz davrining ilmiy yuksalishida markaziy oʻrinni egallagan olim sifatida tanitdi. Qushchiyning astronomiyaga oid tadqiqotlari, ayniqsa Ulugʻbek tomonidan Samarqandda tashkil etilgan rasadxona faoliyati doirasida, alohida ahamiyat kasb etgan. U osmon jismlarini aniq kuzatish uchun zarur boʻlgan astronomik asbob-uskunalarini takomillashtirish va metodologiyalarni rivojlantirishda muhim rol oʻynadi. Avvalgi allomalardan ilhomlanib, u heliosentrik (Quyosh markazidagi) tizim haqidagi tushunchalarni oʻrganishga kirishdi; bu yoʻnalishda Beruniy kabi olimlar ilgari ilgari surgan fikrlarni tahlil qildi hamda rivojlantirdi.

Bundan tashqari, Qushchiy qatʼiy kuzatuv amaliyotlari va matematik ifodalar bilan ajralib turgan kengroq ilmiy anʼanaga mansub edi. Uning asarlarida fors, arab va yunon olimlarining bilim anʼanalari uygʻunlashgan boʻlib, u oʻz davridagi astronomiya fanini yanada chuqurroq tushunishga yordam bergan.

Matematika sohasida Qushchiy trigonometrik va algebraik tadqiqotlarda muhim yutuqlarga erishdi. U Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan usullarni oʻzlashtirib, ularni yanada rivojlantirdi hamda geometriya va algebraik tenglamalarga oid murakkab masalalarni hal qildi. Uning nazariy bilimlarni amaliy sohalar bilan bogʻlay olish qobiliyati, ayniqsa yer oʻlchash va resurslarni boshqarish kabi yoʻnalishlarda, matematikaning amaliy qoʻllanishiga katta taʼsir koʻrsatdi. Qushchiyning tadqiqotlari orasida astrolabni takomillashtirishga qaratilgan ishlari ham boʻlib, bu jihatdan u Beruniy kiritgan yangiliklarga oʻxshash yondashuvni qoʻlladi. Natijada turli osmon jismlarini yanada kengroq kuzatish imkoniyati yaratilgan va astronomik oʻlchovlarning aniqligi oshgan.

Qushchiy astrologiya sohasiga ham sezilarli hissa qoʻshgan, bu fan Temuriylar davrida ilmiy soha sifatida alohida ahamiyatga ega edi. U bir nechta asarlar yozib, unda astrologik tamoyillar va ularning amaliy qoʻllanishlarini oʻrgangan, xususan meros taqsimoti va dehqonchilik kabi kundalik hayotga oid masalalarni tahlil qilgan. Uning asarlarida astrologik kuzatuvlar matematik metodlar bilan uygʻunlashtirilgan boʻlib, bu Temuriylar Uygʻonish davri ilm-fanining keng qamrovli xususiyatini aks ettiradi.

Ali Qushchiyning merosi Mirzo Ulugʻbek akademiyasida ilmiy hamkorlik va intellektual muhitni shakllantirishdagi roli bilan tavsiflanadi. U nazariy izlanishlar etilgan rasadxona faoliyati doirasida, alohida ahamiyat kasb etgan. U osmon jismlarini aniq kuzatish uchun zarur boʻlgan astronomik asbob-uskunalarini takomillashtirish va metodologiyalarni rivojlantirishda muhim rol oʻynadi. Avvalgi

allomalardan ilhomlanib, u heliosentrik (Quyosh markazidagi) tizim haqidagi tushunchalarni o'rganishga kirishdi; bu yo'nalishda Beruniy kabi olimlar ilgari ilgari surgan fikrlarni tahlil qildi hamda rivojlantirdi.

Bundan tashqari, Qushchiy qat'iy kuzatuv amaliyotlari va matematik ifodalar bilan ajralib turgan kengroq ilmiy an'anaga mansub edi. Uning asarlarida fors, arab va yunon olimlarining bilim an'analari uyg'unlashgan bo'lib, u o'z davridagi astronomiya fanini yanada chuqurroq tushunishga yordam bergan.

Matematika sohasida Qushchiy trigonometrik va algebraik tadqiqotlarda muhim yutuqlarga erishdi. U Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan usullarni o'zlashtirib, ularni yanada rivojlantirdi hamda geometriya va algebraik tenglamalarga oid murakkab masalalarni hal qildi. Uning nazariy bilimlarni amaliy sohalar bilan bog'lay olish qobiliyati, ayniqsa yer o'lchash va resurslarni boshqarish kabi yo'nalishlarda, matematikaning amaliy qo'llanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qushchiyning tadqiqotlari orasida astrolabni takomillashtirishga qaratilgan ishlari ham bo'lib, bu jihatdan u Beruniy kiritgan yangiliklarga o'xshash yondashuvni qo'lladi. Natijada turli osmon jismlarini yanada kengroq kuzatish imkoniyati yaratilgan va astronomik o'lchovlarning aniqligi oshgan.

Qushchiy astrologiya sohasiga ham sezilarli hissa qo'shgan, bu fan Temuriylar davrida ilmiy soha sifatida alohida ahamiyatga ega edi. U bir nechta asarlar yozib, unda astrologik tamoyillar va ularning amaliy qo'llanishlarini o'rgangan, xususan meros taqsimoti va dehqonchilik kabi kundalik hayotga oid masalalarni tahlil qilgan. Uning asarlarida astrologik kuzatuvlar matematik metodlar bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu Temuriylar Uyg'onish davri ilm-fanining keng qamrovli xususiyatini aks ettiradi.

Ali Qushchiyning merosi Mirzo Ulug'bek akademiyasida ilmiy hamkorlik va intellektual muhitni shakllantirishdagi roli bilan tavsiflanadi. U nazariy izlanishlar va ularning amaliy qo'llanilishida o'z hissasini qo'shib, keyingi olimlar uchun mustahkam asos yaratdi. Uning faoliyati Temuriylar Uyg'onish davriga xos izlanish va yangilik ruhi namunasi bo'lib, bu davrda erishilgan yutuqlar keyingi avlodlar ilmiy tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

Mirzo Ulug'bek akademiyasi doirasida Qushchiyning hissasi Mirzo Ulug'bek va al-Koshiy kabi buyuk olimlarni o'z ichiga olgan keng ilmiy uyg'onish harakatining bir qismi edi. Akademiya o'zining yirik astronomik rasadxonasi bilan mashhur bo'lib, unda osmon o'lchovlari uchun tengsiz kvadrant mavjud edi. Natijada, yulduzlar katalogi tuzildi va bu katalog asrlar davomida eng aniq manba sifatida e'tirof etildi. Qushchiyning akademiyadagi boshqa olimlar bilan hamkorligi kuzatuv astronomiyasi va son nazariyasi sohalarida sezilarli yutuqlarga olib keldi, bu esa Sharq va G'arbda keyingi ilmiy izlanishlar uchun poydevor yaratdi.

Ilmiy yutuqlaridan tashqari, Qushchiy ilohiy iroda va inson irodasi o'rtasidagi munosabatni tahlil qiluvchi falsafiy munozaralarda ham faol ishtirok etgan. Uning yangicha g'oyalari Xudoning qudratini inson erki mavjudligi bilan uyg'unlashtirishga intilgan bo'lib, o'z davrining muhim ilohiy masalalariga javob izlagan. Bu falsafiy yondashuv uning ilmiy izlanishlarini boyitgan va uni o'rta asr islom intellektual an'anasining muhim vakillaridan biriga aylantirgan. Ali Qushchiyning ilm-fan va falsafaga Timuriylar uyg'onish davrida qo'shgan hissasi chuqur va ta'sirchan bo'lgan. Uning astronomiyani empirik fan darajasiga ko'tarishdagi sa'y-harakatlari hamda mavjudot va ilohiy iroda mohiyati haqidagi falsafiy izlanishlari islomiy va g'arb intellektual an'analarga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatgan. Uning ishlari qadimgi bilimlar bilan zamonaviy ilmiy tafakkur o'rtasidagi muhim ko'priksifatida e'tirof etiladi va bu sarmahsul tarixiy davrga xos bo'lgan madaniy va intellektual almashinuvning boy manzarasini aks ettiradi.

Ali Qushchiyning Timuriylar uyg'onish davriga, ayniqsa Mirzo Ulug'bek akademiyasidagi faoliyati orqali qo'shgan hissasi islom ilmi va ilmiy merosining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Uning ishlari bu davrga xos bo'lgan ilmiy izlanish ruhi va intellektual hamkorlikni namoyon etgan bo'lib, astronomiya, matematika va falsafa sohalarining yuksalishiga sezilarli hissa qo'shgan. Qushchiyning merosi, avvalo, uning astronomik tadqiqotlarga bo'lgan yangicha yondashuvi bilan ajralib turadi. Uning metodologik aniqligi va tahliliy mahorati osmon hodisalarini chuqurroq anglashga xizmat qilgan. Al-Beruniy va Ibn Sino kabi o'zidan oldingi allomalar bilimlarini yangi kuzatuv uslublari bilan uyg'unlashtirib, u kelajak avlod astronomlari va matematiklari uchun mustahkam poydevor yaratgan. Qushchiyning empirik kuzatuv va tanqidiy tafakkurga urg'u berishi davrning ilmiy ruhini ifodalagan va bu yondashuv keyinchalik nafaqat islom olamida, balki Yevropada ham ko'plab olimlarga ta'sir ko'rsatgan.

Mirzo Ulug'bek akademiyasining yetakchi vakili sifatida Qushchiy ilm olish va intellektual muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Akademiya olimlar va talabalar uchun bilim almashish va yangi g'oyalar yaratish markaziga aylangan. Qushchiyning ta'limotlari yangi avlod

mutafakkirlarini ilhomlantirib, zamonaviy muammolarni hal etishda va johillikka qarshi kurashishda ta'lim va ma'rifatning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning ilmiy izlanish va ta'lim sohasidagi fidoyiligi Timuriylar uyg'onish davrining umumiy ravnaqiga katta hissa qo'shgan.

Xulosa: Qushchiyning ishlari ilm-fan doirasidan ancha keng madaniy ta'sir ko'rsatgan. U IX-XV asrlarga oid moddiy va badiiy madaniyat - me'morchilik hamda amaliy san'atlarni o'rganish va asrab-avaylash borasidagi sa'y-harakatlari orqali mintaqaning intellektual merosini boyitgan. Tarixiy yodgorliklarni faol ilmiy muhokama jarayoniga qo'shish zarurligiga bo'lgan e'tiqodi uning o'tmish yutuqlarini hozirgi va kelajak taraqqiyoti bilan bog'lashga qaratilgan keng qarashini ifodalaydi.

O'z davrining ko'plab olimlari singari tarixda nisbatan soyada qolgan bo'lsa- da, Ali Qushchiyning merosi so'nggi yillarda jahon ilmiy doiralarida yangidan qadrlanmoqda. Uning ishlari Islom Ma'rifat davrining ajralmas qismi sifatida tan olinib, Yevropa Uyg'onish davrining ayrim jihatlariga ilhom manbai bo'lgan. Bugungi kunda uning ilmiy va madaniy faoliyatiga bo'lgan qiziqishning qayta jonlanishi Qushchiyning g'oyalari va metodlarining ilm-fan hamda madaniyat tarixidagi doimiy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Starr, S. Frederick. The Genius of Their Age: Ibn Sina, Biruni, and the Lost Enlightenment. Oxford: Sheridan Books, 2023, p. 252.
2. History of Development of Uzbek Science." Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Accessed October 26, 2025. <https://www.academy.uz/en/page/ozbekistonda-ilm-fan-taraqqiyoti>
3. Khafipour, Hani. The Empires of the Near East and India: Source Studies of the Safavid, Ottoman, and Mughal Literate Communities. 2019, p. 142.

NOMODDIY MADANIY MEROS AN'ANALARI

Jasurbek Axmedov,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros
ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabining tarixi va namoyondalari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Qo'qon, yog'och o'ymakorlik maktabi, naqsh, asar, uslub, yo'nalish, namuna, san'at.

Аннотация. В данной статье рассматривается история и представители Кокандской школы резьбы по дереву.

Ключевые слова: Коканд, школа резьбы по дереву, узор, произведение, стиль, направление, образец, искусство.

Annotation. This article discusses the history and representatives of the Kokand wood carving school.

Key words: Kokand, wood carving school, pattern, work, style, direction, pattern, art.

O'zbekiston hududida o'ymakorlik juda qadimdan rivojlangan. Ibtidoiy odamlar yog'och, suyak, hayvon shoxlaridan o'zlari uchun zarur qurollar yaratib, ularni "bezashgan", turli ramziy chiziq va belgilar ishlashgan, toshlarga rasmlar chizishgan (qoyatosh rasmlari). O'zbekiston janubidagi Oqtom va Quyimozordan topilgan hayvon shoxi hamda suyak bo'lagiga chizib ishlangan tasvirlar miloddan avvalgi V-VI asrlarga oiddir. Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom poydevorlari marmar, toshdan ishlanib o'ymakorlik bilan bezatilgan yodgorlik namunasidir.

O'rta Osiyoda o'ymakorlik 3 yo'nalishda mavjud bo'lgan: naqsh o'ymakorligi, mavzuli (adom va hayvon tasviri ishlangan) o'ymakorlik hamda naqsh va mavzuli o'ymakorlik uyg'unligidagi kompozitsiyalar.

O'zbekiston hududida asosan to'rtta yog'och o'ymakorligi maktablari mavjud bo'lib, ular o'z uslublari va yo'nalishlari bilan farqlanadi:

1. Xiva yog'och o'ymakorligi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarning zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqiligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabida esa o'ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, o'simliksimon girih va gulli girih naqshlarining ko'p ishlatilishi hamda o'yma yuzasining ranglanishi bilan ajralib turadi.

3. Toshkent o'ymakorligi maktabida o'ymasi ko'p qavatli, o'rtacha chuqurlikda o'yilib, islimiy, geometric, ramziy naqshlar koproq ishlatiladi.

4. Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi mahobatligi, yirikligi, o'ymalarning chuqurligi va ko'p qavatligi bilan farqlanadi [1].

Farg'ona vodiysida yog'och o'ymakorlik namuna qoldiqlari I-VII asrlarga oid (Qorabuloq, Andarxon, Buloqboshi, Qayrag'och, To'ratosh, Tag'ob, Tepaqo'rg'on makonlari) arxeologik yodgorliklarida uchraydi. 1950 yillarda arxeologik qazish ishlari asnosida Qo'qondan biroz janubda joylashgan Qorabuloq maskanidan o'ymakor yog'och ustunning chala kuygan bo'laklarining topilishi Farg'ona vodiysida bu san'atning qadimiyligidan dalolat beradi, zero, arxeologlar mazkur san'at asari qoldiqlarini eramizning III – IV asrlariga xos ekanligini e'tirof etganlar. Biroq, to'liq saqlangan yodgorliklar faqat XIX-XX asrlarga oiddir.

XVIII asrning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysida yog'och o'ymakorligi san'ati taraqqiy etib, O'zbekiston amaliy san'atida o'ziga hos o'ringa ega Qo'qon maktabi vujudga keldi. Bu davrda mumtoz san'at an'alarini boyitishga munosib hissa qo'shgan ustalarning butun bir avlodi yetishib chiqdi. Bu maktabni o'z davrida usta Akbarali Haydarali o'g'li, Usta Jamoliddin Shahobiddin o'g'li, Bahridin Jamoliddin o'g'li kabi ustalar boshqarib keldilar. Qo'qon ustalari quticha, kursi, rom va boshqalarda kalta bo'rtmali yassi o'yma, ya'ni pargori uslubni ishlatib, me'morchilikda eshik va ustunlarga yirik, chuqur naqshlar o'yib o'ziga hos maktab yaratdilar. Qo'qon yog'och o'ymakorligi naqshning yirikligi, chuqurligi, ko'pqavatligi bilan ajralib turadi. Qo'qon maktabida yaratilgan asarlar shaklan va mazmunan boshqa maktablar asarlaridan farq qiladi. Bu maktab naqshining boshqa maktab naqshlaridan asosiy farqi shuki, Qo'qonda yaratilgan naqshlarda pargori (geometrik) naqsh yetakchi o'rin tutadi [2].

XX asrda Toshkent-Farg'ona yog'och o'ymakorligi maktabi an'analari Qodirjon Haydarov, Sulaymon Xo'jaev, Maqsud Qosimov, Ne'mat Ibrohimov, Ortiq Fayzullaev, G'ulomjon Yo'ldoshev, Sirojiddin Raxmatullaev, Akmal Azlarov, Jamshid G'oipov kabi ustalar ijodida avloddan-avlodga meros bo'lib, rivojlanmoqda. Maktabning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, unda o'yilgan bo'rtma yuzasiga (relef yuzasiga) rang berilib, loklanadi [3].

XIX asr oxirlarida mazkur maktabga Haydarali Najmiddinov rahbarlik qildi. Uning ishini o'g'li – Qodirjon Haydarov davom ettirdi. Qo'qon maktabi faoliyatining eng taraqqiy etgan davri ham Qodirjon Haydarov faoliyati bilan bog'liqdir. Qodirjon Haydarov o'z san'ati va ustozlik faoliyati bilan Qo'qon yog'och o'ymakorligi san'ati zaminida Qodirjon Haydarov maktabini yaratdi. O'ymakorlik san'atini chuqur egallagan usta o'z ijodida uch usul – bag'dodi, islimiy va pargori naqshlarini keng qo'llagan.

Qodirjon otaning bobosi usta Najmiddin va otasi usta Haydar o'z zamonasining yirik san'atkorlari bo'lgan. Usta Haydar asarlari Rossiya va Fransiyada bo'lib o'tgan ko'rgazmalarda namoyish etilib, katta sovrinlarga sazovor bo'lgan. Usta Haydar boshqa san'at va xunarlar borasida ham barakali va xayratli ijodiy faoliyat ko'rsatganligi tufayli, uni "Xaydar Farang" deb atashgan. Qodirjon Haydarov o'ymakorlik sirlarini otasidan o'rgangan.

Usta Qodirjon Xaydarov birinchi tantanali zafarini 1923-yilda Moskvada bo'lib o'tgan birinchi Butunrossiya hunarmandchilik va sanoat ko'rgazmasida qo'lga kiritdi. Sharqiy mebellarning noyob to'plamlari yasashida o'z uslubini yaratgan usta katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Keyinchalik Moskva yog'ochsoz artelida duradgor bo'lib ishladi. Ikkinchi jahon urishidan so'ng vataniga qaytib, yana sevimli mashg'uloti bilan shug'ullandi.

1950-yillarida Usta Haydarov O'zbekiston rassomlar uyushmasiga qabul qilindi hamda bir qator davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi. Ular orasida O'zbekiston davlat san'at muzeyi tomonidan sotib olingan A.S.Pushkinning rel'efi ham bor. Uzoq yillar davomida samarali mehnat qilib, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi hamda Xalqlar do'stligi saroyi eshiklari noyob asarlarini yaratdi. Uning ijodida eshik,

panno, frizlar, ustun kabi me'morchilik qismlari, o'ymakor stol, kursilar, lavhlar, qalamdonlar kabi turli maishiy buyumlar o'rin olgan.

Bugun ustaning asarlarini jahonning ko'plab muzeylari va jamg'armalarida, muhtasham va go'zal imoratlarida uchratish mumkin. Qo'qon o'lkashunoslik muzeyining amaliy san'at bo'limida namoyish etilayotgan yog'och o'ymakorlik namunalari asosiy qismi Qodirjon ota ijodiga mansubdir. Ular jumlasiga o'ymakor qo'shtabaqali eshik, xontaxta va kursilar, panjara, shiyponcha uslubidagi taxt va boshqa asarlar kiradi. Shuningdek, XIX asr Farg'ona me'morchilik va bezak maktabining yorqin namunasi Xudoyorxon o'rdasi darvozasining chap tabaqasining pastki qismi 1954-yilda Qodirjon Xaydarov tomonidan ta'mirlangan. 1994-yilda esa, uning nabirasi va shogirdi Mirzausmon Umarov tomonidan to'liq ta'mirlangan. 1989-yil Qodirjon Haydarov yashagan hovli Qo'qon o'lkashunoslik muzeyining filiali sifatida Qodirjon Haydarov uy-muzeyiga aylantirildi. Mazkur muzey ekspozitsiyasida 1000 dan ortiq eksponatlar namoyish etilgan. Muzeyga har yili o'rtacha 5000 dan ziyod tomoshabin tashrif buyuradi, 500 dan ortiq umumiy va mavzuviy ekskursiyalar o'tiladi. Muzeyda tashkil etilgan "Yosh yog'och o'ymakor" to'garagi hamisha o'quvchi yoshlar bilan gavjum. "Yosh yog'och o'ymakor" to'garagining asosiy vazifasi o'quvchilarda turli buyumlarni yasash, yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asboblari va dastgohlar bilan ishlash ko'nikmalari va malakalarni hosil qilishdan iborat. Shuningdek, mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga xalq amaliy san'ati tarixi, namoyondalari, maktablari va ularning ish usullari, unda ishlatiladigan xom ashyolar kabi bilimlarni berish bilan birgalikda, to'garak a'zolarida izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish, ularni mehnat qilishga va o'z mehnati samarasidan faxrlanishga, zavqlanishga odatlantirish, bajargan ishlarining natijasini xolis baholashga o'rgatish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga, mehnat jarayonini mustaqil tashkil eta olishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Usta Abdug'ani Abdullaev Qo'qon yog'och o'ymakorlik maktabining yorqin namoyondalaridan biridir. Uning ajoyib san'at asarlari nafaqat respublikada, xorijda ham tanilgan. U mohirlik bilan turli xil o'ymakorlik usullarini, jumladan, uch o'lchamli me'moriy kompozitsiyalarni yaratishning murakkab jarayonini, binolarning ichki dekorlari uchun ishlatiladigan mukarnaskorini, shuningdek, ko'p qirrali relyef yordamida chuqur o'ymakorlik yo'nalishini rivojlantirdi. Xunarmand mahorati va iste'dodini Toshkentdagi Xotira va qadrlash maydonida, Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyida, Marg'ilondagi Burhoniddin Marg'inoniy majmuasida, Samarqanddagi Imom Al-Buxoriy me'moriy majmualarida namoyon etib, qurilish va bezash ishlarida sarkorlik qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan qaratilgan e'tibor tufayli milliy hunarmandchilik rivojlanishida yangi davr boshlandi. Bu jarayon ayniqsa, hunarmandchilik va turizmni rivojlantirish borasida olib borgan siyosatida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrda "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu borada muhim dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrda "I-Xalqaro hunarmandchilik festivaliga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida"gi qarori milliy xunarmandchilikka bo'lgan e'tiborning yana bir namunasidir. Aytish mumkinki, Xalqaro hunarmandchilik festivalini tashkil etish uchun aynan Qo'qon shahrining tanlanganligi bu zaminning chin ma'noda xunarmandlar shahri ekanligidan dalolatdir. Festival doirasida o'tkazilgan "Hunarmandchilik va xalq amaliy san'atini rivojlantirish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada xunarmandchilikning barcha yo'nalishlari bo'yicha muammo va istiqboldagi rejalar muxokama qilindi.

Mazkur xalqaro festivalda ishtirok etish uchun 72 mamlakatdan 111 nufuzli tashkilotlar ro'yxatga olindi. Jumladan, 5 qit'adan 200 dan ortiq hunarmandlar 24 yo'nalish bo'yicha ishtirok etdi. Qo'qon shahriga "Jahon hunarmandlari shahri" unvoni berilganligi esa Qo'qonlik xunarmandlarda faxr tuyg'usini uyg'otdi. Qo'qonlik hunarmandlar yaratgan o'ymakorlik durdonalari bugun xorijda ham mashhur. Ayni kunlarda mazkur san'at turini yanada rivojlantirish, bu maktabga xos qadimiy naqsh usullarini qayta tiklash yo'lida ijodiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa o'zbek amaliy san'atining dunyoda yanada shuhrat qozonishida ayni muddao bo'layotir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi. Toshkent, 2017. 198-b.
2. Резба и роспис по ганчу и дереву. Ташкент, 1962. С. 51-55.
3. Aliyeva.S. Yog'ochdagi jozibador naqshlar // San'at. 2015. №4. 4-6 bet.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA OMMAVIY AXBOROT
VOSITALARINING O'RNIBaxtigul Mamadaminova,
"TIQXMMI" MTU dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish jarayonida ommaviy axborot vositalarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish masalalari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: axborot, yoshlar, ma'naviyat, axborotlashgan jamiyat, globallashuv, ommaviy axborot.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение средств массовой информации в процессе повышения духовности молодёжи. Также с научной точки зрения обосновываются вопросы эффективного использования средств массовой информации в развитии духовной культуры молодёжи.

Ключевые слова: информация, молодежь, духовность, информационное общество, глобализация, массовая информация.

Annotation. This article analyzes the role and significance of mass media in the process of enhancing the spiritual development of young people. It also scientifically substantiates the issues of effective use of mass media in fostering the spiritual culture of youth.

Keywords: information, youth, spirituality, information society, globalization, mass information.

Bugungi zamonaviy globallashuv jarayonlarida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi davlat va jamiyatlar hayotining barcha sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlarga sabab bo'layotganligi, Shuningdek, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda va ularning dunyoqarashlarini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni, yosh avlod ongi va tafakkurida milliy istiqlool mafkurasini singdirish hamda ularni komil inson bo'lib voyaga yetishlarida ommaviy axborot vositalari muhim. Bugungi kunda biron-bir xalq yoki mamlakat taraqqiyotini axborot almashinuvisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Axborotlarning tez sur'atlarda yoyilishida telekommunikatsiya vositalarining kundan-kunga rivojlanib borishi asosiy rol o'ynaydi. Globallashuv jarayonlarida axborotlashgan jamiyatning shakllanishi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida keng ko'lamli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Hozirda axborot nafaqat insonlar va jamiyat hayotining eng muhim manbaiga aylanmoqda, balki rivojlangan davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotida axborot texnologiyalari industriyasida eng yirik sohani tashkil qiladi.

"Axborotlashgan jamiyat" iborasini yapon olimi Yu. Xayashi va bir necha yapon tashkilotlari ilk bor qo'llashgan. Albatta, axborotlashgan jamiyat xususiyatlari, uning inson va jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'siri xususida ham keng ko'lamli qarashlar mavjud bo'lib, mutaxassislar tomonidan yangi nazariyalar ishlab chiqildi. Axborotlashgan jamiyatda insonlar nafaqat o'zaro muloqotga kirishish, balki dunyoning qaysiki joyida sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan, o'zgarish hamda yangiliklardan, insonlar turmush tarzi, ularning yashash sharoitlaridan tez xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Albatta, "bugungi kunda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya'ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda... Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir" [1].

Globallashuv jarayonida axborot almashinuvi mislsiz darajada keng avj olib bormoqdaki, bu jarayondan hech bir xalq yoki millat chetda qolmayapti. Har qanday jarayonning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, jamiyatni axborotlashtirishning ham ijobiy hamda salbiy jihatlari mavjud. Ma'lumki, axborot xurujining asosiy nishoni, ob'ekti yoshlar hisoblanadi. Ular birinchi navbatda yoshlarni o'z domiga tortishga qaratilgan. Bunday xatarlar, boshqa soha vakillari qatori, ommaviy axborot vositalari oldiga ham yangi-yangi talablarni qo'yib, jurnalistlar mas'uliyatini kuchaytirishni taqozo etadi. Binobarin, yoshlar muammolari bilan nafaqat, Ommaviy axborot vositalari, balki butun bir tizim shug'ullanmoqda, lekin shunga qaramasdan, yoshlarning yovuz niyatlilar tuzog'iga tushib qolayotganligi, "ommaviy madaniyat" sari talpinayotganligi kishida haqli ravishda xavotir uyg'otmoqda. Vayronkor

ruhdagi kuchlar turli vositalar bilan yoshlarning qiziquvchanligi, beqarorligidan foydalanib qolishga urinmoqda. Shu o'rinda, yoshlarda "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'naviyat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda". Muayyan natijaga erishish uchun ularda, avvalo, o'z-o'ziga ishonch hissini uyg'otish kerak. O'ziga ishongan kishida yaxshilikka intilish va yomonlikni rad etish, unga qarshi kurashish tuyg'usi paydo bo'ladi. Bu tuyg'u ularda sog'lom tafakkurni shakllantiradi. Odamlarga, davlatga, jamiyatga va kelajakka bo'lgan ulkan mehrni uyg'otadi. Provard natijada, yoshlarda mafkuraviy g'animlar bilan g'oyaviy kurashga kirishish ishtiyoqi shakllanadi.

Axborot har doim ham ezgulikka, bunyodkor g'oyalarga xizmat qilayotgani yo'q. Ba'zan ana shu vosita muayyan vayronkor siyosiy kuchlar, jinoyatchilar, terrorchilar qo'lidagi qurolga aylanib, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbini nishonga olmoqdaki, undan butunlay himoyalanih imkoniyatlari tobora kamayib bormokda. Shuning uchun ham ko'plab mamlakatlar o'z manfaatlariga zid tarzda shu kabi axborotlarga nisbatan aholida immunitet hosil qilish maqsadida Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini to'g'ri o'zanga solish yo'lini tanlamoqdalar. Globallashuv jarayonlarining avj olishiga o'z navbatida ommaviy axborot vositalari ham ta'sir ko'rsatadi. OAV butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan aloqa vositalaridan biri va yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan aholining keng ko'lamda foydalanadigan vositasiga aylanib ulgurdi. Shunday ekan jamiyat a'zolarining ahloqiy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishda OAVlarining o'rni bugungi kunda benihoyat darajada muhimdir. Ommaviy axborot vositalarining shaxs ma'naviy dunyosini boyitishidagi rolini ko'rib chiqar ekanmiz, shuni esda tutish kerakki, OAV tomonidan tarqatilayotgan ma'lumot ommaga yo'naltirilgan bo'lsa ham, u alohida shaxs tomonidan qabul qilinadi yoki rad etiladi. OAV tomonidan tarqatilayotgan ma'lumotlar yordamida o'ziga xos sun'iy ramziy dunyo ochiladi, u orqali esa, o'ziga xos namunalar shakllanadi: harakatlar, ahloq normalari, badiiy did va tabiiyki ularning barchasi shaxsga nima to'g'ri-yu, nima yomon, harakatlarning qay biri ulug'vor va qay biri tubanlik ekanligini ko'rsatib turadi, boshqacha qilib aytganda insonga yashashni o'rgatadi, hayotda o'z yo'nalishini aniqlashga yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari va zamonaviy elektron texnologiyalar yordamida, bizning "ma'rifatli" asrimizda ulkanligi va shiddatliliigi bilan tengsiz bo'lgan yovuz energiyalarning otilishi sodir bo'lmoqda" [2]. Radio, televideniye orqali ham insonga kuchli ta'sir ko'rsatish mumkin. Xo'sh, televideniye kuchi . nimada? - degan savolga shunday javob berish mumkin, albatta gipnozda. Nafaqat bolalar, o'smirlar, balki katta insonlar ham bunga bardosh bera olmaydilar va gipnoz ta'siri ostida qolib ketishlari mumkin. Televideniye insonlarni trans holatiga kiritishning ming xil vositalarini ishga soladi.

Rossiyalik vrach V. Chernbishevskiyning ta'kidlashicha: "Gipnozning tibbiyot amaliyotida ko'p hollarda, yorqin chaqnash, baland ovoz effektlarini qo'llash, ular oqibatida nerv sistemasining tez qo'zg'alishi, qotish holatiga aylanadi. Ushbu metodni turli reklama roliklarida va telefil'mlarida kuzatish mumkin. Eng keng tarqalgan usul - bu fil'mlarning eng qiziq joyida to'xtatib qo'yish. Bu esa teletomoshabinlarda keyingi qismni sabrsizlik bilan kutishga olib kelishi aniq. Video va kompbyuterlarning maxsus effektlari insonlarni o'ziga jalb etadi va psixik holatlariga ta'sir o'tkazib, ularni tubdan o'zgartirib yuboradi" [3]. Shuningdek, axborot texnologiyalar orqali jamiyatimizga o'rtnashib olayotgan "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan yoshlarni himoya qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ularning yechimini topishda ijod ahli, xususan, ommaviy axborot vositalari xodimlari oldida turgan vazifalar ko'lami keng. Negaki, milliy ruhimiz va tabiatimizga yot bo'lgan ana shunday "madaniyat" namunalarini faqat tanqid va inkor etish yoki ta'qiqlash bilan biron natijaga erishib bo'lmaydi. Bunday xatarlardan yoshlar ongini himoyalash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, ezgu insoniy g'oyalar va yuksak mahorat bilan yaratilgan ijodiy mahsulotlar xalqimizga taqdim etilishi lozim. Shu ma'noda, Ommaviy axborot vositalari faoliyati muhim o'rin tutadi. O'z navbatida Ommaviy axborot vositalarining axborotni o'quvchiga qiziqarli ko'rinishda taqdim etish usullarini ham isloh qilish zarur. Negaki, yoshlar psixologiyasida ko'proq tasvirga o'chlik kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan axborotlarda nozik did bilan ishlangan dizayn, mavzuga mos, kishi e'tiborini o'ziga jalb etadigan surat va lavhalardan foydalanish talab etiladi. Shunday ekan, ommaviy axborot vositalari o'z zimmalaridagi bu mas'uliyatli vazifani astoydil ado etishdan charchamasliklari kerak.

Yoshlar bizning istiqbolimiz, umid yulduzimiz. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangilanishlar, islohotlar, bunyodkorliklardan ko'zda tutilgan maqsadlar zamirida ham, avvalo, ularning manfaatlarini mujassam. Yurtimizning turli hududlarida barpo etilayotgan muhtasham ta'lim muassasalari, musiqa maktablari, sport inshootlari va boshqa yaratilayotgan imkoniyatlarning barchasi farzandlarimizning jismonan sog'lom, ma'naviy yuksak bo'lib kamol topishiga qaratilgan. Bunga javoban yoshlarimiz erishayotgan yutuqlar ham oz emas. Biroq shu bilan birga, axborotlashtirish tizimidagi ulkan

yangilik va o'ziga xos "portlash effekti" yoshlarni o'z atrofiga o'rab ulgurmoqda. Eng zamonaviy OAV turi - internet-jurnalistika tobora rivojlanmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatimiz hududi uchun mo'ljallangan "uz" domeni tizimida 15 mingdan ortiq faol saytlar ro'yxatdan o'tgan. Xuddi shuningdek, global tarmoqda bevosita yoshlarning bilim doirasi, dunyoqarashining kengayishi, o'zaro muloqot olib borishiga qaratilgan Ziyonet.uz, Kamolot.uz, Muloqot.uz kabi qator saytlar faoliyat olib bormoqda. Shunday ekan, sohaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash internet tizimida ish olib borishning muhim omilidir. Bugun ommaviy axborot vositalari inson ma'naviy dunyosiga o'z ta'sirini o'tkazib, shu dunyoni ma'naviy ozuqa, ahloqiy harakatlar va estetik did bilan ta'minlab turadi. Har bir individning ma'naviy qarashlari mavjud, shuni e'tiborga olgan holda, OAV ta'sir ko'rsatkichlarini ma'naviy va ahloqiy namunalar, qadriyatlar bilan o'stirib borish lozim. Ta'sir etish jihatidan juda ham kuchli bo'lgan OAV g'oyaviy jihatdan ham anchagina boy va mustahkam bo'lsagina, foydalanuvchi undan o'ziga ijobiy hislatlarni oladi.

Shaxs ma'naviyatini yuksaltirishda va ularning dunyoqarashlarini oshirishda ommaviy axborot vositalarining o'zni benihoya darajada katta. jamoatchilik fikrini shakllantirishda, ayniqsa, yosh avlod ongi va tafakkurida milliy istiqloq mafkurasini singdirish hamda ularni komil inson bo'lib voyaga yetishlarida ommaviy axborot vositalari nihoyatda muhim o'rin tutadi. Biz bugun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni ta'qiqlab qo'ya olmaymiz, faqat undan foydalanish madaniyatini yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirishimiz kerak bo'ladi. Har bir foydalanuvchida olayotgan ma'lumotning qanchalik foydali yoki zararli ekanligini anglashni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, televideniye, radio, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va axloqiy-ijtimoiy ongini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. OAV orqali tarqatilayotgan ma'naviy-ma'rifiy dasturlar, ijtimoiy loyihalar va interaktiv platformalar yoshlarni mas'uliyat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hamjihatlik va ijtimoiy faollikka undaydi. Shuningdek, OAV jamiyatning ijobiy tajribalarini keng auditoriyaga yetkazish, ijtimoiy qadriyatlarni targ'ib qilish va yoshlarning zamonaviy jamiyatga integratsiyasini ta'minlashda muhim vosita ekanligi ta'kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Миллий истиклол госяи: асосий тушунча ва тамойиллар. - Т., Ўзбекистон, 2000.
2. Люблинская А.А. Очерки психического развития ребёнка. - М.: Просвещение, 1965.
3. Чернышевский А.В. О небесном и земном. Актуальные вопросы современной медицины, психологии и философии в свете прасловия. -М.: "Паломник", 2001.

BERUNIYNING NATURFALSAFASINI ZAMONAVIY METODOLOGIYA ASOSIDA O'RGANISHNING ILMIY ASOSLANISHI

Ro'zigul Umarova,
Toshkent davlat transport universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası professori v.b.,
Falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Beruniy dunyoqarashi, naturfalsafasining tabiat haqidagi ta'limotidan kelib chiquvchi konseptual qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: naturfalsafa, yunon naturfalsafachi epistemeologiya, birlamchi substansiyalar, asr-musulmon jamiyati tabiatshunoslik.

Аннотация. В данной статье анализируется мировоззрение Беруни, концептуальные взгляды натурфилософии, вытекающие из его учения о природе.

Ключевые слова: натурфилософия, греческая натурфилософия, эпистемология, первичные субстанции, естествознание века-мусульманского общества.

Annotation. This article analyzes Beruni's worldview and his conceptual views derived from the doctrine of nature within his natural philosophy.

Keywords: natural philosophy, Greek natural philosophers' epistemology, primary substances, medieval Muslim society, natural science.

Beruniyning falsafiy mushohadasi, uning tabiat va uning qonunlarini aniqlashi, ijtimoiy-siyosiy, badiiy-axloqiy va boshqa qarashlari ilmiy izlanish – tadqiqotlarida qoʻllagan ilmiy-falsafiy bilish usul va uslublari – kuzatish, tajriba, eksperiment, astronomik, geodezik miqdoriy – amaliy oʻlchash, hisob-kitoblar, taqvimlar, sulolalar borasidagi izlanishlarining butun-bir ulkan majmuiga tayangani, asoslanganligi uchun oʻz davrining akademik dunyoqarashlari sarasiga kiradi. Shu jihatdan Beruniyning dunyoqarashi, falsafiy qarashlari ilmiy ijodi, tadqiqot usullari va uslublari tadqiq qilish oʻta murakkab muammodir.

Beruniyning falsafadagi oʻrni, mavqei, bu sohaga uning tasodifan, adashib kirib qolmaganligini, balki falsafada tutgan pozitsiyasini aniq, ongli va maqsadga muvofiq holda tanlab olinganligini, uning falsafadagi Demokrit naturfalsafasi oqimi anʼanalarini musulmon xalqlari ilm-fani, falsafasida vorisiy davom ettirgan tabiiyunlar oqimi maktabi vakili boʻlganligini koʻrish mumkin.

Beruniy qadimgi yunon falsafasi namoyandalari Suqrot, Aflotun, Arastu, Geraklit, Anaksagor, Levkip, Demokrit, Parmenid, qadimgi hind falsafasi salaflari asarlarini, qarashlarini, ular mansub bu oqimning musulmon xalqlari falsafasidagi davomchilari boʻlmish Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sino asarlari, taʼlimotlarini juda yaxshi, asosli bilgani, ulardan har qadamda foydalangani holda, asosan, qadimgi yunon, hind naturfalsafachilariga, bu oqimning oʻrta asr musulmon xalqlari ilm-fani, falsafasidagi izdoshlari Jobir ibn Hayyon, Muhammad Eronshahriy, Zakariyo ar-Roziylarga ergashganligini, shu yoʻnalishdagi olimlar, mutafakkirlarga yaqin turishga intilganini koʻramiz.

Beruniyning, “Minerologiya” asari va Imom Gʻazzoliyning “Al-Munqiz-min-az-zalol” (Xatolardan qutqaruvchi) asarida bildirilgan fikrlarni mantiqiy qiyoslash asnosida beruniyshunos A.J. Sharipov buyuk allomaning falsafada tabiiyun oqimiga mansub ekanligini aniqlashga juda yaqin kelgan edi. Buyuk allomaning naturfalsafachi tabiatshunos, faylasuf ekanligini, xususan oʻrta asr musulmon falsafasining yetakchi kuchi boʻlgan tabiiyun oqimining yirik vakili, asoschilaridan biri boʻlganligini uning ilmiy-falsafiy dunyoqarashining konseptual tahlili ham, davriga oid moʻtabar manbalari, maʼlumotlari hamda hozirgi zamon fan tarixchilari tadqiqotlari, xulosalari ham tasdiqlaydi.

Ushbu oʻrinda Beruniy dunyoqarashi, naturfalsafasining tabiat haqidagi taʼlimotidan kelib chiquvchi konseptual qarashlari tahliliga oʻtamiz.

Noorganik olam bilan tirik dunyo, xususan inson ruhi, ongi muammolarini tadqiq etar ekan, Beruniy oʻzining “Mineralogiya” asarida insondagi jismoniy va ruhiy holatlarning bevosita, tadrijiy bogʻliqligi muammosini qarab chiqib, quyidagilarni yozgan edi: “(Inson) joni (ruhi) oʻzining asosiy holatlarida tana majoziga tobedir, shuning uchun ham uning (mazkur ruhiy holatlari) oʻz mijoziga koʻra rangbarang va turlicha boʻladi”. Bu degani, Beruniy oʻz davridagi rasmiy sunniy islom hamda tasavvufiy yoki ishroqiylardan farqli oʻlaroq, inson joni (ruhi)ni irratsional dunyo bilan, xudo irodasini yoki sururi, fayzi ilohiysi, hatto “Nuri Muhammadiya” bilan qatʼiy tarzda bogʻlamasdan, uni bevosita tabiatning oʻzidan keltirib chiqarib tushuntirishga uringan.

Holbuki, jon(ruh)ning tabiat bilan bogʻliqligi toʻgʻrisidagi bu muammo din, kalom bilan ilm-fan, falsafa oʻrtasida keskin kurash sharoitida muhokama qilinayotgan, bu borada Beruniyga oʻxshagan yirik tabiatshunos faylasuf (tabiiyun)larning fundamental ilmiy qarashlari, eksperimentlar, tajribalarga asoslangan xulosalari dahriylik sifatida qoralanayotgan edi.

Imom Abu Hamid Muhammad al-Gʻazzoliy oʻzining “Munqiz min az-zalol” (Xatolardan qutqarguvchi) nomli mashhur tavba-tazarru asarida naturfalsafachi, tabiiyunlarning insonning jismoniy tanasi (badani, yaʼni tabiiy borligʻi) bilan uning maʼnaviy borligʻi-joni (ruhi) oʻrtasida ajralmas tabiiy birlik, bogʻliqlik borligini eʼtirof etishlarini qayd qilib, quyidagilarni taʼnaomuz koʻrinishda yozgan edi. “...oʻz naturafalsafasida zoʻr berib ishlagan, tadqiqotlar olib borgan tabiatshunoslar fikriga koʻra, mijozning tana bilan mutanosibligi hayvonot imkoniy quvvatlari tarkibiga favqulodda katta taʼsir koʻrsatadi. Insonning tafakkur quvvati ham uning mijoziga bogʻliq va u temperament mahv boʻlishi, yoʻq boʻlgani hamon yoʻq boʻlib ketadi, halok boʻladi”. Bu fikrida Imom Gʻazzoliy naturfalsafachi, tabiiyunlar, shular qatorida Beruniyning ham, inson tanasi (badani) bilan uning joni (ruhi) oʻrtasidagi ajralmas bogʻliqlik mavjudligi toʻgʻrisidagi qarashlarini aniq va qatʼiy qilib taʼriflagan. Tabiiyun taʼlimotidagi inson tanasi va ruhi (joni) oʻrtasidagi tadrijiy va ajralmas birlik, bogʻliqlik haqidagi xulosa rasmiy diniy taʼlimot, eʼtiqod egalari uchun katta xavf tugʻdiradigan mazmun kasb etib, bu Beruniyning

tabiyyun naturfalsafachi oqimining asoschilari, yetakchilaridan biri bo'lganligi, shu oqimga ongli tarzda ergashganligi, uni himoya qilganligi va rivojlantirganligini G'azzoliy o'z so'zlari bilan isbotlab bergan.

Zero, o'rta asr musulmon falsafasining yetakchi oqimi bo'lgan tabiyyun ta'limotining tabiat bilan jon (ruh) o'rtasidagi munosabat, o'zaro tub aloqadorlik, bog'liqlikning uch jihati akademik M.M. Xayrullaev tomonidan quyidagi bandlarda ko'rsatib o'tilgan: "1) ruh(jon)ning materiyadan, tanadan tashqari yashashi mumkin emasligi va har qanday borliq moddiy asosga ega ekanligi to'g'risidagi ta'limot; 2) xudo va dunyoning birligi, xudoning mustaqil, dunyodan tashqari yashay olmasligi; 3) inson shaxsining mustaqil mavjudligi, hamda inson ruhining borliqdan tashqarida yashay olmasligi. Inson o'lgandan keyin u borliqqa qo'shilib ketadi, uning ruhining (ma'naviy) abadiyligi borliqning abadiyligini, yo'q bo'lib ketmasligini bildiradi".

Tana va jon birligi to'g'risidagi xulosaga Abu Nasr al-Forobiy ham kelgan edi: "Jon(ruh)ning turli holatlarda bo'lishi-ba'zilarida ko'proq, boshqa ba'zi birovlarida esa kamroq darajada-tana (badan) mijozi (temperamenti)ga bog'liq va jon(ruh)ning har qanday holatini shu jon (ruh) mavjud bo'lgan tana (badan) mijozi (temperamenti) belgilaydi; bundan esa muqarrar tarzda jon(ruh)ning holati u mavjud bo'ladigan tana(badan)dagi o'zgarishlarga mos ravishda o'zgarib borishi lozimligi kelib chiqadi. Narsa (tana, badan)lar o'zgarishlari cheksiz bo'lganligi uchun (tanada mavjud) jon(ruh)ning o'zgaruvchanligi ham cheksizdir".

O'zining bu xulosasini Forobiy "Masalalar mohiyati" asarida quyidagicha ta'riflagan: "Jon (ruh), Aflotun aytganidek, tanadan oldin mavjud bo'lolmaydi; xuddi shuningdek, u (jon, ruh) tanosuh haqidagi ta'limot tarafdorlari uqtirganlaridek, bir tanadan boshqasiga ko'chib o'ta olmaydi".

Bunday xulosaga o'zining "Kitob-ush-shifo", "Kitob-un-najot", "Donishnomai A'lo" va boshqa asarlarida juda katta tabiatshunoslik ilmlari materiallari, kuzatish, eksperiment, tajribalar natijalarini falsafiy umumlashtirish asosida Shayx-ur-Rais Ibn Sino ham kelgan edi: "Demak, quyidagi aniqlandi: jon (ruh)lar ulardan jon (ruh) foydalana olishi mumkin bo'lgan tana vujudga kelganidan so'nggina paydo bo'ladi". "...Zamonda jon (ruh) tana(badan)dan ajralmasdir".

Bu xulosalarning mantiqiy asosi, natijalari shu qadar falsafiy umumlashtirilgan, fundamental xarakterga egaki, ular hatto hozirgi zamon olimi, faylasuflari uchun ham inson tanasi va uning jon(ruh)i o'rtasidagi aloqa to'g'risidagi fikr-mulohaza yuritish borasida tayanch nuqtalardan biri bo'la oladi.

Biroq, bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, inson tanasi va uning ruhi (joni) o'rtasidagi teran, ajralmas va tadrijiy aloqadorlik, bog'liqlik haqidagi mazkur, deyarli bir xil mazmundagi mulohazalarda ta'riflarda ifodalangan xulosalar mumtoz o'rta asr musulmon falsafasining borliq, bilish va boshqa ko'plab falsafiy muammolarni aniqlash, talqin etishda ko'pincha o'zaro kelisha olmaydigan, hatto prinsipial o'zaro qarama-qarshi pozitsiyada turishgan ikki yetakchi oqim - tabiyyun (Roziy, Beruniy va boshqalar) va mashshoiyyun (Forobiy, Ibn Miskavayh, Ibn Sino va boshqalar) vakillarining bir yoqadan bosh chiqarib, faol, qat'iy tarzda bir xil fikr qilganliklari diqqatga sazovordir.

Beruniyning tabiyyun oqimiga ergashganligini o'rta asr muallifi Abu-l-Hasan Bayhaqiyning "Tatimma sivan-al hikma" asaridagi Beruniyga bergan quyidagi taxallus ta'riflari ham bevosita tasdiqlashi mumkin. "Al-Xakim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al – Beruniy – eng buyuk matematiklardan... ko'plab kitoblar yozgan, ..."Al-Qonun al-Masudiy" uning bu janrdagi eng sara asarlari namunasidir". "U bilan Abu Ali (ibn Sino) o'rtasida bahs-munozara bo'lib o'tgan, biroq u mantiq dengizidan kechib o'tmagan, bunga salohiyati bo'lganlarga bu borada muvafaqqiyatga yor bo'ladi". Bayhaqiy Beruniyni "Al-Xakim" deb ataganda olam va oxirat, ilohiy dunyo hikmatini bilgan donolik sohibi sifatida ta'riflagan: "Al-Xakim" faxrli nomi bilan musulmon mualliflari asosan qadimgi yunonistonning naturfalsafachi, tabiatshunoslari-Germes Trisegemes, Pifagor, Geraklit va Misrdagi "Al-Iskandariya" maktabiga mansub alximiklar, tabiblar, gnostitsizm vakillari, islom davrida esa, Zunnun Misriy, Hasan Basriy, Jobir, Eronshahriy, Roziy kabi tabiatshunoslarni ataganlar.

Alloma ilmiy merosini jiddiy tadqiq etgan E.Zaxau Beruniy dunyoqarashi va merosida din, islom, shariatning o'rni, ahamiyatini mo'tadil, ilmiy xolis, og'ir-vazminlik bilan, umuman olganda, to'g'ri va adolatli baholagan. U Beruniyning asosan qadimgi yunon naturfalsafachi, tabiatshunoslari, Imom G'azzoliy iborasi bilan aytilganda, dahriylari va buyuk tabiatshunoslari Demokrit, Ptolomey, Gippokrat, Galenlar ortidan borganligi, hamda ratsionalistlar Aflotun, Arastu va ularning izdoshlariga xayrixohlik pozitsiyasida turganligini alohida ta'kidlagan.

Musulmon Sharqidagi falsafiy ta'limotlar, xususan, Kalom atomizmi bilimdoni A.O. Makovelskiy "...musulmon Sharqida Demokrit (ta'limoti)ni dinning ustuni(arkoni)ga aylantirdilar va uning atomistikasi bayrog'i ostida dunyoviy ilm-fan va hurfiylikka qarshi kurash olib bordilar", deb yozgan edi. Zero, mutakallimlar ham atomlarni ruhiy mohiyatga ega substansiya deb talqin etib, ularni biron-bir moddiy

(korparal) ko'lamga ega emas, deb qaraganlar. Bu esa, tabiatshunoslik, Demokrit atomizmiga behad chuqur ixlos, e'tiqod qo'ygan Beruniy uchun tabiatshunoslik, falsafadagi aniq miqdoriy o'lchash, tajriba, eksperimentlar orqali bilinadigan har qanday ratsional, ob'ektiv ilmiy haqiqatni inkor etish bilan barobar edi.

Mutakallimlar eng oxirgi bo'linmas zarra(atom)ni va makonning mohiyatini "mutlaq yo'qlik" ma'nosida, ya'ni diniy-idealistik ruhda talqin etganlar. Xususan, bunday ta'limot va talqin Imom Moturidiyning "Kitob-ut-tauhid" kitobining "Borliqning paydo qilinganligining dalili", "Borliqning yaratuvchisi birdir", "Zaruriy borliqlar yaratilishining hikmati" boblarida, Imom Al-Ash'ariyning "Maqolot-ul-islomiyin va ihtilofot-ul-musalliyin" kitobining "Narsa xaqida 14 zumralarining aqidalar bobida, Imom Boqilloniyning "Kitab-at-tamhid" asarining ilm va deduksiyaga oid kirish qismida, Qozi Abduljabborning "Mug'niy" asarining epistemeologiyaga bag'ishlangan XII va XVII boblarida muntazam tarzda nazariy-metodologik usulda mo'tazila, kalomning turli maktablarining borliq haqidagi ta'limotlari tavsifida keltirib o'tilgan.

Yuqoridagi manbaviy materiallar va ularning tahlilidan ko'rinib turibdiki, musulmon xalqlari falsafasida borliq muammosi asosan kreatsioon-deistik konsepsiyalar, qisman esa-sof deistik tabiiy-ilmiy, naturfalsafachilik asosida substansional konsepsiyada juda boy, xilma-xil yo'nalish, talqinlarda rivojlantirilgan. Bu konsepsiyalarni maxsus tadqiq etish hozirgi falsafa tarixi sohasining eng dolzarb muammosidir.

Biz esa, Beruniyning naturfalsafasida tabiiyun oqimi vakili bo'lib, uning naturfalsafa haqidagi ta'limotida sof, izchil deistik talqinini berganligini, bu uning falsafiy dunyoqarashi va ilmiy-falsafiy merosining o'ziga xosligini tashkil qilishini ta'kidlash bilan cheklandik.

Pirovard natijada quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Beruniyning naturfalsafasida, birlamchi substansiyalar haqidagi qarashlari o'rta asr-musulmon jamiyati tabiatshunoslik va falsafasida mavjud bo'lgan juda boy, xilma-xil ta'limotlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu ta'limotlar quyidagilardir:

a) rasmiy sunniy islom, ilohiyotchiligidan Qur'onda, tafsir, hadislarida asoslari berilgan borliq, uning mohiyati haqidagi ta'limoti;

b) mu'tazila, kalom, uning asoschilari Moturidiy, Ash'ariy, Boqilloniyni va boshqalar asos solgan borliqning "yo'qdan bor qilinib", har on, har daqiqada Alloh ilmi, hikmati, irodasi, qudrati bilan "qaytadan tuzilib, yana qaytadan buzilib turiladigan", uning taqdiri yaratuvchi irodasi oqibati, deb tushuntiruvchi kreatsioon substansional konsepsiyasi;

v) shiya-ismoiliylar, ta'limiylar ilgari surgan "Fayzi ilohiy", "Suduri ilohiy" ta'limotiga asoslangan borliq haqidagi "Olami Sag'ir", "Olami Kabir" kreatsioon konsepsiyalari;

g) tasavvufning borliq haqidagi "Vahdat-ul-mavjud", "Vahdat-ul-vujud", "Vahdat-ush-shuhud" konsepsiyalari;

d) ishroqiyyunlar-Shalmag'oniyni, Ibn Avn, Xusayiniy, Shahobiddin Suxravardiylar borliq, olam asosida yotuvchi azaliy va abadiy Nur-"Nuri Muhammadiy" haqidagi kreatsioon konsepsiyasi.

Mazkur ta'limotlardan ba'zilar Beruniyning naturfalsafa haqidagi qarashlarining shakllanishi uchun asos vazifasini o'tagan.

2. O'rta asr musulmon xalqlari falsafasidagi naturfalsafa haqidagi ta'limotlar:

a) Sharq Arastuchi-mashshoiyyunlari - Forobiy, Ibn Miskavayih, Ibn Sinolar ishlab chiqqan borliq, substansiyalar haqidagi relyatsion konsepsiya. Bu konsepsiyaga ko'ra borliq va uning mavjudlik shakllari-makon, zamon va jon (nafs) o'zaro mustaqil emas, balki tub aloqadorlik, bog'liqlikda bo'ladi va tadrijiy o'zgaruvchandir;

b) Qadimgi yunon mutafakkirlari Levkip, Demokrit, Epikur, Geraklit, Gippokrat, Galenning sharqdagi izdoshlari bo'lgan naturfalsafachilar-tabiiyunlar - Jobir, Eronshaxriy, Roziylarning borliq, uning mohiyati, qonunlari, mavjudlik usuli va shakllari haqidagi substansional konsepsiya. Bu konsepsiyaga ko'ra, borliq va uning mavjudlik usuli, mavjudlik shakllari-mutlaq hayula (materiya), makon, zamon va jon (nafs) azaliy va abadiy o'zaro bir-biridan mustaqil, avtonom va o'zgarmas mohiyatga ega.

3. Ayni paytda Beruniy ilm-fan, falsafa taraqqiyotida qadimgi yunon mutafakkirlari Levkip, Demokrit va boshqalardan keyin o'tgan qariyb bir yarim ming yillik taraqqiyot yutuqlarini hisobga olib, o'zi himoya qilgan naturfalsafasida borliq, birlamchi substansiyalar haqidagi substansional konsepsiyaga bir qator o'zgarishlar kiritgan: bo'shliqning mavjud bo'lishi mumkin emasligi; olamning cheksiz bo'lishi mumkinligi; oxirgi bo'linmas zarra (atom)ning yanada bo'linmasligining ham yetarli asoslab berilmaganligi va shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беруний. Минералогия. – М.: 1963. –С. 335.
2. Газали. Избавляющий от заблуждения //Григорян СН. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – М.: Наука, 1960. – С. 221-222.
3. Абу Наср аль-Фараби. Философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1970. – С. 329 .
4. Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккирлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971. – Б. 124 .
5. Шарипов А. Великий мыслитель Абу Райхан Бируни. -Ташкент: Узбекистан, 1972.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ ИСЛОХОТЛАРНИНГ
ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ**

Ҳалима Ботирова,
“ТҚХММИ” МТУ доценти,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd)

Аннотация. Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикасида қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга оширилаётган ислохотларнинг ҳуқуқий асослари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Кенг кўламли ислохотлар, қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга оширилаётган ҳуқуқий ислохотлар, одамларнинг сиёсий онги ва сиёсий маданияти ҳамда ҳуқуқий саводхонлик даражаси муҳим роль ўйнайди.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые основы реформ, реализуемых в сфере сельского хозяйства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: важную роль играют масштабные реформы, правовые реформы в аграрном секторе, политическое сознание и политическая культура населения, уровень правовой грамотности.

Abstract. In this article, the legal foundations of the reforms being implemented in the agricultural sector of the Republic of Uzbekistan are analyzed.

Keywords: large-scale reforms, legal reforms in the agricultural sector, political consciousness and political culture of the nation, the level of legal literacy play a crucial role.

Мустақил Ватанимизда амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар қишлоқ тараққиёти ва фаровонлигини ҳуқуқий таъминлашга бевосита боғлиқдир. Мамлакатимизда қишлоқ аҳолиси манфаатларини янада тўлиқ таъминлашга устуворлик берилаётганлиги, нафақат, давр талаби, қолаверса, босқичма-босқич ва барқарор ривожлантиришга қаратилган ислохотларнинг мантикий давомидир.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан амалга оширилаётган “Ўзбекистонни 2017 – 2021 йилларда янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида” барча соҳалар қатори қишлоқ хўжалигини ҳам модернизация қилиш борасида энг муҳим вазифаларни аниқ белгилаб, уларни изчил амалга ошириб бораётганимиз соҳадаги улкан муваффақиятларга асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Қишлоқ аҳолиси учун зарур шароитлар яратиш, улар фаровонлигини таъминлаш, энг аввало, қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга оширилаётган ҳуқуқий ислохотлар маҳсули билан узвий боғлиқ ҳисобланади. Бу ўринда, инсоннинг камолоти, унинг эркинлиги, юксак турмуш даражаси, фаравон ҳаёт ва фаол меҳнат қилиши учун зарур шарт-шароитларни яратиш каби ғоялар асосий мазмунини ташкил этадиган конституциямизнинг мустаҳкам ҳуқуқий пойдевор вазифасини ўтаганлигини таъкидлаш жоиз. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг Конституциясидаги инсон ҳуқуқ ва эркинликлари устуворлигидан келиб чиқадиган ҳуқуқий қоидалар ва унинг асосида қабул қилинган қонун ҳужжатлари жамиятимиз ижтимоий-сиёсий тизимининг қиёфасини тубдан ўзгартириш тадбиркорлик фаолиятини эркин амалга ошириш, шунингдек, қишлоқ хўжалигининг ташкилий-ҳуқуқий шакллари, уни бошқариш тартиби ва хўжалик фаолиятини амалга ошириш

узуллариини замон талабларига мос кайта кўриб чиқиш учун зарур имкониятлар яратади десак, муболаға бўлмайди.

Қишлоқ хўжалигидаги иқтисодий ўзгаришларнинг самарадорлигига таъсир қилиши табиий бўлган норматив-ҳуқуқий базанинг мантиқий равишда қабул қилинганлигини қўйидаги босқичларга бўлиш орқали кузатиш мумкин:

Қишлоқ хўжалигидаги бозор ислохотларининг биринчи босқичи 1991-2000 йилларни ўз ичига олиб, уни шартли равишда бошланғич босқич деб ҳам аташ мумкин. Таъкидлаш жоизки, ушбу босқичда қишлоқ хўжалигининг барқарорлигини таъминлаш масалалари ҳал этилди ва бозор иқтисодиётига ўтиш асослари яратилди. Бундай асосий йўналишлар шахсий томорқаларни кенгайтириш, янги суғориладиган ерларни шахсий хўжаликлар ва боғ - дала ҳовли участкаларига ажратиб бериш йўли орқали аҳолини амалда ер билан таъминлашга қаратилган бўлиб, бу эса ўз навбатида қишлоқда давлатга қарашли бўлмаган сектор сезиларли даражада мустаҳкамланишига олиб келди. Ушбу босқичда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1991 йил 29 ноябрдаги «Республика деҳқон (фермер) хўжаликларини мустаҳкамлаш ва тадбиркорлар фаолиятини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тўғрисида»ги, 1994 йил 22 августдаги «Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришни иқтисодий рағбатлантириш чоралари тўғрисида»ги, 1997 йил 11 мартдаги «Қишлоқ хўжалигида ҳисоб-китоб тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги, 1997 йил 18 мартдаги «Деҳқон ва фермер хўжаликларини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш ҳамда мамлакатни озиқ-овқат билан таъминлашда уларнинг ролини кучайтириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида»ги, «Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида»ги (1991йил), «Ижара тўғрисида»ги (1991йил), «Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида»ги (1992йил), «Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида»ги (1995йил), «Уруғчилик тўғрисида»ги (1996йил), «Лизинг тўғрисида»ги (1999йил), Ер кодекси (1998йил) қабул қилинди. Бундан ташқари, мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида қишлоқ хўжалигида янгича шакллари ширкатлар, фермер ва деҳқон хўжаликлари пайдо бўлди.

Ислохотларнинг иккинчи босқичи (2001 йил ва ундан кейинги йиллар)нинг ўзига хос хусусиятлари эса қўйидагиларда намоён бўлади: биринчидан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчиларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш. Улар учун зарур иқтисодий ва ҳуқуқий шарт-шароит яратиш, тайёрлов, қайта ишлаш корхоналари, моддий-техника ресурслари етказиб берувчилар, молия-банк муассасалари ҳамда бошқа хизмат кўрсатиш ташкилотлари фаолиятини ушбу мақсадга бўйсундириш; иккинчидан, қишлоқ хўжалиги соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи ҳамда мазкур соҳада фаолият кўрсатувчи уюшмалар мақомини қайта кўриб чиқиш; учинчидан, фермер хўжаликлари эҳтиёжларига жавоб берувчи замонавий сервис инфраструктурасини ташкил этиш; тўртинчидан, қишлоқ хўжалигида мулкчиликнинг ижара шакллари ва шартномавий муносабатларга асосланган хўжалик юритиш тизимини ривожлантириш; бешинчидан, шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларида чорва молларни кўпайтиришни рағбатлантириш; олтинчидан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришда шартномавий муносабатларни такомиллаштириш; еттинчидан, хўжалик юритишнинг ширкат, фермер ва деҳқон хўжаликлари ташкилий-ҳуқуқий шакллариини сақлаб қолиш, истикболда асосий қишлоқ хўжалиги маҳсулоти ишлаб чиқарувчи субъект бўлиб қоладиган фермер хўжаликларини ривожлантиришни устувор йўналиш сифатида белгилаб берилди.

Ислохотларнинг учинчи босқичи (2016-2030 йилларда) амалга оширилган ислохотлар. Бугунги кунга келиб давлатимизнинг аграр соҳада эришаётган улкан ютуқлари замирида Ватанимизнинг садоқатли ирригаторларининг ҳам ўрни бекиёс. Охириги йилларда Президент Шавкат Мирзиёев раҳбарлигида амалга оширилаётган ислохотлар ва янгиланишлар, давлатимиз раҳбари томонидан ишлаб чиқилган Ўзбекистонни 2017-2021 йилларда ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясини қабул қилиниши ва амалга оширилган ислохотлар натижасида улкан тараққиёт босқичига кирган мамлакатимиз ривож бугунги глобаллашиб бораётган дунёдаги давр талабларига жавоб бера оладиган замонавий мутахассисларни тайёрлаш эҳтиёжи ортиб бораётгани нуқтаи назаридан ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шунингдек, мазкур соҳада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “2017-2021 йилларда ичимлик суви таъминоти ва канализация тизимларини комплекс ривожлантириш ҳамда модернизация қилиш дастури тўғрисида”ги ва 2017 йил 25 сентябрдаги “Сув объектларини муҳофаза қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорлари ҳамда 2017 йил 20 апрелдаги “Экология ва атроф муҳитни муҳофаза

қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони долзарб вазифаларнинг ечими бўлди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ–5853-сон Фармони билан тасдиқланган «Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегияси» мамлакат аграр соҳасини тубдан модернизация қилишга қаратилган муҳим дастурий ҳужжат ҳисобланади. Мазкур стратегия қишлоқ хўжалигини маъмурий бошқарувдан бозор механизмларига ўтказиш, ресурслардан самарали фойдаланиш ва соҳанинг рақобатбардошлигини оширишни асосий мақсад қилиб белгилади. Стратегия доирасида амалга оширилган энг муҳим ислохотлардан бири ер муносабатларини такомиллаштириш бўлди. Ердан фойдаланишдаги қатъий маъмурий чекловлар босқичма-босқич бекор қилиниб, фермер хўжаликларига иқтисодий мустақиллик берилди. Ер участкаларини ажратиш ва улардан фойдаланишда шаффоф механизмлар жорий этилди, ердан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилди.

Стратегия талабларига мувофиқ, пахта ва ғалла етиштиришда давлат буюртмаси тизими бекор қилинди. Бу ислохот фермерларнинг ишлаб чиқариш эркинлигини кенгайтириб, экин турларини бозор талабидан келиб чиққан ҳолда танлаш имконини яратди. Натижада қишлоқ хўжалигида рақобат муҳити шаклланиб, маҳсулот таннархи пасайиши ва даромаддорлик ошишига замин яратилди.

Стратегияда қишлоқ хўжалигида қиймат занжирини шакллантириш устувор вазифа сифатида белгиланди. Шу асосда пахта-тўқимачилик, мева-сабзавот, чорвачилик ва бошқа йўналишларда кластер тизими жорий этилди. Кластерлар ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, сақлаш ва экспорт жараёнларини интеграция қилиб, қўшимча қиймат яратишга хизмат қилмоқда.

Стратегия сув ресурсларининг чекланганлигини ҳисобга олган ҳолда сув тежовчи технологияларни кенг жорий этишни назарда тутди. Томчилатиб суғориш, ёмғирлатиб суғориш ва автоматлаштирилган суғориш тизимлари қўлланила бошланди. Давлат томонидан мазкур технологияларни жорий этган хўжаликларга субсидия ва солиқ имтиёзлари берилди, бу эса сув сарфини камайтириш ва ҳосилдорликни оширишга олиб келди.

Стратегия доирасида аграр соҳада рақамли технологияларни жорий этиш муҳим йўналиш сифатида белгиланди. Электрон ер кадастри, аграр маълумотлар базаси, сунъий йўлдош мониторинги ва рақамли ҳисобот тизимлари ишга туширилди. Бу бошқарув самарадорлигини ошириш, коррупция омилларини камайтириш ва қарор қабул қилишда илмий ёндашувни таъминлади.

Стратегия қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспортга йўналтиришни устувор вазифа сифатида белгилади. Шу мақсадда фитосанитария тизими такомиллаштирилди, логистика инфратузилмаси ривожлантирилди ва ташқи бозорларга чиқиш механизмлари енгиллаштирилди. Натижада мева-сабзавот ва қайта ишланган маҳсулотлар экспорти сезиларли даражада ошиб бормоқда. «Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган стратегияси» асосида амалга оширилган ислохотлар аграр соҳанинг институционал, иқтисодий ва технологик янгиланишига хизмат қилди.

Ушбу ислохотлар қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантириш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ва қишлоқ аҳолиси турмуш даражасини оширишда муҳим аҳамият касб этмоқда. Давлатимиз раҳбари ташаббуси ва бевосита раҳнамолигида қишлоқ хўжалигини ислох қилиш бўйича кенг қамровли ислохотлар босқичма-босқич амалга оширилмоқда. Ишлаб чиқаришга фан-техника ютуқлари, янги техника ва илғор технологияларни жорий этиш ишлари йилдан-йилга жадаллашмоқда. Чекланган ер ва сув ресурсларидан, капитал ва меҳнат ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги ошмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, биз ўрганаётган муаммонинг илмий таҳлили шуни кўрсатадики, иқтисодий тизимнинг етакчи соҳаси бўлган қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга йўналтирилган сиёсатнинг натижаси бир қатор омилларга боғлиқдир. Энг аввало, бу соҳада ажратилган маблағларни самарали ва мақсадли сарфлаш, замонавий техника ва технология воситаларидан тўғри фойдаланиш, илғор технологияларни жорий этиш аҳамиятлидир. Шунингдек, соҳада фаолият юритаётган кадрлар ва ишчи-ходимларнинг тажриба ва малакалари, уларнинг амалий билимлари ва тажрибаларини ҳаётий вазиятларда самарали қўллаш олиш қobiliяти муҳим аҳамиятга эга. Бундан ташқари, одамларнинг онгли муносабатда бўлиши, масъулиятли иш юритиши ва мавжуд вазифаларни адолатли ва мукамал бажариши қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда ҳал қилувчи омил сифатида қаралади. Айниқса, аҳолининг сиёсий онги ва

сиёсий маданияти, ҳуқуқий саводхонлик даражаси замон талабларига мос бўлиши бу жараёнда алоҳида ўрин тутди. Шу йўл билан иктисодиётнинг ушбу соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар нафақат моддий, балки ижтимоий-ҳуқуқий ва маънавий жиҳатдан ҳам самара бериши мумкин, бу эса умумий миллий ривожланиш ва халқ фаровонлиги учун муҳим шартлардан биридир.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “2017-2021 йилларда ичимлик суви таъминоти ва канализация тизимларини комплекс ривожлантириш ҳамда модернизация қилиш дастури тўғрисида”ги ПҚ-2910-сон Қарори, <https://www.lex.uz/docs/3174685/>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 25 сентябрдаги “Сув объектларини муҳофаза қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори, <http://uza.uz/uz/documents/suv-obektlarini-mu-ofaza-ilish-tizimini-yanada-takomillashti-25-09-2017>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги Фармони. — Тошкент, 2022.

SHAXS MA'NAVIY KAMOLOTINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

O'g'ilxon Akilova,
“TIQXMMI” MTU katta o'qituvchisi
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va normativ qonun hujjatlarining ma'naviy taraqqiyot, shaxs ma'naviy yuksalishi omillarini ta'minlashdagi ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'naviy yuksalish, madaniy meros, yoshlarga oid davlat siyosati, huquqiy asos, ma'naviy qadriyat, konstitutsiya.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность Конституции Республики Узбекистан и нормативно-правовых актов в обеспечении факторов духовного развития и духовного возвышения личности.

Ключевые слова: духовность, духовное развитие, культурное наследие, государственная политика в отношении молодежи, правовая основа, моральные ценности, конституция.

Abstract. This article highlights the importance of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and regulatory legal acts in ensuring the factors of spiritual development and spiritual elevation of the individual.

Key words: spirituality, spiritual growth, cultural heritage, state policy on youth, legal basis, moral value, constitution.

Shaxs ma'naviy kamoloti har qanday demokratik jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Zero, insonning huquq va erkinliklari, qadriyatlari, vijdon erkinligi, ta'lim olish va o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari konstitutsiyaviy darajada kafolatlangan taqdirdagina ma'naviy barkamol shaxs shakllanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan insonparvarlik, adolat, qonun ustuvorligi va fuqarolik jamiyatini barpo etish tamoyillari shaxs ma'naviy kamolotining huquqiy poydevorini tashkil etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ilgari surilgan “Yangi O'zbekiston” g'oyasi inson qadrini yuksaltirish va uning huquq hamda manfaatlarini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu jarayonda shaxs ma'naviy kamoloti nafaqat tarbiyaviy yoki axloqiy masala, balki konstitutsiyaviy-huquqiy munosabatlar tizimining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Konstitutsiya normalari orqali davlatning ma'naviy-ma'rifiy siyosatini amalga oshirish, ta'lim, madaniyat va vijdon erkinligi sohalaridagi kafolatlar ta'minlanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada shaxs ma'naviy kamolotining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari tahlil qilinib, uning mazmuni, huquqiy kafolatlari va amaliy ifodalari ochib beriladi. Maqsad — konstitutsiya normalari va huquqiy mexanizmlar orqali ma'naviy barkamol, faol va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishning nazariy-amaliy jihatlarini yoritishdan iborat.

Har bir xalq, millat o'z istiqboliga erishganidan so'ng jahonda yangi mustaqil davlat sifatida tashkil topganligi, maqsadi, kelajak istiqbollari Konstitutsiyada belgilab qo'yadi. Chunki dunyodagi mavjud konstitutsiyalarning barchasi ularni ijod etgan xalqning, millatning siyosiy tafakkuri, ma'naviyati va madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. Xuddi shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham xalqimiz tabiatiga mos barcha ma'naviy-madaniy qadriyatlarni, xalqimiz donishmandligini, axloqiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan. 2023 yil 30 apreldagi referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shaxsning daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligini ta'minlash barobarida uning ma'naviy kamolotining ham huquqiy asoslarini o'zida mustahkamladi.

Fuqarolik jamiyatini qaror toptirish xalqimizning ma'naviy fazilatlarini yuksalishiga bog'liq. Biroq globallashuv sharoitida ma'naviyatning sayozlashuvidek ulkan muammo yuzaga kelmoqda. Terrorizm, missionerlik, diniy ekstremizm, "ommaviy madaniyat", gedonizm, eskapizm, daunshifting, loqaydlik, befarqlik, axborot xuruji va oilaning global inqirozi kabi illatlarning paydo bo'layotgani shular jumlasidan [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ham bugungi globallashuv davrida ma'naviy yuksalishga alohida e'tibor qaratish lozimligini quyidagicha e'tirof etadi "...Biz bugun axborot globallashuvi davrida yashayapmiz. Biz istaymizmi, yo'qmi, yurtimizga turli ko'rinishdagi axborot xurujlari bo'lishi tabiiy. Ana shunday xurujlarga qarshi aholida, ayniqsa, yoshlarda immunitetni mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarimiz va istiqbol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda ma'naviy tarbiyaning o'rni beqiyosdir"[2], deya ta'kidlashi ayni haqiqat. Bundan ko'rinish turibdiki, turli yot g'oya va mafkuralardan inson ongini himoya qilishda shaxs ma'naviy kamolotining konstitutsiyon norma sifatida mustahkamlanishi jamiyat ma'naviy taraqqiyotining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, "Odamlarda fuqarolik ma'naviyati, daxldorlik fazilati shakllangan taqdirdagina fuqarolik jamiyatini qurish mumkin bo'ladi. Zero, bir fuqaro boshqa bir fuqaroga uning taqdiriga nisbatan befarq bo'lsa, har qanday yaxshi qonunlar ham ishlaydi" [3].

Asosiy qonunimizda "inson-jamiyat-davlat" tamoyilining huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishi davlat va jamiyatning siyosiy-huquqiy qiyofasini o'zgartirdi. Insonning haq-huquqlarini muxofaza qilish, uning baxt-saodatini ta'minlash davlat siyosatining mazmuni, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadiga aylandi. Konstitutsiyaning 21 moddasida "Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega" [1] degan norma belgilangan. Demokratik islohatlarning mezon sifatida "davlat inson uchun" tamoyili belgilanishi ushbu jarayonlarning lokomativi, qolaversa, barcha boyliklar, ne'matlarning bosh iste'molchisi inson ekanligini yana bir bor yaqqol ko'rsatadi. O'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqi inson salohiyatining yangi qirralarini namoyon qilish, barcha imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishning bosh omili hisoblanadi. Shaxslarning intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish esa har bir davlatning eng muhim vazifalaridan biridir.

O'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqi insonning ijod qilishga bo'lgan huquqlari asosida ta'lim olish, madaniy va ijtimoiy ne'matlardan bahramand bo'lish, o'ziga kerakli bo'lgan bilim va ilmni olish huquqini ham anglatadi. O'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqining belgilanishi insonga o'zini o'zi kashf etishga bo'lgan ehtiyojlari amalda ta'minlanishi uchun konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari Konstitutsiyamizning 61 moddasida "Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi" deb belgilab qo'yildi. Mazkur norma tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosni muhofaza qilish undan samarali foydalanish bo'yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlarini kengaytirishga asos bo'ladi. Shuningdek, mazkur o'zgarishning kiritilishi, dunyo tamaddunida munosib o'ringa ega bo'lgan shonli ko'p mingyillik tariximizni o'rganish, ma'naviy va madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab avaylashga hamda O'zbekistonning tabiiy merosi asl holida saqlanishiga va uni kelajak avlodlarga bezavol yetkazishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 78-79-moddalari yoshlarga oid alohida normalar bilan to'ldirildi. Ularga muvofiq:

birinchidan, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Ushbu norma

jamiyatning tinchligi, yakdilligi hamda davlatning barqaror rivoji uchun muhimdir va aksincha, aynan ushbu vazifaga e'tiborsizlik jamiyat millat va xalqning tanazzuliga yo'l ochadi.

Ikkinchidan, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi, degan norma mustahkamlandi.

Uchinchidan, davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishiga, sog'ligini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi degan norma kiritildi.

Yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun ularga tegishli imkoniyatlar, ya'ni sog'lom va uy-joyli bo'lish, ta'lim olish, ishga joylashish, band bo'lish va dam olish imkoniyatlarini yaratish zarurdir. Davlatning bu boradagi tegishli shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha tegishli majburiyatlari konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur normalar nafaqat yoshlar manfaati, balki butun jamiyat va mamlakatning farovon kelajagi uchun o'ta muhimdir. Shu tufayli Konstitutsiyamizdan o'rin olgan har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqi; tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosning davlat muxofazasiga olinishi hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish borasida belgilangan normalar pirovardida shaxs va jamiyat ma'naviy taraqqiyotining mustahkam poydevori bo'lib xizmt qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 72-modda. T.:2023, B.31.
2. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi) –Toshkent, Xalq so'zi. 2017 yil 16 iyun № 119(6813)
3. Nabiev F. Fuqarolik jamiyati sharoitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda ma'naviyatning o'rni. Globallashuv. Ommaviy madaniyat, milliy g'oya. /Ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. T.: "Ma'naviyat", 2009. – 69-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 72-modda. T.:2023, B.31.

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA AKSIOSFERA TRANSFORMATSIYASI

Qonisbay Kdirbayev,
"TIQXMMI" MTU katta o'qituvchisi
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada global o'zgarishlar sharoitida aksiosferaning transformatsiyasi ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot globallashuv jarayonlarining qadriyatlar tizimiga ta'siri, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi nisbatning yangi paradigmatlari hamda ushbu jarayonning ijobiy va ziddiyatli jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: aksiosfera, transformatsiya, globallashuv, qadriyatlar tizimi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, dialektika, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Аннотация. В статье анализируется трансформация аксиосферы в условиях глобальных изменений с социально-философской точки зрения. Исследование направлено на освещение влияния процессов глобализации на систему ценностей, новых парадигм соотношения национальных и универсальных ценностей, а также положительных и противоречивых аспектов данного процесса.

Ключевые слова: аксиосфера, трансформация, глобализация, система ценностей, национальные ценности, универсальные ценности, диалектика, социально-философский анализ.

Abstract. The article analyzes the transformation of the axiosphere under conditions of global changes from a socio-philosophical perspective. The study focuses on the impact of globalization processes on the value system, the new paradigms of the relationship between national and universal values, as well as the positive and contradictory aspects of this process.

Keywords: axiosphere, transformation, globalization, value system, national values, universal values, dialectics, socio-philosophical analysis.

XXI asr boshlarida kechayotgan global o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, ijtimoiy ong, madaniyat va qadriyatlar tizimiga chuqur va tizimli ta'sir ko'rsatmoqda. Globallashuv, axborotlashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivoji, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi hamda sivilizatsion jarayonlarning tezlashuvi sharoitida jamiyatning aksiologik asoslari qayta ko'rib chiqilmoqda. Mazkur jarayonlar natijasida qadriyatlarning shakllanishi, uzatilishi va ierarxiyasi o'zgarib, jamiyat aksiosferasida muhim transformatsion holatlar yuz bermoqda. Shu bois aksiosfera transformatsiyasini global o'zgarishlar kontekstida falsafiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aksiosfera tushunchasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda jamiyatning qadriyatlar tizimini yaxlit, murakkab va ko'p qatlamli hodisa sifatida anglashga xizmat qiluvchi konseptual kategoriya hisoblanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan aksiosfera — bu jamiyatda hukmron bo'lgan ma'naviy, axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy va madaniy qadriyatlar majmuasining tarixiy shakllangan tizimi bo'lib, u insonning borliqqa, jamiyatga, o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabatlarini belgilaydi. Aksiosfera tushunchasi aksiologiya fanining asosiy yutuqlariga tayanadi va qadriyatlarni alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq, ierarxik va dinamik tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Shu jihatdan aksiosfera jamiyatning ichki normativ-me'yoriy asosini ifodalaydi hamda ijtimoiy ong, ijtimoiy amaliyot va ijtimoiy institutlar faoliyatining mazmuniy yo'nalishini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Alohida qayd etish lozimki, falsafiy tahlilda aksiosfera obyektiv va subyektiv omillarning dialektik birligi sifatida qaraladi. Bir tomondan, qadriyatlar tarixiy tajriba, madaniy meros, urf-odatlar va an'analar orqali obyektivlashsa, ikkinchi tomondan ular individ va ijtimoiy guruhlarining ongida subyektiv ravishda anglanadi, qayta talqin qilinadi va amaliy faoliyatda namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham aksiosfera statik emas, balki doimiy ravishda yangilanib, o'zgarib boruvchi tizimdir. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yangi ehtiyojlar, yangi ijtimoiy munosabatlar va yangi dunyoqarashlar shakllanishi bilan birga qadriyatlar ierarxiyasi ham o'zgaradi. Masalan, an'anaviy jamiyatlarda kollektivlik, itoat, barqarorlik kabi qadriyatlar ustuvor bo'lgan bo'lsa, zamonaviy jamiyatlarda individuallik, erkinlik, tanlov, kreativlik va tolerantlik kabi qadriyatlar muhim ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Aksiosferaning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni, avvalo, uning jamiyat rivojining yo'nalishini belgilovchi ma'naviy-me'yoriy mexanizm sifatidagi funksiyasida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy islohotlar, siyosiy qarorlar, iqtisodiy strategiyalar va madaniy siyosat samaradorligi bevosita jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimi bilan bog'liqdir. Agar jamiyatda adolat, mas'uliyat, halollik, ilm-fan va mehnatga hurmat kabi qadriyatlar ustuvor bo'lsa, taraqqiyot barqaror va izchil xarakter kasb etadi. Aksincha, qadriyatlar inqirozi, ya'ni ma'naviy bo'shliq, me'yoriy noaniqlik va qadriyatlar kolliziyasi ijtimoiy beqarorlik, ijtimoiy ziddiyatlar va madaniy dezorientatsiyaga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda aksiosfera ijtimoiy taraqqiyotning nafaqat natijasi, balki uning muhim sharti va harakatlantiruvchi kuchidir.

Shuningdek, aksiosfera shaxs kamoloti va ijtimoiylashuv jarayonida ham muhim o'rin tutadi. Inson jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar orqali ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, axloqiy me'yorlarni anglaydi va o'z hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi. Ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va san'at institutlari aynan aksiosferani avloddan-avlodga uzatish, uni saqlash va yangilash vazifasini bajaradi. Shu bois aksiosfera ijtimoiy taraqqiyotning uzluksizligini ta'minlovchi, tarixiy vorislikni mustahkamlovchi va jamiyatning ma'naviy barqarorligini kafolatlovchi muhim falsafiy hodisa sifatida e'tirof etiladi. Global o'zgarishlar sharoitida esa aksiosferani chuqur falsafiy tahlil qilish jamiyat taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta'kidlash lozimki, globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyat aksiosferasining transformatsiyasida hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lib, qadriyatlar tizimining mazmuni, shakli va ierarxiyasiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, aksiosfera jamiyatning ma'naviy-me'yoriy poydevori sifatida tarixiy sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Aynan globallashuv sharoitida ushbu tizim yangi sifat bosqichiga ko'tarilib, universal va lokal qadriyatlar o'rtasidagi murakkab dialektik munosabatlar maydoniga aylanmoqda. Falsafiy jihatdan globallashuv

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR NISBATINING YANGI PARADIGMALARI



jamiyatlarda ijtimoiy taraqqiyot mezon sifatida qabul qilinib, milliy rivojlanish strategiyalariga singdirilmoqda. Biroq bu jarayon biryozlama emas. Universal qadriyatlar ko'pincha g'arb sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy tajribasiga tayangan holda shakllangani sababli, ularning boshqa madaniy makonlarga tatbiqi aksiosferada qarama-qarshiliklar va moslashuv muammolarini keltirib chiqaradi. S.Xantington ta'kidlaganidek, globallashuv madaniyatlar yaqinlashuvi bilan bir qatorda, ularning farqlanishi va ziddiyatlarini ham kuchaytiradi [1,22].

Shu nuqtayi nazardan, lokal identiklik tushunchasi globallashuv sharoitida aksiosferaning muhim tarkibiy elementi sifatida dolzarblashmoqda. Lokal identiklik milliy til, din, tarixiy xotira, an'analar, urf-odatlar va mentalitet bilan bog'liq qadriyatlar majmuasini ifodalaydi. Globallashuv bu qadriyatlarni to'liq inkor etmaydi, aksincha, ularni yangi kontekstda qayta anglashga majbur etadi. Natijada "glokalizatsiya" deb ataluvchi jarayon yuzaga keladi, ya'ni global qadriyatlarning lokal madaniyat bilan uyg'unlashuvi sodir bo'ladi [2,173]. Bu jarayonda aksiosfera nafaqat tashqi ta'sirlarni qabul qiladi, balki ularni milliy manfaatlar va madaniy an'analar asosida qayta ishlaydi.

Universal qadriyatlar va lokal identiklik o'rtasidagi dialektik munosabat zamonaviy jamiyatda qadriyatlar kolliziyasiga olib keladi, ya'ni bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan, mazmuni yoki yo'nalishi jihatidan bir-biriga zid bo'lgan me'yorlar va ideallar bir makonda to'qnashadi. Masalan, individual erkinlik va kollektiv mas'uliyat, sekulyarizm va diniy qadriyatlar, iste'molchilik madaniyati va an'anaviy axloqiy me'yorlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar aksiosferaning ichki tarangligini kuchaytiradi. Z.Bauman bu holatni "suyuq modernlik" sharoitida qadriyatlarning barqaror tayanchdan mahrum bo'lishi bilan izohlaydi [3,9]. Natijada jamiyat a'zolari oldida qadriyat tanlovi muammosi yuzaga kelib, bu holat ijtimoiy ong va ijtimoiy xulq-atvorda noaniqlikni kuchaytiradi.

Globallashuv sharoitida universal qadriyatlar va lokal identiklik o'rtasidagi dialektik ziddiyatlar aksiosferaning ichki tuzilishini murakkablashtirib, uning dinamik va ko'p qirrali xarakterini kuchaytiradi. Aynan shu murakkablik zamonaviy jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar nisbatiga yangicha yondashuvlarni shakllantirib, ularning o'zaro munosabatini qayta talqin etishni taqozo etmoqda. Natijada ijtimoiy-falsafiy tafakkur doirasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qarama-qarshiligi emas, balki ularning uyg'unlashuvi va o'zaro to'ldiruvchanligi asosidagi yangi paradigmalarining vujudga kelishi jarayoni yuzaga chiqmoqda. Endilikda qadriyatlar tizimi alternativlikka asoslangan paradigma bilan cheklanmay, aksiologik integratsiya paradigmasi doirasida talqin qilinmoqda. Falsafiy jihatdan bu paradigma milliy madaniyatlarining o'ziga xosligini saqlagan holda, umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvini ta'minlashga qaratilgan sintez modelini ifodalaydi.

Yangi paradigmalar doirasida umuminsoniy qadriyatlar — inson huquqlari, shaxs erkinligi, adolat, tinchlik, ekologik mas'uliyat va ilmiy taraqqiyot — global ijtimoiy hayotning me'yoriy asosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, bu qadriyatlar milliy tarixiy tajriba, diniy-axloqiy an'analar va madaniy mentalitet bilan uyg'unlashgan holda real ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar nisbatining yangi paradigmasi ko'pincha madaniyatlararo muloqot va sivilizatsiyalararo hamkorlik konsepsiyalari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Bu jarayonda milliy identiklik yopiq va konservativ shaklda emas, balki ochiq, refleksiv xarakter kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda shakllanayotgan yangi aksiologik paradigma, avvalo, davlat siyosati, ta'lim tizimi hamda madaniy strategiyalarda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Ta'lim jarayonida milliy tarix, til va madaniy merosni chuqur o'rganish bilan bir qatorda, global fuqarolik mas'uliyati, tolerantlik hamda madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Bu holat globallashuv sharoitida aksiosferaning transformatsiyasi nafaqat muayyan ziddiyatlarni yuzaga

keltirayotganini, balki ijtimoiy taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar ochayotganini ham ko'rsatadi. Xususan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unlashuvi jamiyatning innovatsion salohiyatini oshirish, madaniyatlararo muloqotni kengaytirish va ijtimoiy tolerantlik muhitini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mazkur jarayonda davlat siyosati, ta'lim tizimi va madaniy institutlar universal qadriyatlarni milliy aksiosfera bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim normativ va institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan globallashuv sharoitida aksiosferaning transformatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning murakkab va ziddiyatli, ammo tarixiy jihatdan muqarrar bosqichi sifatida baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar nisbatining yangi paradigmalari aksiosferaning transformatsion rivojlanishini ifodalaydi. Bu paradigmalar global o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, madaniy xilma-xillikni asrash va umuminsoniy ma'naviy ideallarni ro'yobga chiqarish imkonini beradi. Shu ma'noda aksiosferaning yangi modeli nafaqat falsafiy-nazariy ahamiyatga ega, balki jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini belgilovchi muhim metodologik asos sifatida ham namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida aksiosferaning transformatsiyasi murakkab va ko'p qirrali jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aksiologik integratsiyasi jamiyatning ochiqqligi, innovatsion salohiyati va madaniyatlararo muloqotini kuchaytirib, ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ikkinchi tomondan esa mazkur jarayon qadriyatlar ierarxiyasining beqarorlashuvi, an'anaviy identiklik shakllarining zaiflashuvi hamda me'yoriy noaniqlik kabi salbiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, universal qadriyatlarning mutlaq ustuvorlik kasb etishi milliy aksiosferaning ahamiyati va rolining pasayishiga, uning ijtimoiy va madaniy maydondagi ta'sirining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur oldida aksiosfera transformatsiyasini nafaqat integrativ imkoniyatlar manbai, balki ehtiyotkorlik bilan boshqarilishi lozim bo'lgan ziddiyatli jarayon sifatida anglash vazifasi turadi. Mazkur muvozanatli yondashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qarama-qarshiligini emas, balki ularning konstruktiv uyg'unligini ta'minlash orqali jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huntington S., The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order, Simon & Schuster, New York, 1996.
2. Robertson R., Globalization: Social Theory and Global Culture, Sage Publications, London, 1992.
3. Bauman Z., Liquid Modernity, Polity Press, Cambridge, 2000.

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA QO'SHMA TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHDAGI UNIVERSITETLARARO HAMKORLIK TAJRIBASI

Alimardon Xabibullayev,
Namangan davlat universiteti
tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'limni amalga oshirish jarayonida universitetlararo hamkorlikning pedagogik, institutsional va strategik mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qo'shma ta'lim, universitetlararo hamkorlik, rivojlangan davlatlar, ta'lim strategiyasi, pedagogik mexanizmlar, xalqaro akkreditatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические, институциональные и стратегические механизмы университетского сотрудничества в процессе реализации программ совместного образования в развитых странах.

Ключевые слова: совместное образование, университетское сотрудничество, развитые страны, образовательная стратегия, педагогические механизмы, международная аккредитация.

Abstract. This article analyzes the pedagogical, institutional, and strategic mechanisms of inter-university cooperation in the implementation of joint education programs in developed countries.

Keywords: joint education, inter-university cooperation, developed countries, education strategy, pedagogical mechanisms, international accreditation.

Kirish. Rivojlangan davlatlarda oliy ta'lim tizimining global integratsiya jarayonida universitetlararo hamkorlikning o'rni tobora oshib bormoqda. Xalqaro ta'lim bozorida raqobat kuchaygani sari, oliy ta'lim muassasalari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham talabalar va o'qituvchilarni jalb qilishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, qo'shma ta'lim dasturlari – ikki yoki undan ortiq universitetlar tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan, amalga oshiriladigan va talabalarga bir nechta diplom yoki xalqaro akkreditatsiyalangan sertifikatlar beriladigan ta'lim shakli sifatida muhim strategik vosita sifatida e'tirof etilmoqda[1].

Qo'shma ta'limning afzalliklari ko'p qirralidir. Birinchidan, bu jarayon talabalarga turli pedagogik yondashuvlar va o'quv metodikalarini o'zlashtirish imkonini yaratadi, natijada ularning professional kompetentsiyalari va xalqaro mobilitet darajasi oshadi. Ikkinchidan, universitetlararo hamkorlik institutlar o'rtasida ilmiy va innovatsion resurslar almashinuvini rag'batlantiradi, bu esa tadqiqot va rivojlanish faoliyatining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Uchinchidan, qo'shma ta'lim loyihalari talabalarning ijtimoiy-madaniy moslashuvini rivojlantiradi, ular turli millat va madaniyat vakillari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, bu esa global ish bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish tajribasi bir qator institutsional mexanizmlarga tayanadi. Ular orasida universitetlararo memorandumlar, xalqaro akkreditatsiya tizimlari, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari, hamkorlik shartnomalari va o'qituvchilar almashinuvi dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Erasmus+ dasturi doirasida amalga oshiriladigan qo'shma ta'lim loyihalari, AQSh va Kanada universitetlarining hamkorlik dasturlari talabalarga nafaqat akademik bilimlarni, balki ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarni ham egallash imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, bunday dasturlar universitetlarning xalqaro reytinglaridagi o'rini mustahkamlashga xizmat qiladi va ilmiy tadqiqotlarda hamkorlik darajasini oshiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, qo'shma ta'limni tashkil etish jarayoni murakkab pedagogik, ijtimoiy va institutsional mexanizmlarni talab qiladi. Bu jarayonda o'quv dasturlarining uzviyligi, kredit tizimlarining mosligi, akademik va ma'muriy resurslarning muvofiqligi, shuningdek, talaba va o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy moslashuvi kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar tahlili. Rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'limni amalga oshirishdagi universitetlararo hamkorlik tajribasini ilmiy jihatdan yoritishda xalqaro tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Birinchi navbatda, xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari va transmilliy hamkorlik tadqiqotlari general kontseptual ramkani shakllantiradi. Xalqaro birliklar asosida yaratilgan qo'shma ta'lim dasturlari oliy ta'lim muassasalari strategik integratsiyasini chuqurlashtirish instrumenti sifatida qaraladi[2]. Bu dasturlar talabalarga ikki yoki undan ortiq xalqaro universitetlar tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan o'quv rejalarni o'rganish imkonini beradi va amalga oshirilganda bitta yoki bir nechta diplom bilan bitiruvchini taqdirlaydi. Xalqaro adabiyotlarda metodologik nuqtai nazardan ham, AQSh va Yevropa tajribalarida qo'shma va ikki tomonlama diplom dasturlari ta'limning global integratsiyasini mustahkamlashda muhim vosita deb ta'riflanadi: ular akademik hamda madaniy mobillikni rag'batlantiradi va oliy ta'limni xalqaro darajada raqobatbardosh qiladi. Masalan, Yevropa kontekstida qo'shma darajalar Avropa Oliy Ta'lim Makoni doirasida ta'limning sifatini, kredit tizimlarining uyg'unligini va institutsional hamkorlik tarmog'ini mustahkamlashga xizmat qiladigan strategik curriculum mexanizmi sifatida o'rganilgan[3]. Bu dasturlar mobilitet, ikki tomonlama hamkorlik va akademik sifat kafolatini qayta aniqlaydi, hamda oliy ta'lim tizimlarining transmilliy integratsiyasiga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlilda qo'shma ta'lim dasturlarining talabalarga ta'siri ham muhim masala sifatida qayd etiladi. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro qo'shma va ikki diploma dasturlarida qatnashgan talabalar o'zlarining akademik bilimlari bilan bir qatorda madaniy kompetensiyalarini, professional salohiyatlarini va xalqaro raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshiradilar. Biroq, bu dasturlarni amalga oshirish jarayonida bir qancha murakkabliklar — o'quv dasturlarining harmonizatsiyasi, akademik standartlarning muvofiqligi va institutlararo ma'muriy masalalar paydo bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, universitetlararo hamkorlikni samarali amalga oshirish uchun qat'iy me'yoriy va strategik rejalashtirish talab qilinadi. 2025-yilda chop etilgan yangiroq ilmiy izlanishda

Xitoy va Germaniyadagi qo'shma akademik kollej misoli orqali qo'shma ta'lim hamkorligining murakkab institutsional mexanizmlari yoritilgan. Bu tadqiqot institutlarning turli ijtimoiy-pedagogik va siyosiy tizimlaridagi qurilish jarayonlarini chuqur tahlil qilib, xalqaro hamkorlikda yuzaga kelgan logistika, madaniy va siyosiy qiyinchiliklarni aniqlaydi hamda haydovchi institutlararo mexanizmlarning o'zaro uyg'unligini ta'kidlaydi. Shuningdek, qo'shma dasturlar talabalarining professional identifikatsiyasi, ijtimoiy integratsiya va pedagogik natijalarga ta'siri bo'yicha.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar qo'shma diplom dasturlarida ikki akademik diskursga ega bo'lish orqali o'z kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi, biroq bu jarayon ba'zida pedagogik va ijtimoiy qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi, chunki talabalar ko'pincha ikki turli institut normativ me'yorlariga moslashish zarurati bilan yuzma-yuz bo'ladi. Bu olimlarning ishlari rivojlangan davlatlardagi qo'shma ta'lim tajribasini chuqurlashtirib yoritadi, universitetlararo hamkorlik mexanizmlari, pedagogik strategiyalar va talabalar tajribalarini ko'p qirralikda tahlil qiladi. Mazkur adabiyotlar umumiy kontekstni shakllantirib, qo'shma ta'limning institutlararo hamkorlikdagi strategik ahamiyati, amaliy murakkabliklari va pedagogik samaradorligini ilmiy nuqtai nazardan yoritadi.

Metodologik qism. Ushbu tadqiqotda rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'limni amalga oshirishdagi universitetlararo hamkorlik tajribasini tizimli o'rganish uchun kombinatsiyalangan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro va milliy adabiyotlarni tahlil qilish orqali aniqlash, shuningdek, empirik ma'lumotlarni yig'ish va talabalarining ijtimoiy-madaniy moslashuvi hamda institutlararo hamkorlik mexanizmlarini o'rganish uchun sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari uyg'unlashtirildi. Sifatli tadqiqot usullari doirasida strukturalangan intervyular va ekspert baholari orqali universitetlararo qo'shma dasturlarni tashkil etishdagi strategik, institutsional va pedagogik mexanizmlar chuqur tahlil qilindi. Shu bilan birga, miqdoriy metodlar yordamida talabalarining akademik va madaniy moslashuvi, mobilitet darajasi va qo'shma ta'lim dasturlaridagi natijaviy ko'rsatkichlar statistik jihatdan o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida asosiy e'tibor universitetlararo hamkorlikni tashkil etuvchi strategik mexanizmlarga qaratildi, jumladan, xalqaro memorandumlar, akkreditatsiya tizimlari, kredit tizimlarining uyg'unligi, akademik resurslar taqsimoti va o'qituvchilar almashinuvi kabi omillar tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqotning metodologik ramkasi xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan qo'shma ta'lim dasturlarining samaradorligini baholashga yo'naltirildi, bunda nazariy va amaliy jihatlar uzviy bog'langan. Empirik qismda triangulyatsiya usuli qo'llanildi: intervyular natijalari, rasmiy statistik ma'lumotlar va xalqaro ta'lim standartlariga mos keluvchi hujjatlarni solishtirish orqali ma'lumotlarning ishonchliligi va validligi ta'minlandi. Shu tarzda, metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslangan, murakkab va tizimli xarakterini ta'minlaydi hamda rivojlangan davlatlardagi qo'shma ta'lim dasturlarining universitetlararo hamkorlik mexanizmlarini aniq va uzviy ravishda tahlil qilish imkonini yaratadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'limni amalga oshirish jarayonida universitetlararo hamkorlik samaradorligi bir necha asosiy omillarga bog'liq: birinchidan, o'quv dasturlarining xalqaro standartlarga mosligi va kredit tizimlarining uyg'unligi talabalarining akademik muvaffaqiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; ikkinchidan, talabalarining ijtimoiy-madaniy moslashuvi va turli pedagogik yondashuvlarga integratsiyasi ularning global raqobatbardoshligini oshiradi; uchinchidan, institutlararo strategik hamkorlik, jumladan, memorandumlar, akademik almashinuv dasturlari va xalqaro akkreditatsiya tizimlari qo'shma ta'limning barqarorligini ta'minlaydi. Empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, talabalarining 78%dan ortig'i qo'shma ta'lim dasturlarida qatnashish natijasida professional kompetensiyalarini va madaniy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirgan, shuningdek, 65% talaba institutlararo hamkorlik mexanizmlarining o'zaro uyg'unligini samarali deb baholagan.

Muxokama. Rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'limni amalga oshirish bo'yicha akademik hamkorlik amaliyoti haqidagi ilmiy adabiyotlarda olimlar o'rtasida izchil bahs-munozaralar mavjud bo'lib, ular shu sohadagi strategiyalar, samaradorlik va xavf-xatarlar bo'yicha turli qarashlarni ilgari suradi. Bir guruh olimlar qo'shma va ikki tomonlama diplom dasturlarining oliy ta'limda strategik afzalliklariga urg'u beradi, ularni xalqaro universitetlararo hamkorlikni chuqurlashtirishning samarali mexanizmi sifatida ko'rishadi. Bu nuqtai nazarga ko'ra, bunday dasturlar talabalarining akademik va madaniy kompetensiyalarini kengaytiradi, institutsional resurslar almashinuvini rag'batlantiradi hamda global mehnat bozorida raqobatbardosh malakani shakllantiradi. Ularning fikricha, qo'shma ta'lim dasturlari xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirilgan o'quv rejalari, kredit tizimlarining uyg'unligi va akkreditatsiya jarayonining mosligi orqali oliy ta'limning sifatini oshiradi va universitetlararo hamkorlik

tarmog'ini mustahkamlaydi (masalan, Erasmus Mundus va transmilliy hamkorlik dasturlari orqali). Biroq, boshqa olimlar bunday optimistik qarashlarga nisbatan tanqidiy yondashadi va qo'shma ta'limni faqat ijobiy tomoni bilan emas, balki murakkablik va xatarlar bilan baholash kerakligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotlarda qo'shma va ikki diploma dasturlarining samaradorligi, hamkorlik strategiyalari hamda sifat kafolatini ta'minlash bo'yicha amaliyotlar ko'pincha institutlararo resurslar, pedagogik yondashuvlar va akademik erkinlikning xilma-xilligi bilan bog'langan ekani ta'kidlangan. Shuningdek, olimlar jahon universitetlararo hamkorlikning global konteksti, uning geopolitik va texnologik omillar bilan bog'liqligi masalasida hambahs yuritadi. Ba'zi tadqiqotchilar transmilliy oliy ta'limda sun'iy intellekt, onlayn hamkorlik platformalari va virtual almashinuv dasturlari yangi imkoniyatlarni yaratishini ta'kidlaydi, ammo shu bilan birga bu texnologik yondashuvlar ko'p hollarda ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlashga qanchalik xizmat qilishi ham ko'tarilgan savollardan biridir. Ularning fikricha, texnologiyalar yordamida bajariladigan qo'shma dasturlar jarayonida ham kontent sifati, talaba pedagogik yordami va xalqaro akkreditatsiya talablari bilan moslashuv masalalari dolzarb bo'lib qoladi, bu esa strategik rejalashtirishni yanada murakkablashtiradi. Umuman olganda, mazkur olimlararo polemikalar qo'shma ta'limni amalga oshirishning ham afzalliklari, ham murakkabliklarini chuqur tahlil etish zaruratini ko'rsatadi, bunda hamkor universitetlar strategik, akademik, madaniy va institutsional jihatlarini hisobga olgan holda yanada samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim.

Xulosa. Rivojlangan davlatlarda qo'shma ta'limni amalga oshirishdagi universitetlararo hamkorlik tajribasi kompleks va ko'p qirrali jarayon ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, muvaffaqiyatli qo'shma ta'lim dasturlari universitetlararo strategik hamkorlik, akademik standartlarning uyg'unligi, kredit tizimlari integratsiyasi va talabalarining ijtimoiy-madaniy moslashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Empirik ma'lumotlar talabalarining akademik, madaniy va professional kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirganini, shuningdek, institutlararo mexanizmlarning samarali ishlashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tadqiqot murakkab institutsional, ma'muriy va pedagogik qiyinchiliklarni ham aniqladi, bu esa qo'shma ta'limning sifatini oshirish uchun strategik va tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada olimlar o'rtasidagi polemikalar orqali qo'shma ta'limning afzalliklari va murakkabliklari ilmiy jihatdan baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimov.J. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini o'quv dasturi asosida takomillashtirish //Nordic_Press. – 2025. – T. 7. – №. 0007.
2. Ximmataliyev.D.O., Usarboyeva.D..U. Talabalarining akademik mobilligini shakllantirish mexanizmlarini rivojlantirish //Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. – 2024. – T. 1. – №. 1. – С. 154-158.
3. Isaqulova.B. Ta'lim sifatini oliy ta'lim tashkilotlarida yaxshilashda til bilishning o'rni //Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3. – №. 6.

ТУРОННИНГ ТОШ ЧОҒИ БОСҚИЧЛАРИДА ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИГИ

Ахрорбек Абдуғаниев,
“ТИҚХММИ” МТУ катта ўқитувчиси,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация. Мазкур мақолада Турон худудида ўрта ва янги тош чоғи босқичларида чорвачилик хўжалигининг шаклланиши ва ривожланиш жараёнлари археологик ҳамда археозоологик манбалар асосида таҳлил қилинган.

Kalit so'zlar: Турон, тош чоғи, ўрта тош чоғи, янги тош чоғи, чорвачилик хўжалиги, хонакилаштириш, археология, археозоология, неолит маданиятлари.

Аннотация. В статье на основе археологических и археозоологических данных рассматриваются процессы формирования и развития скотоводческого хозяйства на территории Турана в эпоху среднего и нового каменного века.

Ключевые слова: Туран, каменный век, мезолит, неолит, скотоводство, одомашнивание животных, археология, археозоология, неолитические культуры.

Annotation. This article examines the formation and development of pastoral economy in the territory of Turan during the Mesolithic and Neolithic periods based on archaeological and archaeozoological evidence.

Keywords: Turan, Stone Age, Mesolithic, Neolithic, pastoral economy, animal domestication, archaeology, archaeozoology, Neolithic cultures.

Инсоният тарихида тош чоғи босқичлари хўжалик юритиш шакллариининг шаклланиши ва такомиллашуви жиҳатидан алоҳида аҳамиятга эга. Айниқса, Турон худудида ўрта ва янги тош чоғларида содир бўлган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар инсон жамоаларининг табиат билан муносабатлари, яшаш тарзи ва ишлаб чиқариш фаолиятида туб бурилиш ясаган. Бу даврда ўзлаштирувчи хўжалик (овчилик ва термачилик) билан бир қаторда ишлаб чиқарувчи хўжаликнинг дастлабки кўриниши – чорвачиликка асос солина бошлагани кузатилади.

Турон минтақасида иқлим шароитининг ўзгариши, фауна таркибининг бойиши ҳамда инсоннинг табиий муҳитга мослашув жараёнлари чорвачилик хўжалигининг вужудга келиши ва ривожланишига замин яратган. Археологик ёдгорликлар – Мачай, Қўшилиш, Сазағон, Жойтун, Калтаминор, Ҳисор ва бошқа маданиятларга оид манзилгоҳлардан топилган остеологик материаллар ушбу жараённинг босқичма-босқич кечганлигини кўрсатади. Хусусан, майда ва йирик шохли ҳайвонларнинг хонакилаштирилиши, айрим худудларда қорамол, эшак ва туя каби ҳайвон турларининг пайдо бўлиши жамоалар хўжалик ҳаётида муҳим ўзгаришлар рўй берганидан далолат беради.

Мазкур мақолада Туроннинг ўрта ва янги тош чоғи босқичларида чорвачилик хўжалигининг шаклланиши, унинг худудий хусусиятлари, археологик ва археозоологик далиллари ҳамда ўзлаштирувчи хўжалик билан ўзаро муносабати илмий таҳлил этилади. Шу орқали минтақада ишлаб чиқарувчи хўжаликнинг илк босқичлари ва унинг тарихий тараққиётдаги ўрни ёритиб берилади.

Ўрта тош чоғида Туроннинг ҳайвонот дунёси тури ва салмоғи ортади. Бунга иқлимнинг ўзгариши билан боғлиқ жараёнларни сабаб қилиб кўрсатиш мумкин. Музликнинг эриши натижасида Турон худудида нисбатан майда ҳамда кичик шохли ҳайвон турлари кўпаяди. Бунинг ёрқин далилини Мачай, Қўшилиш (сигир суяк қолдиқлари), Сазағон манзилгоҳларида кўплаб астеологик(суякшунослик) топилмалар мавжудлиги билан изоҳлаш мумкин. Мачайдан топилган суякларнинг кўпчилиги тоғ эчкиси, архар, қўй ва эчкиларга тегишли. Қисман чўчка, ит ва қора мол суяклари ҳам мавжуд. Ғор-маконнинг юқоридаги иккинчи маданий қатламидан топилган суякларни тадқиқотчи олимлар хонаки қўй ва эчкиларга тегишли бўлиб, аҳоли бу чоғда хонаки чорвачиликка асос солган эди, деб ҳисоблайдилар. Бундан ташқари Қизилқумдаги Оёқотма ёдгорлигида хонакилаштирилган от билан боғлиқ турли археологик аҳёлар ўрганилган. Шунингдек, Соё Сайёд ёдгорлигидан қўй ва эчки суякларининг кўплаб топилиши соё сайёдликлар ҳаётида чорвачилик муҳим рол ўй наганлигини кўрсатади. Шунингдек у ердан тулки, ёввойи от, бука ва бошқа ҳайвонларнинг ҳам суяклари топилиши овчилик улар хўжалигида иккинчи ўринда турган, деган хулосага олиб келади.

Янги тош чоғи милоддан олдинги 5 – 4 мингйилликка оид қоятош суратлари асосида Туронда чорвачилик манзарасини кўришимиз мумкин.

Янги тош чоғи Турон аҳолисининг хўжалик ҳаётидаги ўзгаришлардан бири бу уй чорвачилигининг бир мунча ўсганлигида намоён бўлади. Жумладан минтақанинг жанубий худудида жойлашган Жойтун маданиятининг дастлабки босқичда эчки ва қўй, охирида эса эҳтимол қора мол хонакилаштирилган. Жойтун маданиятининг ривожланган босқичда чорва молларининг сони кўпайиб, ушбу хўжаликнинг аҳамияти янада ўсган. Овчилик хўжалигининг мавқеи сақланиб қолади. Жайрон, қулон, ёввойи чўчка, тулки каби ёввойи ҳайвонлар ов қилинган. Жебел манзилгоҳи хўжалигида ҳам чорвачиликнинг мавқеи устун бўлган. Топилган суякларнинг асосий қисми хонаки эчки ва қўйларга тегишли. Ўзлаштирувчи хўжалик аҳамиятини йўқотмаган. Тўқай ва чўл шароитида тўда бўлиб яшайдиган ҳайвон ва қушлар ов қилинган.

Туроннинг ғарбий ва марказий қисмига оид Калтаминор маданиятининг яқунловчи босқичида (Саксаулсой манзилларида) хонаки чорвачилик хўжалиги таркиб топганлигидан гувоҳлик берувчи уй ҳайвонлари – сигир, қўй ва эчки суяклари топилган. Янги тош даври овчилари Калтаминор маданиятининг яқунловчи босқичида хар доим ҳам ов ўлжаси болаларини ўлдиравермаганлар. Аксинча уларни авайлаб-асраб тарбиялаш, айниқса овдан ўлжасиз қайтган

кезларда муҳим аҳамият касб этишини тушуниб етганлар. Шу боис кўзичоқлар қўлга ўргатилиб, аста-секин жамоага қўшимча даромад келтирувчи чорвачилик хўжалигига асос солинган. Калтаминор маданиятининг Ёнбош IV манзилгоҳидаги топилмалар чўл фаунасига хос қулон, сайгоқ, қўй ва эчки суякларидан иборат. Бу маданиятининг иккинчи босқичида қорамол ва эчки, қўй хонакилаштирилган. Охириги босқичида туя қўлга ўргатилган. Зарафшон водийси уй чорвачилигининг ҳайвон турларнинг хили ортиб боради. Сазагон II маконидан эчки ва қўй, қисман йирик туёқли қора мол, от, эшак ва туя, ит каби ҳайвонларнинг суяклари топиб ўрганилган. Ҳайвонлардан эчки, қўй ва итлар хонакилаштирилган. Шунингдек, Толстов маконидан, умуман Ўзбекистоннинг пасттекислик минтақаларидаги қатор неолит жамоалари маконларидан ёввойи буқа ва туяларнинг суяк қолдиқлари топилиши муҳим илмий кузатишларга тўртки бўлган. Масалан, буқа тадқиқотларда тур сифатида эътироф этилади, туянинг қолдиқлари эса бактрия туяси, икки ўрқачли туяга тегишли, деб тахмин этилади. Ишонарли далиллар етарли бўлмаганлигидан яқин вақтларгача бу ҳайвонларнинг Туронда энг қадимги маҳаллий хонакилаштирилган ҳайвонлар бўлгани шубҳа остида эди. Ўзбекистон кенгликларида, қолаверса, бутун Турон ҳудудида неолит чоғи жамоалари турмушида ёввойи от аниқланмаган. Тадқиқотлар Туронда тарихий тараққиётнинг кейинги босқичларида, хусусан, жез чоғида хонакилаштирилган отлар бўлганини кўрсатмоқда. Оқчадарё ҳавзаси ва Қуйи Зарафшон воҳаси экологик шароит жиҳатидан бир-бирига жуда ўхшаш, бу эса мазкур ҳудудда яшовчи неолит жамоаларининг деярли бир хил ёввойи ҳайвонларни ов қилишларига сабаб бўлган. Қуйи Зарафшон воҳасида Оқчадарё ҳавзасида учрамайдиган чўл қўйи яшаган. Шунингдек, бу жойлардаги иккита макондан ёввойи буқа (тур) суяги қолдиқлари аниқланган.

Тадқиқотлардан маълум бўлишича, Ҳисор маданиятилар термачилик, овчилик юмушлари билан шуғулланиб қолмасдан, ҳайвонларни хонакилаштирганлар, содда усулларда бўлса-да, экин-тикинчиликдан ҳам хабардор бўлганлар.

Археологлар Тутқовул макони маданий қатламларидан хонакилашган эшак, қўй ва эчкиларнинг суякларини аниқлайди. Сайёд макони Ҳисор жамоаларига оид маданий қатламдан топилган ҳайвон суякларининг 70 фоизини хонакилашган қўй ва эчки суяклари ташкил этганини келтирган.

Неолит чоғи жамоалари турмушида турли ҳайвонларнинг хонакилашганлиги борасида яқин йилларда Ўрта Зарафшон воҳасида тадқиқ этилган Очилғор ёдгорлиги қазилмалари муҳим маълумотлар берди. Бу маълумотлар маконнинг маданий қатламлари бўйича тадқиқотда қўлга киритилган ҳайвон суяклари билан боғлиқ. Бугунги кунда Ўрта Зарафшон микёсида кўплаб ўрта ва янги тош чоғларига оид ёдгорликлар ўрганилган бўлса-да, лекин ҳайвонлари тадқиқ этилган ёдгорликлар саноклидир. Улар жумласига Учтут, Сазогон II, Жангал I, Замичатош, Очилғор каби ёдгорликларнигина киритиш мумкин.

Сазогон II неолит макони фаунаси томонидан тадқиқ этилиб, тадқиқот натижаларининг кўрсатишича, уларнинг кўпчилиги майда ва йирик шохли ҳайвонлар ҳамда от, эшак, туя, ит каби хонакилаштирилган ҳайвонларга тегишлидир.

Очилғор манзилгоҳидан топилган ҳайвон суяк ашёлари орасида кўпроқ илмий муҳокамага молик бўлгани ибтидоий хўкиз (тур)га мансуб суяк қолдиқлари мавжуд. Экологик-морфологик ўрганишлар хўкиз асосан сой бўйи тўқайзорлари ҳамда очик кўринишли чўл ва даштларда яшаганликларини кўрсатмоқда. Ибтидоий хўкизга оид архео-палеозоологик ашёлар Турон микёсида пастки ва ўрта плейстоцен чоғи нуктаи назаридан Селунгур, Қўлбулоқ, Омонқўтон, Обираҳмат, Қўтирбулоқ маконлари тадқиқида қўлга киритилган. Голоцен чоғи топилмалари эса неолит чоғига оид Сойсайёд, Тутқовул, Учтут, Учаши-131, Жангал I ҳамда кейинги тараққиёт босқичларига мансуб Анов, Сополлитепа, Жарқўтон ва Талашгантепа-I каби археологик ёдгорликлардан топиб, аниқланган.

Ўрта Зарафшон воҳаси неолит чоғига оид маконлар тадқиқотида қўлга киритилган ҳайвон суяклари қолдиқлари таҳлили улар камида 20 турдан кам бўлмаган ёввойи ов ҳайвонлари ва 6 турга оид хонаки ҳайвонларга мансублигини кўрсатади. Очилғор макони маданий қатламларидан ҳам ёввойи ва хонакилашган ҳайвон суяклари қолдиқлари топилган.

Бу маълумотлар Турон сарҳадларида ўрта тош чоғи сўнгги босқичи ва янги тош чоғи жамоалари турмушида хонакилашган чорвачилик хўжалиги соҳаси бўлгани ҳақида хулосага келиш имконини беради. Бу хўжалик турининг дастлабки кўринишлари (Қўшилиш маконини ҳисобга олмаганда), тоғ ёнбағирлари, паст тоғлар адирлари сарҳадларида пайдо бўла бошлаган. Бу

хақда мазкур ҳудудларда тадқиқ этилган очик ҳолатда ёки ғор-ўнгур туридаги маконлар археологик топилмалари маълумот беради.

Тадқиқот натижалари чорвачиликнинг илк кўринишлари асосан тоғ ёнбағирлари, адир ва тўқайзор ҳудудларда пайдо бўлганини кўрсатади. Бу жараён босқичма-босқич кечиб, дастлаб ёввойи ҳайвон болаларини асраб парваришlash орқали бошланган ва кейинчалик мақсадли хонакилаштиришга ўтилган.

Умуман олганда, Туроннинг тош чоғи босқичларида чорвачилик хўжалигининг шаклланиши минтақада ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг муҳим босқичини ташкил этади. Бу жараён кейинги даврлардаги деҳқончилик ва чорвачиликка асосланган мураккаб хўжалик тизимларининг вужудга келиши учун мустаҳкам пойдевор яратган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Brunet.F. Comment penser la neolithisation Enasiecentrale (xe-ivemille`naires)? L`emergence de nouveaux models de society's entre se`dentaireset nomads // Paleorient. CNRS edition. Vol 37/1 2011. P. 187-204.
2. Brunet.F., Khudzhazarov.M., Hoshimov.H.B., Nouvelles donnesslera chronologie de la culture de Kel`teminar (VII-IV millionaires) en Ouzbekistan // The history of material culture of Uzbekistan. 38 edition. Samarkand, 2012. P. 118-125.
3. Hoshimov.H.B. The Neolitik of Central Asia // 6 the International congress of Eurasian arxeology Eurasian Prehistory Bursa.- Izmir, Turkey, 2017.
4. Pardyev.M. So`x havzasida antropogen landshaftning tashkil topishi va urbanizatsiya jarayonlar dissertatsiyasi albomi. – Toshkent, 2024. – 21 b

TALABA-YOSHLARNING FUQAROLIK MAS'ULIYATI: AN'ANA, RAQAMLI MUHIT VA MA'NAVIY SUBYEKTLIK UYG'UNLIGI

Dilbar Ro'zmetova,
Alfraganus universiteti dotsenti,
Falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada talaba-yoshlarda Vatanga nisbatan fuqarolik mas'uliyati qanday shakllanishi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma'naviy-axloqiy barqarorlikni ta'minlovchi omillar — oilaviy tarbiya an'analari, ta'lim muassasasi normalari, tengdoshlar muhiti va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri kontekstida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik mas'uliyati, ma'naviy subyektlik, gibrad madaniyat, patriotizm amaliyoti, media savodxonlik, yoshlar identichligi, qadriyatli tarbiya, jamoatchilik ishtiroki.

Аннотация. В статье социально-философски анализируется процесс формирования гражданской ответственности у студентов и молодежи по отношению к Родине. В исследовании раскрываются факторы, обеспечивающие духовно-нравственную устойчивость, в контексте традиций семейного воспитания, норм образовательного учреждения, среды сверстников и влияния социальных сетей.

Ключевые слова: гражданская ответственность, духовная субъектность, гибридная культура, практика патриотизма, медиаграмотность, молодежная идентичность, ценностное воспитание, общественное.

Abstract. The article provides a socio-philosophical analysis of how civic responsibility toward the Motherland is formed among students and young people. The study reveals the factors ensuring spiritual and moral stability in the context of family upbringing traditions, the norms of educational institutions, the peer environment, and the influence of social networks.

Keywords: civic responsibility, spiritual subjectivity, hybrid culture, practice of patriotism, media literacy, youth identity, value-based education, public participation.

Kirish. Bugungi kunda ko'pchilik olimlar biz yashayotgan XXI asrni – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr, zamonaviy va ilg'or texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish sohalarini shiddatli o'sib borayotgan davr deb baholamoqda.

Biz yapon mu'jizasi, koreys tabiati kabi iqtisodiy o'sish namunalarini o'rganar ekanmiz, avvalo ularda millat tafakkurini tubdan taraqqiy ettirishga asosiy urg'u berilganiga guvoh bo'lamiz. Yurtimizda belgilangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha strategik yechimlar bosqichma-bosqich ishlab chiqarishga joriy etilishi boshlab yuborildi. Asosiysi, aholi ongida milliy tafakkurni o'zgartirish, qolaversa, o'sib kelayotgan avlod ongida milliy madaniyat va qadriyatlarga hurmat ko'nikmasini chuqur singdirib borish zarurati davrlar o'tib yanada oshib boraveradi. Zero, har tomonlama sog'lom fikrli xalq bilangina yuqorida belgilangan buyuk vazifalarni amalga oshirish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekiston Respublikasining hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma'naviy zamin va qadriyatlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida bilim berish hamda milliy ruhda tarbiyalash har doim jamiyatning eng dolzarb muammolaridan bo'lib kelgan. Mazkur vazifalarni o'z o'rnida, to'la-to'kis amalga oshirilmagan taqdirda ijtimoiy taraqqiyot ham ta'minlanmaydi. Chunki jamiyat manfaati yo'lida o'zidagi barcha bilim, qobiliyat va iste'dodini baxshida etadigan o'z kasbi va yurtiga fidoyi, yuksak bilim va ko'nikmaga ega, mustahkam hayotiy pozitsiyasi shakllangan, tadbirli va ishbilarmon yetuk kadrlargina O'zbekistonni dunyodagi har tomonlama ilg'or davlatlar safiga chiqib borishini ta'minlab beradi.

Prezidentimiz, "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz"[1] – deb ta'kidlaydi. Haqiqatda bugungi kunda yoshlar ongini manipulyatsiya qilishga qaratilgan hamda buzg'unchi qarashlarni singdirishga bel bog'lagan kuchlar ko'plab topiladi. Bunday yovuz kuchlarga qarshi faqat va faqat ilm-fan, ta'lim-tarbiya sohalarida tanaffussiz islohotlar orqali kurashishni taqazo etadi.

Vatanga muhabbat shundan iboratki, har bir yosh avlodni ma'rifatli qilib voyaga yetkazish va yurt ravnaqi yo'lga safarbar etishdir. Shuning uchun Islomda haqiqiy fidoiylilik, bu ilm yo'lidagi jiddu-jahd hisoblanadi. Bu esa shubhasiz mamlakatning gullab yashnashiga ta'sir etadi. Shundan kelib chiqib: "O'n yillik foydani o'ylasang daraxt ek, yuz yillik foydan o'ylasang yoshlarni tarbiya qil va ularni bilimga ega qil"-degan naql xalq ichida mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. XXI asr kommunikatsiya asri, axborot asri sifatida baholanmoqda. Tom ma'noda internet yildan yilga keng taraqqiy topmoqda. Internetsiz bugungi kunda hech bir sohani tasavvur qila olmaymiz. Har qanday taraqqiyotning ijobiy hamda salbiy oqibatlarini bo'lgani singari internet tarmoqlarining ham o'ziga xos salbiy jihatlari ham borki, har bir shaxs o'zida internetdan foydalanish mas'uliyatini singdirish talab etiladi.

"Mas'uliyat" – falsafiy kategoriya sifatida ijtimoiy voqelikda insonning anglanilgan hatti-harakatlarini ifodalaydi. Bu falsafiy kategoriya orqali insonlarning ijtimoiy-ma'naviy, moddiy-jismoniy, ruhiy-tabiiy mas'uliyat kabi xislatlari qamrab olinadi va tahlilga tortiladi. Ijtimoiy falsafada bu tushuncha shaxsning jamiyat oldidagi ma'naviy-axloqiy talablarni bajarishi nuqtai nazaridan olib qaraladi. Shaxs ma'naviy kamolotida mas'uliyat masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mas'uliyatning ijtimoiy-ma'naviy funksiyasi turli zamon va makonga qarab o'zgacha mazmun kasb etib boradi. Bu bevosita shaxslararo, guruhlararo, davlat va jamiyatlararo munosabatlar tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, shaxs ma'naviy taraqqiyotining har bir bosqichida o'z ifodasini topgan mas'uliyat darajasi ham o'zgarib boradi va shaxs ma'naviy faoliyati, uning turfa xususiyatlari bilan bir butunlikda kechadi. Demak, ijtimoiy mas'uliyat inson ma'naviy hayotining mazmun- mohiyatini tashkil qiluvchi bosh omil hisoblanadi. Har bir shaxs o'zining vatan, xalq, jamiyat oldidagi fuqarolik burchi vijdon ishi ekanligini his qilmog'i lozim. Zero, o'z burchini, mas'uliyatini yaxshi his qilgan odamlarning xalq, yurt oldida obro'yi, qadr-qimmat, mavqei oshib, bunday shaxslarni barcha birday e'zozlaydi[3].

Mutafakkir olim Abdurauf Fitrat mas'uliyatni shaxsning " ma'naviy xatti – harakatlari majmui " sifatida talqin etadi[4]. Darhaqiqat, inson ma'naviy mavjudot ekan, uning xatti – harakatlarida ham ma'naviylik aks etishi tabiiy holdir. Shaxs qachon o'zining harakatlari oqibatini o'ylasa va buning uchun ma'naviy javobgarligini vijdonan his etsa, ana shunda mas'uliyat haqiqiy ma'naviy xatti- harakatlar majmuasiga aylanadi. F.A.Mamadaliyeva tadqiqotida: "Mas'uliyatda shaxsning o'ziga xos ma'naviy jihatlari namoyon bo'ladi. Masalan iymon-e'tiqodlilik, vijdoniylik, or-nomuslilik, irodalilik, ruhan

poklik, samimiylik, g'ururlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik"[5]. Demak, bugungi tahlikali bir davrda ma'naviy barkamol shaxsni shakllanishida mas'uliyatning o'rni beqiyos.

Ma'lumki, jamiyat va mamlakatning barcha jabhalardagi rivojlanishida insonning ijtimoiy faoliyati, xususan, uning Vatan oldidagi mas'uliyati birinchi o'rinda turishi kerak. Ana shu jihat qancha yuqori bo'lsa butun jamiyatda farovon hayot kechirishga imkon yaratiladi, chunki jamiyatning eng katta boyligi ana shu insonlar va ularning go'zal fazilatlaridir. Agarda yuksak ma'naviyatli jamiyat shakllanishiga qat'iy ishongan, bunga chuqur e'tiqod etadigan kadrlar yetishtirilsa, avvalo shunday jamiyat bo'lishiga komil ishonchi va e'tiqodi bo'lgan imonli, barkamol insonlarni tarbiyalay olinsagina ana shu jamiyat va davlatda barqarorlik, farovonlik, osoyishtalik, taraqqiyot tezlashadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, toki bugungi kunga qadar bu masalaga davlat siyosati darajasida qarab kelingan. «Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, bugungi shiddatli o'zgarishlar davrida mustaqillikni mustahkamlashning faol kurashchisi bo'lib, milliy bayramlardan, g'oyaviy targ'ibotdan foydalanish, globallashtirishning turli illatlariga, axborot xurujlarining har qanday ko'rinishiga, «ommaviy madaniyat» tahdidiga nisbatan g'oyaviy kurashchanlikni namoyon qilish, milliy o'zlikni himoya qilish uchun kurasha olish, buzg'unchi g'oyalarga, xoinlikka, loqaydlikka, mahalliychilikka, terrorizmga, kosmopolitizmga qarshi kurashish, buyuk kelajakka ishonch hissi bilan yashash fazilatlarini shakllanadi.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning, “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degani hozirgi vaqtda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Tahlil va natijalar. Taraqqiyotning bugungi holatida inson omili bilan bog'liq shunday muammolar yuzaga kelmoqdaki, ularning ko'lami ijtimoiy falsafa sohasining muhim tadqiqot ob'ektiga aylandi. Insonning oliy tuyg'ularidan biri sanalmish vatanparvarlik hissini shakllantirish va yuksaltirish masalasi ana shunday muammolar sirasiga kiradi. Vatanparvarlik tarbiyasida ijtimoiy muhit, an'ana, mafkura va g'oyalar bilan bog'liq jihatlarni ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

- mustaqillik tufayli yangi ma'naviy qadriyatlarning yaratilishi, inson erkinligi va qadr-qimmatini bilan bog'liq huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy tushunchalarning paydo bo'lishi ma'naviy-axloqiy ongning mohiyatini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishni talab qilmoqda;

- yurtga sadoqat tuyg'ularini ilmiy jihatlari keng ko'lamlari tadqiqotlarni taqozo etadi. Chunki, mamlakat taraqqiyotida vatanparvarlik, insonparvarlik an'analari va g'oyalari bilan uyg'un holda rivojlanishi o'z o'rnida, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy vaziyat va muhit bilan bog'liqdir. Shuning uchun turli an'ana, qadriyat va g'oyalarning o'zaro integratsiyasi ro'y berayotgan hozirgi globallashtirish sharoitida mazkur muammoni tadqiq etish har qachongidanda muhim ehtiyojga aylanib bormoqda;

- xalqaro va davlatlararo ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlarda asosan siyosiy va huquqiy mezonlar yetakchilik qilgan bo'lsa, XXI asrga kelib bu jarayonlarga yuksak insoni fazilatlar ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sirning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ilmiy tadqiq etish g'oyatda muhim masalalar sirasiga kiradi;

- insoniyatni birlashtiruvchi ma'naviy integrativ tizim yaratilayotgan bir paytda yoshlar ongiga ko'rinishdagi tahdidlar kuchayib bormoqda. Bugungi kunda turli xil shakl va ko'rinishlardagi bu tahdidlarga qarshi kurashning ilmiy fundamental asoslarini yaratish zarurligini taqozo etmoqda;

- globallashtirish o'zining ijobiy jihatlari bilan birga ezgulik, bag'rikenglik, shafqatlilik, muruvvatlilik kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga qarshi «ommaviy madaniyat» nomi ostida kosmopolitik dunyoqarash singari tahdidlar ham yuzaga keltirayotganligini unutmaslik zarur. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo, xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur»[2], – deya ta'kidlaydilar.

- yoshlarning zamonaviy qiyofasini shakllantirishda ma'naviy-diniy qadriyatlar, allomalarning ilmiy merosi hamda xalq tafakkuri ijtimoiy ahamiyatga ega. Vatanparvarlikning tub mohiyati deyarli

barcha xalqlarning diniy va falsafiy, ijtimoiy-axloqiy tasavvur, tushuncha va qonun-qoidalari bilan uyg'un holda o'z ifodasini topgan.

- bugungi kunda ta'lim tizimida bo'layotgan o'zgarishlar faqat o'quv jarayonlarini takomillashtirishnigina nazarda tutmasdan, balki milliy falsafamizning yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlaridan oqilona foydalanishni ham taqozo qilmoqda. Bu jarayonda professor-o'qituvchilar, sohaning boshqaruv xodimlaridan ham yuksak mas'uliyat talab etiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning an'anaviy va zamonaviy dialektikasida ma'naviy jihatdan yangicha dunyoqarash, o'zaro aloqadorlikda taraqqiy etish va bunday jarayonning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotining rivojlanishiga ta'siri haqida so'z yuritildi.

Demak, hozirgi davrdagi Uchinchi Renessansga xos bo'lgan yuksak ma'naviy-ma'rifiy yuksalish haqida, uning yoshlar orasida keng targ'ib etilishi borasida bir qancha muammolar borligiga e'tibor qaratish lozim, bu birinchidan.

Ikkinchidan, Vatanparvarlikning an'anaviy metodologik-nazariy asoslari (qadimgi ma'naviy yodgorliklar, allomalarning asarlari, zamonamiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari)dan ijobiy foydalanishni yo'lga qo'yish zarur. Zero, bu yoshlar ma'naviy dunyosining kengayishi hamda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllanishida muhim vazifani bajaradi, shuningdek, ularda ajdodlariga nisbatan faxr va iftixor tuyg'ularini shakllantiradi.

Uchinchidan, falsafa, ma'naviyat asoslari, siyosatshunoslik, tarix, adabiyot darslari hamda «Murabbiylik va axborot soati»da talaba-yoshlarga yuksak ma'naviy kamolatga doir ma'lumotlar berib borilsa, ularda vatan olidagi mas'uliyat hissi yanada shakllanishiga zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-kitob, Toshkent: "O'zbekiston", 2018, -B. 252.
2. Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 17 b.
3. Ergashev I. S. Shaxs ma'naviy kamolotida erkinlik va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligi. nomz. Diss. Avtoreferati. - Toshkent: 2011, -B. 12.
4. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. -Toshkent: 2010, -B. 633.
5. Mamadalieva F.A. Islomiy qadriyatlarda shaxs mas'uliyati muammosi. Diss. (PhD). - Toshkent: 2020, -B. 17

ГРАФИКЛИ ОРГАНАЙЗЕРЛАДАН FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI (Tarix fanlari misolida)

Shaxnoza Yakubova,
"TIQXMMI" MTU dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarix fanlarini o'qitish jarayonida grafik organayzerlardan foydalanishning didaktik va metodik afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: grafik organayzerlar, tarix fanlari, ta'lim metodlari, vizual ta'lim, tarixiy tafakkur, didaktik vositalar, o'quv jarayoni, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются дидактические и методические преимущества использования графических органайзеров в процессе преподавания исторических дисциплин.

Ключевые слова: графические органайзеры, исторические дисциплины, методы обучения, визуальное обучение, историческое мышление, дидактические средства, учебный процесс, инновационный подход.

Annotation. This article analyzes the didactic and methodological advantages of using graphic organizers in the teaching of history.

Keywords: graphic organizers, history, teaching methods, visual learning, historical thinking, didactic tools, learning process, innovative approach.

Fuqarolik jamiyati demokratik siyosiy tizim shakllanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati aholi ijtimoiy faolligining davlat organlari faoliyatiga bog'liq bo'lmagan turli shakllarini o'zi ichiga olgan majmuani ifodalaydi hamda jamiyat tuzilishining haqiqiy holati yoki darajasini namoyon etadi. Fuqarolik jamiyati tushunchasi ifodalaydigan ijtimoiy aloqalar majmui u yoki bu mamlakat xalqiga xos bo'lgan fuqarolik munosabatlarining sifat ko'rsatkichi bo'lib, ijtimoiy sohada davlat va jamiyat funksiyalarini farqlaydigan asosiy mezon hisoblanadi. Siyosiy hokimiyatning jamiyat va uning a'zolari ustidan hukmronligi emas, balki jamiyatning davlatga nisbatan birlamchiligi sharoitida, boshqacha aytganda, haqiqiy demokratiya sharoitida insonning tom ma'nodagi erkinligi ta'minlanishi mumkin. Bunday jamiyatga o'tish tarixiy jihatdan uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan bog'liqdir.

Bu borada O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida yangi taraqqiyot bosqichi davrida kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayoni jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Jahonda turli o'zgarishlar va voqea-hodisalar sodir bo'layotgan bir pallada davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, sud-huquq, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalar va xavfsizlikni ta'minlash davlatimizning asosiy strategiyasiga aylandi.

Respublikamizda ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish hamda uni rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida katta e'tibor berib kelinmoqda. Bu sohada amalga oshirilgan islohotlarning keng qamrovli va jahon andozalariga mos bo'lishida, uni har tomonlama o'ylangan, jamiyatning barcha ijtimoiy tabaqalari manfaatlarini hisobga olgan me'yoriy-huquqiy asoslarining shakllantirilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuni aytish kerakki, milliy ta'lim tizimining me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishda asosiy e'tibor zamonaviy, uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirishga hamda yangicha fikrlaydigan, vatan kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga hamda barpo etilayotgan jamiyatning demokratik qiyofasini belgilab berishga qodir bo'lgan, yuqori intellektual salohiyatga ega, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashga qaratildi.

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblangan oliy ta'limning yangi milliy ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish borasidagi amaliy ishlari, shuningdek, yangi darsliklar va maxsus o'quv qo'llanmalari yaratish orqali ta'lim jarayonining mazmunini tubdan o'zgartirishga xizmat qiluvchi me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilganligi diqqatga sazovordir. Ayniqsa, yurtimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"ning qabul qilinishi juda katta voqea bo'lib, unda mamlakatimizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish kabi dolzarb vazifalarni bajarish nazarda tutilgan.

Bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'limi oldida yoshlarida zarur kasbiy bilim, yuksak vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bu esa oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tarkibini malakali ilmiy-pedagogik, birinchi navbatda, sohaviy fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan kadrlar bilan to'ldirish, katta amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni o'quv jarayoniga keng jalb etish, o'qitishning zamonaviy shakl va usullarini, eng yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan, situatsion mashg'ulotlarni, masofadan o'qitish tizimini keng joriy etish, ta'lim oluvchilar hamda o'qituvchilarning global axborot-huquqiy va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash kabi muhim vazifalarni bajarishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda barcha oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'limni tashkil etish va boshqarishga qo'yiladigan muhim talablardan biri – bu ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf qilmay, qisqa muddatda yuksak samarali natijalarni qo'lga kiritishdir. Qisqa muddat ichida nazariy va amaliy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda aniq va ma'lum faoliyat doirasida tushuncha hamda malakalarni yaratish, shu bilan birga talabalar faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va egallagan bilim, tushuncha hamda

malakalarini baholash o'qituvchilardan yuksak pedagogik mahorat va ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo qiladi.

Mashhur xitoy faylasufi Konfutsiy "Aytsang unutamani, ko'rsatsang eslab qolaman, o'zim bajarib anglab yetaman", degan edi. Xalqimizda ham "Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi" degan naqlni hamma biladi. Ma'lumki, ta'lim jarayonida og'zaki ravishda materiallarni o'zlashtirish ko'rsatkichi 10% bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi. Shuning uchun ham mashg'ulotlarda o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim. Mazkur jarayonda grafik organayzerlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, bunda talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati keskin oshishi kuzatiladi.

Bizga ma'lumki, grafik organayzerlar (tashkil etuvchi) – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi hisoblanadi. Uning turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Ma'lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo'lib chiqish, o'rganilayotgan tushunchalar (voqea va xodisalar, mavzular) o'rtasidagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert texnologiyasi, B/B/B jadvali.

2) Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali, "Venn" diagrammasi.

3) Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari: "Nima uchun?", "Balik skeleti", "Piramida", "Nilufar guli" sxemalari, "Qanday?" iyerarxik diagrammasi, "Kaskad" tarkibiy-mantiqiy sxemasi va boshqalar.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

O'qitishning interfaol metodlarini ta'lim tizimiga joriy qilish zamonaviy kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda o'qituvchi uchun mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish va bilimga chanqoq yoshlar bilan to'la auditoriyaga katta hajmdagi bilimlarni berishning o'zi yetarli emas. O'tkazilgan ko'pgina tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, o'qitishga yangicha qarash, talabalarni o'qitishda faol yondashuvlardan foydalanish bilim berishning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda asosiy metodik innovatsiyalar o'qitishning interfaol metodlarini qo'llashni taqozo etadi.

Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallashini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaraolishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan bizga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish professor-o'qituvchilardan pedagogik mahoratni talab etadi. Har bir o'quv mashg'ulotiga tayyorlanish jarayonida professor-o'qituvchi bu mashg'ulotni oldindan loyihalashtiradi, rejalashtiradi va kerak bo'lgan grafik organayzerlarni tanlaydi. Grafik organayzerlardan har bir o'quv mashg'ulotida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasidir. Mazkur organayzerlar fikriy

jarayonlarni vizuallashtirish hamda olingan axborotni grafik ifodalash xususiyatiga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Talabalarga dars mavzularini grafik organayzerlar yordamida tushuntirish quyidagi muhim jihatlarga ega:

– *birinchidan*, grafikli organayzerlar o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi, shuningdek, ularga o'quv materialini tushunish va mustahkam eslab qolishlari uchun imkoniyat yaratadi;

– *ikkinchidan*, grafikli organayzerlar orqali mashg'ulot mavzusini o'rganish talabalarni yanada faolroq bo'lishga olib keladi hamda ularni erkin fikrlashga da'vat etadi;

– *uchinchidan*, ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llash talabalarda mustaqillik, o'zini-o'zi nazorat, o'zini-o'zi boshqarish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil va tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, o'z nuqtai-nazarini himoya qilish kabi ko'nikmalarni paydo qiladi;

– *to'rtinchidan*, mashg'ulotlarda interfaol metodlar, jumladan, grafik organayzerlardan foydalanish ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashda, uning samaradorligini oshirishda, o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishda muhim ahamiyatga ega;

– *beshinchidan*, interfaol metodlar har bir talabaning ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olishi, muammoni yechishda ijodiy yondashishi, shaxs sifatida o'zini yorqin namoyon qilishi uchun muhim omil hisoblanadi;

– *oltinchidan*, o'qituvchi interfaol metodlarni qo'llash orqali talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2020.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaat-larini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev-ning 2017-yil 23-dekabr kungi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2017-yil 24-dekabr.

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA VA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING O'ZGARISHI

Zafar Botirov,
Alfraganus universiteti,
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o'qituvchisi,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida shaxslararo munosabatlarda yuz berayotgan o'zgarishlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirilgan jamiyat, raqamli transformatsiya, inson omili, axborot xavfsizligi, raqamli tengsizlik, raqamli savodxonlik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, ijtimoiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются изменения, происходящие в межличностных отношениях в результате развития цифровых средств коммуникации.

Ключевые слова: цифровизированное общество, цифровая трансформация, человеческий фактор, информационная безопасность, цифровое неравенство, цифровая грамотность, защита персональных данных, социальное развитие.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the changes occurring in interpersonal relationships as a result of the development of digital communication tools.

Keywords: digitalized society, digital transformation, human factor, information security, digital inequality, digital literacy, personal data protection, social development.

Kirish. XXI asr raqamlashtirish, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda insoniyat hayotining deyarli barcha sohalari, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot, madaniyat hamda shaxsiy hayot raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Ushbu jarayon jamiyat taraqqiyotiga, axborot almashinuvi tezlashishiga va inson imkoniyatlarining kengayishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish jarayoni inson ruhiyati, shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy hayot tarzida muayyan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar ta'sirida shaxsiy hayot daxlsizligining cheklanishi, real muloqotning qisqarishi, ijtimoiy aloqalarning virtual makonga ko'chishi, mehnat bozorida ish o'rinlarining avtomatlashtirilishi, yolg'on va manipulyativ axborotlarning keng tarqalishi kabi masalalar tobora dolzarb tus olmoqda. Bu holatlar insonning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatdagi faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirilgan jamiyat sharoitida yuzaga kelayotgan jarayonlarning ijobiy va salbiy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilish, inson omilini himoya qilish hamda texnologiyalar bilan uyg'un hayot tarzini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada raqamlashtirilgan jamiyatda insoniyat duch kelayotgan asosiy muammolar yoritilib, ularni bartaraf etish bo'yicha nazariy va amaliy yechimlar ilgari suriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — texnologik taraqqiyot sharoitida insoniylik, ijtimoiy barqarorlik va ruhiy sog'lomlikni saqlab qolish yo'llarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda raqamli kommunikatsiya va uning shaxslararo munosabatlarga ta'siri amaliyotchi tadqiqotchilar hamda ijtimoiy fanlar vakillari tomonidan keng o'rganilmoqda. Globalashuv va raqamlashtirish jarayonlari natijasida insonlar o'rtasidagi muloqot shakllari tubdan o'zgarib, an'anaviy yuzma-yuz aloqa o'rnini tobora ko'proq virtual kommunikatsiya egallamoqda. Jahon miqyosida Manuel Kastelsning "Tarmoq jamiyati" konsepsiyasi raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan yangi ijtimoiy tuzilmalarni tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [1]. Unga ko'ra, axborot oqimlari va raqamli tarmoqlar shaxsning jamiyatdagi o'rnini qayta belgilab bermoqda.

Shoshana Zuboffning "Kuzatuv kapitalizmi davri" (The Age of Surveillance Capitalism) asari esa raqamli kommunikatsiya jarayonlarida shaxsiy ma'lumotlarning iqtisodiy resursga aylanishi, shaxsiy hayot daxlsizligining zaiflashuvi va inson xulq-atvorining boshqarilishi kabi muammolarni chuqur tahlil qiladi [2]. Bu jarayonlar shaxslararo munosabatlarda ishonch, erkinlik va axloqiy mas'uliyat masalalarini yangicha talqin etishni taqozo etmoqda. Shuningdek, Klaus Schwab tomonidan ilgari surilgan "To'rtinchi sanoat inqilobi" g'oyasi raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy munosabatlarni ham tubdan o'zgartirayotganini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va raqamli platformalarning inson psixologiyasi hamda kundalik muloqot madaniyatiga ta'siri alohida e'tiborga olinmoqda. Masalan, raqamli muhitda tezkor axborot almashinuvi bir tomondan muloqotni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan yuzaki munosabatlar, yolg'izlik hissi va ijtimoiy begonalashuv kabi holatlarni kuchaytirayotgani qayd etilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham raqamli iqtisodiyot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ijtimoiy hayotga ta'siri, yoshlar ongida va ijtimoiy tafakkurda yuzaga kelayotgan o'zgarishlar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamli taraqqiyotga oid strategik qarorlari, jumladan "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturining amalga oshirilishi jamiyatda ochiqlik, muloqotning yangi shakllari va davlat–fuqaro munosabatlarining raqamli modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda [5]. Umuman olganda, raqamli kommunikatsiya shaxslararo munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqayotgan murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, u ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, axloqiy, huquqiy va madaniy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois mazkur jarayonlarni chuqur ilmiy tahlil qilish va ularning jamiyat rivojiga ta'sirini kompleks o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Raqamli kommunikatsiyaning shaxslararo munosabatlarga ta'siri borasida olib borilgan empirik tadqiqotlar uning jamiyat hayotida chuqur va o'lchab bo'ladigan o'zgarishlarni yuzaga keltirayotganini ko'rsatadi. Masalan, Pew Research Center tomonidan 2018-yilda AQShda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, respondentlarning qariyb 45 foizi doimiy ravishda smartfonlardan foydalanish ularning yaqinlari bilan yuzma-yuz muloqot sifatini pasaytirganini ta'kidlagan [4]. Ushbu holat raqamli qurilmalar

shaxslararo munosabatlarda chalg'ituvchi omilga aylanayotganini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ham muhim faktlarni ochib bermoqda. 2017-yilda University of Pennsylvania olimlari tomonidan o'tkazilgan tajriba natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini kuniga 30 daqiqagacha cheklagan talabalar orasida yolg'izlik hissi va depressiv holatlar sezilarli darajada kamaygani aniqlangan [3]. Bu raqamli kommunikatsiyaning miqdori va sifati shaxslararo munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi. Facebook, Instagram va Telegram kabi platformalar shaxslararo aloqalarning tuzilishini o'zgartirib yubordi. Masalan, Facebook kompaniyasining o'z hisobotlariga ko'ra, foydalanuvchilar o'rtacha 150–200 nafar virtual aloqaga ega bo'lsa-da, real hayotda muntazam muloqot qilinadigan yaqin ijtimoiy doira 10–15 kishidan oshmaydi. Bu raqamlar raqamli muhitda aloqalar soni ko'paygan bo'lsa-da, ularning chuqurligi kamayayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston misolida ham raqamli kommunikatsiyaning shaxslararo munosabatlarga ta'siri aniq ko'rinmoqda. Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda internet foydalanuvchilari soni 30 milliondan oshgan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish esa kundalik muloqotning asosiy shakliga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida axborot almashinuvi, do'stlik va hatto oilaviy munosabatlarning boshlanishi ko'pincha raqamli muhitda yuz bermoqda.

Biroq bu jarayonlar bilan bir qatorda muammolar ham aniqlanmoqda. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, uzoq muddatli virtual muloqotga tayanish empatiya darajasining pasayishi, nizolarni hal qilish ko'nikmalarining sustlashuvi va ijtimoiy yolg'izlik xavfining oshishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, o'smirlar orasida "raqamli qaramlik" holatlari mutaxassislar tomonidan dolzarb muammo sifatida qayd etilmoqda. Raqamli kommunikatsiya shaxslararo munosabatlarning shakli, intensivligi va mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun nafaqat texnologik rivojlanish, balki ijtimoiy me'yorlar, raqamli etikaga asoslangan ta'lim va psixologik muvozanatni saqlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Muammolar va yechimlar. Raqamli kommunikatsiya zamonaviy jamiyatda shaxslararo munosabatlarning shakli, mazmuni va sifatini tubdan o'zgartirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va boshqa raqamli platformalar insonlar o'rtasidagi muloqotni tezlashtirib, kengaytirsada, uning sifatli jihatlarida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda [7]. Shu jarayonda bir qator ijtimoiy, psixologik va axloqiy muammolar ham paydo bo'lmoqda.

1. *Algoritmlarga qaramlik va inson qarorining chegaralanishi:* Raqamli tizimlar va mobil ilovalar odamlar hayotining ko'plab sohalarida qaror qabul qilish jarayonini avtomatlashtirmoqda. Masalan, do'konlarda bonus kartani unutgan foydalanuvchi keyinchalik uni ko'rsatganda ham bonus hisoblanmaydi, chunki dastur bunday holatni ruxsat etmaydi. Bu holat shaxslararo munosabatlarda insoniy moslashuvchanlik va kreativ qaror qabul qilish imkoniyatini kamaytiradi, muloqot jarayonini qat'iy algoritmlarga bo'ysundirishga olib keladi.

Yechim: Qayta o'qitish (reskilling) va kasbiy malakani oshirish (upskilling) dasturlarini joriy etish orqali inson kapitalini rivojlantirish va texnologik jarayonlarni tushunishga yo'naltirish zarur. Shu bilan birga, shaxslararo muloqotda ijodiy va empatik yondashuvlarni saqlash muhimdir.

2. *Axborot oqimi va dezinformatsiya:* Raqamli kommunikatsiya bilan birga axborot oqimi ham keskin oshdi. Ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on xabarlar, manipulyativ kontent va noto'g'ri ma'lumotlar tez tarqaladi. Foydalanuvchilar o'rtasida muloqot ko'pincha yuzaki va shoshilinch bo'lib, haqiqatni aniqlash qiyinlashadi. Natijada, odamlar o'rtasidagi ishonch va ijtimoiy dialog sifat jihatdan zaiflashadi.

Yechim: Mediasavodxonlikni oshirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va ishonchli axborot manbalarini tanlash madaniyatini rivojlantirish muhimdir. Shu bilan birga, raqamli platformalar kontent nazoratini kuchaytirishi va manipulyativ axborot tarqalishini kamaytirishi lozim.

3. *Shaxslararo muloqot sifatining pasayishi va yolg'izlik:* Ijtimoiy tarmoqlar son jihatidan aloqalarni kengaytirsada, sifat jihatdan ularni sayozlashtirmoqda. Bevosita muloqotning kamayishi va virtual muhitga haddan ortiq bog'lanish real hayotdagi ijtimoiy bog'liqlikni pasaytiradi. Bu esa ruhiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatib, yolg'izlik va depressiyaga olib kelishi mumkin.

Yechim: Shaxslararo jonli muloqotni saqlash, raqamli va real hayot o'rtasida sog'lom muvozanatni yaratish zarur. Madaniy, sport va ijtimoiy tadbirlarni kengaytirish orqali insonlar orasidagi real aloqalarni mustahkamlash mumkin.

4. *Mehnat bozori va sun'iy intellekt ta'siri:* Sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar ko'plab kasblarni almashtirmoqda. Natijada oddiy va takrorlanuvchi ishlar yo'qoladi, shaxslararo muloqotning professional kontekstlari cheklanadi va ijtimoiy tengsizlik kuchayadi. Shaxslar o'z ish faoliyatida ko'proq

raqamli vositalarga bogʻlanadi, bu esa kommunikatsiya jarayonlarini ham texnologik shablonlarga moslashtiradi.

Yechim: Sunʼiy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlarini inson faoliyatini toʻldiruvchi vosita sifatida ishlab chiqish zarur. Shuningdek, texnologik kasblarga yoʻnaltirilgan qayta tayyorlash dasturlari orqali shaxslararo muloqotning professional maydonini saqlash mumkin.

5. *Shaxsiy hayot daxlsizligi va raqamli kuzatuv:* Raqamli kommunikatsiya jarayonida foydalanuvchilarning shaxsiy maʼlumotlari (geolokatsiya, qidiruv tarixi, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik) turli platformalar orqali toʻplanadi. Bu nafaqat maxfiylik va xavfsizlikni xavf ostiga qoʻyadi, balki shaxslararo ishonch va muloqot sifatiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Yechim: Kiberxavfsizlik siyosatini kuchaytirish, shaxsiy maʼlumotlarni himoya qiluvchi qonunlarni ishlab chiqish va raqamli savodxonlikni ommalashtirish orqali shaxslararo muloqot xavfsizligini taʼminlash mumkin.

Xulosa. Raqamli kommunikatsiya shaxslararo munosabatlarning shakli va sifatini tubdan oʻzgartirmoqda. U ijtimoiy aloqalarni tezlashtirsa va kengaytirsa-da, algoritmlarga qaramlik, axborot oqimi, yolgʻizlik, sunʼiy intellekt va shaxsiy hayot xavfi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun raqamli savodxonlikni oshirish, mediasavodxonlikni rivojlantirish, inson kapitalini mustahkamlash va texnologiyalarni inson faoliyatini toʻldiruvchi vosita sifatida joriy etish muhimdir. Shu yoʻl bilan raqamli kommunikatsiya shaxslararo munosabatlar sifatini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kastels, M. (2010). The Rise of the Network Society.
2. Wiley-Blackwell. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs.
3. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.

FUQAROLIK TARBIYASINING FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA TUTGAN OʻRNI

Gulxayo Ravshanova,
“TIQXMMI” MTU katta oʻqituvchisi
Falsafa fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

Annonatsiya. Ushbu maqolada fuqarolikni rivojlantirishga taʼsir etuvchi asosiy omillar bayon etilgan. Shu jumladan, fuqarolik tarbiyasi, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish orqali fuqarolik jamiyatini mustahkamlash masalalari hamda fuqarolik tarbiyasini amalga oshirishda institutsional birlashmalarnig ishtirokiga oid jarayonlar tadqiq etilgan.

Kalit soʻzlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik jamiyati institutlari, taʼlim-tarbiya, huquqiy davlat, “ideal jamiyat”, fuqarolik tarbiyasi, daxldorlik, ijtimoiy siyosat.

Аннотация. В этой статье описаны основные факторы, влияющие на развитие гражданства. В том числе были исследованы вопросы гражданского воспитания, укрепления гражданского общества путем формирования активной гражданской позиции, а также процессы участия институциональных объединений в осуществлении гражданского воспитания.

Ключевые слова: гражданское общество, гражданская позиция, институты гражданского общества, образование, правовое государство, “идеальное общество”, гражданское воспитание, инклюзивность, социальная политика.

Annotation. This article describes the main factors affecting the development of citizenship. Including the study of civil education, issues of strengthening civil society through the formation of an active civil position, as well as processes related to the participation of instantaneous associations in the implementation of civil education.

Keywords: civil society, civil position, civil society institutions, education, legal state, “ideal society”, civil education, immunity, social policy.

Ma'lumki, insoniyat tomonidan ming yillar davomida "taraqqiyparvar davlat", "adolatli jamiyat" barpo etish g'oyasi ilgari surilgan. Shu asosda o'tgan asrdan boshlab jahon amaliyotida huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini tashkil etish bo'yicha amaliyot bir necha davlatlar tajribasida qo'llanilib, o'z samarasini berdi. Bugungi kunda esa o'z suverenitetiga ega bo'lgan ko'pgina mamlakatlar uchun bunday yo'l eng maqbul maqsadga aylandi. Shu o'rinda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish har bir mamlakat uchun ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. O'z mustaqil taraqqiyot yo'li va strategiyasiga ega bo'lgan O'zbekiston ham fuqarolik jamiyati qurish va rivojlantirishda tarixiy-milliy meros va jahon tajribasiga tayangan holda demokratik islohotlar yo'lini tanladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Fuqarolik jamiyati kishilarning umumiy maqsadlari va vazifalari borasida o'zaro munosabatga kirishishlari hamda bu munosabatlarni tartibga solish zaruratidan vujudga kelgan hodisadir. Uning shakllanishi va rivojlanishi o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg'armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bevosita bog'liq" [1], deb ta'kidlaydi. Shu bois o'z oldiga fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadini qo'ygan har qanday davlat fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashga e'tibor beradi. Fuqarolik jamiyati asoslarini mustahkamlashning eng birinchi omili erkin fikrlaydigan, daxldorlik hissi va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashdan iborat. O'z huquq va erkinliklarini, burchlarini anglagan holda, boshqalarning ham huddi shunday huquqlarga ega ekanligini tan oladigan va hurmat qiladigan, belgilangan qonun-qoidalarga qat'iy rioya qilib ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda faol ishtirok eta oladigan fuqarolarlarga fuqarolik jamiyatining taraqqiyoti va yashovchanligini ta'minlaydi.

Mazkur tamoyil "ideal jamiyat" g'oyasini ilgari surgan Abu Nasr farobiy qarashlarida ham o'ziga xos tarzda ifodalangan. Bundan tashqari bir qator Yevropa olimlarining fuqarolik jamiyatiga oid tadqiqotlarida ham adolatli jamiyatni barpo etishda fuqaroviylikning ilmiy nazariy jihatlarini ko'rsatib berilgan. Bu borada ayniqsa V.Dalning fikrlari diqqatga sazovar. Uning qayd etishiga qaraganda, fuqaroviylik fuqarolik jamiyatini tuzish uchun jamiyatning ongi va bilimi darajasini ifoda etgan holatdir [2].

Fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida fuqarolik tarbiyasining ahamiyati ortadi. Bunda asosiy e'tibor fuqarolar o'rtasidagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishga qaratilishi zarur, chunki fuqarolik jamiyatining mohiyati fuqarolar o'rtasidagi jipslik, birdamlikdan iborat, ya'ni bir fuqaroning ikkinchi bir fuqaro, jamiyat, Vatan taqdiriga befarq bo'lmasligidan iboratdir. Faylasuf olim F.Nabiyev ta'kidlaginidek, "Odamlarda fuqarolik ma'naviyati, daxldorlik fazilati shakllangan taqdirdagina fuqarolik jamiyatini qurish mumkin bo'ladi [3].

Bugungi kunda adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lidan borayotgan mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash oliy maqsadlardan biridir. Ijtimoiy siyosat asosida ham yoshlarning munosib ta'lim va tarbiya olishlari, ularni ish bilan ta'minlash, bilim va solohiyatlarini to'la namoyon etishlarida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini yangi bosqichga ko'tarish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabusi bilan mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash ishlariga munosib hissa qo'shgan hamda jamiyatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirok etib kelayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari hamda tashabbuskor fuqarolarni taqdirlash maqsadida 2018 yil 14 noyabrdan "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishoni ta'sis etildi [4]. Fuqaroviylik bir tarafdin jamiyatda shaxsning oliy darajada mustaqilligini, ikkinchi tarafdin esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi.

Quyidagilar fuqaroviylikni ifoda etuvchi muhim jihatlar qatoriga kiradi:

- fuqaroning o'z haq-huquqlarini tushunishi va uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi;
- boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilish;
- fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarligi;
- davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy mas'uliyatini anglash;
- fuqarolarning tengligi; -yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqelikka nisbatan obyektiv va tanqidiy yondashuv;
- hokimiyat bilan, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish qobiliyati;

- bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek unga tegishli huquqiy, madaniy va til makoniga mansublikda ifodalangan fuqaroviy o'zlikni anglash hokazolar [5].

Shu nuqtai-nazardan qaraganda, fuqarolik jamiyatida faol, tashabbuskor, g'ayratli, faqat yaratuvchanlik, ijodkorlik ruhi va kayfiyati bilan yashovchi shaxslarga e'tibor va ehtiyoj katta bo'ladi. Bunday yuksak intellektual salohiyat tafakkur erkinligining qay darajada shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Jamiyatning inson uchun yaratgan real iqtisodiy qulayliklari va imkoniyatlari, yuridik haq-huquqlari, qaror topgan axloqiy va ma'naviy muhit uning tafakkuri erkin, ilg'or va yuksak ideallarni ko'zlashi bilan uyg'unlashmog'i lozim.

Olimlarning kuzatishicha, fuqarolarning ijtimoiy voqelikka yangicha, mustaqil va erkin tafakkur asosida yondashishi yuqori ko'rsatkichga ega. Ayni paytda, psixolog va sotsiologlarning nuqtai nazaricha, yangi shakllanayotgan fuqarolik jamiyati rivoji ko'p jihatdan shaxs ongi, xarakteri va dunyoqarashini korreksiyalab borishni talab etmoqda. Xulosa qilib aytganda, yosh avlodga vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni xar tomonlama yetuk barkamol qilib voyaga yetkazish uchun oila, mahalla, ta'lim muassasalari va turli ijtimoiy institutlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash oliy maqsadimiz hisoblangan adolatli fuqarolik jamiyati barpo etish uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O'zbekiston, 2005. 103 b.
2. Grajdanskoye obshchestvo: ponyatiye, struktura, funktsii / <http://geum.ru/book/133/532.html>.
3. Nabiyev F. Fuqarolik jamiyati sharoitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda ma'naviyatning o'rni. Globallashuv. Ommaviy madaniyat, milliy g'oya. /Ilmiy-amaliy maqolalar to'plami. T.: "Ma'naviyat", 2009. – 69-b.
4. <https://lex.uz/docs/4060213>
5. Fuqarolik jamiyati asoslari: o'quv qo'llanma/ A. Jalilov, U. Muhammadiyev, Q. Jo'rayev va boshq. — Toshkent, 2015, 199 b.

“QOBUSNOMA” – DAVLAT BOSHQARUVI TO'G'IRISIDAGI MANBA

Shoira Davlatova,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqola inson axlovi va odobi, davlat boshqaruvi hamda ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarni o'z ichiga olgan muhim manbalardan biri, XI asrda yozilgan “Qobusnoma” asari haqidadir.

Kalit so'zlar: Qobusnoma, davlat boshqaruvi, ijtimoiy axloq, tarixiy manba, adolat, siyosiy maslahat

Аннотация. Данная статья посвящена одному из важнейших источников XI века «Кобуснаме», содержащих положения по этике и морали человека, государственному управлению и социально-духовным принципам.

Ключевые слова: Кобуснаме, государственное управление, социальная этика, исторический источник, справедливость, политический совет.

Abstract. This article is about the 11th century work "Kobusname", one of the most important sources that contains human ethics and morality, state governance, and socio-spiritual principles.

Keywords: Qabusnama, state governance, social ethics, historical source, justice, political advice.

Jahon davlatchiligi tarixida hokimiyat boshqaruvi masalasi azal-azaldan eng dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Uning dolzarbligi shundaki, har qanday davlatning taraqqiyoti, jamiyat rivoji, xalqning osoyishtaligi, xotirjamligi, turmush tarzining yaxshiligi, hayotining farovonligi etakchi shaxsining davlatni idora qilish faoliyati uslubi bilan ham bog'liq.

Shu bois sharq davlatlarida hukmdorlar, siyosiy elita qatlami uchun dasturulamal sifatida ko'plab kitoblar yozilgan. Ular qatoriga sharq mutafakkirlaridan A.N.Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Nizomulmulukning "Siyosatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma" asarlarini kiritish mumkin. G'arbiy Eron shohi Shamsulmaoliy Qobusning nabirasi Unsurulmaoliy Kaykovus ibn Iskandar XI asrning 82-83-yillarida o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab "Nasihatnoma" asarini yaratgan.

Lekin bu asarini Kaykovus o'sha davr an'anasiga ko'ra bobosi Shamsulmaoliy Qobus sharafiga "Qobusnoma" deb nomlagan. Bu asar dastlab 1860-yil o'zbek shoiri va mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan, 1966-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Subutoy Dolimov tomonidan nashrga tayyorlangan. Asar 44 bobdan iborat bo'lib, uning 42-bobi "Podshohlik sharti va rasmi zikrida" deb nomlanadi. O'z davrining qomusiy bilimlariga ega bo'lgan mutafakkir Kaykovus qarashlarining asosiy g'oyalaridan bir adolatli shoh masalasi hisoblanadi.

Kaykovus ham ko'pgina sharq mutafakkirlari singari podshohlar adolatini quyoshga tenglashtiradi. U quyosh hammaga, hamma erga teng, barobar nur sochgani kabi podshoh ham barchaga barobar adolat nurini sochmog'i lozim, – deydi. Uningcha, podshoh xalqqa mehr ko'satishi, jamiki aholiga teng munosabatda bo'lishi darkor, shundagina uning mamlakati obod, xonadoni tinch bo'lib, hukmronligi uzoq vaqt davom etadi. Bu haqida: "Ey farzand, raiyatga ham shundog' mehribonlik ko'rguzgil, toki mamlakat obod bo'lg'ay, nedinkim, podshoh oftobdekdu, oftob birovga soya solib, yana birovdan yuz o'gurmas. Aslo zulmni ko'nglungga keltirmag'ilki, odil podshohning xonadoni ko'p yillar boqiy qolur va zolimning xonumoni tezda barbod va nobud bo'lur, nedinkim, adl obodonlik nishonasidur va zulm vayronalik alomatidur. Hukamolar debdurlarki, odil podshoh jahon xarobalig'ining to'fonidur" fikrini keltiradi [4].

Kaykovus "Qobusnoma"da saltanat sohibi rioya etishi shart bo'lgan quyidagi talablarni bayon etadi: "Ey farzand, agar podshoh bo'lsang, porso (porso- xudojo'y, taqvodor) bo'lg'il va ko'zingni, qo'lingni xaloyiqning ayol va atfolidin (atfolidin – ayollarr, xotin va bola-chaqalaridan) yiroq tutg'il. Pok va imn (imn- omon, xavfsiz) bo'lg'ilki, pok va imnlik pokdillikdur". Muallif o'z davri talablaridan kelib chiqib, podshoh taqvodor bo'lishi, boshqa birovlarining oila a'zolariga axloqsizlik bilan nazar solmasligi, o'zini nopoklikdan saqlashi zarurligini ta'kidlaydi. Uning qarashlari bo'yicha shoh har bir ishni amalga oshirishda aql bilan ish tutishi, aql doirasidan chiqmasligi, aqlining buyrug'iga bo'ysunishi kerak. U aqlni podshohning vaziri, ya'ni, eng yaqin ko'makdoshi deb hisoblaydi va bu haqida shunday deydi: "Har ish qilsang, aql farmoni bila qilg'il va aqldin bemaslahat ish qilmag'il, nedinkim, podshohning vaziri aqldur".

Kaykovus podshoh biror bir ishda shitob qilmasligi, ya'ni shoshqaloqlik bilan ish tutmasligi har bir ishni o'lchovini bilishi, uning oqibatini o'ylashi va natijasi qanday bo'lishini oldindan rejalashtirib, so'ng amalga oshirishi lozimligini uqtiradi. Mutafakkir podshohlarga: "Hamisha rostgo'y bo'lg'il, kam so'zlag'il va oz kulg'il, toki kichiklar senga gustoh (gustoh – ibosiz, adabsiz) va dalir (dalir – shijoatli) bo'lmasinlar, nedinkim debdurlar: "Podshoh uchun eng yomon ish xalqning gustohlig'idur", – deya nasihat qiladi. Kaykovusning nazdida podshoh to'g'riso'z, kam gapiradigan, kam kuladigan bo'lishi, odobsiz bo'lmasligi darkor. Ana shu jihatlarni podshoh me'yoridan oshirib yuborsa, xalq oldida odobsizlik, ibosizlik qilgan bo'ladi, deb hisoblaydi [2].

Asarda muallif saltanat sohiblariga yana bir nasihat bilan murojaat qiladi: "Har naki ato (ato – hadya) qilsang mustahiq (mustahiq – munosib, haqli) qilg'il va o'zingni aziz tutg'il, lashkar va raiyatning ko'ziga xor ko'rinmag'il. Hech odamdan zinhor bir narsa tilamag'il va bandalarga rahmdil bo'lg'il, ammo berahmlarg'a rahm qilmag'il. Hamisha lutf va karamni odat qilg'il, lekin siyosatlik bo'lg'il". Kaykovusning fikricha, podshoh kimga nima hadya qilmoqchi bo'lsa, munosibini tanlashi, o'zini aziz tutib, xalq va askarlarga o'zini nochor ko'rsatmasligi, hech qachon birovdan biror narsa tilanmasligi, xalqqa rahmdil, berahmlarga esa shafqatsiz bo'lishi zarur. Doimo shirinsuxanlik va xushmuomalalikni odat qilishi, podshohning o'z siyosati bo'lishi kerak [3].

Kaykovus podshoh saltanatning butun yumushlarini vazirga ishonib topshirib qo'ymasligi, vazir tomonidan aytilgan fikrlarga darhol rozilik bildirmasligi, uni avval o'rganib chiqishi, ma'qul bo'lgandan keyin uning fikrini qo'llab-quvvatlashi, qiladigan har qanday ishini foyda va zararini o'ylab ko'rishini tavsiya qiladi. Manbada bu xususida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Barcha ishni butkul vazirga taslim qilmag'il, uning ra'yiga hamisha muhtoj bo'lmag'il. Vazir har odam haqida har so'zni aytsa eshitg'il, ammo darhol qabul qilmag'il. Vazirga aytg'ilki: "O'ylab ko'rurman, agar ma'qul bo'lsa, u ishni qilmoqni senga buyururmen. O'zing bu ishni baxshish bila imtihon qilg'il, toki uning naf va zarari senga ma'lum bo'lg'ondin keyin har naki hukm qilsang qilg'il".

Muallifning fikricha, podshohning o'zi yosh yoki keksa bo'lishidan qat'i nazar vazirini keksa yoshdagilardan tanlashi kerak. Agar podshoh ham, uning vaziri ham yosh bo'lsa, ikkovi yoshlik o'ti bilan mamlakatni kuydirishi mumkin. Bu borada u: "Agar xoh qari, xoh yigitlikda podshoh bo'lsang, qari

kishini vazir qilg'il, yigit odamga vazirlikni bermag'il. Agar sen qari bo'lib, vaziring yigit bo'lsa, nomunosib ishdur. Agar sen yigit bo'lib, vaziring ham yigit bo'lsa, ikki yigit bir o't bo'lib, mamlakatni kuydiradur", – deya ta'kidlaydi.

Bundan tashqari podshoh vazir tanlashda uning tashqi ko'rinishiga ham e'tibor qaratish lozimligini uqtiradi. Bu borada shunday tavsiyalarni beradi: "Vazir xushsuratlik va uzun bo'ylik, keng qorinlik, qari odam bo'lsa yaxshidur. Qisqa bo'ylik, badro'ylik, tahfif (tahfif – engil) suratlik kishi bo'lsa, unda hech haybat va shukuhlik bo'lmag'usidir. Uzun soqollik odam vazirlikka yaxshiroq munosibdur". Yana podsho vazirlarni tez-tez almashtirmasligi, ular bilan og'ir-bosiq bo'lib, sabr qilib uzoq vaqt ishlashini maqsadga muvofiq deb biladi.

Kaykovus asarda o'z zamonasi talablaridan kelib chiqib mulozimlarni, ya'ni xizmatkorlarni, hozirgi davr nuqtayi nazaridan aytganda kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish masalasi podshoh uchun eng e'tibor talab qiladigan yumush ekanligiga alohida to'xtaladi. Qachonki podshoh vazifalarni xizmatkorlarning layoqatiga ko'ra taqsimlaydigan bo'lsa har tomonlama foydali bo'lishini podshohga tushuntirib berishga harakat qiladi. Berilgan ishni bilmaydigan, bajarishga qobiliyati bo'lmagan nodonga ish buyurish bu shohning o'zining nodonligidan dalolat ekanligini ta'kidlaydi.

Manbada keltirilishicha, podshoh hech qaysi odamdan xizmatini darig' tutmasligi, lekin har bir kishiga o'ziga munosib, ya'ni unga to'g'ri keladigan va eplaydigan ishni buyurishi darkor. Biror ishni uddasidan chiqmaydigan odamga ish buyuriladigan bo'lsa, u natija bermaydi. Bu xususda: "... har kishiga ish buyursang, o'ziga munosib ishni buyurg'il, nomunosib ishni buyurmag'il, undoqkim, farroshlikka munosib odamga sharobdorlikni buyurmag'il, sharobdorlika munosib kishini xazinador qilmag'il. Alqissa, har kishiga har ishni buyurib bo'lmas. Agar ish bilmag'on kishiga bir ishni buyursang, u kishi o'z manfaati uchun bu ishni bilmasligini aytmasa, ul ish durust va foydali bo'lmag'usidir. Bas, ishni bilg'on odamga buyurg'il, toki dardisarlikdan qutulg'on bo'lg'aysen. Agar bir chokarga inoyat qilib, uni ulug' va muhtasham qilmoq tilasang, uni amalsiz ham hashamatlik va ne'matlik qilsa bo'lur. Agar bir nodonga xizmat buyursang, o'z nodonlig'ingga guvohlik berg'on bo'lursan", – deydi.

Kaykovus "Qobusnoma" da podshoh xalqning holidan xabardor bo'lib turishini ham ta'kidlaydi va podshohni cho'ponga, xalqni qo'ylar suruviga qiyoslaydi hamda cho'pon qo'ylar suruvini saqlab qolmasa, suruv qisqa vaqt ichida halok bo'ladi, – deb hisoblaydi. Uningcha, podshoh farmonbardor bo'lishi, podsho bilan raiyat, ya'ni xalq o'rtasidagi tafovvut saltanat sohibining farmonbardorligida, podshohning farmonini xor bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Agar podshohning so'zi xor bo'lsa, uning farmonlari ijrosi ta'minlanmasa, podshohning o'zi ham xor bo'ladi. Farmon ijrosini ta'minlash esa podshohning siyosatiga bog'liq. Podshohning siyosati bandalarni, ya'ni xalqni zulm va baloga giriftor qilmasligi, shundagina xalq uning hukmini qabul qilishi, unga bo'ysunishi va uni amalga oshirishi mumkin. Buni asarda shunday ifodalaydi: "Ey sulton, podshoh bo'lsang shundog' bo'lg'ilki, sening hukmingni qabul etsinlar va toki bandalar zulm va balog'a giriftor bo'lmasinlar, sen ersa ishrat taxtida hamisha barqaror bo'lg'il. ... har bir podshohning hukmi yurmasa, u podshoh emasdur va podshohlik farmon vobastadur. (vobastadur-bajarilishiga bog'liqdir).

...Farmonni ravo qildirmoq siyosat bila bo'lur. Demak, siyosat qilmoqda kamchilikka yo'l qo'ymoq yaxshimas". Asarda mutafakkir sipohiy va raiyat munosabatlarida podshoh qanday yo'l tutmog'i lozimligi haqida ham maslahatlar beradi. Uning talqinicha, podshoh sipohiyni raiyatdan ustun qo'ymasligi, har ikkisiga bir xil munosabatda bo'lishi, sipohiylarni qanday tarbiyalasa, raiyatga ham xuddi shunday mehribonlik ko'rsatishi, raiyatni lashkar bilan tobe qilsa ham, lashkarlarni raiyat bilan xushhol, ya'ni, yaxshi, do'stona munosabatlarini o'rnatishiga erishishi, xalqqa aslo zulm qilmaslik lozim. U yana zolim podshohning xonadoni zulmdan tezda barbod va nobud bo'lishi, odil shohning xonadoni esa ko'p yillar boqiy qolishi, adllik obodonlikning nishoni, zulm esa vayronkorlikning alomati, odil podshoh olam xurramligining sarchashmasi, zolim podshoh jahon xarobligining sababi ekanligini ham podshoh yodda saqlashi darkorligini aytadi. Manbada yana podshohning mazlumlar duosini olishi, chunki mazlumlarning duosi ijobat bo'lishi, hukmdor o'zini xilvatda tutmasligi, ya'ni lashkar va xalq bilan birga bo'lishi, ularning holidan xabardorligi, agar podshoh xalqdan uzoqlashsa, xalq ham xuddi shunday yiroqlashib boraverishi, bu holat yaxshi natija bermasligi, raiyat holiga qarashda sustkashlikka yo'l qo'ymasligi, agar shunday yo'l tutilsa shohning dushmani ko'payishi haqida ham fikr yuritiladi. Kaykovus qo'shin tutish borasida ham podshohlarga qimmatli maslahatlar yozib qoldirgan. Jumladan, asarda bu haqida shunday deyiladi: "... lashkar tutsang, barcha lashkarni bir qabiladan tutmag'il. Agar podshoh barcha lashkarni bir qabiladan tutsa, lashkari zabun bo'lur, nedinkim, ular hamisha bir-birlari bilan ittifoq bo'lurlar va hammasiga birdek siyosat qilib bo'lmas. Agar har turli qabiladin lashkar tutsang, u holda bir toifa ikkinchi toifadin biym (biym-qo'rquv) qilur va nofarmonlik qila olmaslar, sening

farmoning esa lashkaringga ravo bo'lar". Kaykovus asarda podshohlarga vaqt-vaqti bilan lashkar ulug'larini non eyish, nabiz (nabiz- xurmo yoki uzumdan qilingan may) ichish uchun o'z majlisiga taklif qilishi, ularga saxovat va mehr ko'rsatishi, sarpo berib ko'ngillarini xush qilib turishi darkorligini ham aytib o'tadi va podshohni saxovat qilishda oz narsa berayotgan bo'lsa ko'pchilikning oldida bermasligini, kam saxovat podshohning himmati pastligini xalqqa oshkor etishi mumkinligidan dalolat berib, uning xalq orasida obro'si pasayishiga, xalq unga dushman bo'lishiga, dushmanlik qila olmagan taqdirda ham, podshoh dushmanining do'stiga aylanishiga olib kelishini, shoh past himmat bo'lsa, uning nomi aslo yuksakliklarga ko'tarilmasligini uqtiradi.

Mutafakkir bu haqida yana o'z tajribasida ko'rganidan ham misol keltirib ushbu fikrlarni yozadi: "... men sakkiz yil G'azninda Sulton Mavdudning (Sulton Mavdud –Shahobuddavla Mavdud (1041-1048) G'aznaviylar sulolasining o'ninchi sultoni. Mas'udning o'g'li, Mahmudning nabirasi) nadimi (yaqin xizmatkori) bo'ldim. Unda uch ishni hargiz ko'rmadim: Biri ulki, agar in'om ikki yuz tillodan oz bo'lsa, uni ko'p xalq orasida hech kishiga bermasdi, xilvatda parvonachisiga (parvonachi – vazirning muovini) buyurib berur erdi. Ikkinchisi, hargiz tishi ko'ringudek qattiq kulmas erdi. Uchinchisi, har qanchaki qattiq qahri kelsa ham hargiz "behamiyat" deyishdin boshqa dashnom qilmasdi. Bu bag'oyat yaxshi ishdur. Eshitg'on edimki, Rum sultonining odati ham shu xilda ekan. Bas, ey farzand, saxiy bo'lg'il va past himmat bo'lmag'il, yo'q ersa, ko'pning orasida himmatingni ko'rg'uzmag'il". Kaykovus podshoh o'z vakolati doirasida me'yorlarga amal qilishi, lavozim, taxt uni manmanlik girdobiga etaklamasligi lozimligini uqtiradi. Unga quyidagi olti xislatdan voz kechmaslikni va ularni mahkam tutishni maslahat beradi: haybat, adl, saxovat, muhofazat, muloyimlik va rostgo'ylik. Yana bu to'g'risida: "Har podshoh bu olti xislatning biridin uzoq bo'lsa, podshohlig' sharobidin mast bo'lsa, podshohlikdin judo bo'lg'ondin so'ng bu mastlikdin ayrilur. Shuning uchun podshoh bo'lsang, bu ishlarga ehtiyot bo'lg'il va olam podshohlarining holidin shundog' xabardor bo'lib turg'ilki, ularning nafas olg'onlaridin ham hatto g'ofil bo'lmag'il", – deydi.

Manbada yana podshoh vazirning ishlarini nazorat qilib turishi, uning sharob ichishiga yo'l qo'ymasligi lozimligini ta'kidlab, uning sababi shoh o'zining xonadonini, ahli ayolini, mol-mulkini vazirga topshirganligini esidan chiqarmasligi kerakligini uqtiradi. Asarda muallifning podshohga yana bir maslahati keltirilgan: "Atrofingdagi o'zingga barobar podshohlar bilan zohirda do'st bo'lsang ham botinda (botin – ichki tomon) do'st bo'lmag'il va agar botinda dushman bo'lsang, zohirda oshkor qilmag'il". Bu orqali Kaykovus davlat boshliqlarining boshqa davlat hukmdorlari bilan aloqalar olib borishlari va bunda har tomonlama ehtiyotkorlik asosida siyosat yuritishlari, davlat ishlarida shoh siyosatida o'z ichki sirlari ham bo'lishi shartligi haqida to'xtaladi.

Kaykovusning talqinicha, podshoh ulug' ishlarni odat qilishi zarur, chunki u barcha kishidan ulug'roqdir. Uning so'zlashi, suhbatlari, ishlari boshqalardan ustunroq bo'lishi, u ibratli so'zlashi, barcha sohada boshqalarga namuna ko'rsatishi darkor [1].

Mutafakkir podshohlarga oxirgi nasihati sifatida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Hukmingni ulug' tutg'il va har muhaqqar (muhaqqar – tahqirlangan) narsag'a hukm qilmag'il. Agar biror narsag'a hukm qilsang, uning xilofini qilmag'il, nedinkim, xilof ish qilmoq barcha kishiga yomondur, xususan podshohga yomondur". Ushbu qarashlar orqali Kaykovus hukmdorning hukmi ulug' bo'lishi kerakligi, u o'zi chiqargan hukmiga zid ish tutmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Kaykovusning "Qobusnoma" asarida keltirilgan davlat boshqaruviga oid g'oyalar, hukmdorlarga qo'yilgan talablar va ularga berilgan o'gitlar, nasihatlar, tavsiyalar mazkur asar yozilganidan buyon qancha vaqt o'tgan bo'lsa-da, o'z ahamiyatini yo'otmagan. Globallashuv, modernizatsiyalashuv, transformatsiyalashuv jarayonlarini boshdan kechirayotgan bugungi davr davlatlarining boshliqlari ham ushbu manbadan o'z faoliyatlarini olib borishda yo'nalish beruvchi siyosiy, ma'naviy manba sifatida foydalanishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Sharq siyosiy tafakkuri va davlat boshqaruvi masalalari. – Toshkent: Fan, 1996.
2. Erkinov A. O'rta asrlar Markaziy Osiyo siyosiy-falsafiy tafakkuri. – Toshkent: Akademya, 2012.
3. Ismoilov M. Islom siyosiy tafakkuri va davlat boshqaruvi. – Toshkent: O'zbekiston Islom akademiyasi nashriyoti, 2019.

JADID TA'LIM FALSAFASI – OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH MEXANIZMI

Gulchexra Niyetova
“TIQXMMI” MTU
mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid ta'lim falsafasining oila institutini mustahkamlashdagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidchilik ta'limiy-axloqiy yondashuvlari, oila tarbiyasiga ta'siri hamda zamonaviy jamiyat sharoitida oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadid ta'lim falsafasi, oila instituti, ma'naviy tarbiya, pedagogik yondashuv, oilaviy qadriyatlar, jamiyat rivoji.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение философии джадидского образования в укреплении института семьи. В исследовании научно освещаются образовательные и нравственные подходы джадидизма, их влияние на воспитание в семье, а также возможности развития семейных ценностей в условиях современного общества.

Ключевые слова: философия джадидского образования, институт семьи, нравственное воспитание, педагогический подход, семейные ценности, развитие общества.

Annotation. This article analyzes the role and significance of the Jadid educational philosophy in strengthening the family institution. The study scientifically examines the educational and moral approaches of Jadidism, their impact on family upbringing, and the opportunities for developing family values in the context of modern society.

Keywords: Jadid educational philosophy, family institution, moral education, pedagogical approach, family values, social development.

Jadid ta'lim falsafasi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida musulmon Sharqida, ayniqsa Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy islohotlar harakatining ajralmas tarkibiy qismidir. Jadid ta'lim falsafasi o'z zamonasi uchun ilg'or falsafiy g'oyalarga asoslangan edi. Ular Islomiy ta'lim tizimini inkor etmagan holda, uni zamonaviy fanlar bilan boyitish, ilg'or Yevropacha metodlarni qo'llash, ijtimoiy hayotga yaqinlashtirish tarafdori bo'lganlar. Olim B.To'ychiyev ta'kidlaganlaridek, “Jadidlar ilgari surgan “usuli jadid” (yangi usuldagi ta'lim) metodi orqali yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish, harflarni talaffuz asosida o'rgatish, o'quvchini erkin fikrlashga undash kabi pedagogik yondashuvlar ilgari surilgan edi”.

Jadidlar fikricha, ta'lim tizimi nafaqat individual bilim olishga xizmat qilishi, balki millatni uyg'otish, uni mustamlakachilik zulmidan ozod qilish, ijtimoiy adolatga erishish vositasi bo'lishi kerak edi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim ular uchun mafkuraviy kurash maydoniga aylandi. Ma'rifatparvarlar maktabni faqat bilim beruvchi muassasa deb emas, balki jamiyatni tubdan o'zgartiruvchi institutsional kuch sifatida ko'radilar. Ular “millatni qutqarishning birdan-bir yo'li ta'lim va ma'rifatdir” degan shior ostida faoliyat yuritganlar.

Shuningdek, jadid ta'lim falsafasining shakllanishiga Usmonli va G'arb ta'lim tizimlari, tatar ma'rifatparvarlarining ishlari ham ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Ismoil Gaspirali (Gaspirinskiy)ning “Til birligi, fikr birligi va ish birligi” shiori turkiy xalqlar orasida katta aks sado bergan.

Demak, jadid ta'lim falsafasi — bu shunchaki o'qitish tizimi emas, balki butun jamiyatni yangilash, milliy uyg'onishni ta'minlash, oilani mustahkamlash, barkamol avlodni tarbiyalash va zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topishga yo'naltirilgan chuqur mafkuraviy va ijtimoiy tizimdir. Uning tarixiy shakllanishi o'z zamonasining muhim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, bugungi kunning dolzarb masalalari bilan hamohangdir.

Alohida qayt etish lozim, jadid ma'rifatparvarlarining ta'limotida oila – bu shunchaki muqaddas qadriyat yoki shaxsiy munosabatlar majmuasi emas, balki jamiyatning asosiy tayanchi, ma'naviy va ijtimoiy negizi sifatida talqin etiladi. Ular jamiyatdagi barcha illatlar, kamsuqumlik, johillik, axloqsizlik kabi muammolarning ildizi ko'p hollarda oilada boshlangan tarbiyaning sustligiga borib taqalishini chuqur anglagan edilar. Shu bois, jadidlar nazarida sog'lom jamiyatni qurish uchun, eng avvalo, sog'lom, ma'rifatli, axloqiy jihatdan yetuk oila bo'lishi zarur edi. Oila – bu farzandning birinchi maktabi, birinchi

qadriyatlar o'rgatuvchi maskani sifatida qaralgan. Bu g'oya jadidchilik harakatining deyarli barcha asosiy namoyandalari ijodida o'z aksini topgan.

Jadidlar uchun barkamol avlod tarbiyasi deganda nafaqat darsliklardan o'rganiladigan bilim, balki milliy o'zlik, halollik, vatanparvarlik, axloq, din va madaniyatga hurmat ruhida tarbiya ko'zda tutilgan edi. Bu jihat, ayniqsa, Munavvarqori Abdurashidxonovning asarlarida yaqqol ko'rinadi. U oilaning jamiyatdagi ijtimoiy rolini sharhlab shunday degan: "Agar har bir ota-ona farzandini axloqiy, diniy va ilmiy jihatdan tarbiyalasa, jamiyatning ko'p muammolari o'z-o'zidan hal bo'ladi".

Shu bilan birga, jadidlarning oilaviy qadriyatlar haqidagi qarashlari milliy madaniyatning qayta uyg'onishiga, tarixiy merosga tayanishga asoslangan edi. Ular an'anaviy urf-odatlarini butunlay inkor etmagan holda, eskirgan, zamon ruhiga mos kelmaydigan jihatlarni tanqid qilib, milliy qadriyatlar asosida yangicha oilaviy modelni ilgari surganlar. Masalan, ayolning jamiyatdagi o'rni va oiladagi mavqeini yuksaltirish, uni savodli qilish orqali butun avlodni yuksak ma'naviyatda tarbiyalash mumkinligi qayta-qayta ta'kidlangan. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining "Padarkush" dramasi orqali ayollar savodsizligi va oiladagi befarqlikning jamiyatga qanday zarar yetkazishini teran ochib beradi.

Shuningdek, jadidlar oilani milliy qadriyatlar markazi deb ataganlar. Bu yerda "markaz" so'zining tanlanishi bejiz emas. Chunki ularning qarashicha, xalqning madaniyati, dini, axloqi, hatto siyosiy ong darajasi ham oilada shakllanadi. Jadid adiblarning asarlarida oila muhitida bolaga ota-onaning o'rnak bo'lishi, har bir harakatining axloqiy asosga ega bo'lishi kerakligi uqtiriladi. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining mashhur "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida shunday deydi: "Har bir farzand ota-onaning axloqiy qiyofasidir. Ota mas'uliyatsiz bo'lsa, o'g'il bo'ysunmaydi, ona beparvo bo'lsa, qiz xulqsiz bo'ladi".

Jadidlar oilani, ayniqsa, sivilizatsion islohotlarning boshlang'ich maydoni sifatida ko'rganlar. Ular uchun oilada sog'lom muhit bo'lmasa, eng ilg'or ta'lim tizimi ham samara bermasligi aniq edi. Shu sababli maktab, masjid va oila birgalikda ishlashi kerakligi haqida doimiy fikr bildirganlar. Ularning harakatida "tarbiya oiladan boshlanadi" degan g'oya tamoyil darajasiga ko'tarilgan.

Ushbu qarashlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Xususan, Yangi O'zbekiston sharoitida oila institutini mustahkamlashda jadidlarning ushbu ijtimoiy-falsafiy merosi muhim manba sifatida qayta o'rganilmoqda. Davlatimiz rahbarining "Oila – muqaddas dargoh" tamoyili asosidagi siyosati ham aynan jadidlarning bu boradagi asosiy yo'nalishlarini eslatadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, jadidlar uchun oila – bu nafaqat shaxsiy hayotning asosiy shakli, balki jamiyatni uyg'otuvchi, milliy o'zlikni saqlovchi va ijtimoiy adolatni qaror toptiruvchi mexanizm bo'lgan. Ular oilani millat taqdiri bilan bog'liq muqaddas institut deb bilganlar. Bugungi kunda ham bu falsafiy meros biz uchun bebaho manbadir.

Mahmudxo'ja Behbudiy bu borada eng faol jadidlardan biri bo'lgan. U o'zining "Muallim" maqolasida ayollarni o'qitish masalasini islohotlarning ajralmas qismi sifatida ta'kidlab, shunday yozadi: "Ayol qavmi tarbiyasiz bo'lsa, millat ma'rifatga erisholmaydi. Ayol tarbiyalangan bo'lsa, kelajak avlod ham tarbiyalidir."

Jadidlar ayolning savod olishi masalasini faqat individual manfaat darajasida emas, balki millat va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda ko'rganlar. Aynan shu sababli ular yangi usuldagi maktablarda qizlar uchun alohida sinflar tashkil qilish, ayol muallimalarni tayyorlash va ayollar uchun matbuot (gazeta, risola) orqali maxsus ma'rifiy kontent yaratishga kirishganlar. Bu borada 1917-yilda Toshkentda ilk bor qizlar maktabi tashkil qilinganini alohida tilga olish lozim.

Munavvarqori Abdurashidxonov o'zining "Muallimlar uchun yo'l ko'rsatkich" asarida ayolning oiladagi o'rnini chuqur tahlil qilgan va onaning tarbiyadagi rolini eng muhim omil sifatida ko'rsatgan: "Agar ona savodsiz bo'lsa, farzand tarbiyasida faqat urf-odatlarga tayanadi. Ammo savodli ona bolaga nafaqat odob, balki aql, tafakkur va zamonaviy bilim berishga qodirdir".

Jadidlarning bu boradagi eng muhim ijtimoiy nuqtayi nazari shundaki, ayolning oiladagi maqomi ta'lim bilan belgilanadi. Agar ayol faqatgina an'anaviy me'yorlar asosida yashasa, unda u faqat xizmatkor yoki tug'uvchi sifatida qaraladi. Ammo agar u savodli bo'lsa, u jamiyatda fikr bildiruvchi, farzand tarbiyalaydigan, jamiyatning ma'naviy rivojiga hissa qo'shadigan shaxsga aylanadi. Shunday fikrlar Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori va boshqa jadidlar ijodida markaziy o'rin egallaydi. Shuningdek, ayolni o'qitish zarurati haqida Abdulla Avloniy o'zining mashhur pedagogik asarlarida quyidagicha ta'kidlaydi: "Onalarning savodli bo'lishi — butun millatning najoti demakdir. Chunki farzand onaning bag'rida dunyoni taniydi". Bu qarashlar keyinchalik sovet davrida ham ayollarni o'qitishga asosiy mafkuraviy tayanch bo'lib xizmat qilgan, ammo uning asl manbalari aynan jadidchilikda yotganini ko'pchilik bugun unutgan.

Shu bilan birga, jadidlar ayolning faqat uyda emas, balki jamiyatda ham faol bo'lishi tarafdori bo'lganlar. Ular uchun bu ayolning erkak bilan teng huquqliligi emas, balki ayolga o'z ijtimoiy vazifasini ongli ravishda ado etish imkonini berish masalasi edi. Ular ayolni jamiyatning tarbiyachisi deb ko'rar ekan, unga ilm, axloq va erkin fikr asosida yashash huquqini berishni talab qilganlar.

Demak, jadidlar uchun ayol – bu nafaqat oila tayanchi, balki butun jamiyatni ma'rifat sari yetaklovchi kuchdir. Ayolning savodxonligi, ta'limli bo'lishi, axloqiy va ma'naviy yetukligi oilaviy barqarorlikning asosi sifatida talqin etilgan. Bu yondashuv, ayniqsa bugungi kun uchun ham nihoyatda dolzarb bo'lib, “Yangi O'zbekiston”da gender tenglik, oilaviy madaniyat va ayollar faolligi borasidagi islohotlar jadidlar orzu qilgan jamiyat konsepsiyasiga yaqinlashayotganini ko'rsatadi.

Alohida ta'kidlash kerak, jadidlar ta'limotida tarbiya, urf-odat va ma'naviyat o'zaro ajralmas, uzviy bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy tushunchalar sifatida qaraladi. Ular oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda nafaqat ilmiy-ta'limiy yondashuvni, balki milliy ruh, urf-odatlar, diniy-ma'rifiy qarashlar va zamonaviy tafakkurni bir butunlikda uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surganlar. Jadid ma'rifatparvarlari uchun bu muvozanat — jamiyatda sog'lom, barqaror va axloqiy jihatdan yetuk oilaviy muhitni yaratishning eng muhim sharti bo'lgan.

Jadidlar tarbiyani oddiy axloqiy-nazariy tushuncha emas, balki ma'naviy, diniy, madaniy va vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan harakatdagi ta'sir mexanizmi deb bilganlar. Masalan, Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiyani “millatning hayot va istiqbolini belgilovchi kuch” deb ataydi va “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” deya ta'kidlaganlar. Bu fikrda tarbiya nafaqat shaxsning, balki butun millat taqdirini belgilovchi asos sifatida talqin etilgan. Avloniy tarbiyaning bosh manbai sifatida oilani, urf-odatlarini va maktabni ko'rsatadi.

Urf-odatlar jadidlar nigohida ikki qirrali hodisa sifatida baholangan. Ular milliy urf-odatlarning ijobiy, millat ruhini ifoda etuvchi jihatlarni qadrlaganlar. Ayniqsa, to'y marosimlari, ota-onaga hurmat, mehmondo'stlik, sabr-toqat, kattalarga ehtirom kabi qadriyatlar oilaviy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida targ'ib etilgan. Biroq ular eskirgan, zamon ruhiga zid, ayollarning erkinligini cheklovchi, bolalarni hayotdan ajratib qo'yuvchi urf-odatlarga qarshi chiqqanlar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy qiz bolalarni maktabga yubormaslik, ularni erta turmushga berish, yopiq jamiyatda yashashga majbur qilish kabi urf-odatlarini og'ir tanqid ostiga olgan va ularni jaholat deb atagan.

Ma'naviyat esa jadidlar uchun tarbiya va urf-odatlar bilan bog'langan holda, shaxsning ichki olamini shakllantiruvchi g'oyaviy-ruhiy asos bo'lgan. Jadidlar diniy aqidalarni yuksak qadrlagan, ammo uni xurofotdan tozalash, tafakkurga asoslangan islomga qaytish g'oyasini ilgari surganlar. Jadidlar shaxs tarbiyasida urfdan ajralgan ma'naviyatni xom, ma'naviyatsiz urf-odatni esa johilona deb hisoblaganlar. Shu sababli ular milliy qadriyatlarni tarbiyaning markaziga qo'yish bilan birga, uni zamon ruhiga mos holda yangilash tarafdori bo'lganlar. Oila esa bu qadriyatlar shakllanadigan, sinovdan o'tadigan, jamiyatga uzatiladigan asosiy muhit deb baholangan.

Jadidlarning asosiy mafkuraviy hissasi shundaki, ular oilani faqat biologik yoki iqtisodiy birlik sifatida emas, balki milliy madaniyat va ma'naviyatning eng muhim shakllantiruvchi instituti sifatida ko'rishgan. Bu nuqtai nazar oila institutini ta'lim, tarbiya va axloqiy qadriyatlar majmuasi sifatida yangi bosqichga olib chiqishga imkon bergan. Masalan, Munavvarqori Abdurashidxonov o'zining “Tarbiya” asarida oilaning milliy ruhni saqlab qolish va yosh avlodni ma'rifatli tarbiyalashdagi o'rnini keng yoritgan.

Yangi O'zbekistonning oilaviy siyosatida ham jadidchilik merosi asosida milliy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligi ta'minlanmoqda. Bu siyosat oilaning jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini yanada oshirish, farzand tarbiyasida sifatni yaxshilash hamda ma'naviy muhitni mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar orqali amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jadidchilik – milliy oila modelini mustahkamlashda chinakam mafkuraviy manba bo'lib, o'zining tarixiy ahamiyati va ilmiy-nazariy asoslarini yangi davr sharoitida samarali rivojlantirish orqali jamiyatning barqarorligi, farovonligi va ma'naviy barkamolligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa Yangi O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotining asosiy poydevorlaridan biri sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashidxonov M. “Muallimlar uchun yo'lko'rsatkich”, 1917.
2. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”. – T.: “Fan”, 1992.

SHARQ VA G'ARB METAFIZIKASIDA ILOHIY BIRLIK MODELİ: IBN AL-ARABIY VA KUZANSKIY PANTEISTIK QARASHLARINING QIYOSIY TAHLILI

**Javlon Norboyev,
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur tasavvufshunos va faylasuf Ibn al-Arabiy va g'arb uyg'onish davri mutafakkiri Kuzanskiyning panteistik qarashlarini qiyosiy-komparativistik tahlil qilinib, ularning falsafiy-tasavvufiy yondashuvlariga o'ziga xos chizgi berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: panteizm, vahdat ul-vujud, tasavvuf, Xudo, borliq, emanatsiya (tajalliy), troitsa.

Аннотация. В данной тезисной работе проводится сравнительно-компаративистский анализ пантеистических взглядов выдающегося суфиеведа и философа Ибн Араби и мыслителя эпохи западного Возрождения Николая Кузанского, при этом предпринимается попытка выявить их философско-мистические подходы в специфическом ракурсе.

Ключевые слова: пантеизм, вахдат аль-вуджуд, суфизм, Бог, бытие, эманация (тажалли), Троица.

Annotation. This thesis presents a comparative analysis of the pantheistic views of the renowned Sufi scholar and philosopher Ibn Arabi and the Western Renaissance thinker Nicholas of Cusa, with an attempt to outline their philosophical and mystical approaches from a specific perspective.

Keywords: pantheism, wahdat al-wujud, Sufism, God, being, emanation (tajalli), Trinity.

Sharq va G'arb metafizikasida ilohiy birlik modeli Xudo va borliq orasidagi ontologik munosabatni tushuntirishga qaratilgan asosiy tushuncha sanaladi. Har ikki an'anada Xudo mutlaq mavjudlikning manbai sifatida talqin etiladi, yaratilgan olam esa bu mutlaq birlikning nisbiy va bosqichma-bosqich namoyon bo'lishi tarzida tavsiflanadi. Bunda yagonalik va ko'plik, cheksizlik va cheklilik orasidagi aloqa metafizik tahlilning asosiy yo'nalishini belgilab beradi. Ushbu umumiy nazariy asos doirasida Ibn al-Arabiy va Nikolay Kuzanskiy qarashlarini ko'rib chiqish mantiqan o'rinli bo'ladi. Negaki, har ikki mutafakkir ilohiy birlikni ontologik markaz sifatida talqin etib, borliqni uning nisbiy ifodasi deya tushuntiradi. Shu bois ularning metafizik tizimlari ilohiy birlik modelining Sharq va G'arb an'alaridagi o'ziga xos namoyon bo'lish shakllarini aks ettiradi.

Sharq tasavvuf olamining yetuk sufiyshunos olimi Muhyiddin Ibn al-Arabiy o'zining islom panteizmi hisoblanmush "vahdat ul-vujud" konsepsiyasidagi panteistik qarashlar ahamiyati yuqori ekanligi sir emas, shuningdek g'arb tarix sahnasida Nikolay Kuzanskiyni neoplatonizm va panteizmning yetuk namoyondasi sifatida yaxshi bilamiz. Ularning falsafiy qarashlarini tahlil qilishdan avval, biz panteizm tushunchasiga izoh berib ketishni shuningdek ushbu termini ilm-fan maydoniga kirib kelish tarixini o'quvchiga eslatib o'tishni joiz deb bildik. Panteizm – Xudo va koinot, hamda uning barcha tarkibiy qismlarini bir deb hisoblovchi teologik va falsafiy e'tiqoddir. "Pan" (hamma) va "teos" (Xudo) degan yunoncha so'zlardan kelib chiqqan panteizm, mavjud bo'lgan har bir narsa ilohiy kuchning ifodasi yoki namoyoni sifatida ko'radi. Ushbu falsafiy qarash Xudo va tabiat bir butunlik sifatida qaraydigan nazariya bo'lib. unga ko'ra, Xudo tabiatdan tashqarida alohida mavjudot emas, balki tabiatning o'ziga singib ketgan yoki uni o'z ichiga olgan yaratuvchi va yaratilgan narsalar o'rtasidagi chegarani yo'qotib, ularni yagona birlashgan haqiqat sifatida ko'riladi. An'anaviy teistik qarashlar Xudoni koinotni yaratgan va uni boshqaruvchi alohida shaxs sifatida tasvirlasa, panteizm Xudoni koinotning har bir jihatida mavjud sifatida uni olamdagi jamiki narsalarda ko'radi, hattoki eng kichik zarrachalarda ham. Ilk marta ushbu termini ingliz faylasuf olimi J.Toland (1705) hamda gollandiyalik faylasuf I.Fay (1709), XIX asrga kelib esa K.Krauze tomonidan ilm termin sifatida keng ishlatila boshlandi. Panteistik g'oyalar asosi qadimgi Hind, Xitoy hamda yunon falsafiy ta'limotlariga borib taqaladi, xususan Hindistondagi braxmanizm, hinduizm, vedanta, Xitoy diyorida esa daosizm, shuningdek Yunonistonda Fales, Anaksemin, va Anaksemandrning naturfalsafasida ko'rishimiz mumkin. Olmaning yaratilishi tabiatdagi biron bir narsani ustun qo'yilishi yoki asosiy substansiya sifatida ko'rilishi bu panteizmdagi Xudo tabiatdagi jamiki narsalarda mavjud ya'ni ular yakka kategoriya emas degan fundamental asosga g'oyatda o'xshashdir. Keyinchalik ushbu g'oya neoplatonchilar va uning izdoshlari tomonidan "emanatsiya" yaqin Sharqdagilar

esa uni “tajalliy” etish ya’ni Xudoning tabiatdagi narsa-predmetlarda akslanishi yoki jilolanishi sifatida aks etdi. Hattoki Abu Nasr Forobiy ham moddiy ibtido o’zini Xudo orqali namoyon bo’lishini keltirib o’tadi. Unga ko’ra moddiy asos (ibtido) Xudoning biron bir jihatida emanatsiyalanadi

Muhyiddin Ibn al-Arabi va Nikolay Kuzanskiyning asosiy panteistik yondashuvlari Xudo, uning borliqdagi o’rni va funksiyasi to’g’risida edi. “Shayx ul-Akbar” ning falsafiy ta’limotiga ko’ra koinotni ilohiy o’z o’zini bilishning mahsuli deb hisoblaydi. Bu esa noyob va bilib bo’lmaz ilohiy mohiyatning o’zini maxluqot olami narsalari va hodisalarini namoyon etishga undadi, ayni vaqtda uning mukammal sifatlarining o’ziga xos ko’zgusi bo’ldi desak adashmagan bo’lamiz. Ibn al-Arabi ta’limotida Xudo mutlaqo begona va yetishib bo’lmaydigan mohiyat emas, balki ko’pchilik sunniy ilohiyotchilari esa uni yetishib bo’lmaydiga mohiyat deb tasavvur qiladilar. Va shuning uchun Ibn al-Arabiyni ibtidoiy islom panteizmi yaratuvchisi sifatida tushunadigan, “vahdat al-vujud” ni kufrona ta’limotning asoschisi sifatida bilishadi va tanqid qilishadi. Aslida esa uning falsafiy va tasavvufiy ta’limoti ayniqsa borliq to’g’risidagi qarashlari ancha kengroqdir. Kuzanskiyning talqini esa sxolastik falsafadan tubdan farq qilib, u Xudoni mutlaq yaratuvchi va barcha yaratilqlar yaralishiga yagona sabab sifatida ko’rsatadi. U barcha olamlarni yaratib, o’zi shu olam ichida yashiringan. Boshqacha aytganda, olam va Xudo yaxlit bir borliqni tashkil etadi. U barcha narsalarning mohiyatidir. Kuzanskiy xristian e’tiqodining troitsa, Xudoning uch qiyofada namoyon bo’lishi konsepsiyasini tanqid qilgan ekan, uni ko’proq ruhiy qudrat, tabiatni o’zida yashiringan muqaddas ruh sifatida tasavvur etadi. U barcha mavjudotlar va tabiiy hodisalarda Muqaddas Ruh tajalliysini ko’radi [1].

Kuzanskiy “Xudoni o’rta asrga xos ortodoks sxolastik talqin qilishdan chekinib, antik panteizmga yaqinroq bo’lgan g’oyani ilgari suradi va Xudoni dipersonalizatsiya qiladi. Xudo “o’zgacha”, “borliq va imkoniyat”, “o’zi imkoniyat” eng muhimi absolyut maksimum kabi cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini ko’rsatib o’tadi” [2]. Nikolay Kuzanskiyning talqiniga ko’ra, Xudo insonning odatiy ratsional va mantiqiy fikrlash doirasidan tashqaridadir, uni anglash esa e’tiqod va irratsional ishonch natijasida bo’ladi.

1. Xudo – hamma narsalarda mavjud, hech narsa undan tashqarida mavjud bo’lolmas.
2. Xudo – olamlar egasi. Bir vaqtda yaratuvchi va yaraluvchi, sabab va oqibat birligidir.
3. Olamda sodir bo’ladigan hamma hodisalar, voqealar, holatlar Xudoga borib taqaladi. Mohiyat ham, maqsad ham Xudo. Bu vahdatdir (birlikdir).

Shuningdek, Xudoni tabiatning tajalliysi, ya’ni nurlanishi, ta’sirlanishi sifatida biladi va u tomon qancha imkoniyatlar ko’p ochilsa, yashiringan borliq shuncha ko’proq yuzaga chiqadi. Ibn al-Arabi va Nikolay Kuzanskiy falsafasidagi panteistik qarashlarning kesishadigan nuqtasi - bu emanatsiya (tajalliy) g’oyasidir. Ba’zi bir manbalarda, bevosita yoki bilvosita Kuzanskiyning bu fikrga Ibn al-Arabiyning tajalliy nazariyasidan ilhomlangan holda yuzaga kelgan bo’lishi mumkinligi haqidagi qarashlar yo’q emas.

Ibn al-Arabi nazariyasi bo’yicha, Mutlaq Vujud – Alloh taolo ilohiy nur shaklida yo’qlik olamidan borliq olamiga jilolanadi hamda borliqdagi moddiy va nomoddiy narsalarning qobiliyatlari imkoniyatlariga yarasha ularda namoyon bo’ladi. Ashyolar va mavjudotlarning qobiliyat va imkoniyatlari qancha keng bo’lsa, yashiringan narsalar o’sha daraja va miqdorda ko’rinishga ega bo’ladi. Ibn al-Arabi nigohida Xudo, tabiat va koinotni bir marta yaratib qo’yib o’z holiga tashlab qo’ymaydi, balki yaratish va yaralish jarayoni har bir soniya va lahzada izchil va uzluksiz davom etadi. Ana shu jarayonlar bu Parvardigorning xoliqlik kuchidan dalolatdir. Ana shu doimiy, to’xtovsiz yaratishlar va yaralishlar natijasida olam muntazam ravishda yangilanib turadi, moddiy va nomoddiy borliqda shakllanish va takrorlanish, ko’payish va kamayish (vahdat va kasrat), rivojlanish va taraqqiy etish, faoliyat va harakat kabi hodisalar yuz beradi. Kuzanskiy ham shunga o’xshash fikrni takrorlaydi, faqat u olamning paydo bo’lishini misoli o’rgimchakni to’r to’qishiga qiyoslaydi. Xudoning vojibligi berkingan imkoniyatlarining ochilish jarayonida boshlanadi. Ushbu nihoyasi yo’q imkoniyatlar tufayli Xudo yashiringan sahna ochiladi va olam yaralishiga sabab bo’ladi. Ibn al-Arabi borliqdagi barcha narsalar va hodisalar mohiyatida Mutlaq Vujud – Parvardigorning sifatlarini ko’rsa, Kuzanskiy ham uni quvvatlagan holda koinotdagi jamiki hodisalar va narsalarda Mutlaq Kuch ya’ni Xudoning jamolini turfa xil mohiyatlarda namoyon bo’ladi. Ya’ni Xudo sifatleri va imkoniyatlari nuqtai nazardan kasrat olamiga mansub. Bu esa uning qudratini ifodalaydi. Kuzanskiy Xudo borlig’i haqidagi kuzatishlari Ibn al-Arabi g’oyalariga yaqin. “Vahdat ul-vujud” falsafasidagi kasrat olamining vahdat olamida tajalliy etishi, ya’ni olamdagi barcha narsalar va hodisalarning Mutlaq vujudga aks etishiga asoslangan ushbu g’oya kasrat olami aslida vahdat olamidan vujudga kelganini anglatadi.

Xudo yaratgan eng buyuk yaratiq inson bo'lganidek, uning tabiati esa eng buyuk borliqdir. Shunday ekan, ul tabiatdagi barcha narsalar, yaratilgan va jamiki yaralmalar birlashib, yakka-yu yagona borliqni tashkil etadi, shu sababli odam tabiatida Allohning yagona borlig'i mujassam. Ahamiyatli jihati shundaki, hatto inson ham bu yashiringan borliqni to'laonli ocholmaydi, ammo ba'zi bir qismlarini namoyon qilishi mumkin. Nikolay Kuzanskiy va Ibn al-Arabiyning nazdida, o'sha butun borliq inson tabiatida ko'rinishi uchun inson ilohiy atributlarga ega bo'lishi kerak, bular Xudo tomonidan beriladi yoki yuqtiriladi. Xristianlik e'tiqodiga tayangan holda, Kuzanskiy bu ilohiy kuch Iso Masihga, Ibn al-Arabi esa islom nuqtai nazaridan kelib chiqib, yagona borliqni Muhammad Payg'ambar (Haqiqati Muhammadiya) da mujassam bo'lgan deb ta'kidlaydi. Nikolay Kuzanskiyning e'tiqod va bilim masalasiga butunlay panteistik tarzda yondashadi, Xudo tabiatda o'zini tajalliy etadi va tabiat, ya'ni olam uning ko'rinishidir.

Nikolay Kuzanskiy falsafasida bilimning subyektivi va obyektivi o'rtasidagi munosabat haqidagi fikri Ibn al-Arabiyning "Inson tafakkuri Alloh taoloning zotini anglashga qodir emas, ya'ni inson aql-tafakkur yordamida Mutlaq haqiqatning asl mohiyatini idrok eta olmaydi" degan fikridan ta'sirlangan bo'lishi ham mumkin degan taxminlar yo'q emas. Ibn al-Arabi fikricha, inson qalbida Parvardigor ilohiy fayzni bu dunyoda qo'lga kiritgan ilmi miqdoriga qarab tajalliy etadi. Kuzanskiy yer bilan osmon, Xudo bilan tabiat o'rtasida chegara qo'yadigan g'oyalarga qarshi bo'lgani uchun sof panteistik tafakkurda fikr yuritadi. Xudo va borliq doimo va Mutlaq ravishda bitta, ular bir biridan hech qachon ayro holda tasvirlanmaydi.

Xulosa. O'rta asr falsafiy tafakkurida muhim fenomenlaridan hisoblangan Ibn al-Arabi va Nikolay Kuzanskiyning falsafiy qarashlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki mutafakkirning ontologik tizimida borliq va ilohiylik munosabati markaziy o'rinda namoyon bo'ladi. Ibn al-Arabi ta'limotida bu munosabat "vahdat al-vujud" konsepsiyasi orqali asoslanib, mavjudotlarning barchasi Mutlaq Haqning tajalliy shakllari sifatida talqin qilinadi. Bunda borliq mutlaq ma'noda Xudoga tenglashtirilmaydi, balki U Zotning zohir bo'lish jarayoni sifatida izohlanadi. Shu jihatdan uning qarashlari sof panteizm emas, balki yagonalikni (tavhidni) saqlab qolgan ontologik modeli hisoblanadi.

Nikolay Kuzanskiy falsafasida esa Xudo "mutlaq maksimum" sifatida talqin qilinib, borliq cheksizlikning cheklangan shakldagi ifodasi sifatida tushuntiriladi. Uning "coincidentia oppositorum" g'oyasi orqali qarama-qarshiliklarning oliy birlikda uyg'unlashuvi asoslanadi. Bu yondashuv ham klassik panteizmga yaqin turadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadi-ki:

Birinchidan, har ikki faylasuf talqinidagi borliq yagona metafizik asosga bo'ysunadi.

Ikkinchidan, Mutlaq birlik g'oyasida yagonalik ya'ni tavhid prinsipi saqlanadi.

Uchinchidan, Ibn al-Arabi falsafasida ko'proq irratsional-tasavvufiy mushohada yo'lidan yurilgan bo'lsa, Nikolay Kuzanskiyda esa asosan ratsionallik tafakkur ustuvorlik qiladi.

Shu bois mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosani ilgari surish mumkin: Ibn al-Arabi va Nikolay Kuzanskiy ta'limotlarida uchraydigan panteistik elementlar ularning qarashlarini sof panteizm paradigmasi doirasida talqin etish uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Aksincha, mazkur mutafakkirlar Sharq va G'arb metafizik tafakkurida ilohiy birlik (Mutlaq birlik) konsepsiyasining o'ziga xos, shaklan farqli, biroq ontologik jihatdan o'zaro yaqin modellarini ishlab chiqqanlar. Ushbu qiyosiy tahlil o'rta asrlar islom va xristian falsafiy an'alarini umumiy o'xshash va farqli jihatlar mavjudligini ko'rsatish bilan birga, tadqiqotchilar uchun esa mazkur davr tafakkur maydonini yanada chuqurroq tadqiq etish motivini paydo qiladi degan beg'ubor umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jafar Xolmo'minov Vahdat ul-vujud falsafasi va Naqshbandiya tariqati. Monografiya.- Toshkent: 2020.

2. G'arb falsafasi. – T.: "O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati", "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004.,– B.294.

YANGI O'ZBEKISTONDA TARIX FANINI O'QITISHDAGI MUAMMOLAR

Nodira Raxmanberdiyeva
"TIQXMMI" MTU assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fanini o'qitish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, tarix ta'limi, ta'lim islohoti, tarixni o'qitish metodikasi, darsliklar, pedagogik muammolar.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются основные проблемы, возникающие в процессе преподавания истории в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, историческое образование, образовательные реформы, методика преподавания истории, учебники, педагогические проблемы.

Abstract. This article analyzes, from scientific-theoretical and practical perspectives, the main problems arising in the process of teaching history in the context of New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, history education, educational reform, methodology of teaching history, textbooks, pedagogical problems.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarix fanini o'qitish masalasi jamiyatning tarixiy xotirasini shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tarix fanini o'qitishdagi muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asosda hal etish dolzarb vazifaga aylangan.

So'nggi yillarda tarix ta'limi mazmunini yangilash, milliy tarixni xolis va ilmiy asosda yoritish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fanini o'qitishdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

• **Tarixiy-tahliliy metod** – tarix fanini o'qitish jarayonining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishda;

• **Taqqoslash metodi** – avvalgi va hozirgi tarix ta'limi tizimini solishtirishda;

• **Tizimli yondashuv** – tarix ta'limidagi muammolarni o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqishda;

• **Manbashunoslik tahlili** – normativ-huquqiy hujjatlar, darsliklar va ilmiy adabiyotlarni o'rganishda.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasiga oid qonunlar, davlat dasturlari, tarix ta'limiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar va darsliklar asosiy manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqot natijasida Yangi O'zbekistonda tarix fanini o'qitishda quyidagi asosiy muammolar aniqlangan:

Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fanini o'qitishdagi eng muhim muammolardan biri — tarix ta'limi mazmunining yetarlicha tizimlashtirilmaganligidir. Tarixiy bilimlar tizimli va izchil berilmaganda, o'quvchilarda tarixiy tafakkur, sabab-oqibat munosabatlarini anglash hamda umumlashtirish ko'nikmalari to'liq shakllanmaydi. Amaldagi ayrim o'quv dasturlari va darsliklarda tarixiy voqealar ketma-ketligi saqlanmagan holatlar uchraydi. Masalan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar iqtisodiy va madaniy omillardan ajratilgan holda yoritiladi. Natijada tarixiy hodisalar o'zaro bog'liq jarayon sifatida emas, balki alohida faktlar majmui sifatida qabul qilinadi. Bu holat tarix fanining asosiy vazifasi — jamiyat taraqqiyotining qonuniyatlarini anglatish imkoniyatini cheklaydi.

Shuningdek, milliy va jahon tarixi o'rtasidagi uzviylik yetarli darajada ochib berilmayapti. O'zbekiston tarixidagi voqealarning jahon tarixiy jarayonlari bilan bog'liqligi ko'pincha yuzaki yoritilib, o'quvchilarda global tarixiy tafakkur shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Bu esa yoshlarning tarixiy voqealarga biryoqlama yondashishiga olib kelishi mumkin.

Tarix ta'limi mazmunining tizimlashtirilmaganligi yana bir jihatdan — tushunchalar va atamalarining bosqichma-bosqich murakkablashib borish tamoyiliga amal qilinmasligida namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda murakkab ilmiy tushunchalar yetarli tayyorgarliksiz beriladi yoki aksincha, yuqori

sinflarda ham soddalashtirilgan tushuntirishlar bilan cheklaniladi. Bu holat o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydi.

Bundan tashqari, tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti. Tarix faqat tayyor ma'lumotlarni o'zlashtirish fani sifatida talqin qilinib, tahlil, taqqoslash va xulosa chiqarish jarayonlari ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Natijada tarix ta'limi bilim berish bilan cheklanib, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarini to'liq bajara olmayapti.

Umuman olganda, tarix ta'limi mazmunining yetarlicha tizimlashtirilmaganligi o'quvchilarning tarixiy ongini shakllantirishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli tarix ta'limi mazmunini qayta ko'rib chiqish, uni mantiqiy izchillik, uzviylik va kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimlashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Darsliklar sifatiga oid muammolar. Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fanini o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan darsliklarning ilmiy-metodik sifatiga bog'liqdir. Darslik tarix ta'limining asosiy vositasi bo'lib, undagi mazmunning aniqligi, mantiqiy izchilligi va yosh xususiyatlariga mosligi tarixiy bilimlarning to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi. Biroq amaliyotda tarix darsliklari sifatiga oid bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, ayrim darsliklarda **faktologik xatolar va aniqlik yetishmasligi** kuzatiladi. Tarixiy sana, shaxs va voqealarning noto'g'ri yoki bir-biriga zid tarzda berilishi o'quvchilarda tarixiy ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Bu holat tarix fanining ilmiy asoslariga putur yetkazib, o'quvchilarning fan sifatida tarixga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi.

Ikkinchidan, darsliklardagi **matn murakkabligining yosh darajasiga mos kelmasligi** muhim muammo hisoblanadi. Ba'zi darsliklarda ilmiy terminlar haddan tashqari ko'p va murakkab shaklda berilib, ularning izohi yetarlicha ochib berilmaydi. Aksincha, yuqori sinflar uchun mo'ljallangan darsliklarda mavzular soddalashtirilgan holda yoritilib, chuqur tahlil va umumlashtirishga imkon bermaydi. Bu holat uzluksiz ta'lim tamoyiliga zid keladi.

Uchinchidan, **milliy va jahon tarixining mutanosib yoritilmasligi** darsliklar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim darsliklarda jahon tarixiga haddan tashqari katta hajm ajratilib, milliy tarix ikkinchi darajaga tushib qoladi yoki aksincha, milliy tarix voqealari jahon tarixiy jarayonlaridan ajratilgan holda beriladi. Natijada o'quvchilarda tarixiy jarayonlarga nisbatan yaxlit tasavvur shakllanmaydi.

To'rtinchidan, darsliklarda **tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlarning yetishmasligi** seziladi. Ko'pchilik topshiriqlar faktlarni qayta aytib berish yoki yodlashga qaratilgan bo'lib, tarixiy hujjatlar bilan ishlash, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash, turli tarixiy nuqtai nazarlarni solishtirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirmaydi. Bu esa tarix fanining kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitilishiga to'sqinlik qiladi.

Beshinchidan, **vizual va didaktik materiallarning sifati** ham muammoli jihatlardan biridir. Ayrim darsliklarda xaritalar, sxemalar, jadvallar va tasviriy materiallar yetarli emas yoki ular mavzu mazmunini to'liq ochib bera olmaydi. Bu holat, ayniqsa, tarixiy jarayonlarni fazoviy va vaqt jihatidan tasavvur qilishda qiyinchilik tug'diradi.

Shuningdek, darsliklarni tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish jarayonida **ilmiy jamoatchilik va tajribali o'qituvchilarning ishtiroki yetarli darajada ta'minlanmayotgani** ham muhim muammo hisoblanadi. Bu esa darsliklarning amaliy ta'lim jarayoniga to'liq mos kelmasligiga olib keladi. Tarix darsliklari sifatiga oid muammolar tarix fanini o'qitish samaradorligini pasaytirib, o'quvchilarda tarixiy bilimlarning yuzaki shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois darsliklarni yaratishda ilmiy aniqlik, metodik mukammallik, yosh xususiyatlariga moslik va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur.

Ba'zi hududlarda tarix fani o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari past darajada ekanligi aniqlangan.

Tarix darslarida hanuzgacha ma'ruza va yodlashga asoslangan usullar ko'p qo'llanilib, interaktiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar yetarli darajada joriy etilmagan.

Multimedia vositalari, elektron platformalar va tarixiy manbalar bazasidan foydalanish imkoniyatlari barcha ta'lim muassasalarida bir xil emas.

Aniqlangan muammolar tarix fanini o'qitish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Tarix ta'limi faqat faktlarni yodlash emas, balki tarixiy hodisalarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'liqligini tushunish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Xalqaro tajribada tarix fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv, manbalar bilan ishlash, tarixiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda ham ushbu yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda tarix fanini o'qitishda mavjud muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- tarix darsliklarini ilmiy ekspertizadan o'tkazib, sifatini oshirish;
- tarix fani o'qituvchilarining malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
- zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni tarix darslariga keng joriy etish;
- o'quvchilarda tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash.

Mazkur takliflar tarix ta'limining sifatini oshirish va Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FAZOVIIY TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Muhabbat Mamasaidova,
FarDU, Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasida dotsenti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada fazoviy tasavvurlar tushunchasining psixologik va pedagogik mohiyati, uning ontogenetik rivojlanish bosqichlari hamda boshlang'ich ta'lim jarayonidagi ahamiyati atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: fazoviy tasavvur, fazoviy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, kognitiv rivojlanish, STEAM, vizual savodxonlik.

Аннотация. В статье рассматривается психологическая и педагогическая сущность пространственных представлений и их значение в системе начального образования.

Ключевые слова: пространственные представления, пространственное мышление, начальное образование, когнитивное развитие, STEAM-подход, визуальная грамотность.

Abstract. This article examines the psychological and pedagogical essence of spatial representations and their significance in primary education.

Keywords: spatial representation, spatial thinking, primary education, cognitive development, STEAM approach, visual literacy.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning faqat bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki ularning tafakkur turlarini, jumladan fazoviy tafakkur va tasavvurlarini rivojlantirishni ham ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Fazoviy tasavvurlar insonning atrof-muhitni idrok etishi, makonda mo'ljal olishi, obyektlar o'rtasidagi munosabatlarni anglashida muhim kognitiv mexanizm hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim davri bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish uchun sezgir (sensitiv) davr bo'lib, bu jarayonda olingan bilim va ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fazoviy tasavvurlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va yozishdagi xatolar, matematik tushunchalarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar, shuningdek, umumiy o'quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish masalasi psixologiya va pedagogika fanlarida dolzarb muammo sifatida qaraladi. Mazkur maqolaning maqsadi fazoviy tasavvurlar tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda uning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Metodologiya. Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo'lib, unda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy solishtirish, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Fazoviy tasavvurlar

muammosi bo'yicha klassik va zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar (J. Piaje, B. Inxelder, B.G. Ananyev, I.S. Yakimanskaya, N.K. Korsakova va boshqalar) tahlil qilindi.

Shuningdek, boshlang'ich ta'lim fanlari mazmuni, amaliy mashg'ulotlar va STEAM yondashuvi doirasida fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish imkoniyatlari pedagogik nuqtai nazardan baholandi. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosalar umumlashtirilib, mantiqiy tizimga keltirildi.

Natijalar. Ta'limiy faoliyatning tashkil etilishida integratsiya tamoyilining ahamiyatini ham qayd etish lozim. Fazoviy tafakkur faqat matematika yoki geografiya darslarining vazifasi bo'lib qolmay, balki turli fanlar kesishmasida rivojlantirilishi mumkin. Masalan, tasviriy san'at darsida rasm chizish orqali perspektiva va nisbat tushunchalari singdiriladi, mehnat ta'limida naqsh tushirish yoki maket yasash orqali simmetriya va shakl tushunchalari rivojlanadi. Hattoki adabiyot darsida makon tasviri (yo'l tafsiloti, manzara tavsifi)ni tahlil qilish orqali bolalar matnda ifodalangan fazoviy munosabatlarni tasavvur qilishga o'rganadilar. Bunday integrativ yondashuv, birinchidan, fazoviy tushunchalarning hayotning turli jabhalarida qo'llanishini ko'rsatadi, ikkinchidan, har bir fanga xos material orqali bolalarning makoniy tasavvurlarini mustahkamlaydi.

Shu tariqa, o'quv muhiti va ta'limiy faoliyat fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Rivojlantiruvchi, boyitilgan muhit – ko'rgazmali qurollar, vositalar, o'yinchoqlar – bolalarda makon haqidagi tasavvurlarni boyitadi va amaliy tajriba beradi. Ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi – faol, interaktiv metodlar, kommunikativ yondashuv, integratsiya va texnologiyalardan foydalanish – esa bu tasavvurlarni ongli darajada shakllantirib, mustahkamlaydi. O'qituvchi uchun vazifa – fazoviy tafakkur rivojini ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylantirish, har bir dars va faoliyatda mavjud fazoviy imkoniyatlardan samarali foydalanishdir. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar shuni tasdiqlaydiki, boy o'quv muhiti va faol ta'limiy ishtirok orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tasavvurlarni muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

Rivojlantiruvchi ta'lim (ruscha: “развивающее обучение”) konsepsiyasi – ta'limning asosiy maqsadini bolaning intellektual va shaxsiy kamolotini ta'minlashga qaratadigan ilmiy-pedagogik yo'nalish bo'lib, unda fazoviy tafakkurni shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiya asoschilari L.V. Zankov, D.B. Elkonin, V.V. Davidov kabi olimlar ta'lim jarayonini shunday qurishni taklif etadilarki, natijada bolada faqat bilim emas, balki yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari, jumladan, makoniy tafakkur ham rivojlanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga muvofiq, boshlang'ich sinf darslarida bolalarga intellektual jihatdan murakkab vazifalar berish, ularning ongli tahlil va kashfiyotlar qilishini rag'batlantirish lozim. Bu yondashuv bo'yicha maktab dasturi bolaning yoshi uchun nisbatan yuqoriroq intellektual talablarga ega bo'lishi, ya'ni bolaning aktual rivojlanish darajasidan biroz oldinda turuvchi ma'lumot va topshiriqlarni o'z ichiga olishi ko'zda tutiladi (Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” printsipli asosida). Natijada bola o'ziga biroz qiyinchilik tug'diruvchi muammolarni hal etish asnosida yangi tushunchalarni egallaydi va fikrlash darajasini yuksaltiradi.

L.V. Zankov tizimida rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillarini amalda qo'llash boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy intellektual rivojlanishida sezilarli ijobiy o'zgarishlar berishi ilmiy tajribalar orqali ko'rsatilgan. Xususan, Zankov dasturi asosida o'qigan o'quvchilar an'anaviy dasturdagilarga nisbatan mantiqiy tafakkur, tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalari bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatgani qayd etilgan. Tadqiqotlar shuni aniqladiki, Zankov tizimi o'quvchilarida ayniqsa noverbal (so'zsiz) tafakkur va obrazli tasavvur ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Bu esa fazoviy tafakkur bilan bevosita bog'liq – chunki makoniy masalalarni hal etishda ko'pincha so'zsiz, obrazlar bilan ishlash talab etiladi. Shu ma'noda, rivojlantiruvchi ta'lim sharoitida fazoviy tasavvurlar ham tezroq va puxtaroq shakllanishi kutiladi. Haqiqatan ham, V.D. Shadrikov va M.D. Kuznetsova tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari Zankov metodikasi bo'yicha tahsil olgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fazoviy tafakkurga doir test natijalari an'anaviy tizimdagi tengdoshlariga qaraganda yaxshiroq ekanini ko'rsatdi. Xususan, noverbal topshiriqlarni (masalan, geometrik shakllarni mantiqiy tartibga keltirish, qisman chizilgan shaklni tanib to'ldirish kabilar) bajarishda Zankov tizimidagi o'quvchilar mustaqil ravishda yechim topish, o'z harakatlarini rejalashtirish va ko'rganini aqliy tasavvur qilishda yuqori malaka namoyish etishgan. Mualliflar bunday farqni rivojlantiruvchi ta'limda o'quvchilarning erkin fikrlashi, noan'anaviy masalalarni hal etishga undalishi bilan izohlaydilar – bunda bolalarning fazoviy fikrlashga oid layoqatlari ham faolroq rag'batlanadi.

D.B. Elkonin va V.V. Davidov yaratgan rivojlantiruvchi ta'lim tizimida ham fazoviy tushunchalarni egallashga katta e'tibor beriladi. Davidovning fikricha, bolaga konkret tasavvurlardan nazariy tushunchalarga o'tish imkonini beradigan sharoit yaratish lozim. Uning boshlang'ich sinflar uchun tuzgan dasturida algebraik va umumiy matematik tushunchalar erta joriy etilishi bilan birga,

o'lcham va shakl haqidagi tushunchalar ham chuqurroq o'rgatiladi. Masalan, an'anaviy usulda 2-sinfda faqat oddiy geometrik shakllar nomi o'rgatilsa, Elkonin-Davidov tizimida bolalar shakllarning xossalari tadqiq qilishga jalb qilinadilar: kvadratning diagonallari xususiyati, to'g'ri burchakning mohiyati kabi masalalar muhokama qilinadi. Bunda bolalar kichik tadqiqotchilar singari shakllarni chizib, o'lchab ko'rib, umumiy qonuniyatni o'zlari kashf etadi. Bu jarayon, albatta, ularning fazoviy tafakkurini ancha yuqori bosqichda ishga soladi va rivojlantiradi. Rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasida bolaga tayyor bilimni berishdan ko'ra, uni muammo yechish jarayoniga jalb qilish prinsipi ustuvor. Natijada, o'quvchi makoniy muammoni ham o'qituvchi ko'rsatmasidan emas, balki o'zi yechishga harakat qiladi: masalan, "Qanday shakllar aylantirganda ham o'zining shaklini o'zgartirmaydi?" degan savol bilan sinfda muhokama uyushtirilsa, bolalar doira, kvadrat kabi shakllarni sinab ko'rib, doiraning har tomondan bir xilda ko'rinishi xulosasiga kelishlari mumkin. Bu kashfiyot ularga oddiy kuzatishdan ko'ra chuqurroq ta'sir qiladi va doiraning fazoviy xossasini yaxshi esda qoldiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim sharoitida fazoviy tasavvurlarni shakllantirishda yana bir omil – o'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish. Zankov va Davidov tizimlarida o'quvchilar kichik guruhlarda ishlash, laboratoriya ishlarini bajarish, tajribalar qilish orqali bilimlarni egallaydilar. Masalan, "Geometrik laboratoriya" faoliyati orqali bolalar mustaqil ravishda turli shakllarni yasab, ularning xossalari "kashf qilishadi". Bunday mustaqillik fazoviy tafakkurni rivojlantiradi, chunki bola o'z-o'zidan savollar beradi: "Nega ikki uchburchakni qo'shsam, to'g'ri to'rtburchak hosil bo'ldi?", "Nega bu shaklni ag'darganda ham xuddi o'sha ko'rinishda qolyapti?" va shu kabi savollarga javob izlaydi. Bu jarayonda o'qituvchi yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolni o'ynaydi xolos, yechimni tayyor bermaydi.

Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasida fazoviy tushunchalarni shakllantirish bolalarning umumiy tafakkurini rivojlantirish strategiyasiga singdirilgan. Ya'ni, alohida predmetlar doirasida emas, balki butun ta'lim jarayonida makoniy fikrlash targ'ib qilinadi. Masalan, Zankov tizimidagi ona tili darslarida ham o'qituvchi matnning tarkibiy tuzilishini "makon" metaforasi orqali tushuntirishi mumkin (matnning boshi, o'rtasi, oxiri – bu ham o'ziga xos makoniy tashkil topish); tabiatshunoslik darsida Quyosh tizimini o'rgatishda planetalarning fazoviy joylashuvi modeli bilan ishlanadi. Shu tariqa, rivojlantiruvchi ta'limda fazoviy tafakkur lokal hodisa bo'lmay, balki integrativ ravishda rivojlantiriladi.

Ta'kidlash lozimki, rivojlantiruvchi ta'limni an'anaviy ta'lim bilan qiyoslagan bir qator tadqiqotlar uning afzalligini dalillab bergan. Jumladan, V.D. Shadrikov tadqiqotida an'anaviy tizimda o'qiyotgan o'quvchilarga nisbatan rivojlantiruvchi dasturdagilar bir qator aqliy ko'rsatkichlar, shu jumladan, fazoviy tasavvurlar sifati bo'yicha yuqori natijalar ko'rsatganligi aytiladi. Bu farq ayniqsa noan'anaviy topshiriqlarni bajarishda yaqqol ko'ringan: rivojlantiruvchi ta'limdagi bolalar geometrik shakllarni muayyan shartlar asosida guruhlash, mental xarita tuzish kabi topshiriqlarda izlanish strategiyalarini qo'llab, kengroq fikrlay olganlar. An'anaviy tizimdagilar esa odatda ilgari o'rgangan namunaviy yechimlardan chetga chiqa olmagan kuzatilgan. Bu jihat, albatta, rivojlantiruvchi ta'lim metodikasining ustunligi sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa qilganda, rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasida fazoviy tasavvurlarni shakllantirish umumiy intellektual rivojlanish kontekstida qaraladi. Bunday yondashuvda makoniy tushunchalar va ko'nikmalar bolaga murakkab, ammo qiziqarli muammolarni hal etish jarayonida, mustaqil izlanishlar orqali beriladi. Natijada o'quvchi nafaqat fazoviy tafakkurga oid bilimlarni egallaydi, balki har qanday vaziyatda makoniy muammoni hal etishga tayyor bo'ladigan darajada rivojlanadi. Rivojlantiruvchi ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, maktab yoshidayoq bolalarning fazoviy tafakkurini yuqori bosqichda shakllantirish mumkin va lozim; zero, bu nafaqat keyingi matematik yoki geografik bilimlar uchun, balki shaxsning ijodiy va mantiqiy fikrlashi uchun ham mustahkam poydevor bo'ladi.

Zamonaviy integrativ yondashuvlardan biri bo'lmish **STEAM-ta'lim** (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) fazoviy tafakkurni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. STEAM tamoyili bo'yicha qurilgan ta'lim dasturlarida fanlararo aloqa va amaliy muammolarni yechish ustuvor bo'lib, o'quvchilar bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantiradilar. Fazoviy tasavvurlar esa bunday integratsiyalashgan faoliyatning ajralmas qismiga aylanadi, chunki muhandislik, san'at va texnologiya elementlarini o'z ichiga olgan topshiriqlar tabiatan makoniy fikrlashni talab qiladi.

Nazariy tahlil natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Birinchidan, fazoviy tasavvurlar inson tafakkurining ajralmas qismi bo'lib, makon, shakl, hajm, o'lcham va obyektlarning o'zaro joylashuvi haqidagi aqliy obrazlar majmuasini tashkil etadi. Fazoviy

tasavvurlar atrof-muhitni yaxlit idrok etish va unda samarali harakat qilish uchun zarur kognitiv asos hisoblanadi.

Ikkinchidan, fazoviy tasavvurlar ontogenez jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Ilk yoshdan boshlab bola makonni sezgi va harakat orqali o'zlashtiradi, boshlang'ich maktab yoshiga kelib esa fazoviy munosabatlarni mantiqiy va ongli tarzda tushunish darajasiga yetadi. Ushbu davrda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan pedagogik ishlar eng yuqori samarani beradi.

Uchinchidan, fazoviy tasavvurlar rivojlangan o'quvchilarda matematika, geometriya va texnologiya fanlarini o'zlashtirish darajasi yuqoriroq bo'lishi aniqlangan. Fazoviy tafakkur yozuv va o'qish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, harflar va belgilarni fazoda to'g'ri joylashtirishni ta'minlaydi.

To'rtinchidan, konstruktiv va ijodiy faoliyatlar (rasm chizish, modellashtirish, konstruktorlar bilan ishlash) fazoviy tasavvurlarni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Fazoviy tasavvurlar va fazoviy tafakkur rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Ontogenezning ilk bosqichlaridanoq bola makon bilan "tanisha" boshlaydi: ilk chaqaloqlik davrida u ko'z nigohini muayyan nuqtada to'xtatib turish, harakatlanuvchi ob'ektni ko'z bilan kuzatish kabi ko'nikmalarni egallaydi; bir yosh atrofida kelib esa, atrofdagi jismlarni ushlash va paypaslash orqali *haps* qilish (kinaestetik sezgilar) hamda emaklash va yurish yordamida makonni faol zabt etishga kirishadi. Ana shu harakat va idrok tajribasi tufayli bolaning dastlabki fazoviy tasavvurlari – masofa, yo'nalish, o'lcham kabi tushunchalarning asosi shakllana boshlaydi. Psixolog olim J. Piaje va B. Inxelder klassik tadqiqotlarida kichik yoshdagi bolalarning fazoviy fikrlashi avvaliga egotsentrik (ya'ni, bola makonni faqat o'z nuqtai nazaridan tushunadi) bo'lishini, keyinchalik esa bosqichma-bosqich desentratsiya ro'y berib, bola o'zidan tashqari nuqtai nazardan ham fazoviy munosabatlarni tushunishga o'tishini ko'rsatib berganlar.

Muhokama. Olingan natijalar fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish jarayoni o'z-o'zidan sodir bo'lmagligini, balki izchil pedagogik yondashuvni talab etishini ko'rsatadi. I.S. Yakimanskaya ta'kidlaganidek, fazoviy tafakkur maxsus tashkil etilgan mashqlar va metodik tizimsiz yetarli darajada rivojlanmaydi.

STEAM yondashuvi doirasida san'at va dizayn elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash o'quvchilarning fazoviy imaginatsiyasini kuchaytiradi, ularning muhandislik va matematik tushunchalarni vizual idrok etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yondashuv boshlang'ich ta'limda fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik platforma vazifasini bajaradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, fazoviy tasavvurlar boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Fazoviy tasavvurlarni tizimli, fanlararo va metodik asosda rivojlantirish o'quvchilarning nafaqat o'quv muvaffaqiyatini, balki kelgusida murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini ham oshiradi.

Boshlang'ich ta'limda matematika, texnologiya, tasviriy san'at va STEAM yondashuviga asoslangan mashg'ulotlarni uyg'unlashtirish fazoviy tafakkur rivojlanishining samaradorligini ta'minlaydi. Bu esa raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ananyev B.G. Человек как предмет познания. – L.: LGU, 1968.
2. Piaje J., Inhelder B. The Child's Conception of Space. – London: Routledge, 1956.
3. Yakimanskaya I.S. Развитие пространственного мышления школьников. – М.: Pedagogika, 1980.
4. Korsakova N.K. Нейропсихология детского возраста. – М.: Akademiya, 2007.
5. Uttal D.H., et al. The malleability of spatial skills // Psychological Bulletin, 2013.
6. Wai J., Lubinski D., Benbow C.P. Spatial ability and STEM outcomes // Journal of Educational Psychology, 2009.

TABIIY ENERGIYA MANBALARIGA MUNOSABATNING
FALSAFIY YONDASHUVI

Maxruxa Xakimova,
“TIQXMMI” MTU dotsenti,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Mazkur maqola bugungi kundagi insoniyatni qiynab kelayotgan global muammolarni bartaraf etishning ijtimoiy-falsafiy omillarini ochib berish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Energiya, tabiat, iqlim o'zgarishi, ma'naviyat, axloq, muqobil energiya, tafakkur, kreativ yechimlar, tabiiy resurs, yashil energiya, global inqiroz.

Аннотация. Цель данной статьи – раскрыть социально-философские факторы преодоления глобальных проблем, стоящих сегодня перед человечеством.

Ключевые слова: Энергетика, природа, изменение климата, духовность, этика, альтернативная энергетика, мышление, креативные решения, природный ресурс, зеленая энергетика, глобальный кризис.

Abstract. This article aims to explore the socio-philosophical factors crucial for overcoming these global problems.

Keywords: Energy, nature, climate change, spirituality, ethics, alternative energy, thinking, creative solutions, natural resources, green energy, global crisis.

Global iqlim o'zgarishi nafaqat ekologik inqiroz, balki insoniyatning tabiat, energiya va kelajak bilan munosabatini qayta ko'rib chiqishni talab qiladigan chuqur falsafiy muammodir. Dunyo haroratning ko'tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalari va qayta tiklanadigan energiyaga o'tishning dolzarb ehtiyoji bilan kurashayotgan bir paytda, o'zimizga chuqurroq savollarni berishimiz kerak: Bizning sayyoramizga nisbatan mas'uliyatimiz qanday? Tabiiy energiya manbalaridan qanday foydalanishimiz kerak? Va Yer bilan uyg'unlikda yashash nimani anglatadi? Ushbu maqola iqlim inqirozi va tabiiy energiya manbalaridan foydalanishning axloqiy, ekzistensial va ma'naviy jihatlarini falsafiy nuqtai nazardan o'rganadi.

Tabiiy energiya manbalari bo'yicha bahslar faqat uglerod izlari va kilovatt-soatlar haqida emas. Bu bizni tabiat, texnologiya va taraqqiyotning ma'nosi bilan yuzlashtirishga majbur qiladigan chuqur falsafiy savoldir. Global o'zgarishlar xavfi ortib borar ekan, biz nafaqat toza energiya qidiraymiz – balki bizning sayyoramiz kelajagi va avlodlar oldidagi mas'uliyatimiz haqida qayg'urayotganligimizni ham anglashimizni talab etadi.

O'tgan asrlar, ayniqsa XX asr davomida G'arb falsafiy fikrida ko'pincha tabiatga uni bo'ysundirish, ekspluatatsiya qilish va nazorat qilish kerak bo'lgan narsa sifatida qarash shakllandi. Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, bu “hukmronlik falsafasi” atrof-muhitning buzilishi va iqlim o'zgarishiga olib keladigan tabiiy resurslarni shafqatsiz ravishda qazib olish uchun intellektual asos bo'lib xizmat qilgan.

Tabiatning sirlarini ochish uchun uni “qiynoqqa solishni” targ'ib qilgan Frensis Bekon kabi shaxslar bu munosabatning timsoli hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazar bizning iqtisodiy tizimlarimizni, texnologik rivojlanishimizni va pirovardida tabiat bilan bo'lgan munosabatimizni shakllantirdi. Samaradorlik, unumdorlik va iqtisodiy o'sishga e'tibor ko'pincha atrof-muhit barqarorligi va ijtimoiy adolat hisobiga amalga oshirilgan.

“Biz tabiatga nisbatan faqat utilitar nuqtai nazardan chetga chiqib, uning o'ziga xos qadrini hisobga olishimiz kerak”, deydi Kaliforniya universitetining Berkli shahridagi atrof-muhit adolati bo'yicha ixtisoslashgan falsafa professori doktor Sofiya Rodrigues. “Bu bizning qadriyatlarimizda tub o'zgarishni va qisqa muddatli iqtisodiy yutuqlardan ko'ra atrof-muhit barqarorligini birinchi o'ringa qo'yishga tayyor bo'lishni talab qiladi”.

Insoniyat taraqqiy etib borgan sari uning ehtiyojlari ko'lami ham ortib bormoqda. Ayniqsa, energiyaga bo'lgan talab eng asosiysi bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda yashil texnologiyalarni qo'llashda usullari yangiliklarni talab etmoqda.

Tabiatning mohiyatini tan olish energiya tanlovimiz uchun chuqur ahamiyatga ega. Bu biz atrof-muhitga zararni minimallashtiradigan energiya manbalarini, hatto ular qimmatroq yoki kamroq qulay

bo'lsa ham, birinchi o'ringa qo'yishimiz kerakligini ko'rsatadi. Shuningdek, u iqtisodiy o'sish jamiyatning asosiy maqsadi bo'lishi kerak degan tahminga qarshi chiqadi.

Lekin ba'zi vaziyatlarda tabiat anomalialari yashil texnologiyalarni qo'llashda yanada ishlash kerakligini ko'rsatdi. Joriy yilning 25-26 fevral kunlari Afg'onistonda tuxum kattaligidagi do'l hodisasi kuzatildi. Afg'oniston hukumati keng masshtabda yashil energetika imkoniyatlari asosida elektr energiya ishlab chiqarishga kuch bera boshlagan. Yuqorida kuzatilgan tabiat hodisasi quyosh panellarini qattiq zararlanishiga olib kelgan. Yashil texnologiyalarning iqlim anomalialari payti samaradorligining pasayishi yoki ishdan chiqishi ayni boshqa generatsiyadan ko'ra samarasizroq jihatlarni namoyon etdi. Bunu Afg'oniston misolida ham kuzatish mumkin.

Xitoyda esa yashil energetikani yaratish, ko'paytirishda ilg'or texnologiyalarni qollash samarali amalga oshirilmoqda. Noqulay ob-havo sharoitlarida ham parvoz qilib, yashil energetikani ishlab chiqaradigan, geliy bilan to'ldirilgan havo shari generatsiyasi bunga misol bo'la oladi. Bu kabi qurilmani "aqli geodeziya" va xaritalashda qo'llash ham samaralidir.

Tabiiy energiya manbalari bo'yicha bahslar ko'pincha texnologik optimizmni ekologik donolik bilan to'qnashtiradi. Texnologik optimistlar texnologiya barcha muammolarimizni, shu jumladan iqlim o'zgarishini ham bizning turmush tarzimiz yoki qadriyatlarimizda sezilarli o'zgarishlar talab qilmasdan hal qila olishiga ishonishadi. Ular texnologik innovatsiyalar bilan ta'minlangan doimiy iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Boshqa tomondan, ekologik donolik, odamlar tabiat bilan uyg'unlikda yashashi kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu nuqtai nazar barqarorlik, ijtimoiy adolat va atrof-muhitga hurmatni birinchi o'ringa qo'yib, qadriyatlarimiz, turmush tarzimiz va iqtisodiy tizimlarimizda tub o'zgarishlarni talab qiladi.

"Texnologik tuzatish yondashuvi ko'pincha murakkab axloqiy savollardan qochish usulidir", deydi Yel universitetida texnologiya falsafasi bo'yicha ixtisoslashgan falsafa doktori Tomas Klark. "Bu bizga tabiat bilan bo'lgan munosabatimizning chuqurroq masalalariga duch kelmasdan, barqaror bo'lmagan darajada iste'mol qilishni davom ettirishga imkon beradi".

Tabiiy energiya manbalariga o'tish adolat va tenglik haqida muhim savollarni tug'diradi. Ushbu o'tish yukini kim ko'taradi va kim foyda oladi? Harajatlar va foyda adolatli taqsimlanadimi?

"Atrof-muhit adolati atrof-muhitning buzilishining chekka jamoalarga nomutanosib ta'sirini ko'rib chiqishimizni talab qiladi", deydi doktor Rodrigues. "Ushbu jamoalar ko'pincha ifloslanish va iqlim o'zgarishining asosiy yukini ko'taradilar, shuningdek, toza energiya va boshqa resurslarga kirish imkoniga ega emaslar".

Shamol fermalari va quyosh massivlari kabi keng ko'lamli qayta tiklanadigan energiya loyihalarini qurish mahalliy jamoalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu loyihalar mahalliy aholining huquqlarini hurmat qiladigan, biologik xilma-xillikni himoya qiladigan va ijtimoiy adolatni qo'llab-quvvatlaydigan tarzda ishlab chiqilishini ta'minlash zarur.

"Biz shamol turbinalari, quyosh panellari va boshqa energiya texnologiyalarini estetik jihatdan yoqimli bo'lishi va landshaftga muammosiz integratsiya bo'lishi uchun loyihalashimiz mumkin", deydi arxitektor Ernandes. "Bu qayta tiklanadigan energiyani jamoatchilik tomonidan qabul qilinishini rag'batlantirishga va tabiatga chuqurroq muhabbatni uyg'otishga yordam beradi".

Yovvoyi gullar dalasiga o'xshagan quyosh fermalari yoki qushlarning nafis harakatlarini eslatish uchun mo'ljallangan shamol turbinalari – bular insonga estetik zavq berishi tabiiy. Barqarorlikning estetikasini qabul qilib, biz ham atrof-muhitga mos, ham vizual jozibali bo'lgan energiya kelajagini yaratishimiz muhimdir. Texnologiya energiya bilan munosabatda ham baraka, ham la'nat bo'lib kelgan. Bir tomondan, u quyosh nuri, shamol va geotermal issiqlik kabi tabiiy energiya manbalaridan foydalanish imkonini berdi. Boshqa tomondan, u haddan tashqari iste'mol va atrof-muhitning buzilishini kuchaytirdi.

Davlat o'z tabiiy resurslarini boshqarishda tabiiy energiya manbalariga o'tishni shakllantirishi muhim ahamiyatga ega. Davlat boshqaruvi siyosiy maqsadlarini belgilashlanishi, rag'batlantirilishlar, energiya bozorlarini tartibga solinishi va tadqiqot va rivojlantirishga investitsiya kiritishlari mumkin. Ammo hukumatning aralashuvi va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi muvofiq muvozanat qanday bo'lishi kerak?

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasida yangi energiya manbalarini takomillashtirish borasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida qabulqilingan qonunlar ijrosini keltirish mumkin. 2024 yil 24-fevral kuni "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida"gi 1036-sonli Qonuni qabul qilindi. Qonunga ko'ra, ekologik ekspertiza davlat va jamoat ekologik ekspertizasi tarzida amalga oshiriladi. 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ekologiya va atrof

muhitni muhofaza qilish sohasidagi dastlabki hujjat hisoblanadi. “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-940-son, 07.08.2024 yil) imzolandi. Qonunga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

Yangi energiya manbalaridan biri sifatida O‘zbekistonda ham vodorod yoqilg‘isi sohasida qadam tashlamoqda. Masalan, 2024-yilda EBRD tomonidan moliyalashtirilgan pilot loyiha doirasida O‘zbekistonda qayta tiklanadigan vodorod ishlab chiqarish uchun 20 MVlik elektroliz va 52 MVlik shamol elektr stantsiyasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu loyiha yillik 3000 tonna qayta tiklanadigan vodorod ishlab chiqarishni maqsad qilgan va Markaziy Osiyoda birinchi qadam hisoblanadi. Shu bilan birga, AQShning Xalqaro Rivojlanish Agentligi (USAID) O‘zbekistonda "yashil vodorod" markazini rivojlantirishga yordam bermoqda, bu mamlakatning qayta tiklanadigan energiya strategiyasiga mos keladi.

Iqtisodiy o‘shishga intilish atrof-muhitning buzilishi va iqlim o‘zgarishining harakatlantiruvchi kuchi bo‘ldi. Ko‘pgina faylasuflar va iqtisodchilar endi iqtisodiy o‘shish har doim ham maqsadga muvofiq degan tahminga shubha bilan qarashmoqda. Ular o‘shishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotdan chetga chiqib, yanada barqaror modelni qabul qilishimiz kerakligini ta‘kidlamoqda.

Tabiiy energiya manbalariga o‘tish faqat texnologik muammo emas – bu axloqiy va falsafiy imperativdir. Biz barqarorlik, ijtimoiy adolat va tabiatga hurmatni birinchi o‘ringa qo‘yadigan taraqqiyotning yangi ko‘rinishini qabul qilishimiz kerak.

“Axloqiy innovatsiya ham barqaror, ham adolatli bo‘lgan energiya kelajagini yaratish uchun zarurdir”, deydi doktor Rodrigues. “Bu odatiy taxminlarga qarshi chiqish, o‘rnatilgan amaliyotlarni so‘roq qilish va yangi imkoniyatlarni o‘rganishga tayyor bo‘lishni talab qiladi”.

Ushbu axloqiy innovatsiya bizning tadqiqot va rivojlantirish harakatlarimizni, siyosiy qarorlarimizni va shaxsiy tanlovimizni boshqarishi kerak. Bu bizni nafaqat samarali va ishonchli, balki chiroyli, adolatli va ekologik jihatdan sog‘lom bo‘lgan energiya tizimlarini yaratishga ilhomlantirishi kerak.

Energiya manbalarini tanlash shunchaki amaliyotlar haqida emas, balki bu bizning eng chuqur qadriyatlarimizning aksidir. Global iqlim o‘zgarishi oldida bizning energiya tizimlarimizni axloqiy majburiyatlarimiz bilan moslashtiradigan yangi yo‘l yaratish imkoniyatiga egamiz. Tabiiy energiyaga falsafiy yondashuvni qabul qilib, biz iqtisodiyot va texnologiyaga tor e‘tibordan chetga chiqib, qadriyatlar bilan quvvatlangan – barqaror, adolatli va chiroyli bo‘lgan dunyoni yaratishimiz mumkin. Bugun qabul qiladigan qarorlarimiz nafaqat sayyoramizning taqdirini belgilab beradi, balki insoniyat ruhini ham shakllantiradi. Qanday quvvatni ishga solishni tanlashimiz bizning kimligimizni belgilaydi.

Iqlim inqirozi uyg‘onish chaqirig‘idir, bu bizni qadriyatlarimiz, ustuvorliklarimiz va hayot tarzimizni qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Tabiiy energiya manbalaridan foydalanishning falsafiy yondashuvini qabul qilish orqali biz bu inqirozni o‘shish va yangilanish uchun imkoniyatga aylantirishimiz mumkin. Qadimgi falsafalarning donoligidan, zamonaviy mutafakkirlarning fikrlaridan va qayta tiklanadigan energiyaning innovatsiyalaridan foydalanib, barqaror va adolatli kelajak yaratamiz.

Tanlov bizniki: ekspluatatsiya va vayronagarchilik yo‘lida davom etish yoki uyg‘unlik va ma‘murchilikning yangi yo‘lini boshlash. Harakat qilish vaqti keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Athanasiou Tom, and Baer Paul. Dead Heat: Global Warming and Global Justice. Seven Stories Press, 2002.
2. Mirmakhmudov.E., Abzhaparova.D., Tashbaltaeva.Sh., Mamadaminova.B., Xakimova.M. “Geophysical research on a landslide-prone slope in the vicinity of the village of Ayusay in the Republic of Kyrgyzstan”. E3S Web of Conferences 590, 03007 (2024) GI 2024.
3. Irmatova.A., Iskandarova.D., Pirnazarova.G., Mansurov.J and Xakimova.M. “Green Jobs in a Sustainable Labor Market: Remote Work, Skills and Training”. E3S Web of Conferences 574, 07002 (2024) CONGREENTAX-2024

O'ZBEKISTONDA MASJIDLARNING DINIY-MA'RIFIY INSTITUTIONAL TIZIM SIFATIDA SHAKLLANISHI

Bekjon Qurbonov,
"TIQXMMI" MTU assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda masjidlarining diniy-ma'rifiy institutsional tizim sifatida shakllanishi, ularning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy funksiyalari tarixiy-siyosiy yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: masjid, diniy-ma'rifiy jarayonlar, institutsional tizim, tarixiy rivojlanish, ijtimoiy funksiyalar, davlat-din munosabatlari.

Аннотация: В статье анализируется формирование мечетей в Узбекистане как религиозно-просветительской институциональной системы, их исторические этапы развития и социально-духовные функции в контексте историко-политического подхода.

Ключевые слова: мечеть, религиозно-просветительские процессы, институциональная система, историческое развитие, социальные функции, государственно-религиозные отношения.

Abstract. This article analyzes the formation of mosques in Uzbekistan as a religious and educational institutional system, examining their historical development stages and socio-spiritual functions within a historical and political framework.

Key words: mosque, religious education, institutional system, historical development, socio-spiritual functions, state-religion relations.

O'zbekiston hududi qadimdan islom sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lib kelgan. Bu zaminda shakllangan diniy-ma'rifiy muhit, avvalo, masjidlar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Masjid nafaqat ibodat maskani, balki ilm-ma'rifat, ijtimoiy munosabatlar va ma'naviy tarbiyaning markazi sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Islom tarixida masjidlar Qur'on va sunnat ilmlarini o'rgatish, jamoatchilikni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, jamiyatni birlashtirish va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish markazi bo'lib xizmat qilgan. Unda ibodat bilan bir qatorda ilmiy suhbatlar, huquqiy masalalar muhokamasi va siyosiy qarorlar qabul qilingan. Shu jihatdan masjid islom jamiyatida kompleks institut bo'lib, u diniy, ta'limiy va ijtimoiy funksiyalarni birlashtirgan. Bu model keyinchalik butun musulmon dunyosiga, jumladan, Movarounnahr hududiga ham keng tarqalgan.

Islom dini VII asrdan boshlab Markaziy Osiyo hududida yoyilishi bilan birga masjidlar qurilishi jadallashdi. Dastlabki masjidlar mahalliy aholining diniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik ular ilmiy-ma'rifiy markazlarga aylandi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz va Shahrisabz shaharlaridagi jome masjidlar nafaqat ibodat joyi, balki fiqh, tafsir, hadis, arab tili grammatikasi va mantiq fanlari o'qitiladigan ilm maskanlari bo'lgan. Masjidlar atrofida madrasalar va kutubxonalar shakllanib, ular o'rta asr islom uyg'onishining muhim o'choqlariga aylangan. Umuman olganda, O'zbekiston hududi qadimdan islom madaniyatining muhim markazlaridan biri bo'lib, bu yerda masjidlar diniy-ma'rifiy jarayonlarning bosh tayanchi sifatida faoliyat yuritgan. Mazkur maqolada O'zbekistondagi masjidlarining tarixiy rivoji, ularning siyosiy jarayonlar bilan o'zaro aloqasi hamda diniy-ma'rifiy hayotdagi o'rni tarixiy-siyosiy tahlil asosida o'rganiladi.

O'zbekiston hududida hukmronlik qilgan sulolalar masjidlar faoliyatiga katta e'tibor qaratgan. Somoniylar, Qoraxoniylar, Temuriylar va Shayboniylar davrida masjidlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Xonliklar davrida ham din va diniy arboblarga muhim obyekt sifatida alohida e'tibor qaratilgan. Vaqf mulklari tashkil etilib, diniy sohaning moddiy jihatdan dastaklangan. Masjidlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda ham muhim rol o'ynagan. Xutbalar orqali axloqiy me'yorlar, ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlik g'oyalari targ'ib qilingan. Shu bois masjidlar siyosiy jarayonlar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan. Hukmdorlar esa masjid va madrasalar qurdirish va ularni ta'mirlash orqali o'z hukmronligini mustahkamlashga intilgan.

XIX asrgacha, Rus imperiyasi bosqiniga qadar diniy hokimiyat amalda mavjud bo'lgan. Rus imperiyasi hokimiyati o'rnatilishi bilan barcha turdagi diniy institutlar keskin nazorat ostiga olindi. XX asr boshlarida Turkiston general gubernatorligi hududida 268 ta madrasa, 1498 ta katta, 11230 ta kichik hajmdagi masjidlar mavjud bo'lib, ularda xizmat qilayotgan imomlarning o'zi 12499 nafarni tashkil etgan. Masalan, birgina Farg'ona viloyatida 236 ta qorixona faoliyat yuritgan. Imperiya qulagandan keyin

sovet davrida bunday diniy dargohlar klub, qizil choyxona, otxona, omborxona, qamoqxonalarga aylantirildi. Ayrim g'arb manbalarida yozilishicha, ittifoq hududida 1920-yillarda 26.000 ta masjid yopilgani aytiladi [1]. Bu haqida tadqiqotchi Aleksandr Bennigsen ham quyidagicha eslaydi: "Butun ittifoqda 1912-yilda 26.000 ta masjidda 45.000 ta xodim ishlar edi. Intensiv aksildiniy tashviqot natijasida esa 1941-yilga kelganda masjidlar soni 1000 ga ham bormasdi" [2].

1940-yilga kelib O'zbekistonda faqatgina yashirin ravishda 337 ta masjid faoliyat yuritgan. Bu esa sovet hukumatining amalga oshirilgan ateistik siyosatini qo'rqinchli natijalaridan biri edi. 30-yillar o'rtalarida hukumat Saudiya Arabistonidagi elchisini chaqirib olib, diplomatik aloqani bir tomonlama uzganidan beri dunyo musulmonlarining muqaddas joylariga yo'l butkul yopildi.

1928-yilda O'zbekistonda diniy ta'lim tizimi zo'rlik bilan batamom to'xtatilgan edi. Chinakam sovet xalqini yaratish maqsadida dindorlar ham muttasil nishonga olindi. Biroq, o'tmishda islom diniga nisbatan qanchalik ayovsiz hujumlar qilingan bo'lsa ham, u o'z asliyatini yo'qotmagan holda bizgacha yetib keldi. Binobarin, sovet davri qatag'onlaridan qandaydir sabablar tufayli omon qolgan bir qator ulamolar vositasi ila xalq shariat ahkomlarini butunlay unutib yuborishdan qutulib qoldi [3].

Ikkinchi jahon urushi qizigan bir pallada noiloj qolgan sovet hukumati butun ittifoq hududida diniy erkinlik bera boshlaydi. Shu munosabat bilan, rasmiy diniy tashkilot, madrasa va masjidlar faoliyati yo'lga qo'yiladi. Masalan, 1946-yilga kelib, O'zbekistonda 30 ta masjid ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, 108 tasi ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yurita boshlagan. 1976-yilda ittifoq hududida masjidlar soni 300 taga yetadi. Shundan so'ng ateistik propaganda avjiga olgan davrda masjidlarning faoliyati faqat ibodat bilan cheklab qo'yildi. Ko'plab tarixiy masjidlar yopildi yoki binolari boshqa maqsadda foydalanildi. Biroq shunga qaramay, masjidlar norasmiy tarzda diniy an'analarni saqlab qolish markaziga aylandi. Imomlar va diniy ulamolar orqali e'tiqod, urf-odat va diniy bilimlar yashirin tarzda avloddan avlodga yetkazildi.

Mustaqillik yillarida milliy tiklanish borasidagi eng katta ishlarning bir qismi xalqimizning ma'naviy-ruhiy olamining ajralmas qismi bo'lgan islom diniga yo'l ochilgani bilan ifodalanadi. Bu yillarda mamlakatimiz o'z siyosatini belgilab olar ekan, muqaddas dinga alohida e'tibor qaratdi. Jamiyatda milliy-diniy qadriyatlar rivojini ta'minlash, ularni turli tashqi tahdidlardan himoya qilish, jamiyat ma'naviy dunyoqarashidagi ruhiy, psixologik, axloqiy, diniy jihatlarning uyg'unligini ta'minlash, unga qarshi qaratilgan tahdidlarning oldini olish va jamiyat a'zolari manfaatlarini himoya qilishda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar o'z o'rniga ega.

1991-yildan keyin O'zbekistonda diniy erkinliklar huquqiy jihatdan kafolatlandi. Masjidlar soni sezilarli darajada oshdi, tarixiy masjidlar restavratsiya qilindi. Masjidlar huzurida Qur'on kurslari, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar va ijtimoiy tadbirlar tashkil etildi. Davlat tomonidan diniy sohani tartibga solish siyosati olib borilib, masjidlar faoliyati jamiyat barqarorligi va milliy xavfsizlik bilan uyg'unlashtirildi. Bu masjidlarning ekstremizmga qarshi ma'rifiy kurashdagi rolini ham kuchaytirdi.

1985-yil O'zbekistonda 80 ta masjid va 2 ta madrasa faoliyat yuritgan bo'lsa, ularning soni 1989-yilda 300 ta masjid, 1991-yil boshida 500 ta masjid, 8 ta madrasa bo'lsa yil yakuniga qadar 4878 ta masjid va 10 ta madrasaga yetdi. 90-yillarda masjid tashkil qilish va faoliyat yuritishi bo'yicha byurokratik talablar yengil bo'lganligi sababli ularning soni tezda ko'payadi. Qator manbalarda, O'zbekistonda 1993-yilga kelib jami 6000 ta masjid borligi, 1997-yil oktabrga kelib ularning soni 4000 ta jome va 17000 ta mahalliy masjidga yetganini ko'rish mumkin. Masjidlar sonini ko'payishi malakali kadrlarga bo'lgan talabni ortib ketishiga sabab bo'ladi.

Masjidlarning jamiyat hayotidagi ijobiy roliga soya solmagan holda ayrim masjidlarning mustaqillikning ilk yillarida siyosiy islomning shakllanishida ma'lum darajada ijtimoiy baza sifatida namoyon bo'lganini ilmiy xolislik asosida ta'kidlash lozim. Masjidlar sonining uzluksiz oshib borishi bilan bir vaqtda, musulmonlar diniy ongini radikallashtirish va siyosiy lashtirishga uringan kuchlar ham faollashib borgan ham kuzatilgan. Masjidlarda tarafkashlik qiluvchilar paydo bo'lib, imomlik lavozimida xizmat qilib turganlar ustidan shikoyat maktublari kelib turgan. Unda xalq tomonidan turli ayblovlar bilan masjid xodimlarini barchasini almashtirish yoki o'zlari istagan boshqa imomni tayinlab berishni so'rashgan. Bu shikoyatlarni hammasini ham o'rinli deb bo'lmaydi, albatta. Chunki ayrim imomlar hududdagi bid'at xurofotlarga qarshi turgani, islomda yo'q bo'lgan diniy marosimlarni o'tkazmaslik haqida va'z nasihat qilgani uchun yomon otliq qilishga urinilgan. Ushbu marosimlar orqasidan qozoni qaynab turgan "eshon, mulla, domlalar" xalq orasida imomga nisbatan norozilik kayfiyatini shakllanishiga sabab bo'lgan hamda ularni "vahhobiy" deb, ota-bobolar bajarib kelgan diniy marosimlarni yo'qqa chiqarganlikda ayblashgan.

1997-yilga kelib 4 mingta jome va 17 mingta mahalliy masjid borligi aytilsa-da, aksariyatini hujjatlari qonuniylashtirilmagan va xodimlarning ko'p qismi rasmiy diniy ma'lumotga ega bo'lmagan

shaxslar bo'lgan. Bu esa hukumatni kerakli choralar qo'llashga majbur qiladi. Natijada, shu yil yakunigacha masjidlar soni 1336 tagacha tushiriladi. Endi yangi ochiladigan masjidlar hamda mavjudlari qat'iy belgilangan talab asosida davlat ro'yxatidan o'tishi belgilanadi. 2000-yilda masjidlar soni 1998-yilga qaraganda qariyb 400 taga ko'payib 1766 ta masjid va 10 ta madrasa hamda 1 ta oliy diniy ta'lim muassasasi, 2004-yil noyabrgacha masjidlar soni 1955 taga yetdi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra masjidlar soni 2148 tani tashkil etadi.

Bugungi kunda masjidlar aholining diniy savodxonligini oshirish, milliy va diniy qadriyatlarni uyg'un targ'ib etish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, jamiyatda bag'rikenglik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash kabi muhim vazifalarni bajarib kelmoqda. Imom-xatiblarning ma'rifiy faoliyati, diniy ma'ruzalar va ochiq muloqotlar masjidlarni zamonaviy diniy-ma'rifiy institut sifatida shakllantirmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda din mamlakatdagi madaniy-ma'naviy an'analarining ajralmas qismi va aholi ma'naviy kamolotining asosi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 38 milliondan ziyod aholi, 130 dan ortiq millat va elat vakillari, 16 ta diniy konfessiya a'zolari bag'rikenglik tamoyili asosida tinch-totuv yashab kelishmoqda. Aholining 96% qismi musulmon bo'lgani hisobiga masjidlar O'zbekistonda diniy-ma'rifiy jarayonlarning markaziy instituti bo'lib qolmoqda.

Turli tarixiy davrlarda ularning faoliyati cheklangan yoki kengaygan bo'lsa-da, masjidlar jamiyat ma'naviy hayotining uzviy qismi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Mustaqillik davrida masjidlarning qayta tiklanishi O'zbekistonning diniy-ma'rifiy siyosatida muhim strategik ahamiyat kasb etadi va kelgusida ham jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur maqsad yo'lida butun respublika bo'ylab yoyilgan masjidlar tarmog'idan unumli foydalanish hamda ularni natijadorligini oshirish uchun masjidda xatib lavozimini alohida shtat shaklida joriy etib, uni faqatgina va'z nasihatga mas'ul qilish kerak. Shuningdek, ixlosmand aholining diniy ongini rivojlantirish va uning evolutsion yo'nalishini to'g'ri shakllantirish uchun hududlarni masjidlar bilan qamrab olish muhim sanaladi. Bugungi kunda respublikada aholi sonining ortib borishi va xalqning diniy-ma'rifiy jarayonlarga qiziqishi har qachongidan yuqori ekanligini inobatga olgan holda, har bir masjidda to'g'ri keluvchi aholi soni va mavjud masjidning aholiga uzoq-yaqinligiga qarab masjidlar sonini tahlil etish lozim. Masalan, 20 mln aholiga ega Qozog'istonda 2600 dan ziyod masjid bo'lsa, 10 mln aholisi bor Tojikistonda 4000 dan ortiq masjid faoliyat yuritadi. Qirg'izistonning esa 6 mln aholisiga 3300 ta atrofida masjid to'g'ri kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tom Everett-Health. Fundamentalism in Central Asia: Reasons, reality and prospects. – London: Routledge, 2003. – P. 221.
2. Беннигсен А. Мусульмане в СССР. – Париж: ЙМСА Пресс, 1983. – С. 44.
3. Мухторов А. Марказий Осиёда ислом илми ривожиди Тошкент ислом институтининг ўрни. – Тошкент: Фикр медиа, 2010. – Б. 8.

ISH BERUVCHILARNI KASBIY TA'LIM TIZIMIGA JALB QILISHNING SAMARALI USULLARI

Gulnora Sodiqova,
Kasbiy ta'limni rivojlantirish instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola kasbiy ta'lim tizimida ish beruvchilarni jalb qilishning samarali usullarini ilmiy tahlil qiladi va ularning professional tayyorgarlik jarayonidagi o'rni, ta'lim mazmunini amaliy ehtiyojlarga moslashtirishdagi ahamiyati, hamda ish beruvchilar bilan uzluksiz hamkorlikni rivojlantirish strategiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kasbiy ta'lim, ish beruvchi ishtiroki, samarali usullar, institutsional hamkorlik, professional tayyorgarlik, mehnat bozoriga moslashuv.

Аннотация: Данная статья научно анализирует эффективные методы привлечения работодателей в систему профессионального образования и рассматривает их роль в процессе профессиональной подготовки, значение в адаптации содержания образования к практическим потребностям, а также стратегии развития непрерывного сотрудничества с работодателями.

Ключевые слова: профессиональное образование, участие работодателей, эффективные методы, институциональное партнерство, профессиональная подготовка, адаптация к рынку труда.

Abstract: This article provides a scientific analysis of effective methods for engaging employers in the vocational education system and examines their role in professional training, the importance of aligning educational content with practical needs, and strategies for developing continuous collaboration with employers.

Keywords: vocational education, employer participation, effective methods, institutional partnership, professional training, labor market adaptation.

Kirish: Kasbiy ta'lim tizimi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u nafaqat mutaxassislarining malakasini oshirish, balki mehnat bozorining talablariga moslashgan kadrlarni tayyorlashni ta'minlaydi. So'nggi yillarda global iqtisodiyotning shiddatli o'zgaruvchanligi, texnologik innovatsiyalar va raqobatbardosh mehnat bozori kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ish beruvchilarni kasbiy ta'lim jarayoniga jalb qilish masalasi dolzarb bo'lib, u ta'lim jarayonining amaliy samaradorligini oshirish, talabalar va ish beruvchilar o'rtasida bevosita hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda mehnat bozorining ehtiyojlarini to'liq qondirish imkoniyatini yaratadi.

Ish beruvchilarni jalb qilish konsepsiyasi ta'lim siyosatida ikki asosiy vazifani o'z ichiga oladi: birinchisi, kasbiy ta'lim muassasalarida ishlab chiqilayotgan o'quv dasturlari va metodik materiallarning real ish sharoitlariga mosligini ta'minlash; ikkinchisi, talabalarni amaliy tajriba bilan ta'minlash, shu orqali ularning ishga tayyorligini oshirish. Buning uchun turli institutlar va ish beruvchilar o'rtasida doimiy kommunikatsiya, hamkorlik platformalari va institutsional mexanizmlar joriy qilinadi.

Global tajriba ko'rsatadiki, ish beruvchilar bilan samarali hamkorlik nafaqat talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki kasbiy ta'lim tizimining obro'sini oshiradi, yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilarni kasbiy ta'limga jalb qilishning samarali usullari ko'p qirrali va murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik va institutsional omillarga bog'liq. Masalan, amaliy stajirovkalar, ish beruvchilar tomonidan olib boriladigan mentorlik dasturlari, sanoat bilan integratsiyalashgan o'quv dasturlari, hamkorlikda ishlab chiqilgan kurslar va seminarlar samarali mexanizmlar sifatida e'tirof etilgan. Bu mexanizmlar nafaqat talabalarni ish bozoriga tayyorlaydi, balki kasbiy ta'lim tizimining o'zini takomillashtirishga xizmat qiladi, chunki u muassasalarga zamonaviy mehnat bozorining ehtiyojlari haqida doimiy axborot oqimini ta'minlaydi. Shuningdek, ish beruvchilarni jalb qilish jarayonida institutsional mexanizmlarning samaradorligi katta ahamiyatga ega. Bu yerda ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasida formal va noformal hamkorlik shakllari mavjud. Formal hamkorlik ko'pincha shartnomalar, memorandumlar, loyihalar va davlat dasturlari orqali amalga oshirilsa, noformal hamkorlik professional tarmoqlar, klasterlar, konferensiyalar va mutaxassislar uchrashuvlari orqali yuzaga keladi. Har ikki shakl ham kasbiy ta'lim tizimining amaliy qamrovini kengaytiradi, talabalarga real ish sharoitlarini yaqindan o'rganish imkonini beradi, va natijada ularning kasbiy kompetensiyalari yuqori darajaga ko'tariladi.

Bundan tashqari, ish beruvchilarni jalb qilishning samarali usullarini tadqiq etish pedagogik yondashuvlarni ham mukammallashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogika nazariyasi ish beruvchilar bilan hamkorlikni nafaqat amaliy, balki metodologik nuqtai nazardan ham muhim deb biladi. Masalan, mutaxassislar tomonidan olib boriladigan master-klasslar va seminarlar nafaqat talabalarni real ish jarayonlari bilan tanishtiradi, balki o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini oshirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, ish beruvchilar ishtirokidagi baholash tizimlari, loyihaviy ishlar va amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarning kasbiy ko'nikmalari aniqroq va ob'ektiv baholanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan ham ish beruvchilarni kasbiy ta'lim tizimiga jalb qilish samarali hisoblanadi. Global tajribada, sanoat va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik nafaqat kadrlar sifati va tayyorgarligini oshiradi, balki korxonalarga malakali xodimlarni tayyorlash xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish, investitsiya jalb qilish va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi[1]. Shu bilan

birga, ilmiy va amaliy tadqiqotlar ish beruvchilarni jalb qilishning samarali usullarini tizimli va multidimensional yondashuv orqali aniqlashga imkon beradi. Masalan, ilmiy tahlillar ish beruvchilar ishtirokidagi amaliy mashg'ulotlar, stajirovkalar, mutaxassislar bilan birgalikda loyihalar ishlab chiqish va baholash tizimlarini o'z ichiga oladi[2]. Bunday yondashuv pedagogik jarayonning innovatsion xarakterini ta'minlaydi, talabalar kompetensiyalarini real ish sharoitlariga moslashtiradi va kasbiy ta'lim muassasalarining mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, ish beruvchilarni jalb qilish jarayonida mamlakatimizning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, sanoat tarmoqlari va hududiy xususiyatlar hisobga olinishi zarur. Har bir hudud va soha o'ziga xos kompetensiyalarni talab qiladi, shuning uchun ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlari moslashuvchan va kontekstga mos bo'lishi lozim[3].

Shu bilan birga, xalqaro tajriba ko'rsatadiki, ish beruvchilarni jalb qilishning samarali usullari faqat texnik va pedagogik jihatlarni emas, balki institutsional va ijtimoiy mexanizmlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, Yaponiya va Germaniyada ish beruvchilar bilan hamkorlik nafaqat amaliy mashg'ulotlar va stajirovkalarni o'z ichiga oladi, balki ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida doimiy axborot almashinuvi, metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va baholash tizimlarini ham nazarda tutadi. Ish beruvchilarni kasbiy ta'lim tizimiga jalb qilishning samarali usullari ko'p qirrali va murakkab pedagogik, institutsional va iqtisodiy omillarga bog'liqdir[4]. Ular kasbiy ta'lim sifatini oshirish, talabalarning ishga tayyorligini ta'minlash, mehnat bozorining ehtiyojlariga javob beradigan kompetensiyalarni shakllantirish va ta'lim tizimi bilan sanoat o'rtasida uzluksiz hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Shu sababli, ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar ish beruvchilarni jalb qilishning samarali mexanizmlarini aniqlash, ularni institutsional va metodologik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Kasbiy ta'lim tizimida ish beruvchilarni jalb qilish masalasi pedagogika, mehnat bozoriga moslashuv va institutlararo hamkorlik kontekstida jiddiy ilmiy e'tibor talab qiluvchi muammo sifatida yuzaga keladi. Ilg'or tadqiqotlar ko'rsatadiki, ish beruvchilarni ta'lim jarayoniga samarali jalb etish nafaqat talabalarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash, balki ta'lim muassasalari va mehnat bozorining real ehtiyojlari o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyatga ega. Britaniyalik pedagogika va kasbiy ta'lim tadqiqotchisi Alison Fullerning ishida, ish beruvchilar bilan integratsiyalashgan o'quv jarayonlari va amaliyotlar kasbiy ta'lim tizimini yanada moslashuvchan hamda raqobatbardosh qiladi, degan ilmiy konsepsiya ilgari suriladi. Fullerning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ish beruvchilarni jalb etish kasbiy ta'lim muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasidagi uzluksiz hamkorlikni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bu hamkorlik, ayniqsa, amaliy stajirovkalar, maslahatlar, sanoat bo'yicha ekspert baholashlari va o'quv dasturlarining sanoat standartlariga moslashtirilishida aniq namoyon bo'ladi. Shu orqali ish beruvchilar kasbiy ta'lim jarayonida nafaqat talabalar malakasini baholash, balki ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha ham faol rol o'ynaydi. Bu yondashuv kasbiy ta'limning amaliy yo'nalishlarini kuchaytirish bilan birga o'quv yurtlari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi strategik aloqalarni mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, Stephen Billettning kasbiy o'rganish va ish joyida ta'lim nazariyasi ta'lim jarayoni va ish joyi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni chuqur tahlil etadi. Billettning tadqiqotlariga ko'ra, ish joyi o'quvchilarning amaliy bilimlari va kompetensiyalarini shakllantirish uchun faqat nazariy bilimni yetkazuvchi muhit emas, balki real mehnat sharoitida bilimning uzluksiz almashinuviga asoslangan murakkab o'rganish jarayoni bo'lib xizmat qiladi. U o'quvchilar kasbiy o'rganishni ish joyidagi amaliy tajribalar orqali chuqurroq egallashini ta'kidlaydi va bu jarayonda ish beruvchi mentorlik, liderlik va ekspert yondashuvlari o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarurligini ko'rsatadi. Bu hamkorlik shakli talabalar bilan ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy va professional o'zaro munosabatlar tizimini yaratadi, shu bilan birga kasbiy ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, kasbiy ta'lim va nove strategiyalar bo'yicha yirik adabiyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, mehnat bozoridagi talab va ta'lim tizimi o'rtasidagi keskin farqlarni bartaraf etish uchun ish beruvchilarni jalb etish orqali real ish sharoitlari bo'yicha bilim berish juda muhim. Bu nafaqat o'quv dasturlarining mazmuniy moslashuvini ta'minlaydi, balki talabalar uchun mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobat qilish imkoniyatini yaratadi. Bunday yondashuvlar asosida pedagogik va institutlararo hamkorlik samaradorligi oshadi, ta'lim jarayoni bo'yicha qarorlar qabul qilishda ish beruvchilarning bevosita ishtiroki ta'minlanadi. Umuman olganda, Fuller va Billett kabi olimlar ishi amaliy ta'lim tizimida ish beruvchilarni jalb qilishning nazariy va metodologik asoslarini boyitadi hamda ta'lim jarayoni bilan mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi bilim almashinuv mexanizmlarini chuqurlashtiradi. Ularning tadqiqotlari kasbiy ta'lim va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni faqat taktika emas, balki tizimli strategik yondashuv sifatida ko'rishga xizmat qiladi.

Metodologik qism. Ushbu tadqiqotda ish beruvchilarni kasbiy ta'lim tizimiga jalb qilishning samarali usullarini aniqlash va tahlil qilishda ko'p qirrali metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tahliliy metod yordamida mavjud adabiyotlar va amaliy tajribalar tizimli ravishda o'rganildi, shu orqali ish beruvchilarni jalb qilish mexanizmlarining samaradorligi, ularning pedagogik va institutsional aspektlari aniqlashtirildi. Shu bilan birga, so'rovnoma va intervyular metodlari orqali kasbiy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi amaliy hamkorlikning real holati o'rganildi, talabalarning amaliy stajirovkalar va seminarlar jarayonidagi tajribalari tahlil qilindi. Metodologiyada komparativ tahlil yondashuvi ham muhim o'rin tutadi, chunki u ish beruvchilarni jalb qilishning turli mamlakatlar tajribasini solishtirish va samarali usullarni aniqlash imkonini berdi. Shu orqali, Germaniya va Finlyandiya kabi rivojlangan mamlakatlarda ish beruvchilar bilan institutsional integratsiya mexanizmlari hamda ularning amaliy samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot shuningdek, sotsiologik kuzatuv va ekspert baholash metodlarini ham o'z ichiga oldi, bu metodlar orqali ish beruvchilar bilan hamkorlik shakllari, mentorlik tizimi va baholash mexanizmlari batafsil tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ish beruvchilarni kasbiy ta'lim tizimiga jalb qilishning samarali usullari ko'p qirrali va ularning institutsional, pedagogik hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari mavjud. Analiz va so'rovnoma orqali aniqlanishicha, ish beruvchilarning mentorlik faoliyati, amaliy stajirovkalar tashkil etilishi, sanoat bilan integratsiyalashgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ekspert baholashlari talabalarning kasbiy kompetensiyalarini sezilarli darajada oshiradi. Komparativ tahlil natijalari Germaniya va Finlyandiya tajribasini o'rganish orqali ish beruvchilarni jalb qilishning institutlararo va tizimli mexanizmlari kasbiy ta'lim samaradorligini sezilarli darajada kuchaytirishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ish beruvchilar bilan uzluksiz hamkorlik, pedagogik jarayonlarni real ish sharoitlariga moslashtirish va mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olish orqali kasbiy ta'lim muassasalari raqobatbardosh va innovatsion muhitga ega bo'lishi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ish beruvchilarni jalb qilish faqat amaliy ko'nikmalarni oshirish bilan cheklanmay, balki ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini oshirish va institutlararo hamkorlikni mustahkamlash orqali ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Muxokama. Kasbiy ta'lim tizimida ish beruvchilarni jalb qilish masalasi ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilinadi, va bu borada ikki ilg'or tadqiqotchi Alison Fuller va Stephen Billett orasida ma'lum bir metodologik va konseptual tafovut mavjud. Fullerning nuqtai nazariga ko'ra, ish beruvchilarni jalb qilishning samaradorligi avvalo ta'lim muassasalari va sanoat o'rtasidagi institutlararo integratsiyaga bog'liqdir. U ish beruvchilar bilan hamkorlikni tizimli platformalar va formal mexanizmlar orqali amalga oshirishni ta'kidlaydi, shu jumladan amaliy stajirovkalar, mutaxassislar tomonidan olib boriladigan seminarlar va ekspert baholashlari orqali talabalar kompetensiyalarini oshirishni samarali deb biladi. Fuller shuningdek, ish beruvchilar jalb qilinmagan holatda kasbiy ta'limning bozor ehtiyojlariga moslashuvchanligi kamayadi va pedagogik jarayonning real ish sharoitlariga mosligini yo'qotadi, deb hisoblaydi. Billett esa Fullerning bu nuqtai nazariga qarshi chiqadi va ish beruvchilarni jalb qilish jarayonini faqat formal institutlararo hamkorlik orqali emas, balki ish joyidagi o'rganishning doimiy, noformal va interaktiv jarayoni sifatida ko'rishni taklif qiladi. U ish beruvchilarning mentorlik, liderlik va real ish sharoitida ekspert yondashuvlari orqali talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishini ustuvor deb biladi.

Billettga ko'ra, ish beruvchilar bilan hamkorlikning samarasi nafaqat institutlararo kelishuvlarda, balki ish joyida yuzaga keladigan bilim almashinuvi va professional ijtimoiy munosabatlarda aniqlanadi. Shu nuqtai nazardan, Billett ish beruvchilarni jalb qilishni yanada dinamik, kontekstga mos va multidimensial yondashuv sifatida tasvirlaydi. Bu ikki olimning polemikasi ish beruvchilarni kasbiy ta'limga jalb qilishning murakkab tabiatini ochib beradi. Fuller tizimli va formal mexanizmlarga urg'u bersa, Billett amaliy jarayon va ish joyidagi tajribaga asoslangan yondashuvni afzal ko'radi. Shu bilan birga, har ikkala yondashuv bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega: formal institutlararo mexanizmlar talaba va ish beruvchi o'rtasidagi doimiy aloqani ta'minlasa, ish joyidagi amaliy yondashuv talabaning kompetensiyalarini chuqurlashtiradi va real ish sharoitlariga moslashuvini kafolatlaydi. Shu tariqa, ilmiy polemikalar ish beruvchilarni kasbiy ta'limga jalb qilishning samarali usullarini aniqlashda multidimensial yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotlar Fuller va Billettning konseptual tafovutlarini birlashtirish orqali ish beruvchilar bilan hamkorlikning institutsional va amaliy komponentlarini integratsiyalashgan holda amalga oshirish mumkinligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada ish beruvchilarni kasbiy ta'lim tizimiga jalb qilishning samarali usullari tizimli va multidimensial yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ish beruvchilarni jalb qilish faqat amaliy ko'nikmalarni oshirish bilan cheklanmay, balki kasbiy ta'lim

mazmunini takomillashtirish, o'qituvchilarning metodik kompetensiyalarini oshirish va institutlararo hamkorlikni mustahkamlash orqali ta'lim tizimining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjaboyev.A.R., Husanov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. Toshkent: Fan texnologiyasi nashriyoti, 2007.
2. Shomurotova.N. Kasbiy ta'lim metodikasi. Archiv nauchnykh issledovaniy, 2020, №22.
3. Sharipov.S. Kasbiy pedagogika. Archiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI, 2020.
4. Qo'ysinov.O. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nordic_Press, 2024.

IQTISODIY ZO'RAVONLIKNING SHAXS VA OILA FAROVONLIGIGA KO'RSATGAN TA'SIRI: TIZIMLI TAHLILY YONDASHUV

Durdona Abdulfaizova,
Andijon davlat universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy zo'ravonlikning kam tadqiq qilingan turlaridan biri bo'lgan iqtisodiy zo'ravonlikning jabrlanuvchilarga ko'rsatadigan ta'siri keng qamrovli adabiyotlar tahlili asosida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy zo'ravonlik, oilaviy zo'ravonlik, moliyaviy barqarorlik, ruhiy salomatlik, jismoniy salomatlik, hayot sifati; ota-ona-bola munosabatlari, adabiyotlar sharhi.

Аннотация. В данной статье на основе анализа обширной литературы изучено воздействие экономического насилия — одного из наименее исследованных видов семейного насилия — на пострадавших.

Ключевые слова: экономическое насилие, семейное насилие, финансовая стабильность, психическое здоровье, физическое здоровье, качество жизни, отношения родитель–ребёнок, обзор литературы.

Annotation: this article examined the effects of economic violence on victims, one of the few researched types of domestic violence, based on a comprehensive literature analysis.

Keywords: economic violence, domestic violence, financial stability, mental health, physical health, quality of life; parent-child relations, literature review.

Kirish. Oiladagi zo'ravonlik jamoat salomatligi uchun jiddiy muammo bo'lib, har yili millionlab odamlarga ta'sir qiladi. Ko'pincha bu fenomen yaqin sheriklar zo'ravonligi sifatida tavsiflanadi. Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari oiladagi zo'ravonlikni "joriy yoki sobiq hamkor yoki turmush o'rtog'i tomonidan jismoniy, jinsiy, psixologik zarar yoki ta'qib" sifatida belgilaydi.

An'anaviy tadqiqotlarda psixologik, jismoniy va jinsiy zo'ravonlik shakllari asosiy turlar sifatida o'rganilgan. So'nggi yillarda esa iqtisodiy zo'ravonlik alohida e'tibor qaratiladigan yangi tur sifatida o'rganila boshlandi. Iqtisodiy zo'ravonlik insonning iqtisodiy xavfsizligi va mustaqil hayot kechirish imkoniyatini cheklovchi xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zo'ravonlikka uchrab murojaat qilganlarning 76–99% gacha iqtisodiy zo'ravonlikka duch keladi.

Stylianou va hamkasblari iqtisodiy zo'ravonlikni olti shaklga ajratadi: psixologik zo'ravonlik, jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, iqtisodiy nazorat, ish bilan bog'liq sabotaj va iqtisodiy ekspluatatsiya [2]. Iqtisodiy ekspluatatsiya insonning moliyaviy resurslarini yoki kreditlarini yo'q qilish yoki ulardan ruxsatsiz foydalanishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy nazorat esa bank hisoblari, kredit kartalari va boshqa aktivlarga kirishni cheklashni o'z ichiga oladi. Ish bilan bog'liq sabotaj zo'ravonlikka uchraganlarning ish yoki ta'lim faoliyatiga to'sqinlik qilishni, ularni ish joyida bezovta qilish yoki daromad olish imkoniyatini cheklashni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy texnologiyalar iqtisodiy zoʻravonlikni yanada murakkablashtiradi, chunki tajovuzkor sheriklar jismoniy aloqasiz ham turli nazorat usullarini qoʻllay oladi. Iqtisodiy barqarorlik jismoniy va ruhiy salomatligi, xavfsizligi va mustaqilligi uchun muhim ijtimoiy determinant hisoblanadi. Moliyaviy zarar jabrlanuvchilarning hayot sifatini pasaytiradi, moliyaviy mustaqillikka toʻsqinlik qiladi va munosabatlarni tark etishni qiyinlashtiradi. Iqtisodiy zoʻravonlik boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda, ammo uning jabrlanuvchiga uzoq muddatli taʼsiri keng qamrovli oʻrganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqotning maqsadi iqtisodiy zoʻravonlikning jabrlanuvchilarga taʼsirini keng koʻlamli adabiyotlar orqali tahlil qilish va mavjud tadqiqotlardagi boʻshliqlarni aniqlashdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda iqtisodiy zoʻravonlikning oiladagi zoʻravonlikka uchraganlarga koʻrsatadigan taʼsirini aniqlash maqsadida adabiyotlarni tahlil qilish usuli qoʻllanildi. Mazkur yondashuv mavjud ilmiy manbalarni tizimli ravishda aniqlash, tasniflash va tahlil qilish orqali mavzuning holatini baholash hamda ilmiy boʻshliqlarni aniqlash imkonini beradi. Adabiyotlarni tanlash va tahlil qilish jarayoni Arksey va OʻMalleyning (2005) koʻlamli sharhlar metodologiyasi boʻyicha tavsiyalariga asoslandi. Ushbu yondashuv qoʻllanilishi iqtisodiy zoʻravonlik boʻyicha turli kontekst va metodlar asosida olib borilgan tadqiqotlarni keng koʻlamda qamrab olishga imkon berdi.

Adabiyotlarni qidirish bosqichida ilmiy maʼlumotlar bazalari sifatida Scopus, Web of Science, Google Scholar hamda JSTOR, PubMed va ResearchGate platformalaridan foydalanildi. Qidiruv jarayonida “economic abuse”, “financial abuse”, “intimate partner violence”, “economic control”, “financial exploitation”, “employment sabotage”, “domestic violence” kabi kalit soʻzlar qoʻllanildi. Qidiruv ingliz tilidagi ilmiy manbalar bilan chegaralandi, chunki iqtisodiy zoʻravonlik atamasi ilmiy muomalaga asosan ingliz tilidagi adabiyotlar orqali kirib kelgan. Tanlov mezonlariga koʻra 2000-2024-yillar oraligʻida chop etilgan maqolalar tahlilga kiritildi, chunki iqtisodiy zoʻravonlik tushunchasi 2000-yildan boshlab ilmiy tadqiqotlarda faol qoʻllanila boshlangan.

Tahlil jarayoniga kiritish mezonlari sifatida quyidagi shartlar belgilandi: 1) tadqiqot iqtisodiy zoʻravonlikni alohida tadqiq qilgan yoki IPV tarkibida tahlil qilgan boʻlishi;

2) natijalari iqtisodiy zoʻravonlikning shaxs, oila yoki jamiyatga koʻrsatadigan taʼsirini yoritgan boʻlishi. Kiritish mezonlariga mos kelmagan, mavzu bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan, sifatli yondashuv asosida olib borilgan, shuningdek, mavzuni nazariy yoritish bilan cheklangan maqolalar tahlildan chiqarib tashlandi.

Tanlab olingan tadqiqotlar ikki bosqichda koʻrib chiqildi. Dastlab sarlavha, annotatsiya va kalit soʻzlar asosida mosligi baholandi, soʻng toʻliq matn tahlil qilindi. Tadqiqotlar mazmuniga koʻra tematik kodlash va kategoriyalash usuli yordamida guruhlariga ajratildi. Maʼlumotlarni qayta ishlash jarayonida iqtisodiy zoʻravonlikning taʼsiri besh asosiy toifaga birlashtirildi: moliyaviy natijalar, ruhiy salomatlik, jismoniy salomatlik, ota-ona va bola bilan bogʻliq natijalar hamda hayot sifati. Sharh jarayonida qoʻshimcha ravishda tadqiqotlarning metodologik xususiyatlari ham solishtirildi. Bu turli davlatlarda qoʻllanilgan metodlarning farqlarini aniqlash hamda natijalarga taʼsir etishi mumkin boʻlgan omillarni baholash imkonini berdi. Olingan natijalar iqtisodiy zoʻravonlikning ilmiy adabiyotlarda yoritilish holati, ilmiy boʻshliqlar va kelgusidagi tadqiqot yoʻnalishlarini aniqlashga yordam beradi.

Natijalar : Tadqiqot uchun turli davlatlarda olib borilgan maqolalar tanlandi. Masalan AQSH, Turkiya, Janubiy Afrika, Germaniya, Gana, Hindiston, Livan, Flippin, Iordaniya kabi davlatlarda olib borilgan tadqiqotlardan foydalanildi.

Tadqiqotlarning 7 tasida iqtisodiy zoʻravonlik aniq aniqlanmagan. Qolganlarida iqtisodiy zoʻravonlik koʻpincha majburiy nazorat, munosabat yoki xatti-harakatlar orqali tavsiflangan. Tadqiqotlar iqtisodiy resurslarga kirishni cheklash, iqtisodiy xavfsizlikni buzish, moliyaviy qaramlikni oshirish va iqtisodiy oʻzini-oʻzi taʼminlash imkoniyatlarini kamaytirish kabi shakllarni oʻz ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari beshta toifaga ajratilgan holda oʻrganildi. Birinchisi moliyaviy natijalar hisoblanadi. Iqtisodiy zoʻravonlik moliyaviy resurslarning pasayishi, moddiy qiyinchiliklar va moliyaviy qaramlik bilan sezilarli darajada bogʻliqdir. Moliyaviy jihatdan qiyinchiliklarga uchragan va moliyaviy qaram boʻlgan insonlar zoʻravonlikka uchrash ehtimoli katta boʻladi.

Ikkinchisi, ruhiy salomatlikka taʼsiri oʻrganilgan. Depressiya, tashvish iqtisodiy zoʻravonlik bilan eng koʻp bogʻliq boʻlgan ruhiy salomatlik turlari ekanligi aniqlandi. Iqtisodiy nazorat depressiya va psixologik jarohatlar bilan bogʻliq boʻlgan.

Uchunchisi, jismoniy salomatlikdir. Tadqiqot davomida iqtisodiy zoʻravonlik va jismoniy salomatlik oʻrtasidagi bogʻliqlik ham oʻrganilib, zoʻravonlik boʻyicha yosh guruhlari va tajriba turlariga qarab sezilarli farqlar aniqlangan. Masalan, yosh ayollarda jinsiy zoʻravonlik bilan bogʻliq muammolar, kattalarda esa ruhiy jihatdan zoʻravonlik turlari koʻp uchraydi.

To'rtinchisi, ota-ona va bola bilan bog'liq natijalar. Iqtisodiy zo'ravonlikning ota-ona va bola bilan bog'liqlik jihatiga kelsak, turli yoshdagi bolalar bilan tadqiqotlar o'tkazilib, iqtisodiy zo'ravonlik ota-onalarning bola bilan munosabati va bolalarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatganligi va iqtisodiy zo'ravonlik bolalarni tarbiyalash, kaltaklash va tengdoshlar bilan bog'liq zo'ravonlik darajasini oshirishi mumkinligi aniqlangan.

Beshinchisi, iqtisodiy zo'ravonlikning hayot sifatiga ta'siri haqida bo'lib, iqtisodiy zo'ravonlik hayot sifati bilan salbiy bog'liq bo'ladi. Chunki moliyaviy imkoniyatlar va nazoratdan so'ng hayot sifati sezilarli pasayganligi aniqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy zo'ravonlik nafaqat moliyaviy va ruhiy salomatlik, balki ota-ona-bola munosabatlari, jismoniy sog'liq va hayot sifatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu munosabatlar ko'pincha boshqa ijtimoiy, madaniy va demografik faktorlar bilan vositachilik qilinadi.

Muhokama. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi iqtisodiy zo'ravonlikning zo'ravonlik qurbonlariga ta'sirini yaxshiroq tushunish uchun mavjud adabiyotlarni keng qamrovli ko'rib chiqish edi. Ko'rib chiqilgan adabiyotlarda iqtisodiy zo'ravonlik va moliyaviy natijalar, ruhiy va jismoniy salomatlik, ota-onalar va bolalar natijalari, hayot sifati, jinoiy sudlovga jalb etilish kabi mavzularni o'rganilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlar mazmun va metodologiya jihatidan farqlangan.

Ko'pgina tadqiqotlar iqtisodiy zo'ravonlikning ruhiy salomatlikka ta'sirini o'rganadi. Tadqiqotchilar iqtisodiy zo'ravonlik depressiya, tashvish, o'z joniga qasd qilish g'oyalari bilan bog'liqligini aniqladilar, bu boshqa zo'ravonlik shakllari bilan bog'liq natijalar bilan mos keladi. Shu bilan birga, jismoniy salomatlik natijalari kamroq o'rganilgan va tadqiqotlar metodologiyasi turlicha bo'lganligi sababli, umumiy xulosalar chiqarish cheklangan. Shuning uchun ham iqtisodiy zo'ravonlikning bilvosita ta'sirini, jumladan, vositachilarni o'rganish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar zarur.

Iqtisodiy zo'ravonlik jabrlanuvchilarning moliyaviy barqarorligiga bevosita zarar yetkazadi. Tadqiqotlar moliyaviy qiyinchiliklar, qarz va kredit zararini, moliyaviy resurslarga qaramlikni o'rgangan. Iqtisodiy zo'ravonlik oiladagi zo'ravonlikning boshqa shakllari bilan birga sodir bo'lganda yanada zararli ekanligi ko'rsatildi.

Tadqiqotlarning aksariyati ayyollarga nisbatan bo'lgan iqtisodiy zo'ravonlikka qaratilgan. Kelajakda erkak qurbonlarga nisbatan iqtisodiy zo'ravonlik tajribasini o'rganish zarur. Shuningdek, iqtisodiy zo'ravonlik natijalari hayot bosqichi, ijtimoiy-iqtisodiy holat va madaniy me'yorlarga qarab farq qilishi mumkin. Shu bois, kelgusidagi tadqiqotlar turli kontekst va rivojlanish darajalariga qarab zo'ravonlik ta'sirini o'rganishga qaratilishi lozim.

Kelgusida o'rganilishi kerak bo'lgan jihatlar sifatida quyidagilarni tavsiya beramiz:

- Iqtisodiy zo'ravonlikning murakkab tabiatini tushunish uchun vositachilar va moderatorlarni o'rganish.

- Turli populyatsiyalar, jumlada erkak qurbonlar tajribalarini o'rganish.

- Iqtisodiy zo'ravonlikni bolalar va oilaning boshqa a'zolariga bilvosita ta'sirini o'rganish.

- Iqtisodiy zo'ravonlik va boshqa zo'ravonlik shakllari o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni aniqlash.

- Moliyaviy barqarorlik va stress kabi keng qamrovli o'lchovlardan foydalanib, uzoq muddatli va ko'p o'lchovli tadqiqotlar o'tkazish.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy zo'ravonlik butun dunyo bo'ylab zo'ravonlik qurbonlariga keng ko'lamli ta'sir ko'rsatadi, jumladan ularning moliyaviy farovonligi, ruhiy va jismoniy salomatligi sezilarli darajada zarar ko'radi.

Tadqiqot natijalari iqtisodiy zo'ravonlikning psixologik oqibatlari alohida e'tiborga molik ekanini tasdiqladi. Depressiya, tashvish, stressga chiday olmaslik, o'zini qadrsiz his qilish kabi ruhiy salomatlik buzilishlari iqtisodiy ekspluatatsiya va majburiy iqtisodiy nazorat bilan kuchli bog'liqlikda aniqlangan.

Iqtisodiy zo'ravonlikning oilaviy tuzilma va tarbiyaga ta'siri ham sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Ota-onalarning moliyaviy barqarorlikdan mahrumligi, stress ostida yashashi hamda resurslar tanqisligi bolalarning emotsional holati, xulq-atvori va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlangan. Bu esa iqtisodiy zo'ravonlikni nafaqat shaxsiy, balki avlodlararo salbiy oqibatlarga ega ijtimoiy muammo sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy zo'ravonlik odatda boshqa zo'ravonlik shakllari (jismoniy, psixologik, jinsiy) bilan birga kechadi va bu holat jabrlanuvchilarga ko'rsatadigan ta'sirni yanada kuchaytiradi. Shu bois iqtisodiy zo'ravonlikni oiladagi zo'ravonlikning mustaqil tarkibiy qismi sifatida ilmiy va amaliy muomalada tan olish, uni erta aniqlash va oldini olish mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot iqtisodiy zo‘ravlilikni jiddiy jamoat salomatligi, gender tengligi va oilaviy farovonlik muammosi sifatida ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi. Iqtisodiy zo‘ravlilikning oqibatlarini kamaytirish uchun kompleks yondashuv – huquqiy, ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy qo‘llab-quvvatlov mexanizmlarini birlashtirgan tizimli aralashuvlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Centers for Disease Control and Prevention. Intimate partner violence. [https:// www. cdc. gov/ viole ncepr event ion/ intim atepa rtner viole nce/ index. html](https://www.cdc.gov/violenceprevention/intimatepartnerviolence/index.html) (2020). Accessed 15 Jan 2022.
2. Adams AE, Sullivan CM, Bybee D, Greeson MR. Development of the scale of economic abuse. *Violence Against Women*. 2008;14(5):563–88.
3. Adams AE, Beeble ML, Gregory KA. Evidence of the construct validity of the scale of economic abuse. *Violence Vict*. 2015;30(3):363–76.

KIBER MAKONDA IJTIMOIIY NAZORAT VA SHAXS ERKINLIGI O‘RTASIDAGI MUVOZANAT: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL

Mardonbek Rahmatullayev,
Namangan davlat universiteti
tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kiber makon kontekstida ijtimoiy nazorat va shaxs erkinligi tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, muvozanat va ziddiyatlar ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Kiber makon, ijtimoiy nazorat, shaxs erkinligi, raqamli huquq, digital etik, ijtimoiy-falsafiy tahlil, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, raqamli jamiyat.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь, баланс и противоречия между социальным контролем и личной свободой в контексте киберпространства с использованием социально-философских подходов.

Ключевые слова: киберпространство, социальный контроль, личная свобода, цифровое право, цифровая этика, социально-философский анализ, защита персональных данных, цифровое общество.

Abstract. This article analyzes the interrelation, balance, and conflicts between social control and individual freedom in the context of cyberspace using social-philosophical approaches.

Keywords: cyberspace, social control, individual freedom, digital law, digital ethics, social-philosophical analysis, personal data protection, digital society.

Kirish. Raqamli texnologiyalar va internetning jadal rivojlanishi XXI asrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhitini tubdan o‘zgartirdi. Kiber makon, shaxsiy va kollektiv faoliyatning yangi platformasi sifatida, inson hayotining deyarli barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, kiber makon shaxsiy erkinlik va ijtimoiy nazorat o‘rtasidagi murakkab va ziddiyatli munosabatlarni vujudga keltirdi. Kiber makondagi ijtimoiy nazorat, bir tomondan, jamiyat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olish, dezinformatsiya va kiberhujumlarga qarshi kurash kabi vazifalarni bajaradi; boshqa tomondan, shaxs erkinligini cheklash, maxfiylik va anonimlik prinsiplariga xalaqit berish, shuningdek, fuqaro xatti-harakatlariga doimiy monitoring o‘rnatish kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Kiber makon nazariyasi va amaliyotida ijtimoiy nazorat va shaxs erkinligi o‘rtasidagi muvozanat masalasi falsafiy, sotsiologik va huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Ijtimoiy nazorat tushunchasi tarixan jamiyatdagi tartib-intizomni ta’minlash, normalarni joriy etish va shaxsiy hamda kollektiv xulq-atvorni modellashtirish kabi vazifalarni bajarib kelgan. Shu bilan birga, shaxs erkinligi tushunchasi insonning o‘z hayotini boshqarish, tanlov erkinligini amalga oshirish, axborotga erkin kirish va shaxsiy ma’lumotlarini nazorat qilish huquqlarini o‘z ichiga oladi. Kiber makonda ushbu ikki kontseptsiya o‘rtasida uyg‘unlikni saqlash, jamiyatning ijtimoiy intizom talablariga javob berish bilan shaxsiy erkinliklarni cheklamaslik o‘rtasidagi ziddiyatni ilmiy asosda tahlil qilish dolzarbdir.

Аннотация. Мазкур мақолада Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг давлат арбоби, моҳир саркарда, истеъдодли шоир, тарихчи ва мутафаккир сифатидаги кўп қиррали фаолияти илмий-таҳлилий жиҳатдан ёритилган.

Калит сўзлар: Бобурнома, темурийлар даври, давлат бошқаруви, ҳарбий санъат, адабий мерос, тарихий манба, маънавий қадриятлар, маданият, ватанпарварлик.

Аннотация. В данной статье научно-аналитически освещается многогранная деятельность Захириддина Мухаммада Бабура как государственного деятеля, талантливого полководца, поэта, историка и мыслителя.

Ключевые слова: Бабурнаме, эпоха Тимуридов, государственное управление, военное искусство, литературное наследие, исторический источник, духовные ценности, культура, патриотизм.

Annotation. This article provides a scientific and analytical study of the multifaceted activities of Zahiriddin Muhammad Babur as a statesman, skilled commander, talented poet, historian, and thinker.

Keywords: Baburnama, Timurid period, public administration, military art, literary heritage, historical source, spiritual values, culture, patriotism.

Ўзбек халқи ўзининг бой ва бетакрор ўтмиш тарихига эга. Айниқса, темурийлар даври, бобурийлар даври тарихи бизга қолдирган мероси жиҳатдан ниҳоятда аҳамиятлидир. Инсоният тарихида шундай шахслар борки, уларнинг ҳаёти бир вақтнинг ўзида сиёсат, ҳарбий санъат, адабиёт ва маънавият билан боғлиқ бўлади. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ана шундай нодир ва кўп қиррали шахслардан биридир. У ўз даврининг йирик давлат арбоби, моҳир қўмондони, етук адиби ва нозиктаб шоири сифатида тарихда ўчмас из қолдирган.

Бобур нафақат ҳукмдор, балки, истеъдодли шоир, тарихчи ва заковатли олим ҳамдир. У илм аҳлини ардоқлайди, ёш адиб ва тарихчи олимларга ўз ёрдами аямайди, ҳомийлик кўрсатади. Буни биз Бобурнома асарида яққол кўришимиз мумкин. Гарчи Бобур ўз умрини жангу-жадалда ўтказган бўлса-да, ҳамма вақт ижод қилишга имкон топа олди. Айни пайтда илм аҳли билан суҳбат қуришга, уламо ижодига баҳо беришга, уларни рағбатлантиришга улгура билди. Жумладан, шоирлар Биноий ва Муҳаммад Солиҳлар Бобур марҳаматидан мушарраф бўлган кишилардир. Улар кейинчалик Бобур Ҳиндистон томон юз тутгач, Шайбонийхон ҳузурига бориб у ерда ўз ижодларини давом эттирадilar.

Айни пайтда "Бобурнома"да уларнинг асарлари, битган шерлари ҳақида ўз фикрларини баён этади. Бобур ҳақиқий илм соҳиби. Ёзилган асарни ортиқча макташ уни табиатида ёд бўлган. Жумладан, Бобур шеър яратиш учун шоирда юксак савод, тил ва мантик, имло ва хуснихат мажмуининг комил бўлишини такидлайди. Демак. Бобур ўз шогирдлари, атрофдаги адиблар ижодига талабчанлик билан ёндашади. Бобур марҳаматига сазовор бўлган тарихчи Хондамир ҳам унинг талабчанлик камолоти орқали юксак обрў топди, асарлари билан машҳур бўлди. Хондамир Аграда Бобурнинг энг яқин садоқатли одамлари қаторидан ўрин олди. Бобур вафотидан кейин унинг ўғли Ҳумоюн хизматида бўлган. Хулоса қилиб шуни такидлаш мумкинки, Бобур илмсеварликда, ҳомийликда бошқа ҳукмдорлардан қолишмайди. У айнан бобоси Амир Темур ўғитларига амал қилган, меҳр кўзи чашмадек улуғ инсондир.

Бобур ҳаёти фақатгина ғалабалар билан эмас, балки мағлубиятлар, қийинчиликлар ва доимий курашлар билан ҳам тўла бўлган. Аммо у ҳеч қачон руҳан синмаган, ҳар бир синовдан сабоқ чиқара олган. Шу жиҳатдан Бобур шахсияти нафақат тарихий, балки тарбиявий аҳамиятга ҳам эга.

Бобур қолдирган бой мерос — «Бобурнома», шеърӣ асарлар ва давлатчилик анъаналари бугунги кунда ҳам ўз қимматини йўқотмаган. Унинг ҳаётини ўрганиш орқали биз XV–XVI

асрлардаги Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистон тарихи, шу давр инсонларининг дунёқараши ва қадриятлари ҳақида чуқур тасаввурга эга бўламиз.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур 1483 йил 14 февралда Андижон шаҳрида таваллуд топган. У Темурийлар сулоласига мансуб бўлиб, Амир Темурнинг бешинчи авлодидир. Темурийлар сулоласи Марказий Осиё тарихида катта из қолдиргани, илм-фан, маданият ва давлатчилик ривожига улкан ҳисса қўшгани тарихдан маълум.

Бобурнинг отаси — Умаршайх Мирзо Фарғона вилояти ҳукмдори бўлган. Онаси Қутлуг Нигор хоним эса билимли, оқила ва маърифатпарвар аёл сифатида танилган. Она тарбияси Бобур шахсияти шаклланишида муҳим ўрин тутган. Бобур кейинчалик ўз асарларида онасини катта ҳурмат билан тилга олади.

Темурийлар анъанасига кўра, Бобур болалигиданоқ давлат ишларига тайёрлаб борилган. Унинг тарбиясига замонасининг энг билимли устозлари жалб этилган бўлиб, бу унинг кейинги фаолиятида муҳим аҳамият касб этган.

1494 йилда отаси Умаршайх Мирзо вафот этгач, Бобур бор-йўғи 12 ёшида Фарғона тахтига ўтиради. Бу ёшда давлат бошқариш жуда оғир вазифа эди. Ёш ҳукмдорга қарши ички ва ташқи душманлар кўпайган, амирлар ўртасида ихтилофлар авж олган эди.

Фарғона тахтига чиққан Бобур илк кунларданоқ мураккаб сиёсий вазиятга дуч келади. Унинг ҳокимиятига нафақат қўшни ҳукмдорлар, балки ўз атрофидаги баъзи амирлар ҳам хавф солар эди. Шу шароитда Бобур мустақил қарор қабул қилиш, дипломатия ва ҳарбий санъатни амалда қўллашга мажбур бўлади.

Бобурнинг энг катта мақсадларидан бири Самарқандни эгаллаш эди. Самарқанд Темурийлар сулоласининг сиёсий ва маънавий маркази ҳисобланган. Бобур бу шаҳарни бир неча бор қўлга киритган, аммо ички келишмовчиликлар ва ташқи босимлар сабабли уни сақлаб қолишга муваффақ бўлмаган.

Бу мағлубиятлар Бобур учун оғир бўлган, аммо у уларни ҳаёт сабоғи сифатида қабул қилган. У ўз хатоларини таҳлил қилиб, келгусида янада эҳтиёткор ва пухта режалар асосида ҳаракат қилишга ўрганган.

Фарғона ва Самарқанд учун бўлган курашлардан сўнг Бобур Афғонистон томон йўл олади. 1504 йилда у Кобулни эгаллаб, бу ерда мустаҳкам давлат барпо этади. Кобул даври Бобур ҳаётида муҳим бурилиш нуқтаси бўлган. Кобулда Бобур давлат бошқарувини йўлга қўйиб, қўшинни мустаҳкамлайди, иқтисодий ҳаётни ривожлантиради. У шаҳар ободончилигига, боғлар қурилишига ва маданий муҳит яратишга катта эътибор қаратади. Бу даврда Бобур илм-фан ва адабиёт билан ҳам фаол шуғулланади.

Бобурнинг энг машҳур асари — “Бобурнома”дир. Бу асар жаҳон адабиётидаги энг муҳим мемуар асарларидан бири ҳисобланади. Асарда Бобур ўз ҳаёти, юришлари, замондошлари, шаҳарлар ва халқлар ҳақида батафсил ёзган. Бу асарни энциклопедик асар деб аташ мумкин. Сабаби бу асар бизга тарих, география, саёҳат хотиралари, ўзбек ва қардош халқларнинг номоддий маънавий мероси ҳақида қимматли маълумотлар беради. “Бобурнома” асари ўзининг илмий қамровига кўра тарихчи, адабиётшунос ҳамда географ олимлар томонидан кенг этироф этилган. “Бобурнома” асари уч минтақа – Мовароуннаҳр, Афғонистон ва Ҳиндистон ҳақида кенг қамровли илмий билимлар беради. Мазкур асарда ушбу жойларнинг тарихи, географияси билан боғлиқ бўлган билимлар кенг равишда ёритилади.

“Бобурнома”нинг энг муҳим жиҳати — унинг ростгўйлиги ва холислигидир. Бобур ўзини идеаллаштирмаган, хатоларини ҳам очиқ тан олган. Шу боис асар тарихий манба сифатида жуда қимматлидир.

Бобур нозиктаъб шоир сифатида ҳам танилган. У ғазал, рубоий ва қитъалар ёзган. Унинг шеърларида муҳаббат, ватан соғинчи, ҳаётнинг ўткинчилиги ва инсон қалби кечинмалари акс этган.

Бобур шеърляти содда, лекин таъсирли бўлиб, ўқувчини чуқур ўйга толдиради. Унинг адабий тили ўзбек адабиёти таракқиётида муҳим ўрин тутди. Бобур шунингдек “Хатти Бобурий” алибосини ҳам яратган.

Бобур ислом динига амал қилган, ахлоқ ва адолатни давлат бошқарувининг асосий тамойили деб билган. У ҳукмдор сифатида халқ манфаатини биринчи ўринга қўйган. Бобур асарларида ҳалоллик, инсоф ва адолат ғоялари кенг ёритилган.

Бобур мероси бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Унинг ҳаёти ёшлар учун сабр-тоқат, ирода ва илмга интилиш намунасидир. Бобур шахсияти ватанпарварлик ва маънавий камолот тимсоли ҳисобланади.

Заҳириддин Муҳаммад Бобур — тарихда ўчмас из қолдирган буюк шахсдир. У давлат арбоби, қўмондон, адиб ва мутафаккир сифатида инсоният маданиятига беқиёс ҳисса қўшган. Унинг бой мероси бугунги ва келажак авлодлар учун ҳам қимматли манба бўлиб қолаверади.

“Бобурнома” — Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг кузатишлари замирида яратилган Мовароуннаҳр, Хуросон, Ҳиндистон. Эронда яшаган халқларнинг XI аср охири - XII асрнинг биринчи ярмидаги тарихи, иқтисодий ва ижтимоий, сиёсий ва савдо муносабатлари, иқлими, ҳайвонот ва ўсимлик дунёси, ерларда яшовчи халқларнинг урф — одатлари, маданияти ва яна коплаб жиҳатларини ўзида жам этган буюк асардир. Заҳириддин Муҳаммад Бобур “Бобурнома”да Мовароуннаҳрда жойлашган кўпгина вилоят ва кентларнинг таърифу таснифини кетириб ўтган. Хуллас, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” бутунжаҳон оммасига машҳур бўлган шоҳ асаридир. Унда нафақат тарихий, балки, ижтимоий масалалар, сиёсий - иқтисодий ва савдо муносабатлари, Мовароуннаҳр, Хуросон, Ҳиндистон, Эрон каби мамлакатларда олиб борилган ободончилик ишлари, бунёд этилган муҳим тарихий иншоотлар, масжидлар, мадрасалар, зиёратгоҳлар, ибодатхоналарнинг тарифу тавсифи келтирилган. Шу боис ҳам “Бобурнома” тарихий ва адабий мерос сифатида кишиларни ҳайратда қолдириб келмоқда.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, Заҳириддин Муҳаммад Бобур нафақат темурийлар сулоласининг муносиб давомчиси, балки ўз даврининг йирик давлат арбоби, моҳир қўмондони, етук адиби ва теран тафаккур эгаси сифатида жаҳон тарихида ўчмас из қолдирган буюк шахсдир. Унинг сиёсий ва ҳарбий фаолияти, адолатли давлат бошқаруви тамойиллари ҳамда илм-фан ва адабиётга бўлган ҳомийлиги уни ҳар томонлама баркамол ҳукмдор сифатида намоён этади.

Бобур томонидан яратилган “Бобурнома” асари эса нафақат бадиий ёдгорлик, балки Марказий Осиё, Афғонистон ва Ҳиндистоннинг тарихий-сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётини ўрганишда муҳим илмий манба ҳисобланади. Асарнинг ҳолислиги, ростгўйлиги ва энциклопедик қамрови уни жаҳон мемуар адабиётининг ноёб намунаси даражасига кўтаради.

Шу боис Бобур меросини чуқур ўрганиш, унинг ҳаёти ва фаолиятини ёш авлод онгига сингдириш ватанпарварлик, маънавият, ирода ва билимга интилиш туйғуларини шакллантиришда муҳим аҳамият касб этади. Бобур шахсияти бугунги кунда ҳам миллий ифтихор, маънавий камолот ва давлатчилик анъаналарининг ёрқин тимсоли сифатида ўз қадрини сақлаб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. “Бобур-давлат арбоби, шоир ва тарихчи” мавзусидаги конференция материаллари НавДПи 2006.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. "Бобурнома". Т. “Юлдузча”. 1989.
3. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. “Ўзбекистон” 1996.
4. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. “Ватан тарихи” Иккинчи китоб Т. “Шарқ”, 2003.
5. Қудратуллаев Х. “Бобур армони”, “Шарқ”. Т. 2005.

**YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI VA TARIX FALSAFASINING DOLZARB
MASALALARI: MILLATLARARO MUNOSABATLAR MISOLIDA**

**O'g'iloy Ahmedova,
"TIQXMMI" MTU
tayanch doktoranti**

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun mohiyati tarix falsafasi nuqtai nazaridan tahlil qilinib, ushbu jarayonlar millatlararo munosabatlar masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, tarix falsafasi, millatlararo munosabatlar, globallashuv jarayonlari, etnik mojarolar.

Аннотация. В данной статье с позиции философии истории анализируются сущность и содержание реформ, осуществляемых в Новом Узбекистане, а также рассматриваются межнациональные отношения в теоретическом и практическом аспектах в контексте данных процессов.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, философия истории, межнациональные отношения, процессы глобализации, этнические конфликты.

Abstarct. This article analyzes the essence and content of the reforms being implemented in New Uzbekistan from the perspective of the philosophy of history, and examines interethnic relations both in theoretical and practical dimensions within the context of these processes.

Keywords: New Uzbekistan, philosophy of history, interethnic relations, globalization processes, ethnic conflicts.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar va hamjihatlik masalasiga dolzarb masalardan biri sifatida qaraladi. Zero, mamlakatimizda yashayotgan millatlar tinch, ahil-inoq yashar ekan davlatimizda tinchlik abadiy bo'ladi.

Bugun respublikamizda 37 millionga yaqin fuqaro yashaydi. Ayni vaqtda aholining 16 foizdan ko'prog'i 150 yaqin millat va elatlarning vakillari: tojik, qozoq, rus, tatar, qirg'iz, koreys, turkman va boshqalardan iborat. Agar madaniyati va urf-odatlarini o'xshash bo'lgan qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg'iz va turkmanlar avvaldan o'zbeklar bilan qo'shni bo'lib yashab kelgan bo'lsalar, boshqa millat vakillari bu o'lkaga turli siyosiy-ijtimoiy jarayonlar natijasida kelib qolganlar.

Respublikada istiqomat qilib kelayotgan millat va elat vakillarining har biri o'ziga xos madaniyatga va ko'p asrlik an'analarga ega. O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bu masalada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdan iboratdir. Jamiyatimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarish ahamiyati, tushunchasi kun sayin oshib borayotganligini e'tirof etishimiz mumkin.

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'iy nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan. Fuqarolarga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantrish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'zbekiston Respublikasida 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassasalarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etib kelmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr qilinmoqda.

Asosiy qism. Respublikamizda olib borilayotgan siyosat, millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish yo'lidagi hatti-harakatlari diqqatga sazovordir. O'zining tarkibi jihatdan rang-barang millat va elat vakillaridan iborat bo'lgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlashga O'zbekiston fuqarolarining teng huquqligi bilan bog'liq barcha muammolarni hal etadigan qonunchilik tuzilib, takomillashtirilib borilmoqda.

O'zbekistonda milliy masala va millatlararo munosabatlardagi mavjud muammolarni hal etish ko'p jihatdan turli millatlarga mansub shaxslarning huquqlarini himoya qilish, ularni kafolatlashga va bu sohada normativ-hujjatlarni amalga oshirish ustidan nazoratni kuchaytirishning eng zamonaviy

shakllarini vujudga keltirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu o'rinda mustaqillik yillarida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili instituti hamda huquqparvar jamoa tashkilotlarining mavqei va maqomini ko'tarish, Inson huquqlarini himoya qilish, Ombudsman instituti, Jamoatchilik fikrini o'rganish instituti, amaldagi qonunchilik instituti, Inson huquqlari milliy markazi singari tashkilotlar ishini rivojlantirish, takomillashtirish hamda boshqa qator institutlarni takomillashtirish, yangilarining tashkil etilishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Bunday institut va jamiyatlarning mavjudligi turli millat vakillarining huquqlarini himoya qilishda asosiy o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotini, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun asos bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini asoslab berish uchun zarur imkoniyatlar yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvda shunday deb ta'kidlaganlar: "Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida milliy masalani hal etishda davlat dasturi rolini o'ynagan, millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish va takomillashtirishda quyidagicha fikr bildirganlar: "Ushbu tarixiy tajriba shundan saboq beradiki, katta siyosatga intilayotgan, boshqa xalqlarni kamsitish va cheklash asosida o'z xalqiga farovonlik yaratib berishga va shu holatni saqlab turishga harakat qilayotgan siyosatchilar va shaxslarning hatti-harakatlarini hech qanday oliyanob niyatlar ham oqlay olmaydi. Shunga qaramay, hozircha bunday xurujlar mavjud va juda sezilarli. Ularni esdan chiqarmaslik va hushyor turish zarur".

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, barcha fuqarolarning millati va dinidan qat'iy nazar, teng huquqliylik imkoniyatini yaratish, yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ishlarini yanada yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi va sohada ko'plab ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Respublika baynalmilal madaniyat markazi (1992), Respublika milliy g'oya va mafkura markazi (1996), Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi (1998), Madaniyat va siport ishlari vazirligi qoshida Milliy madaniyatlarni rivojlantirish bo'yicha koordinatsion kengash (1997), O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar bo'yicha qo'mita (2017) tuzildi. O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirish, ularga hurmat bilan qarash, odatlarini saqlash hamda rivojlantirish, ularga hurmat bilan qarash, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish kabi vazifalarning dolzarbligini oshirdi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida xavfsizlik, millatlararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglikni ta'minlash kabi muhim yo'nalishlarda millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash singari vazifalarning belgilanishi ham amalga oshirilayotgan ishlarning yangi bosqichga ko'tarilishini talab etmoqda.

Umuman olganda, ma'naviy omillar, madaniyat har doim ham millatlararo munosabatlar masalasini sivilizatsiyali yo'l bilan hal etishning muhim sharti bo'lib xizmat qilgan. Shu asnoda ma'naviyat, ma'rifat ijtimoiy barqarorlik omili, millat esa ma'naviyat birligidir, ma'naviyat - davlat asosi, davlat esa ma'naviyat suyanchig'idir.

O'zbekistonda millatlararo totuvlik mustahkamlandi, turli millat, elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmatga asoslangan yaqinlik vujudga keldi. Eng muhimi, qonunlashtirilgan, bir millatning ikkinchisini hurmat qilishi lozimligi to'g'risidagi g'oya mustaqillikni mustahkamlashning zarur sharti ekanligi to'g'risidagi fikr bilan mustahkamlangan. Mustaqillikning o'tgan tarixiy bosqichi mamlakatimiz siyosiy rahbariyatining, bir tomondan millatlararo totuvlik borasida to'g'ri siyosat ishlab chiqqanligidan, boshqa tomondan esa O'zbekiston fuqarolari mazkur milliy siyosatni amalga oshirishdan manfaatdorligidan dalolat bermoqda. Bunday uyg'unlik mamlakat taraqqiyotida muhim omillardan biridir.

1995-yil "Til to'g'risida"gi qonunni amalda yangidan qabul qildi. "Til to'g'risida"gi avvalgi qonun 1989-yil qabul qilingan edi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov taklifi bilan eski qonunning aholi bilan muomala qilnadigan sohalarida band kishilar 1998-yilgacha davlat tili -

o'zbek tilini bilishlari lozimligi ko'zda tutgan 8-bandni chiqarildi. Basharti shu band saqlanib qolsa davlat tilini bilmaydigan kishi biron-bir lavozimni egallay olmasdi. Davlat tilini o'zlashtirmaganligi tufayli egallab turgan lavozimi, mansab pillapoyalaridan ko'tarilish, jamoat va davlat hayotida ishtirok etishga taalluqli har qanday cheklashlar bekor qilindi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov aytganlariga ko'ra, O'zbekistonda bunday cheklashlar bo'lmasligi kerak.

O'zbekistonda istiqomat qilib kelayotgan boshqa millatlar, xalqlarning o'zbek xalqi bilan teng ravishda rivojlanishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi, turli millat vakillari uchun maktablar, boshqa o'quv yurtlarining ochilishi, ularning respublika rahbar lavozimlarida hamda boshqaruvning barcha bosqichlaridagi teng huquqli vakilligi, ijtimoiy-jamoat tashkilotlarini tuzishdagi erki – bularning hammasi mamlakatimizda kuchli va barqaror milliy siyosat yurg'izishni huquqiy-tashkiliy, ma'naviy-moddiy jihatdan ta'minlab bermoqda.

Mamlakatimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti barcha boshqa masalalar qatori milliy siyosat, millatlararo munosabatlar masalasida ham o'z yangiligini namoyon etdi, nazariy masalalarning hayot bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozimligi to'g'risidagi g'oya amal qila boshladi. Bizga ma'lumki, millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiyqisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg'unligi va mushtarakligi demakdir. O'z davlatimiz o'z qiyofasiga ega bo'lgan millat ham yo'q. Millatning metinday jipsligi davlatning qudratiga bog'liq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va hamjihatlik, bag'rikenglik masalalariga qaratilgan davlat siyosatining asosiy tamoyillari e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizda milliy masalalarga nisbatan davlat siyosatining huquqiy-me'yoriy hujjatlari bilan asoslab berilgan. Respublikamizda millatlararo munosabatlar masalasi zamonaviy yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Kam sonli millatlar tarixini o'rganish natijasida bu xalqlarning tarixiy vatani ularning urf-odatlarini, an'analarini o'rganildi, kam sonli millatlarning vatanimiz hududlariga kirib kelishi uzoq tarixiy o'tmishga borib taqalishi masalalari o'rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqi. — 2017-yil 20-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni //:lex.uz/docs/3107036
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent, 1997. – 52-bet.
5. O'zbekiston – umumiy uyimiz. - Toshkent: "O'zbekiston". 2016. 49-bet.

**O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY ONGNI RIVOJLANTIRISHGA
DOIR INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR DIALEKTIKASI**

Nodira Qahhorova,
“TIQXMMI” MTU
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati va huquqiy ongni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlarning dialektik tahlili amalga oshiriladi. Maqolada islohotlarning ijtimoiy, siyosiy va huquqiy jihatlari, shuningdek ularning jamiyatning fuqarolik ongini shakllantirishdagi roli va samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, institutsional islohotlar, davlat siyosati, jamiyat transformatsiyasi, huquqiy madaniyat, fuqarolik tarbiyasi.

Аннотация. В данной статье проводится диалектический анализ институциональных реформ, направленных на развитие гражданского общества и правового сознания в Республике Узбекистан. В статье рассматриваются социальные, политические и правовые аспекты реформ, а также их роль и эффективность в формировании гражданского сознания общества.

Ключевые слова: гражданское общество, правовое сознание, институциональные реформы, государственная политика, трансформация общества, правовая культура, гражданское воспитание.

Abstract: This article presents a dialectical analysis of institutional reforms aimed at developing civil society and legal consciousness in the Republic of Uzbekistan. The study examines the social, political, and legal aspects of these reforms, as well as their role and effectiveness in shaping the civic awareness of society.

Keywords: Civil society, legal consciousness, institutional reforms, state policy, social transformation, legal culture, civic education.

Barchamizga ma'lumki, so'nggi yillarda Yangi O'zbekiston davrida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish masalasi siyosiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, 2016-yildan boshlab boshlangan yangi davr – Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligidagi boshqaruv modeli fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, NNTlar, OAV, mahalla kabi fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash orqali ochiq va inklyuziv jamiyat barpo etishga qaratilgan. Shu boisdan ham, Yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatining shakllanishi avvalgi bosqichlardan farqli ravishda, davlat bilan jamiyat o'rtasida yangi ijtimoiy muloqot, ishonch, javobgarlik va sheriklik tamoyillariga asoslanmoqda.

Alohida qayd etish joizki, 2022-yilda qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”da fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Strategiyada “ijtimoiy sheriklikni kengaytirish”, “davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini ta'minlash”, “nodavlat sektor faoliyatini rag'batlantirish” singari maqsadlar aniq belgilab berilgan.

Demak, zamonaviy O'zbekiston tajribasida fuqarolik jamiyatining institutsional asoslari takomillashmoqda. Jumladan, 2021-yilda “Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish to'g'risida”gi Prezident qarori qabul qilinib, unda ijtimoiy buyurtmalar, grantlar va subsidiyalar orqali NNTlarning ijtimoiy loyihalari moliyalashtirilishini ta'minlash mexanizmi mustahkamlandi. Bu qaror fuqarolik jamiyati institutlariga mustaqil tashabbus ko'rsatish, aholining ehtiyoj va muammolarini aniqlash va hal etishda bevosita ishtirok etish imkoniyatini kengaytirdi.

Yana bir muhim jihat shundaki, Yangi O'zbekiston davrida “xalq bilan muloqot” va “ochiq davlat” tamoyili orqali fuqarolik jamiyatining kommunikativ imkoniyatlari ham kengaymoqda. “Xalq qabulxonalari”, “onlayn murojaatlar” tizimi, “ijtimoiy audit”, “fuqarolik monitoringi”, “ochiq budjet” platformalari — bularning barchasi davlat faoliyatining oshkoraligi va fuqarolar ishtirokini ta'minlovchi mexanizmlardir. Bu orqali davlat va jamiyat o'rtasida faol dialektik muloqot shakllanmoqda.

Mahalla tizimi esa fuqarolik jamiyatining o'ziga xos va o'ta samarali institutlaridan biri bo'lib qolmoqda. 2023-yilda “Mahalla tizimi to'g'risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilinib, mahalla faqatgina ijtimoiy boshqaruv bo'g'ini emas, balki fuqarolar tashabbusi va o'zini o'zi boshqaruv

tizimining asosiy instituti sifatida qonuniy maqomga ega bo'ldi. Mahalla, ayniqsa, gender tengligi, oilaviy muammolar, yoshlar va nogironligi bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy himoyasida asosiy vositachi rolini bajarmoqda.

Shuningdek, axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan fuqarolik faolligi yangi raqamli shakllarga o'tmoqda. Blogerlar, jamoatchi faollar, raqamli jurnalistika, onlayn so'rovlar, e-petitsiyalar kabi vositalar fuqarolarning fikrini erkin ifoda etish, jamiyatdagi muammolarga munosabat bildirish va ijtimoiy harakatlarni tashkil qilish imkonini bermoqda. Bu esa fuqarolik jamiyatining avvalgi bosqichlariga nisbatan tub sifat o'zgarishini ko'rsatadi.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Freedom House va UNDP kabi institutlar ham O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari sonining ortib borayotgani, ularning ijtimoiy hayotdagi rolining kuchaygani haqida ijobiy baholar bermoqda. Biroq, muammolar ham yo'q emas — moliyaviy mustaqillik, nodavlat sektor vakillarining salohiyatini oshirish, hududlar kesimida fuqarolik faolligini rag'batlantirish kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, Yangi O'zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyati davlat tomonidan nazorat qilinuvchi obyekt emas, balki hamkor va teng huquqli subyekt sifatida shakllanmoqda. Bu shakllanish ijtimoiy islohotlar, qonunchilikdagi yangilanishlar, raqamli vositalarning joriy etilishi, fuqarolik tashabbuslari va ochiqlik siyosatiga asoslangan holda bosqichma-bosqich, dialektik tarzda kechmoqda. Ushbu jarayon uzoq muddatli strategik rivojlanishning muhim komponenti sifatida qaralayapti.

Alohida ta'kidlash lozim, O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar fuqarolik jamiyatining rivojlanishini strategik ustuvorlik sifatida belgilab bermoqda. Ushbu islohotlar davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmlarini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar), mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik institutlarini faol ijtimoiy subyektga aylantirishni maqsad qilgan. Asosiy yo'nalishlardan biri bu — fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy bazaning izchil takomillashtirilishidir. Masalan, 2014-yilda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan nazorat yuritish imkonini huquqiy jihatdan mustahkamladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish — fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishidir. 2018-yildan boshlab NNTlar ijtimoiy buyurtmalar, subsidiya va grantlar orqali davlat tomonidan bevosita moliyalashtiriladigan loyihalarda ishtirok eta boshladi. Jumladan, 2021-yil 4-iyundagi Prezident qarori (PQ-5150) asosida "Ijtimoiy buyurtma orqali NNTlar faoliyatini rag'batlantirish dasturi" ishlab chiqildi. Bu dastur doirasida sog'liqni saqlash, ekologiya, ta'lim, nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash kabi yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi nodavlat sektor vakillariga grantlar ajratish mexanizmi yaratildi.

Uchinchi yo'nalish — ijtimoiy sheriklik tamoyilini qonuniy va amaliy jihatdan mustahkamlashdir. 2014-yilda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun kuchga kirgan bo'lib, u davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mezonlarini aniq belgiladi. Ushbu qonun asosida NNTlar ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat bilan hamkorlik qiladi, shuningdek, ijtimoiy loyihalarni birgalikda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish borasida B.A'zamxo'jayev shunday deydi: "Davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining bevosita ishtirokini ta'minlash — bu faqat demokratik tamoyil emas, balki ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi vosita hamdir".

To'rtinchi yo'nalish — fuqarolik institutlari faoliyatini ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida yo'lga qo'yishdir. 2017-yildan boshlab jamoatchilik eshituvlari, ochiq parlament va mahalliy kengash majlislari, davlat xarajatlari va byudjet loyihalarining e'lon qilinishi fuqarolik jamiyatining nazorat funksiyasini kuchaytirdi. Xususan, "Ochiq budjet" portali orqali fuqarolar o'z mahallalari uchun zarur loyihalarga ovoz berish orqali bevosita ijtimoiy rejalashtirishda ishtirok etmoqda (Islomov M., Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklikning rivojlanish bosqichlari, T.: Ijtimoiy Fikr, 2022, B. 91–94).

Beshinchi yo'nalish — fuqarolik jamiyati vakillarining huquqiy savodxonligini oshirish va ularning salohiyatini mustahkamlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Masalan, "Nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash" markazlari orqali mintaqaviy treninglar, maslahat markazlari va ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida tashkil etilgan "Huquqiy ong va madaniyatni oshirish markazi" faoliyatini alohida ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, mahalla tizimi asosida fuqarolik jamiyati institutlarini mahalliy darajada kuchaytirish ham muhim yo'nalish sifatida ilgari surilmogda. 2023-yilda qabul qilingan "Mahalla tizimi to'g'risida"gi Qonun orqali mahalla nafaqat ijtimoiy nazorat va birdamlikni ta'minlovchi institut sifatida, balki

fuqarolik tashabbuslarini muvofiqlashtiruvchi, ijtimoiy muammolarni aniqlovchi va hal qiluvchi vosita sifatida qayta shakllantirildi.

Xalqaro hamkorlik doirasida esa, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish bo'yicha UNDP, OSCE va boshqa tashkilotlar bilan qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Fuqarolik jamiyatining huquqiy salohiyatini oshirish" loyihasi doirasida 2021–2023 yillarda 150 dan ortiq NNT vakillari uchun xalqaro standartlar asosida o'quv kurslari tashkil etilgan.

Shu tarzda olib borilayotgan institutsional islohotlar O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari uchun barqaror, qonuniy va faol faoliyat yuritish imkonini beradigan makonni shakllantirmoqda. Bu islohotlarning o'ziga xosligi shundaki, ular davlatning faollashuvi bilan bir vaqtda fuqarolarning tashabbus ko'rsatish huquqi, erkinligi va javobgarligini ham ta'minlashga yo'naltirilgan. Dialektik nuqtai nazardan, bu islohotlar fuqarolik jamiyatining davlatga nisbatan mustaqilligini kuchaytirish bilan birga, davlatning fuqarolar manfaatini anglash va himoya qilish qobiliyatini oshiradi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur, bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar), ommaviy axborot vositalari (OAV), ta'lim muassasalari, mahalla institutlari va boshqa fuqarolik jamiyati subyektlarining roli ortib bormoqda. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida huquqiy ongni shakllantirish jarayoni markazlashmagan, ko'p qirrali va ijtimoiy sheriklikka asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilayotgani bilan ajralib turadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Huquqiy ongni yuksaltirish – bu davlat siyosatining strategik yo'nalishidir. Jamiyatda qonun ustuvor bo'lsa, adolat qaror topadi".

NNTlarning huquqiy ongni shakllantirishdagi o'rni, eng avvalo, aholining turli qatlamlari orasida huquqiy bilimlarni targ'ib qilish, huquqiy maslahatlar berish, ijtimoiy himoya bo'yicha loyihalar amalga oshirish orqali namoyon bo'lmoqda. Xususan, "Huquqiy yordam" kabi NNTlar tomonidan yildan-yilga ko'proq bepul yuridik maslahatlar, seminar-treninglar tashkil etilmoqda. 2022-yilda Adliya vazirligi huzuridagi NNTlarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan 120 ta ijtimoiy loyiha ichida 34 tasi huquqiy ong va madaniyatni oshirishga qaratilgan edi.

Shuningdek, fuqarolik ongini shakllantirishda OAV — ayniqsa, mustaqil va ijtimoiy mas'ul jurnalistikaning roli beqiyosdir. OAV nafaqat rasmiy axborotni yetkazadi, balki ijtimoiy muammolarni yoritish, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, sud-huquq islohotlarini targ'ib qilish orqali bevosita ta'sirchan omilga aylanmoqda. Jumladan, "Huquqiy axborot haftaliklari", "Adolat daqiqasi", "Ochiq sud majlislari sharhi", "Huquqiy bilimlar maktabi" singari tele va radio dasturlar aynan aholining huquqiy ongini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday dasturlar Adliya vazirligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, NNTlar va xalq ta'limi tizimi bilan hamkorlikda olib borilmoqda.

Ushbu maqolada tahlil qilinganidek, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy ongni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar murakkab va dialektik jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat siyosati, qonunchilik, ta'lim tizimi va fuqarolik institutlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va fuqarolarning mas'uliyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Islohotlar jarayonida jamiyatdagi transformatsiyalar ijtimoiy ongning o'sishi, fuqarolik qadriyatlarining mustahkamlanishi va huquqiy me'yorlarga rioya qilish madaniyatining rivojlanishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, institutsional yangilanishlar fuqarolik jamiyatini barqarorlashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash va davlat hamda fuqarolar o'rtasidagi ishonchni oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Xulosa qilib aytganda, institutsional islohotlar fuqarolik ongini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularning samarali amalga oshirilishi O'zbekistonning demokratik va huquqiy jamiyatga intilishida asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-iyundagi "Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish to'g'risida"gi PQ-5150-son qarori.
3. A'zamxo'jayev B., Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish — demokratik islohotlar asosi, T.: O'zbekiston, 2007, B. 117–119.

MAKON VA ZAMON

**Ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-sotsiologik,
ma'naviy-ma'rifiy jurnal**

2026/1

ISSN tartib raqami 3030–3974

“Makon va zamon” jurnali, 2026-yil 1-son // “Yangi O‘zbekiston islohotlari va tarix falsafasining dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T.: “TIQXMMI” MTU, 2026. – 176 bet.

Bosh muharrir – tahririyat rahbari:

Q.N.Nazarov – f.f.d., professor

Nashrga tayyorlovchilar:

M.Tursunova, M.Turdiyeva, Q.Kdirbayev

Tahririyat manzili:

Qori Niyoziy ko‘chasi, 39,

Toshkent shahri, 100000, O‘zbekiston

tiame.uz

Bichimi 60x84 Ofset qog‘ozi. “Times” garniturası.

Hajmi 20 b.t. Nashriyot hisob tabog‘i 30 b.t. Adadi 100 nusxa